

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**A.A. GULOVA**

**IJTIMOIV ISHDA BOLALAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH  
O'QUV QO'LLANMA**

**BUXORO-2022**

## A. Gulova. Ijtimoiy ishda bolalar huquqlarini himoya qilish. O'quv qo'llanma. –T: "Durdona nashr".

### 1-mavzu. Bola huquqlari: tushunchasi va mohiyati.

#### Reja:

1. Bolalikning xususiyatlari.
2. Bola huquqlari tushunchasi.
3. Bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari.
4. Bolaning mulkiy huquqlari.
5. Vasiylik yoki homiylik ostidagi bolalarning huquqlari.
6. Voyaga yetmaganlarning huquqlari va ularni ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarida himoya qilish.

#### Tayanch so'z va iboralar:

*Bola, bola huquqlari, balog'atga (voyaga) yetish yoshi, bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari, bolaning xususiy mulkka bo'lgan huquqi, meros sifatida olingan mulk.*

1. Bola — asosiy ma'nosi — bolalik davridagi inson. Bolalikning yosh chegaralari turli madaniyatlarda, hayotiy sikl nazariyalarida va huquqiy tizimlarda farq qiladi. Umuman olganda, bola deb tug'ilish paytidan boshlab to jinsiy balog'atga yetguncha bo'lgan davrdagi insonga aytiladi. Qiz — ayol jinsidagi bola; O'g'il — erkak jinsidagi bola.

Bola sog'lig'iga bag'ishlangan tibbiyot bo'limi pediatriya deb aytiladi.

Olimlar bola haqidagi ta'limot eramizdan oldingi IV asrda tibbiyot otasi Gippokratning "Bola tabiati haqida" nomli kitobi bilan boshlangan deb hisoblaydilar. Keyinchalik (I—II asrlar) bolalarni tarbiyalash va parvarishlash haqida Sels, Galen va Soranlar yozadilar. Keyingi 15 asr davomida amalda oldin Galen va Soran tomonidan bayon etilganlar takrorlandi. Lekin, ko'p bolalar o'limi, muhtojlarga yordam beruvchi tashkilotlarning paydo bo'lishi, shuningdek Yevropaning ayrim davlatlarida tashlandiq va boquvchisini yo'qotgan bolalar uchun tarbiya uylarining ochilishi XV-XVII asrlarda bolalar organizmining o'ziga xos xususiyatlariga qiziqish uyg'onishiga sababchi bo'ldi — bolalarni tarbiyalash va parvarishlashga bag'ishlangan ko'p sonli asarlar chop etildi<sup>[1]</sup>.

#### Bolalik davrlari

Bola — doimo o'suvchi va rivojlanuvchi organizm, har bir yosh bosqichida ma'lum morfologik, fiziologik va psixologik xususiyatlarni egallab boradi<sup>[1]</sup>. Postnatal (tug'ilgandan keyingi) davrda quyidagilar farqlanadi:

- *yangi tug'ilganlik davri* (hayotining birinchi to'rt haftasi (28 kun))
- *emadigan yosh* (hayotining 29-kunidan boshlab bir yilgacha)
- *yasli yoki maktabgacha yoshdan oldingi davr* (uch yilgacha)
- *maktab yoshigacha bo'lgan davr* (uch yildan yetti yilgacha)
- *kichik maktab yoshi* (yetti yoshdan o'n bir yoshgacha)
- *katta maktab yoshi* (o'n ikki yoshdan o'n yetti - o'n sakkiz yoshgacha)

#### Balog'atga (voyaga) yetish yoshi

Ko'pchilik davlatlarda balog'atga yetish yoshi 18 yoshdan boshlanadi.

- Balogʻatga yetishning eng kichik yoshi Farer orollarida oʻrnatilgan — 14 yosh.
- Kubada balogʻatga yetish 16 yoshda keladi.
- Oʻzbekistonda balogʻatga yetish yoshi — 18 yosh.

*Bola rivojlanishi* — goʻdakning ulgʻayishi jarayonida uning jismoniy va psixologik rivojlanishi bilan kechuvchi jarayon va mexanizmlarni oʻrganishga bagʻishlangan fan yoʻnalishi.

Oʻsmirlik (oʻspirinlik) davri

Bolaning jinsiy balogʻatga yetish yuz beradigan va organizm rivojlanishining yuqoriroq darajasiga oʻtish davri — balogʻatga yetish. Oʻsmir — yoshi bolalikdan oʻspirinlikga oʻtayotgan yigit yoki voyaga yetgan qiz. Hozirgi fan oʻsmirlik yoshini davlat (yashash mintaqasi) va madaniy-milliy xususiyatlarga, shuningdek jinsiga bogʻliq ravishda aniqlaydi (12-14 yoshdan 15-17 yoshgacha).

## **2. Bola huquqlari tushunchasi**

Bola huquqlarini yuqori darajada taʼminlash, shuningdek, ularni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish masalasi yurtimizda azaldan dolzarb vazifa sanalgan. Mustaqillik yillarida ham bu masalaga alohida eʼtibor berilmoqda. Shuning uchun ham, 2008-yil mamlakatimizda “Yoshlar yili”, 2010-yil “Barkamol avlod yili” deb eʼlon qilindi.

Inson huquqlari va erkinliklari - oliy qadriyat deb eʼlon qilingan bugungi kunda ham, bu huquqlar va erkinliklarning buzilish holatlari tez-tez uchrab turibdi. Dunyoning turli mintaqalari va alohida davlatlarda bu holat-lar qoʻpol va tizimli xususiyat kasb etmoqda. Bunga ushbu mintaq va davlatlarda boʻlayotgan qurolli mojarolar, ochlik, jinoyatchilik kabi turli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar sabab boʻlmoqda. Shu tufayli ham, inson huquqlari masalasi, XXI asrga kelib jahonning dolzarb muammo-siga aylanib ulgurdi va xalqaro hamjamiyaming barcha davlatlarini bunday muammoga qarshi birgalikda koʻrashishga majbur qilmoqda. Bu koʻrash inson huquqlarining buzilishiga qarshi va buzilgan huquqlarni tiklashga oid xalqaro huquqiy normalar va mexanizmlarni shakllantirish orqali amalga oshirilmoqda.

### **“Bola” tushunchasi**

Oʻzbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonunida ilk bor “Bola (bolalar)” tushunchasiga toʻliq taʼrif berilgan. Chunki, avval qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda “bola” yoki “bolalar” tushunchasi ishlatilganda, uning mazmuni ochib berilmagan. Aynan bolaga berilgan mazkur tarif dolzarb ahamiyatga ega. Sababi, ushbu Qonun hamda ularga taaluqli boshqa normative-huquqiy hujjarlar kimlarni himoya qilishga qaratilganligini aniq belgilab beradi.

Ushbu Qonunda bolalarga berilgan tarif BMTning Bolalar huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiyasining 1-moddasiga toʻliq, mos keladi va unga binoan, “bola - bu 18 yoshga toʻlmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan qoʻllaniladigan qonun boʻyicha u ertaroq balogatga yetmagan boʻlsa”<sup>1</sup>.

Bola huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiyaning 1-moddasida berilgan tarif

<sup>1</sup> <https://tergov.uz/uz/childs/konventsija-o-pravah-rebenka>.

“bolalik” qaysi paytdan, ya’ni bola tug’ilgan paytdan yoki undan avval boshlanishi haqidagi masalani ochib bermaydi, shuningdek, turli xalqlarga tegishli normalarning har xilligi sababli, istisnosiz hamma mamlakatlar uchun umumiy bo’lgan muammoning yechimini bermaydi.

Bola huquqlari to’g’risidagi konvensiya bolalikning yoki bola hayotining boshlanishini belgilash masalasini milliy qonunchilik extiyoriga qoldirgan.

Biroq, Konvensiyaning 1-moddasiga binoan, yuqori yosh chegarasini 18 yosh deb belgilangan. Shunday qilib, bu yosh chegarasi biron bir maqsad yoki faoliyat uchun aniq yosh belgilashi kerak bo’lgan vaqtda Konvensiyani ratifikatsiya qilgan mamlakatlarga asos hamda boshlangich nuqta bo’lib xizmat qiladi.

### **Bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari**

Balog’atga yetmaganlarning huquqlari ularning dunyoga kelishi bilan yuzaga keladi. Bular quyidagilar: yashash joyi bilan bog’liq turar joy daxlsizligi huquqi, yozishmalar, telefondagi muloqot, telegraf ma’lumotlarini yoki boshqa shakldagi xabarlariga taaluqli huquq - xat-xabarlarni sir tutish huquqi, Konstitutsiyaning 26-moddasida alohida ta’kidlangan bolaning qiynoqlardan himoya qilinishiga bo’lgan huquqi, bolalarni shahvoniy ekspluatatsiyaga jalb etilishiga doir masalalarga oid bolaning shahvoniy tajovuzlardan himoya qilinishi huquqi, balog’atga yetmagan shaxslar o’rtasida jinoyatchilikning oldini olishga tegishli bolaning jinoiy faoliyatga jalb qilishdan himoya qilinish huquqi, bolaning vasiylik va homiylik organlari, prokuror va sud tomonidan himoya qilinish huquqi, ism olish, ma’lum bir davlat fuqaroligiga mansub bo’lish, xususan, o’z ota-onasini bilish hamda ularning qo’llab-quvvatlashidan foydalanishiga oid bolaning individuallikka va uni saqlab qolishga bo’lgan huquqi va bolaning familiya, ism va otasining ismini olish huquqi. Bu huquqlar davlat tomonidan himoya qilinadi. Ularning buzilishiga sababchi bo’lgan shaxslarga nisbatan ma’muriy, jinoiy kabi javobgarlik shakllari qo’llaniladi.

### **Muhokama uchun savollar:**

1. *Bolaning mulkiy huquqlarini sanab bering.*
2. *Vasiylik yoki homiylik ostidagi bolalarning huquqlari nimalardan iborat?*
3. *Voyaga yetmaganlarning huquqlari va ularni ta’lim to’g’risidagi qonun hujjatlarida himoya qilish masalalari haqida ma’lumot bering.*

### **2-mavzu. Bola huquqlarini himoya qilish bo’yicha davlat siyosati.**

#### **Reja:**

1. Davlat siyosati tushunchasi.
2. Bola huquqlarining kafolatlari.
3. Davlat ijtimoiy standartlari.
4. Bolalari bo’lgan fuqarolar uchun davlat imtiyozlari.
5. Inson huquqlari bo’yicha milliy strategiyasi.

#### **Tayanch so’z va iboralar:**

*Davlat, davlat siyosati, Bolaning bilim olish huquqi kafolatlari, Bola manfaatlarini yaxshiroq ta’minlash, Bola huquqlarining kafolatlari.*

#### **1. Davlat siyosati tushunchasi.**

Davlat jamiyatning oliy siyosiy instituti bo'lib, shu jamiyat yashayotgan mamlakat fuqarolari manfaatini himoya qilish uchun o'rnatiladi. Davlat mamlakat chegaralarini himoya qiladi, boshqa mamlakatlar bilan aloqada bo'ladi, qonunchilik bilan shug'ullanadi va hokazo.

**Davlat** — mamlakat miqyosida jamiyatni uyushtirish masalalarini hal qilish, uning tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlari bo'lgan hukmron tuzilma. D. jamiyatni o'z qonun-qoidalariga ko'ra idora qiladi, turli tip, shakllarda tashkil topadi. D. to'g'risidagi nazariya huquqshunoslikning muhim sohasi hisoblanadi. D. va uning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari, mohiyat va vazifalari haqida turlicha fikrlar mavjud.

**Siyosat** (arab. سياسة (siyasa) - *ot tarbiyalash, ot boqish*) — davlatni boshqarish san'ati. Siyosat biror guruh, jamiyatni boshqarish jarayonidir. Ushbu jarayonda tegishli guruh vakillari ham qatnashishadi. Bu atama ostida ko'pincha hukumat faoliyati tushuniladi. Siyosat turli ijtimoiy-siyosiy institutlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqa va guruhlar o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq. Uning mohiyatini davlat hokimiyati shakllari, uni amalga oshirish va boshqarish tashkil etadi. Siyosat keng ma'noda jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy hayoti, davlat hokimiyati, uning ichki va tashqi faoliyati, siyosiy tashkilotlar va harakatlarning hokimiyatga munosabati, uni boshqarishda siyosiy manfaatlarni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlarini o'zida ifoda etadi. Shunga ko'ra adolatli va adolatsiz, xolis va noxolis, insonparvar yoki inson manfaatlariga zid siyosat, demokratik va avtoritar siyosat ko'rinishlarini boshqaruvda kuzatish mumkin.

Qadimda siyosatga jamiyat va shahardavlat (polis)ni boshqarish to'g'risidagi fan (Platon va Aristotel) sifatida karalgan bo'lsa, hozirgi vaqtda siyosat deganda davlatni boshqarishning vazifa va maksadlari hamda bu maksadlarni amalga oshirish uchun mavjud yoki zarur bo'ladigan ijtimoiy-siyosiy intlar, jamoat boshqarishdagi ishtiroki tushuniladi. Amaliy siyosat odamlarning sayovchi, deputat va vazir va sh.k. sifatida davlat hayotida faol ishtirok etishini anglatadi.

Siyosat o'z ta'sir etish ob'yektiga ko'ra 2 ga: ichki va tashqi siyosatga bo'linadi. Siyosat ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat hayoti sohalari: iqtisodiy, ijtimoiy, milliy, ilmiy-texnikaviy, ekologiya, madaniyat, harbiy va boshqa sohalarni qamrab oladi. Shu tarzda iqtisodiy siyosat, ijtimoiy siyosat, milliy siyosat, demografik siyosat, agrar siyosat, texnikaviy siyosat, ekologik siyosat, madaniy siyosat, kadrlar siyosati, harbiy siyosat va boshqa yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Siyosat sub'yektlari orqali ham ifodalanadi. Masalan, davlat siyosati, partiyalar va jamoat birlashmalari va harakatlari siyosati va h.k.

Siyosatni tushunishga turli xil yondoshuvlar bor. Ular teologik, tabiiy, sotsial, ratsional-tanqidiy yo'nalishlarda siyosatning tabiatini tushunish va tushuntirish bilan bog'liq qarashlardir. Mustabid Sovet davrida siyosatni ijtimoiy-sinfy nuqtai nazardan tushunish, uning ustuvor yo'nalishini belgilashsa muayyan ijtimoiy qatlam (proletariat) manfaatidan kelib chiqqan holda baholash odat bo'lgan. Bunday yondoshuv siyosatning mohiyatini noxolisona tushunishga olib keldi va inson siyosatning passiv ob'yektiga aylantirildi. Natijada inson siyosat bilan emas, balki siyosat inson bilan shug'ullana boshladi. Oxir oqibatda siyosat sinfiy manfaatlar asosida haddan tashqari mafko'ralashib ketdi. Siyosat demokratik, umuminsoniy

tamoyillardan ajratilib, milliy-ma'naviy xususiyatlarni hisobga olmaydigan holga keltirildi, asl mohiyatiga zid bo'lgan ma'no kasb etdi. Siyosat "boshqarish san'ati"ga emas, aksincha, zo'rlik, ta'qib etish vositasiga aylandi. Davlat boshqaruvida manfaatlar uyg'unligi buzildi. Siyosiy hayotda "davlat — jamiyat — inson" munosabati qaror topib, davlat manfaati jamiyat va inson manfaatidan ustun bo'lib qoldi.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston Respublikasining davlat siyosati yangicha ma'no va mazmun kasb eta boshladi. Bu siyosat, avvalo, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asoslanmoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlis siyosiy institutlar faoliyati orqali amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda demokratiyaning umuminsoniy prinsiplariga rioya qilinishi, "ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi"<sup>2</sup>. Bu hol bugungi O'zbekiston olib borayotgan siyosatning asosiy mohiyatini, uning insonparvar siyosat ekanligini belgilaydi.

Jumladan, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada e'tirof etilganidek, "ishtirokchi davlatlar ushbu Konvensiyada o'z ta'sir doirasida bo'lgan har bir bola uchun ko'zda tutilgan barcha huquqlarni hech qanday kamsitishlarsiz, irki, tanarang, jinsi, tilidini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi. Mulki ahvoli, bolaning sog'ligi va tug'lishi. Uning ota-onasi yoki qonuniy vasiysi yoki biror-bir boshqa holatlaridan qat'i nazar hurmat qiladilar hamda shu huquqlarni ta'minlab beradilar" (2 -modda).

Ishtirokchi davlatlar ularning yurisdiksiyasi va ma'suliyati doirasida bo'lgan bolalarga nisbatan va ularga nisbatan o'z vakolatlarini amalga oshira oladigan holda Konvensiyada e'tirof etilgan huquqlarni barcha bolalar, jumladan o'z davlatining fuqarolari hamda chet elliklar, kochoklar, boshpana izlayotganlar va fuqaroligi bo'lmagan bolalar uchun xam ta'minlab berishi shart.

Konvensiyaning eng asosiy tamoyillaridan biri –kamsitishga yo'l qo'ymaslik, biroq Konvensiyada kamsitishning tarifi berilmagan, lekin Konvensiya qoidalaridan kelib chiqqan holda va boshqa tegishli xalqaro normalarga tayangan holda taxmin qilish mumkinki, kamsitishga yo'l qo'ymaslik – bolaning irqi, tana rangi, jinsi, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy axvoli, sog'ligi yoki tug'ilishi yoki boshqa holatlardan qat'i nazar bolaga zarar etkazmasligini, imtiyozlar berilmasligini, jazo qo'llanilmasligini yoki muayyan huquqlardan mahrum bo'lmasligini bildiradi. Bu tamoyil qizlar va o'g'il bolalar, boy va qashshoqlar, shahar va qishloqda yashovchilar, ozchilikni tashkil etadigan millatga mansub bo'lganlar yoki maxalliy axoli vakillari Konvensiyada e'tirof etilgan asosiy huquqlardan bir xil tarzda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerakligini nazarda tutadi.

### **Bola manfaatlarini yaxshiroq ta'minlash**

O'zbekiston davlat siyosati bola huquqlarini himoya qilinishing eng asosiy tamoyilini, ya'ni bola manfaatlarini yaxshiroq, ta'minlash tamoyilini amalga oshirishga qaratilgan.

O'zbekistonda inson manfaatlarini himoya qilinadigan fuqarolik jamiyati

---

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/-20596>.

shakllanmoqda. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlari to'la quvvat bilan shakllanmoqda. Bularning hammasining tagida bir narsa - komil inson, mustaqillik g'oyalari sadoqatli, bu muqaddas an'analarni davom ettiradigan, har tomonlama barkamol yangi avlodni vujudga keltirish maqsadi yotadi.

Aytish mumkinki, o'tish davridek eng qiyin va murakkab bir vaziyatda faqat O'zbekistondagina ana shunday keng miqyosli, davlatning o'zi homiylik qiladigan siyosat vujudga keldi. Prezident iyuorasi bilan aytganda «sog'lom avlodni tarbiyalash barchaning, butun jamiyatning, shu yurtda yashaydigan har bir insonning asosiy ishi, insoniy burchidir». Bu jamiyat kelajagiga, mustaqillik istiqboliga bog'liq bo'lgan juda katta ijtimoiy, maonaviy va siyosiy hodisa. Biz bugun bolalar muammosiga xuddi ana shu nuqtai-nazardan yondoshmog'imiz lozim. Bolalar kafiyati orqali jamiyat maonaviy-ijtimoiy qiyofasini, davlat qudratini, mamlakat shaonini anglamog'imiz lozim.

Bolalarga g'amxo'rlik bu shunchaki voqelik emas. yilning "Onalar va bolalar yili" deb e'lon qilinishi navbatdagi tadbirbozlik, balandparvoz shiorbozlik ham emas. Bu jiddiy, millat taqdiriga daxldor juda katta ijtimoiy, ma'naviy-ahloqiy, siyosiy hodisa. Darhaqiqat "Onalar va bolalar yili" orqali biz, birinchidan, bugungi kunda yashab turib, olis istiqbolni ko'ra olishimiz kerak. Bolalarga munosabat orqali biz mamlakat va millat kelajagini, milliy istiqbol taqdirini hal etamiz.

Ikkinchidan, bolalarga muruvvat ko'rsatish orqali o'zimizning shaxs va inson sifatidagi fazilatlarimizni boyitamiz. Bolalar oldidagi majburiyatimizni chuqurroq anlaymiz. Millat va jamiyatga dahdorlik, uning oldidagi masouliyat hissini aniqroq tushunamiz.

Uchinchidan, bolaga munosabat maonaviy-mahrifiy hodisa. Bugun biz bolalarga munosabatimiz orqali onaning jamiyatdagi o'rni, hayotdagi qadr-qimmatini, oiladagi mo'otabar o'rnidan tashqari uni mehr-muruvvat, yaxshilik va ezigulik timsoli sifatida ham tushunamiz.

Tafakkurimizdagi ana shunday o'zgarishlar eng avvalo fuqaro ongida yangilanishlarning yuz berayotganidan insonning o'zini anglash va o'zini qadriyat darajasida tushunayotganidan dalolat beradi.

Bola muammosi jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa. Shuning uchun ham bosh islohotchilik vazifasini zimmasiga olgan davlat bu masalaga jiddiy qarayodi. O'zining islohotchilik faoliyatining muhim bo'g'ini deb biladi. Sog'lom avlodni etishtirish, farzandlarimiz durkun va baqquvvat bo'lib o'sishi uchun xizmat qiladigan "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonun ishlab chiqildi. Sog'liqni saqlash, ekologiya, jamoat tashkilotlari faoliyatini jonlantirish, jamiyatni erkinlashtirish borasidagi qonunlar tizimi vujudga keldi. Bularning barchasi bola sog'ligi orqali sog'lom va bunyodkor jamiyatni vujudga keltirish, davlat kuch-qudratini mustahkamlash imkonini beradi.

Bolalarga qadriyatli munosabat O'zbekistonda oila doirasidan chiqib umummilliy, umumdavlat ahamiyatiga ega bo'ldi. Jamiyatda qaror topayotgan sog'lom ruhiyat, ijtimoiy kayfiyat mazmunini kasb etmoqda. Ana shu ma'noda aytishimiz mumkinki, bola davlat va xalq manfaatini, ozod Vatan, erkin shaxs va milliy g'oyani o'zida mujassam etgan qadriyatga aylandi.

Prezident I.Karimov «XXI asrda qaysi davlat qudratli, qaysi xalq kuchli bo'ladi?»

degan savolni o'rtacha tashlaydi va u savolga o'zi javob beradi: «Aholisi intellektual nuqtai-nazardan barkamol, yoshlari bilimli, or-nomusli, Vatanparvar bo'lib unib-o'sayotgan davlat», - deydi. Ana shu ulkan maqsad mamlakatimizning yangi yuz yillik va yangi ming yillikdagi taqdirini o'zida mujassam etadi. SHuning uchun ham Prezident yurt otasi va davlat rahbari sifatida «Farzandlarimiz bizdan ko'ra aqlli, dono, bilimli va albatta, baxtdi bo'lishi shart», - deydi. Ana shu sof insonparvar va millat taqdiriga bog'liq bo'lgan g'oyalar oldimizga bir qator muhim vazifalarni qo'yadi.

Birinchidan, bolalarga maonaviy-ruhiy jihatdan madad berish umumjamiyat va umumdavlat miqyosidagi ulkan hodisa, har birimiz buning uchun masoul ekanligimizni anlamog'imiz shart.

Ikkinchidan, bolalarni ijtimoiy muhofaza qilish, ularning kundalik ehtiyojlarini to'la qondirib borish uchun masoullik hissini kuchaytirishni taqozo etadi.

Uchinchidan, maonaviy-mahrifiy imkoniyatlardan keng foydalanish, bolalarimizning dunyoqarashi va ongiga ijobiy taosir ko'rsatadigan adabiyotlardan foydalanish, ularni ko'paytirish.

To'rtinchidan, bolalar sog'ligiga tegishli bo'lgan muammolarni hal etishda faol ishtirok etish.

Beshinchidan, farzandlarimizning zamonaviy bilimlarni tez va chuqur egallashi, jahon ta'lim tizimidagi eng ilg'or tajribalardan keng foydalanishi uchun kerakli muhitni shakllantirish.

Albatta, bu muammolarni hal etish oson ish emas. biroq, bolalarga davlatning o'zi homiylik qilayotgan, g'amxo'rlik ko'rsatayotgan bir paytda davlat siyosatini hayotda joriy etishda faollik ko'rsatmog'imiz zarur. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'limi, Sog'liqni saqlash, Ijtimoiy va mehnat vazirliklari, Matbuot davlat ko'mitasi, Televidenie va radioeshittirish milliy kompaniyasi, Fanlar Akademiyasi amaldagi qonunlar va hukumat qarorlarini to'la-to'kis bajarish uchun bugun imkoniyatlarini ishga solmoqlari kerak.

Jamoat va nodavlat tashkilotlari, jumaladan, "Mahalla" xayriya jamg'armasi, "Sog'lom avlod uchun" xalqaro jamg'armasi, Xotin - qizlar qo'mitasi va boshqa tashkilotlar bu sohadagi faoliyatini jonlashtirishi, uning samaradorligini oshirish lozim.

### **Davlat ijtimoiy standartlari.**

Ijtimoiy standartlar - konstitutsiya bilan kafolatlangan fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini amalga oshirilishini va bu huquqlarni berish tartibini ta'minlaydigan davlat tomonidan belgilangan normalar va qoidalar.

Bozor munosabatlari jamiyatida davlat ijtimoiy siyosatning va ijtimoiy ishning asosiy sub'ekti sifatida ijtimoiy himoyaning asosiy funksiyasini o'z zimmasiga oladi. Asosiy ijtimoiy kafolatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan va ijtimoiy siyosatda o'z tasdig'ini topgan. O'zbekiston Respublikasi asosiy Qonunining 39-moddasi: "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab



qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas»<sup>3</sup>.

Hozirgi bosqichda davlatni ijtimoiy himoya qilish tizimida ikkita asosiy funktsiya mavjud: ijtimoiy to'lovlar va yolg'iz keksalar, nogironlar va boshqa shu kabi toifalarga, davlatning jamiyatning ijtimoiy himoyaga muhtoj a'zolariga bo'lgan g'amxo'rliqi va ijtimoiy xayriya tamoyili. Shu bilan birga, ijtimoiy kafolatlar tizimi orqali aholining barcha toifalarini ijtimoiy himoya qilish kerak.

Ijtimoiy kafolatlar - bu fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan qonunda nazarda tutilgan davlat majburiyatlari, uzoq muddatli harakat mexanizmi. Minimal ijtimoiy standartlar davlat ijtimoiy kafolatlarining asosiga aylanishi kerak.

Minimal ijtimoiy standartlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilanadi, ijtimoiy himoyaning minimal darajasini belgilaydigan, undan pastga tushish mumkin bo'lmagan normalar va standartlar, ya'ni ular aholining turli ijtimoiy-demografik guruhlarining hayotning afzalliklari va xizmatlariga bo'lgan eng muhim ehtiyojlarini aks ettiradi. Davlat minimal standartlari tizimi quyidagi yo'nalishlarda bir-biri bilan mushtarak bo'lgan davlat minimal ijtimoiy standartlaridan iborat:

- 1) ish haqi;
- 2) pensiya ta'minoti;
- 3) ta'lim;
- 4) sog'liqni saqlash;
- 5) madaniyat;
- 6) ijtimoiy xizmatlar;
- 7) uy-joy kommunal xizmatlari.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida davlat va mahalliy hokimiyat organlari uy-joy qurilishini rag'batlantirishi va uy-joy huquqidan foydalanish uchun sharoit yaratishi kerak.

Sog'liqni saqlash sohasida tibbiy yordam va tibbiy xizmatga bo'lgan ehtiyojni qondirishning minimal ruxsat etilgan darajasini baholash uchun shifokorlar, kasalxonalaridagi yotoqxonalar va poliklinikalar mavjudligining ko'rsatkichlari qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq sug'urta tibbiyotiga o'tish va aholiga pullik xizmatlarni kengaytirish sharoitida mamlakat fuqarolariga tegishli byudjet, sug'urta badallari hamda boshqa turdagi mablag'lar hisobidan davlat va shahar sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy yordam kafolatlanadi.

Ta'lim sohasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ta'lim muassasalarida maktabgacha, umumiy va o'rta kasb-hunar ta'limi umumiy va bepul bo'lishini kafolatlaydi. Shu bilan birga, asosiy umumiy ta'lim majburiydir.

Madaniyat sohasida - ommaviy kutubxonalar, kinoteatrlar, madaniyat uylari va boshqalarni rivojlantirish.

Mehnat va tevarak muhitni muhofazaga olish ish sharoitlarini va ish muhitini yaxshilashni nazarda tutadi, ya'ni ishchilarning jismoniy va kasbiy

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018. –B.

qobiliyatlariga, xavfsizlik sharoitlariga va sog'lom ish muhitiga eng mos keladigan sharoitlarni yaratishga yordam beradi.

Davlat minimal ijtimoiy standartlari, birinchi navbatda, aholining asosiy moddiy manfaatlar va ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan eng muhim ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish maqsadida belgilanadi; ikkinchidan, mamlakat hududida yagona ijtimoiy makon va uning sub'ektlari hududida turmush darajasining nisbiy darajasini ta'minlash.

Davlat ijtimoiy kafolatlarining maqsadi ularni ish bilan ta'minlash va ish haqi, shu jumladan xodim, tadbirkor va o'z-o'zini ish bilan band aholining huquqlarini himoya qilishni ta'minlash bilan ta'minlashdir. Nogiron aholi uchun davlatning minimal kafolatlari butun mamlakat bo'ylab minimal iste'mol standartlarining mavjud bo'lishini ta'minlash bo'yicha yagona siyosatni amalga oshirishni nazarda tutadi. Bunday siyosat uchta asosiy shakldan foydalaniladi:

- 1) Naqd to'lovlar - pensiyalar, stipendiyalar, nafaqalar va boshqalar;
- 2) soliq imtiyozlari;
- 3) Bepul yoki imtiyozli ijtimoiy xizmatlar

#### **Bolalari bo'lgan fuqarolar uchun davlat imtiyozlari.**

Ko'pgina mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham bolalari bo'lgan fuqarolar uchun davlat imtiyozlari mavjud. Ularga quyidagilarni misol qilish mumkin:

- tug'ruq uchun nafaqa (suyunchi puli);
- homiladorlik ta'tili uchun (dekret) to'lov;
- bola ikki yoshga to'lgunga qadar to'lanadigan nafaqa.
- uch yoki undan ortiq farzandi bo'lgan moddiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyojmand bo'lgan oilalarga beriladigan nafaqa;

Bolalarning to'la sog'lom rivojlanishi uchun, birinchi urinda yosh bolali ayollarning huquqlarini xam ta'minlab berilishi kerak. Jumladan, mexnat Qonunchiligiga ko'ra, homilador ayollarni, bolasi uch yoshga etmagan ayollarni tungi ishlarga jalb qilishga, ish vaktidan tashqari ishlashga, dam olish kunlarida ishlatishga va xizmat safarlariga yuborishga yul kuyilmaydi.

Homilador ayollarni yengilroq, ishga ko'chirish, bu imtiyoz homilador ayolni va kutilayotgan go'dakning salomatligini muhofazaga olishga yo'naltirilgan.

Shuningdek, onasiz qolgan bolalarni tarbiyalovchi shaxslarga imtiyozlar va kafolatlar berilishi, ularning sog'lom bo'lib o'sishi, tarbiyalanishi va yaxshi sharoitda yashashning kafolatidir.

Ayollarga yuqorida aytib o'tilgan huquq va erkinliklarning har qanday buzilishlaridan himoya qilishda jinoyat kodeksining huquqiy roli katta.

Jumladan, JK 148-moddasi "Ayolni homiladorligi yoki yosh bolani parvarish qilayotganligini bila turib, uni ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo'shatish"<sup>4</sup>, shuningdek JK 136-moddasi "Ayolni erga tegishga yoki nikohda yashashni davom ettirishga majbur qilish yoxud ayolning erkiga xilof ravishda u bilan nikohda bo'lish uchun o'g'rilash, shuningdek, ayolning erga tegishiga to'skinlik qilish"<sup>5</sup> kabi holatlar uchun jazo belgilanishi.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi kodekslari. T.: "Adolat". 2014. – B. 57.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi kodekslari. T.: "Adolat". 2014. – B. 55.

O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunda esa ayollar mehnat sharoitidagi alohida imtiyoz va kafolatlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Sog'likni saqlash to'g'risida"gi Qonunning V-bo'limi "Onalik va bolalikni muhofaza qilish" deb nomlanib, unda onalikni rag'batlantirish, onalar va bolalar sog'ligini saqlash kafolatlari: homilador ayollarga va yangi tug'ilgan chaqaloqlarga sog'ligini mustahkamlashga qaratilgan yordamni amalga oshirishni ta'minlash; voyaga yetmaganlar sog'ligini mustahkamlash hamda saqlash haqidagi g'amxo'rlik; bolani moddiy va ma'naviy jihatdan ta'minlashda shaxslarga davlat ko'magi; bolaning sog'ligida muammo bo'lganda onalarga beriladigan imtiyozlar (61-modda); usmirlarning mehnat va ishlab chikarish ta'limini hamda mehnat sharoitlarini nazorat qilish (62-modda); usmirlarni majburiy ravishda tibbiy kurikdan o'tkazish (63-modda); kabi masalalar uz ifodasini topgan.

Bola huquqlariga oid maxsus Qonunchilik to'g'risida gapirilganda quyidagi hujjatlarni alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir:

O'zbekiston Respublikasining 1991 yildagi O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida<sup>6</sup>; 2008 yildagi "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonun<sup>7</sup>larni alohida ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonun O'zbekiston ko'shilgan "Bola huquqlari konvensiyasi"ni milliy Qonunchilikka to'liq implementatsiyasidir. Ushbu normativ-huquqiy hujjatda sog'likni saqlash, ta'lim, ijtimoiy ta'minot va har tomonlama rivojlantirish yo'nalishlarida bola huquqlarining kafolatlari mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu Qonunda ijtimoiy zaif bolalar va alohida ehtiyojlarga muhtoj bolalarning huquqlari alohida e'tibor qaratilgan.

Bola huquqlarini tizimli ta'minlab berilishi xam Qonunchilik darajasida, xam institutsional darajada amalga oshirilmokda. Tizimli yondashuv xam davlat organlari va muasasalari, ham nodavlat tashkilotlar va jamgarmalar tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar kompleksini o'z ichiga olgan milliy dasturlarni qabul qilish va amalga oshirishdan iboratdir. Bola huquqlarini ta'minlab berish bo'yicha nodavlat tashkilotlarning o'sishi va faollashuvi kuzatilmokda. Ayni paytda yurtimizda ko'plab bola huquqlarini to'laqonli ta'minlash hamda har tomonlama muhofaza qilishning turli yo'nalishlariga ixtisoslashgan nodavlat tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Ularga quyidagilarni misol sifatida aytish mumkin: Yosh avlod vakillari tashabbuslarini, ularning siyosiy va boshqaruvchilik faolligini har tomonlama qo'llab-quvvatlovchi O'zbekiston yoshlari harakati bo'lmish - "Yoshlar ittifoqi"; Yetim bolalar, ota-onalari qaramog'idan qolgan bolalar, nogiron-bolalar, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlarini qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashgan jamgarma - "Sen yolgiz emassan"; Voyaga yetmaganlarning bevosita ishtiroki bilan ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga ko'maklashuvchi jamgarma (Bolalar parlamenta) - O'zbekiston Bolalar jamgarmasi; Sog'lomlashtirishga doir dasturlarni amaliyotga joriy etish hamda sog'lom hayot tarzini targ'ibot qiluvchi jamgarma - "Sog'lom avlod uchun"; Iste'dodli bolalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan turli loyixalarni hayotga tadbiq etish bo'yicha jamg'arma - "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi jamgarmasi".

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'ligini muhofaza qilish to'g'risida"gi

<sup>6</sup> <https://lex.uz/docs/-3026246>

<sup>7</sup> <https://lex.uz/acts/-1297315>

Qonunida balog'atga yetmaganlarning malakaviy tibbiy ko'rikka bo'lgan huquqlarini hayotga tadbiiq etishning muayyan mexanizmi mustahkamlab qo'yilgan. Davlat sog'liqni saqlash tizimi xizmatlaridan foydalanish va bolalar sog'ligini tiklash uchun imkoniyatlar yaratib beradi. Respublika reproduktiv salomatlik Markazi hamda O'smirlar reproduktiv salomatligi markazi, xususan, ularning viloyatlardagi bo'limlari ishlab turibdi. Yurtimizdagi voyaga yetmagan shaxslarni tibbiy dispanserizatsiyalash muntazam ravishda har yili amalga oshirilmoqda. Shuning hisobiga 90 yillardan buyon bolalar o'limining kamayishi qayd etilmoqda.

### **Inson huquqlari bo'yicha milliy strategiya.**

Mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash masalasi xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishga qaratilgan demokratik islohotlarning bosh mezoniga aylanib bormoqda.

Inson huquqlariga doir xalqaro standartlar milliy qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga tizimli hamda bosqichma-bosqich implementatsiya qilinmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan 80 dan ortiq inson huquqlari va erkinliklariga oid normativ-huquqiy hujjatlar normalari milliy qonunchilikda o'z aksini topmoqda.

Hayotga tadbiiq etilayotgan uzoqni o'ylab qilinayotgan islohotlar insonlar hayotini, dunyoqarashini hamda turmush tarzini o'zgartirmoqda. Jamiyatda "Yangi O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz" degan ulug'vor maqsad shakllandi va "Jamiyat — islohotlar tashabbuskori" degan yangi g'oya kundalik faoliyatimizga faol kirib bormoqda.

### **Inson huquqlari sohasida taraqqiyot**

Inson huquq va erkinliklarini to'laqonli amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq va Virtual qabulxonalari, shuningdek, Bosh vazirning Tadbirkorlar murojaatlariga javob berish bo'yicha qabulxonalari alohida o'rin egallamoqda.

Sud-huquq sohasini yanada demokratlashtirish, Konstitutsiya ustuvorligi, qonun oldida tenglik, insonparvarlik, adolatlilik, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, sud jarayonida tortishuv tamoyillarini tatbiiq etish, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, "Xabeas korpus" institutini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmui qabul qilindi.

Inson huquq va erkinliklarini to'laqonli ta'minlashda, nizolarni sudgacha hal qilishda va taraflarni yarashtirishda advokatlarning vakolatlari sezilarli darajada kengaytirilmoqda.

Sudlarda ishlarni ko'rib chiqishda adolatni, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash uchun "Elektron odil sudlov" tizimi joriy etildi. Aholiga bepul yuridik yordam ko'rsatish tizimi, shuningdek, Advice.uz huquqiy ma'lumotlar tizimining imkoniyatlarini kengaytirish hamda fuqarolarga bepul huquqiy maslahatlar xizmatini ko'rsatuvchi "Madad" nodavlat notijorat tashkilotini yanada rivojlantirishga oid chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Ma'muriy, jinoiy, jinoyat-protsessual va jinoyat-ijroiya qonunchiligi takomillashtirib borilmoqda hamda insonparvarlik tamoyiliga yanada moslashtirilmoqda. Afv etish va jamoat birlashmalarining kafilligi ostida shaxslarni

jazodan ozod qilishning mutlaqo yangi tizimi joriy etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Jasliq qo‘rg‘onida joylashgan ixtisoslashtirilgan jazoni ijro etish koloniyasining yopilishi muhim insonparvar voqelik bo‘ldi. Qabul qilinayotgan chora-tadbirlar natijasida ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan mahkumlarning soni 2,5 baravar kamaydi.

O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining (keyingi o‘rinlarda — BMT) Inson huquqlari ta‘limi sohasidagi butunjahon dasturida faol ishtirok etmoqda. “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi” va BMTning Inson huquqlari sohasida ta‘lim va tarbiya to‘g‘risidagi deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirish bo‘yicha Milliy harakat dasturining ijrosi yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, ta‘lim muassasalari aholi orasida umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, insonga tegishli bo‘lgan huquqlarni hurmat qilish hamda rioya qilish tamoyillarini ommalashtirishga, shuningdek, fuqarolarning huquqiy axborotdan foydalanishini ta‘minlash jarayoniga keng jalb etilgan.

Fuqarolarning siyosiy huquqlari va erkinliklari, fikr, so‘z va vijdon erkinligini ta‘minlashda jamiyat va davlat boshqaruvidagi keng qamrovli tub o‘zgarishlar katta ahamiyatga ega. Parlament va jamoatchilik nazoratining samarali mexanizmlari mustahkamlanmoqda. Vazirlar Mahkamasining parlament oldidagi mas‘uliyati sezilarli darajada kuchaytirildi. “Elektron parlament” va “Elektron hukumat” tizimi rivojlantirilmoqda, davlat xizmatlarining turlarini kengaytirish, ularning imkoniyatlari, sifati va tezkorligini oshirishga doir ishlar amalga oshirilmoqda.

Parlament, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, “Xalq qonunlarning tom ma‘noda yagona manbai va muallifi hisoblanadi” hamda “Barcha muhim qarorlar bevosita xalq bilan muloqot asosida, jamoatchilikning fikrini hisobga olgan holda qabul qilinadi” tamoyillarini amalga oshirish bo‘yicha bir qancha ishlar amaliyotga tadbiiq qilinmoqda.

Oliy Majlis palatalari tomonidan inson huquqlarining holati to‘g‘risidagi ma‘ruzalar, inson huquqlarini ta‘minlashda xalqaro va mintaqaviy mexanizmlar bilan hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha milliy harakat rejaları (“yo‘l haritalari”)ni tasdiqlash amaliyotining yo‘lga qo‘yilishi qonun ijodkorligida yangi muhim qadam bo‘ldi.

O‘zbekistonda inson huquqlariga rioya qilish va uni himoya qilishning milliy mexanizmlarini yanada mustahkamlash va rivojlantirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Fuqarolarning ijtimoiy va madaniy huquqlarini ta‘minlashning noyob tizimi yaratildi. “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Yoshlar — kelajagimiz”, “Besh tashabbus” kabi 20 dan ortiq davlat ijtimoiy dasturlari va konsepsiyalari amalga oshirilmoqda. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida milliy maqsadlarni ro‘yobga chiqarish, inson taraqqiyoti bo‘yicha yuqori indeksga ega bo‘lgan (intellektual salohiyati, savodxonligi, insonning o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi) davlatlar darajasiga erishishga, ijtimoiy sohaga innovatsiyalarni keng joriy etishni ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar qabul qilinmoqda.

Ta‘lim va tarbiya sohasida keng ko‘lamli tub o‘zgarishlar amalga

oshirilmoqda. 2025-yilga borib, 3 — 7 yoshdagi bolalarning 74,5 foizini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni nazarda tutuvchi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi hayotga joriy etilmoqda. 11 yillik maktab ta'limi tizimi qayta tiklandi. Bugungi kunda davlat, nodavlat va xorijiy oliy o'quv yurtlarining soni ortib bormoqda.

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotidagi nufuzi oshirilmoqda hamda xalqaro darajada "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" tamoyili asosida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar natijasida aholining sifatli tibbiy-sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyati oshdi. Eng asosiysi, mamlakatdagi o'rtacha umr ko'rish darajasi 1990-yildagi 67,2 yoshdan 2020-yilga kelib 74,6 yoshga yetdi, onalar o'limi bir yarim baravar hamda bolalar o'limi esa, to'rt baravarga kamaydi.

O'zbekiston iqlim o'zgarishlari bo'yicha Parij bitimiga qo'shildi, mamlakatda Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi amalga oshirilmoqda.

Kam ta'minlangan oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, mehnat migrantlari, bolalar, yoshlar, ayollar, katta yoshdagi shaxslarga oid huquqlar hamda qonuniy manfaatlarini mahfaza qilish, shuningdek, oila institutini mustahkamlash bo'yicha ishlar tubdan qayta ko'rib chiqildi. Oila institutini mustahkamlash bo'yicha konsepsiya qabul qilinib, uning mazmunida oilaviy mojarolarni hal etish mexanizmlari, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish masalalari o'rin oldi.

Gender tenglikni ta'minlash maqsadida bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Xususan, 2019-yilda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"<sup>8</sup>gi, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"<sup>9</sup>gi qonun<sup>9</sup>lar shular jumlasidan. Xotin-qizlar uchun 197 ta Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish, o'z joniga qasd qilishning oldini olish markazlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha 200 dan ortiq innovatsion maktablar tashkil etildi. Erkaklar va ayollar uchun nikoh tuzishning minimal yoshi o'n sakkiz yosh etib belgilandi.

Xalqaro saylovga doir amaliyotni hayotga tadbiq etish uchun O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi<sup>10</sup> qabul qilinib, uning asosida 2019-yil 22-dekabrda "Yangi O'zbekiston — yangi saylovlar" shiori ostida bo'lib o'tgan saylovlarda ilk bor 5 ta siyosiy partiya ishtirok etdi. Saylovlarning ochiq-oydin, xalqaro standartlar asosida o'tkazilishini nazorat qilish uchun 50 ga yaqin davlat hamda 10 ta xalqaro tashkilotdan 825 nafar kuzatuvchi, jumladan, birinchi marta Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosining to'laqonli missiyasi ishtirok etdi.

Mamlakatda uzoq vaqtdan beri yashab kelib, O'zbekiston fuqarosi degan huquqiy maqomga ega bo'lmagan 50 mingga yaqin yurtdoshlarimizning ana shu muammosi hal etilib, ularni O'zbekiston fuqarolari sifatida tan olishning qonuniy choralari ko'rildi. Propiska qilish tizimidan xabar berish xususiyatidagi ro'yxatdan

<sup>8</sup> Qarang: <https://lex.uz/docs/-4494849>.

<sup>9</sup> <https://lex.uz/docs/-4494709>.

<sup>10</sup> <https://lex.uz/docs/-4386848>.

o‘tkazish tizimiga o‘tish bo‘yicha ishlar amalga oshirildi.

Barcha iqtisodiy va ijtimoiy dasturlar, ishlab chiqarishni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilinayotgan investitsion loyihalar yangi ish o‘rinlarini yaratish, shuningdek, mehnat migrantlarining huquqlarini muhofazaga olishga qaratilgan. Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi<sup>11</sup>, Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg‘armasi<sup>12</sup> tashkil etildi.

“Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan tamoyil asosida xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash bo‘yicha olib borilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni davom ettirish, aholi farovonligini oshirish va uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish davlat hokimiyati organlarining bosh vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

O‘zbekistonda vijdon erkinligi huquqini ta‘minlash sohasida olamshumul ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda mamlakatda 16 ta konfessiyaning 2 277 ta diniy tashkilotlari o‘z faoliyatini olib bormoqda. “Jaholatga qarshi ma‘rifat” g‘oyasini amalga oshirishga, diniy ta‘lim va ma‘rifat tizimini rivojlantirishga, diniy xodimlar tayyorlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston xalqaro huquq sub‘yekti sifatida o‘z rivojlanishining yangi bosqichiga ko‘tarilmoqda va xalqaro norma ijodkorligining faol ishtirokchisi va yangi xalqaro shartnomalarning tashabbuskori sifatida maydonga chiqmoqda.

Iqtisodiy, siyosiy-huquqiy reytinglar va indekslardagi pozitsiyani yaxshilash, mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshirish maqsadida xorijiy reyting agentliklari bilan tizimli ravishda yaqindan hamkorlik aloqalari amalga oshirilmoqda. Ustuvor xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashni muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi tashkil etildi.

BMT Bosh Assambleyasining 73-sessiyasida O‘zbekistonning tashabbusi bilan “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” to‘g‘risidagi rezolyutsiya qabul qilindi. O‘zbekiston BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi.

BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalari, inson huquqlari bo‘yicha maxsus ma‘ruzachilar instituti bilan hamkorlik izchil ravishda rivojlanib bormoqda. Jumladan, mamlakatimizga tashrif buyurgan BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari<sup>13</sup>, Inson huquqlari bo‘yicha kengashi<sup>14</sup>ning Din va e‘tiqod erkinligi hamda Sudyalar va advokatlarning mustaqilligi masalalari bo‘yicha maxsus ma‘ruzachilarining tavsiyalarini bajarish yuzasidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonning Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalari doirasida xalqaro majburiyatlarini, shuningdek, ushbu tashkilot tomonidan taqdim etilgan paxta yig‘im-terim kompaniyasi monitoringi yakunlari bo‘yicha tavsiyalarni bajarishi, shu jumladan, 2017 - 2020-yillarda O‘zbekistonda munosib mehnat bo‘yicha dasturning amalga oshirilishi xalqaro hamkorlar tomonidan ijobiy baholandi.

<sup>11</sup> Qarang: <https://lex.uz/docs/-4358964>

<sup>12</sup> Qarang: <https://lex.uz/acts/-3903307>

<sup>13</sup> <https://proacademy.uz/uz-lat/news/view?alias=438>

<sup>14</sup> <https://pravacheloveka.uz/oz/news/ozbekiston>

BMT tashkil etilganidan buyon Osiyo mintaqasida birinchi marta tashkil etilgan Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi Samarqand shahrida bo'lib o'tdi. Ushbu Forumda BMT Bosh Assambleyasi 73-sessiyasining asosiy hujjatlaridan biri sifatida tasdiqlangan Inson huquqlari bo'yicha Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi. O'zbekiston parlamenti inson huquqlarining "Samarqand ruhi"ni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l haritasi"ni tasdiqladi.

2019-yilda Toshkent shahrida Islom hamkorlik tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Mustaqil doimiy komissiyasining VI yillik seminari o'tkazildi va uning natijalari bo'yicha Yoshlar huquqlari to'g'risidagi Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi.

#### **Muhokama uchun savollar:**

1. Bola huquqlarini o'rganishning zarurligi qanday omillar bilan xarakterlanadi?
2. Davlat ijtimoiy standartlari nima?
3. Bolalari bo'lgan fuqarolar uchun davlat imtiyozlari haqida nimalarni bilasiz?

### **3-mavzu. Milliy qonunchilikda bola huquqlari kafolatlari.**

#### **Reja:**

1. «Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
2. Bolalarni ularning sog'ligiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
3. Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.
4. Ota-onalik huquq va majburiyatlarining xususiyatlari.
5. Bolalarga nisbatan davlat siyosatini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari: bolalarni himoya qilish, nogironlikka ega bolalarning ijtimoiy va huquqiy kafolatlari, ta'lim, yoshlar va bolalar jamoat birlashmalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, voyaga yetmaganlarning mehnat huquqlarini himoya qilish, oilaviy munosabatlardagi bolalar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, voyaga yetmaganlarni jinoiy tajovuzlardan himoya qilishni kuchaytirish.

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

*Bolalarning sog'lig'i, bolalar sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborot, axborot mahsuloti, axborot mahsulotining aylanishi, axborot mahsulotining yoshga oid tasnifi, axborot mahsulotining yoshga oid toifasi belgisi.*

### **Bolalarni ularning sog'ligiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni.**

Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun 6 ta bob va 27 ta moddadan iborat.

Mazkur qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2017 yil 15 avgustda qabul qilinib, Senat tomonidan 2017 yil 24 avgustda ma'qullangan.

"Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunning dastlabki moddasida "Ushbu Qonunning maqsadi bolalarni



ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat”<sup>15</sup> deya qayd etilgan.

Qonunning 4-moddasida asosiy tushunchalar keltirilgan bo‘lib, ularning ayrimlari quyidagicha:

**bolalar** - o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan (voyaga yetmagan) shaxslar;

**bolalarning sog‘lig‘i** - bolalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan sog‘lomlik holati;

**bolalar sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborot** - bolalar o‘rtasida tarqatilishi ushbu Qonunga muvofiq taqiqlangan yoki cheklangan axborot mahsuloti<sup>16</sup>.

Umuman olganda ushbu qonunda bolalarning sog‘lig‘iga axborot orqali yetishi mumkin bo‘lgan zararlarning oldini olish maqsad qilingan. Shuningdek, bolalar ongiga g‘ayriqonuniy axborot-ruhiy ta‘sir ko‘rsatilishining, ularga hiyla ishlatilishining, bolalarni g‘ayriijtimoiy harakatlarga undovchi axborot mahsuloti tarqatilishining oldini olish, ushbu sohadagi huquqbuzarliklarni profilaktika qilish nazarda tutiladi.

Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni amalga oshiruvchi organlar va tashkilotlar tizimiga Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi va voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) idoralararo komissiyalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ta‘lim muassasalari, davlat sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organlari.

Shuningdek, O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi ushbu masalada maxsus vakolatli davlat organidir<sup>17</sup>.

Bundan tashqari, Ommaviy axborot vositalari bolalarning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotlar haqida materiallar tayyorlash hamda aholining axborotga oid madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni yoritishi qonunda ko‘rsatilgan.

Qonunning 3-bobi 16-moddasida Bolalarning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotni tasniflash hamda axborot mahsulotining yoshga oid tasnifi keltirilgan.

Shuningdek, 17-moddada Axborot mahsulotining yoshga oid tasnifi keltirilgan bo‘lib, yetti yoshda bo‘lmagan voyaga yetmaganlar uchun «0+», yetti yoshga to‘lgan bolalar uchun «7+», o‘n ikki yoshga to‘lgan bolalar uchun «12+», o‘n olti yoshga to‘lgan bolalar uchun «16+», bolalar uchun taqiqlangan axborot mahsuloti «18+» yozuvini aks ettirishi zarur.

Qonunning 5-bobida Axborot mahsulotining ekspertizasi va uning huquqiy oqibatlari keltirilgan. Shuningdek, 23-moddada Nizolarni hal etish tartibi, 24-moddada mazkur qonun normalarini buzganlik uchun javobgarlik o‘z aksini topgan.

Ushbu Qonunning oxirgi 27-moddasida mazkur Qonun rasman e‘lon qilingan kundan e‘tiboran olti oy muddat o‘tgach kuchga kirishi ko‘rsatilgan.

Qonun 6 bob, 27 moddani o‘z ichiga olgan bo‘lib, unda umumiy qoidalar, Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi hamda ushbu faoliyatda ishtirok etuvchi organlar va

<sup>15</sup> <https://lex.uz/docs/-3333797>

<sup>16</sup> <https://lex.uz/docs/-3333797>

<sup>17</sup> <https://lex.uz/docs/-3333797>

tashkilotlar, Bolalarning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotni tasniflash hamda axborot mahsulotining yoshga oid tasnifi, Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish ta'minlanishini inobatga olgan holda axborot mahsulotining aylanishiga qo'yiladigan talablar va yakunlovchi qoidalardan iborat. Ushbu Qonunning asosiy maqsadi bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Shu bilan birga, Qonunda axborot mahsuloti, axborot mahsulotining aylanishi, axborot mahsulotining yoshga oid tasnifi, axborot mahsulotining yoshga oid toifasi belgisi, bolalar, bolalarning sog'lig'i, bolalar sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborot va ekspert kabi tushunchalarga to'xtalib o'tilgan. Qonunga ko'ra, bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish borasidagi davlat siyosatining muhim yo'nalishlari quyidagilarni tashkil qiladi: bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni ta'minlovchi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va texnikaviy shart-sharoitlar yaratish, shuningdek ushbu sohadagi ilmiy va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish; bolalar ongiga g'ayriqonuniy axborot-ruhiy ta'sir ko'rsatilishining, ularga hiyla ishlatilishining, bolalarni g'ayriijtimoiy harakatlarga undovchi axborot mahsuloti tarqatilishining oldini olish, shuningdek ushbu sohadagi huquqbuzarliklarni profilaktika qilish; fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari<sup>18</sup>ning, nodavlat notijorat tashkilotlarining, fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining, jismoniy va yuridik shaxslarning bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi faoliyatini qo'llab-quvvatlash; bolalarning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotni tasniflash mezonlari, mexanizmlari va uslublarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish, bolalarning axborot xavfsizligini ta'minlashning dasturiy-apparat va texnika vositalarini joriy etish. Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi vakolatli organlarga Vazirlar Mahkamasi, Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi, Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi va voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) idoralararo komissiyalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari, davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari kiradi<sup>19</sup>.

**Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori<sup>20</sup>.**

Ushbu qaror orqali voyaga yetmaganlar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini muhofaza etishning jahonda umume'tirof etilgan talablarga muvofiq ta'sirchan tizimini yaratish nazarda tutilgan.

Xususan, qarorda Bola huquqlari bo'yicha vakil hamda uning huzurida tashkil etiladigan Bola huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan jamoatchilik

<sup>18</sup> <http://hudud24.uz/fuqarolar-oz-ozini-boshqarish-organlari-vakolatlari>.

<sup>19</sup> <https://lex.uz/docs/-3333797>

<sup>20</sup> <https://lex.uz/docs/-4831107>

kengashining huquqlari, majburiyatlari hamda vazifalari belgilab berilgan.

Qarorga muvofiq, endilikda Bola huquqlari bo'yicha vakil o'z vakolati doirasida bola huquqlari va erkinliklari xalqaro standartlarini qonun hujjatlariga tatbiq etishda ishtirok etadi. Davlat organlari va boshqa tashkilotlarning faoliyatida bola huquqlariga rioya etilishini monitoring qilib boradi. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar, xususan ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan bolalar tarbiya muassasalarini tugatganidan so'ng ularning ijtimoiy moslashuviga javobgarlardan sanaladi.

Bundan tashqari tarbiya muassasalarini tamomlagan uy-joyga muhtoj yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning maqsadli kommunal uy-joy fondidagi belgilangan sanitariya va texnik me'yorlarga hamda qonun hujjatlarining boshqa talablariga javob beradigan turar joy bilan ta'minlanishiga ko'maklashadi<sup>21</sup>.

Shu bilan birgalikda daxlsizlik huquqiga ega bo'lgan Bola huquqlari bo'yicha vakil o'ziga tegishli xizmat vakolatlarini hech kimga tobe bo'lmagan holda amalga oshiradi. U jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoga tortilishi uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining roziligi kerak. Mazkur qaror bilan 2020 yil 1 noyabrga qadar Bola huquqlari bo'yicha vakilga voyaga yetmaganlar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish sohasidagi holatni tanqidiy o'rganish asosida mavjud muammolarni hal etish va sohani takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish vazifasi ham qo'yilgan.

#### **Ota-onalik huquq va majburiyatlarining xususiyatlari.**

**Ota-onalarning huquq va majburiyatlari** - oila huquqi sohasi. Avvalo, ota-onalar o'z farzandlariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga ega hisoblanadilar. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida nazarda tutilgan xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqli<sup>22</sup>gidan kelib chiqadi. Bola haqida g'amxo'rlik qilish, unga ta'lim-tarbiya berish ota-ona uchun faqat axloqiy qoida bo'lib qolmay, balki konstitutsiyaviy huquq va burchdan ham iborat.

Ota-onalarning huquq va majburiyatlari 2 turga bo'linadi: shaxsiy huquq va majburiyatlar; mulkiy huquq va majburiyatlar. O'zbekiston Respublikasi oila qonuniga ko'ra, ota-onalarning huquq va majburiyatlariga o'z farzandlari bilan birga yashash, ularning tarbiyasi bilan shug'ullanish, ota-onalik huquqlarini mustaqil ravishda amalga oshirish, farzandlarining salomatligi, jismoniy-ruhiy, ma'naviy-axloqiy rivoji to'g'risida qayg'urish, ularning normativ-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan yetarli darajada bilim egallashini ta'minlash, farzandlari voyaga yetgunga qadar ulagning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish kabilar kiradi. Oilaviy huquqiy munosabatlarda qonunchilik bolalar manfaatining ustuvorligini belgilaydi. Agarda ota-ona va farzandlar orasida nizolar kelib chiqsa, vasiylik va homiylik organi bolalarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish maqsadida vakil tayinlaydi.

#### **Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar O'zbekiston**

<sup>21</sup> <https://lex.uz/docs/-4302023>

<sup>22</sup> <https://lex.uz/docs/-20596>.

**Respublikasining Oila kodeksi<sup>23</sup> IV bo‘limi bilan tartibga solinib, XI-XIII boblarni o‘z ichiga oladi. Mazkur kodeksning XIII bobida esa ota-ona hamda farzandlar o‘rtasidagi mulkiy huquq va majburiyatlari huquqiy tartibga solingan.**

O‘zbekiston xalqaro hamjamiyatning to‘la huquqli sub’ekti bo‘lib, jamiyatning ijtimoiy-huquqiy himoyaga muhtoj qatlami bo‘lmish bolalar huquqlarini himoya qilish maqsadida Inson huquqlari umum-jahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya va boshqa umume’tirof etilgan xalqaro shartnomalarni tan oldi, ularga amal qilib kelmoqda.

Jumladan, 2008 yilning 7 yanvarida «Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun voyaga yetmaganlarning yashash huquqi, individuallikka hamda uni saqlab qolishga bo‘lgan huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqini himoya qilishni, umuman, bolalarning hayoti, emin-erkin o‘sib ulg‘ayishi va etuk kamolga yetishi bilan bog‘liq manfaatlarini muhofazasini ta‘minlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Ma‘lumki, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi IV bo‘limi bilan tartibga solinib, XI-XIII boblarni o‘z ichiga oladi. Mazkur kodeksning XIII bobida esa ota-ona hamda farzandlar o‘rtasidagi mulkiy huquq va majburiyatlari huquqiy tartibga solingan.

Ota-onalik huquq va majburiyatlarining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

Birinchidan, har bir ota-ona o‘z farzandlariga nisbatan bir xil huquq va majburiyatlarga ega hisoblanadilar. Bolaning nikoh davomida yoki nikohsiz tug‘ilishidan yoki er-xotinning alohida yashashidan, oiladagi moddiy majburiyatlaridan qat’i nazar, ota-ona huquq va majburiyatlarining tengligi bir xil amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, barcha shaxslarga nisbatan ota-ona o‘z bolalarini tarbiyalashda ustun huquqqa egaligi belgilangan.

Uchinchidan, bolalarning manfaatlariga zid tarzda ota-onalik huquqi amalga oshirilishi mumkin emas. Ota-ona farzandga nisbatan bo‘lgan huquqlarini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi va boshqa qonunchilikda, xalqaro shartnoma hamda konvensiyalarda belgilangan huquq va majburiyatlarga amal qilishlari shart.

Bola huquqlarini muhofaza qilish va ta‘minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanishi shak-shubhasizdir. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada ota-onaning huquq va majburiyatlarini amalga oshirish shakllari ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunining 11-moddasi<sup>24</sup>da bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning ota-onasi yoki o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan ta‘minlanishi belgilangan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi<sup>25</sup>ning 26-moddasida ham kichik

<sup>23</sup> O‘zbekiston Respublikasi kodekslari. Oila kodeksi. T.: “Adolat”. 2014. – B. 895-928.

<sup>24</sup> <https://lex.uz/acts/-1297315>

<sup>25</sup> <https://www.ohchr.org/sites/default/files>

yoshdagi bolalari uchun ota-onalar ta'lim turini tanlashda imtiyozli huquqqa egaligi qayd etilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining «Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risida»gi konvensiyasida ham onalar va bolalarning ijtimoiy va iqtisodiy himoyaga bo'lgan huquqlari to'laqonli hayotga tatbiq etilishini ta'minlash maqsadida Ahdlashuvchi Tomonlar bu yo'nalishda barcha lozim va zarur bo'lgan chora-tadbirlarni, shu jumladan tegishli tuzilmalar yoki xizmatlarni tashkil etish va ta'minlash choralarni ko'rishlari belgilangan. Unga ko'ra hech kimga ta'lim olish huquqi rad etilishi mumkin emas. Ahdlashuvchi Tomon maorif va ta'lim berish sohasida o'z zimmasiga olgan har qanday vazifani amalga oshirishda ota-onaning o'z farzandlariga ularning o'z e'tiqodlari va milliy an'analariga mos ta'lim berilishini ta'minlash huquqini hurmat qilishi kerakligi aks etgan.

Bolalar yoshligi, qabul qilish qobiliyati rivojlanishi, uning hali mustaqil hayotga tayyor emasligi tufayli ular har tomonlama g'amxo'rlik va himoyaga, shu bilan bir qatorda huquqiy himoyaga muhtoj. Bola ta'lim olish huquqiga ega hisoblanadi. Mazkur huquq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida, «Ta'lim to'g'risida»<sup>26</sup>gi va boshqa qonunlarda belgilangan.

Yuqoridagi misollardan ota-onaning voyaga etmagan farzandi oldidagi ota-onalik mas'uliyati nafaqat oila qonunchiligi bilan, balki xalqaro shartnomalar orqali ham tartibga solinadi, degan xulosa kelib chiqadi. Ota-ona va farzandlar orasida vujudga keluvchi huquqiy munosabatlar tarkibida shaxsiy nomulkiy huquqiy munosabatlar ajralib turadi. Bola tarbiyasi ota-onaning shaxsiy huquqiy munosabatlarining asosiy ob'ektlaridan biridir.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga ko'ra, ota-onalik huquqi farzandlar manfaatlariga teskari tarzda amalga oshirilmasligi bayon etilgan. Ota-ona alohida yashayotgan bo'lsa, bolalarning qayerda istiqomad qilishi ota-onaning kelishuvi bo'yicha belgilanishi, mabodo kelishmovchilik yuzaga kelsa, sud farzandning fikrini inobatga olgan holda hal etishi belgilangan. Ota-ona va farzandning huquq va majburiyatlari barcha rivojlangan mamlakatlarda belgilangan demokratik tamoyillarga asoslanadi. Ota-onaning bolalarga ta'lim-tarbiya berishga oid huquq va majburiyatlari muhim ahamiyatga ega. Bolalarni voyaga etgunlariga qadar tarbiyalash majburiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida belgilangan. Bolaga tarbiya berish ota-onaning shaxsiy huquqi hisoblanib, bolaning kamol topishida o'z huquqlaridan foydalanish va zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishda teng mas'uliyatlidir.

«Bola huquqlari to'g'risida»gi BMT Konvensiyasining 18-moddasi 1-bandiga binoan ushbu majburiyat, ularning qaerda bo'lishidan qat'i nazar, ota-ona uchun umumiy va majburiydir. Shunga ko'ra, ota-ona voyaga etmagan o'z bolalarining tarbiyasi va kelajagi uchun javobgar hisoblanib, sog'lig'i, axloqi, jismoniy va ruhiy kamoloti uchun g'amxo'rlik qilishi shart.

Ota-onalar ota-onalik huquqlarini bolaning manfaatlariga zid tarzda amalga oshirsalar oilaviy-huquqiy, fuqarolik-huquqiy, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortilishlari mumkin. Oilaviy-huquqiy javobgarlik ota-onalik huquqidan mahrum etish yoki uni cheklash kabi oqibatlarga olib keladi.

---

<sup>26</sup> <https://lex.uz/docs/-5013007>

Bundan tashqari, mamlakatimiz bola huquqlarini ta'minlashda «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida»gi hamda «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida»gi xalqaro paktlarda mustahkamlangan me'yorlarga tayanadi. Shu bilan birga, BMTning voyaga etmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari (Pekin qoidalari)<sup>27</sup>, BMTning voyaga etmagan bolalar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan dasturiy prinsiplari (Ar-Riyod dasturiy prinsiplari)<sup>28</sup> va boshqa tavsiyaviy hujjatlari odil sudlov sohasida bola huquqlariga oid milliy qonunchilikni takomillashtirishda muhim o'rin tutadi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 fevraldagi «Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori<sup>29</sup>da ijtimoiy yetimlikni yanada qisqartirish, yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, ularning jadal ijtimoiy moslashuvi uchun keng imkoniyatlar yaratish, tarbiya muassasalarining ish faoliyatini yaxshilash, shuningdek jismonan sog'lom va ma'nan etuk avlodni tarbiyalashda oilaning rolini mustahkamlash ko'zda tutilgan. Shu maqsadda «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi bilan birgalikda

2019 yil 1 iyunga qadar muddatda Vazirlar Mahkamasiga voyaga yetmaganlarni tarbiyalash maqsadida oilaga qabul qilayotgan (patronat) vasiy va homiylikka nomzodlarni, farzandlikka olayotganlar va oilaviy bolalar uylarining tarbiyalovchi ota-onalarini tanlash va kuzatib borish tizimini takomillashtirish va boshqa bir qator chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Shuningdek, 2019 yil 22 aprelda davlatimiz rahbarining «Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori<sup>30</sup> qabul qilindi. Qarorga muvofiq quyidagilar belgilandi:

ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarga munitsipal hamda aniq maqsadli kommunal uy-joy fondidagi o'zlari stiqomad qilib turgan turar joylarni ular Mehribonlik uylariga joylashtirilgan, vasiylikka yoki homiylikka oluvchi bilan birga yashayotgan butun vaqt mobaynida, o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar bronlashtirish huquqi beriladi;

bolalarning ro'yxatda turish joyi va fuqaroligidan qat'i nazar, ularga barcha ijtimoiy xizmatlar ko'rsatiladi;

bolalarning davlat organlariga bevosita qilgan murojaatlarini to'liq ko'rib chiqish kafolatlanadi va bola to'liq muomala layoqatiga ega emasligi vajlari bilan bu turdagi murojaatlarni ko'rmasdan qoldirishga yo'l qo'yilmaydi;

14 yoshga to'lgan bola o'zining ta'minoti uchun bir vaqtning o'zida ota-onaning har ikkalasidan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirish haqida da'vo qo'zg'atishga haqli;

---

<sup>27</sup> Qarang: <https://civil.uz/ru/O'zbekistonda-bola-huquqlari>

<sup>28</sup> Qarang: <https://civil.uz/ru/O'zbekistonda-bola-huquqlari>

<sup>29</sup> <https://lex.uz/docs/-4199119>

<sup>30</sup> <https://lex.uz/docs/-4302023>

bolalarni himoya qilish maqsadida sudlarga ariza bilan murojaat qilgan da'vogar davlat boji va boshqa to'lovlarni to'lashdan ozod qilinadi.

Qarorga muvofiq Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) o'rinbosari – Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimi joriy etildi. 2019/2020 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiy sonidan Mehribonlik uyi va Bolalar shaharchasining bitiruvchilari bo'lgan chin yetimlar uchun qo'shimcha ravishda bir foizgacha davlat granti asosidagi qabul kvotalari ajratiladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy qonunchiligimiz va davlatimiz qo'shilgan xalqaro hujjatlar, irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli<sup>31</sup>, sog'lig'i holati, ota-onasi, qonuniy vasiylaridan yoki boshqa biron-bir vaziyatlardan qat'i nazar, mamlakatimizda yashayotgan bolalarning qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan barcha huquqlari ta'minlanishini kafolatlaydi.

#### **Muhokama uchun savollar:**

1. «Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qilishdan ko'zlangan maqsad nimadan iborat?
2. Bolalarni ularning sog'ligiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni mohiyati nimadan iborat?
3. Ota-onalik huquq va majburiyatlarining xususiyatlari haqida gapirib bering.

#### **4-mavzu. Xalqaro qonunchilikda bola huquqlari kafolatlari.**

##### **Reja:**

1. 1924-yilda Millatlar Ligasi tomonidan qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi Jeneva deklaratsiyasi.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
3. Bola huquqlari to'g'risidagi deklaratsiyasi.
4. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt.
5. Bolalarning omon qolishi, himoyasi va rivojlanishi to'g'risidagi Jahon deklaratsiyasi.
6. Bola huquqlari to'g'risidagi jahon Konstitutsiyasi.
7. BTMning bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi.

##### **Tayanch so'z va iboralar:**

*Bola huquqlariga oid xalqaro normalar klassifikatsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Bolalarning omon qolishi, himoyasi va rivojlanishi to'g'risidagi Jahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari bo'yicha qo'mita*

1. **1924-yilda Millatlar Ligasi tomonidan qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi Jeneva deklaratsiyasi.**

---

<sup>31</sup> <https://lex.uz/docs/-20596>.

Eglantin Jebb tomonidan ishlab chiqilgan Bola huquqlari deklaratsiyasi 1924-yil 26-noyabrda Jenevadagi Millatlar Ligasi Beshinchi Assambleyasi tomonidan qabul qilingan. U asosan bolalar mehnati va qullikka, bolalarni sotishga va voyaga etmaganlarning fohishabozligiga qarshi qaratilgan beshta asosiy printsiptan iborat edi. Assambleya o'z a'zolarini bolalarni himoya qilish va ularning farovonligini oshirish uchun deklaratsiya qoidalarini boshqarishga chaqirdi.

Hujjatning asl nusxasi hozirda Jeneva shahar arxivida saqlanmoqda. Unda Assambleya delegatlari, xususan Shveysariya Konfederatsiyasining sobiq prezidenti Eglantin Jebb, Yanush Korchak, Gustav Adora imzosi bor.

Deklaratsiyaning beshta tamoyili:

1. Bolani shunday tarbiya qilishimiz kerakki, u doimo atrofdagilarga ezgulik ulasha olsin.
2. Bola muhabbat muhitida o'sishi va ekspluatatsiyaning barcha turlaridan himoyalangan bo'lishi kerak.
3. Och bolani ovqatlantirish kerak; kasal bolaga yordam berish kerak; xato qilgan bolani tuzatish kerak; yetim va qarovsiz bola qiyin paytlarda boshpana va yordam olishlari kerak.
4. Qiyin sinov paytida birinchi navbatda bola yordam olishi kerak.
5. Bola jismoniy-axloqiy jihatdan uning normal rivojlanishi uchun zarur vositalar bilan ta'minlanishi kerak.

#### **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.**

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yilning 10-dekabrida qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi insonning asosiy huquqlari va erkinliklarini belgilovchi dastlabki muhim tarixiy hujjat hisoblanadi.

BMT Bosh Assambleyasi o'zining 1996-yildagi yig'ilishida fuqarolik va siyosiy huquqlar, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar haqida Paktlar qabul qilgan. Ularda har bir davlat o'z fuqarolari bo'lgan shaxslarga berishi majbur bo'lgan haq-huquqlar ko'rsatilgan va kafolatlangan.

#### **INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASI VA UNING QABUL QILINISHI**

Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi inson huquqlari va uni himoya qilishga doir xalqaro hujjat bo'lib, BMT tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Bu tarixiy hujjatning ishlab chiqilishi va e'lon qilinishi insoniyatning tarixiy taqdirida, davlatlar- ning ichki va tashqi siyosatida, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiyalar va ijtimoiy tashkilotlarning faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Unda ishlab chiqilgan qoida va xulosalar, tamoyillar o'zining mohiyati va mazmuniga ko'ra mukammal ishlangan huquqiy me'yorlarning umumlashgan ifodasi hisoblanadi. Inson huquqlari va uni himoya qilish masalalarini hal qilishda davlatlar mazkur hujjatda e'lon qilingan huquqiy me'yorlarga amal qilishi ularda ishlab chiqilayotgan huquqiy



hujjatlarning samarali va adolatli bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson huquqlari to'g'risidagi mazkur hujjat qabul qilinishidan avval bu sohada muhim ishlar amalga oshirilgan edi. Jumladan, inson huquqlari haqidagi me'yorlar ilk bor Millatlar Ligasi darajasida o'tkazilgan xalqaro Konferensiyada, BMT Nizomining ishlab chiqilishi paytida bir guruh davlatlar unga inson huquqlari masalalarini ifoda qiluvchi deklaratsiyani kiritishni taklif etgandilar. Biroq bu taklif, yaxshi organilmaganligi va maxsus tayyorgarlikka ega bo'linmaganligi sababli muhokamaga qo'yilmagan. O'sha davrda BMT Nizomiga faqat umuminsoniy huquqlar va erkinliklarni rivojlantirish, hurmat qilish hamda ular faoliyatini amalga oshirishda hech qanday irqiy, jinsiy, diniy va til bo'yicha cheklashlar yohud kamsitishlar bo'lmasligi haqidagi qoidani kiritishga muvaffaq bo'lingan. San-Fransisko Konferensiyasi tugashi bilan BMTning tayyorlov qo'mitasi o'zining birinchi yig'ilishida Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashga BMT Nizomining 68-moddasida o'rnatilganidek, inson huquqlarini qo'llash va quvvatlash qo'mitasi tuzish taklifini kiritadi. Mazkur taklif Kengash ishida muhokama qilinadi va uning qaroriga asosan 1946-yilda BMTning Inson Huquqlari Bo'yicha Qo'mitasitashkil etiladi.

Insonning asosiy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha hujjatning loyihasi 1946-yilning yanvar oyida Londonda o'tgan Bosh Assambleya sessiyasida tayyorlangan edi. Keyinchalik Bosh Assambleya ushbu loyihani Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashga taqdim etgan va Inson Huquqlari Bo'yicha Qo'mita bu loyihadan inson huquqlari haqidagi xalqaro hujjatni ishlab chiqishda foydalanish lozimligini tavsiya qilgan edi. Qo'mita jugrofik tamoyilga asosan sakkiz davlat vakillaridan saylangan. Mazkur Qo'mita o'zining ishchi guruhiga inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatning dastlabki loyihasini ishlab chiqishni topshirgan. Loyihani ishlab chiqish tahririyat zimmasiga yuklatilgan.

Xalqaro hujjatning shakli haqida turli xil fikrlar, takliflar bo'ldi. Tahririyat qo'mitasi ularni hisobga olib, hujjat loyihasini ikki turda: Deklaratsiya hamda Konvensiya shaklida tayyorlashga qaror qildi. Shundan so'ng Komissiya Qo'mitaga Inson Huquqlari Xalqaro Deklaratsiyasini va inson huquqlari Xalqaro Konvensiyasining moddalar matnini loyiha sifatida taqdim etadi.

Inson huquqi haqidagi xalqaro hujjat keng qamrovli bo'lgani uchun Komissiya 1947-yilning oxirida deklaratsiya bo'yicha, pakt bo'yicha va uni ishlatish bo'yicha ishchi guruhini tuzgan edi. Komissiya 1948-yil 24-maydan 15-iyungacha o'tgan sessiyada vakillarning takliflarini inobatga olgan holda Deklaratsiya loyihasini ko'rib chiqdi. Pakt bo'yicha va uni ishlatish bo'yicha loyihalar matni uning bajarilishi ta'minlanishiga BMTning 1948-yil 10-dekabrda Parijda o'tgan Bosh Assambleya sessiyasida muhokama etildi va qabul qilindi.

BMT- tomonidan tayyorlangan va xalqaro munosabatlar sohasida birinchi hujjat hisoblangan Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi shu asosda vujudga keldi.

BMTning Bosh Assambleyasi 1948-yil 10-dekabrda Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilinganligini e'lon qildi. Bu tarixiy hujjatda davlatlar quyidagi majburiyatlarni bajarishlari zarurligi qat'iy ta'kidlandi: «Mazkur Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasini barcha xalqlar va barcha davlatlar bajarishga intilishi lozim bo'lgan vazifa sifatida e'lon qilar ekan, toki har bir inson va jamiyatning har bir tashkiloti doimo ushbu Deklaratsiyani nazarda tutib, maorif va ilm yo'li bilan bu huquq va erkinliklarning hurmat qilinishiga ko'maklashishi, milliy va xalqaro taraqqiyparvar tadbirlar orqali ham uning bajarilishini ta'minlashiga, Tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar xalqlari o'rtasida va ushbu davlatlarning yurisdiksiyasidagi huquqlarda yashayotgan xalqlar o'rtasida yoppasiga va samarali tan olinishiga intilishlari zarur».

Tabiiyki insoniyat tafakkuri shu paytgacha inson huquqlari masalasiga ko'p marta murojaat qilib kelgan. Turli davrlarda va turli davlatlarda insonning erkin bo'lishi, o'z taqdirining egasi bo'lishi bir necha marta e'lon qilingan. Insonning huquq va asosiy erkinliklari bo'yicha faoliyat ko'rsatadigan ko'plab xalqaro shartnomalar ham imzolangan.

1789-yilda fransuz burjua inqilobi arafasida e'lon qilingan Inson va Fuqarolik Huquqlari Deklaratsiyasi Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining o'tmishdoshidir. U uzoq yillar davomida burjuaziyaning feodalizmga qarshi ko'rashining ifodachisi bo'lib keldi. O'z davrida bu hujjat muhim ahamiyat kasb etgan. Ko'pchilik mam-lakatlarda qullik va krepostnoylik huquqi mavjud bo'lgan yillarda Deklaratsiya «kishilar huquqlarda erkin va teng bo'lib tug'iladilar va shunday bo'lib qoladilar, ijtimoiy farqlar faqat umumiy manfaat-lardagi e'tirozlarga asoslanadi», degan talabni ilgari surgan. Dav-latning maqsadi, – deyilgan edi Deklaratsiyaning 2-moddasida, – insonning tabiiy va ajralmas huquqlarini ta'minlashdan iborat. Bu huquqlarga erkinlik, mulkchilik, xavfsizlik, zulmga qarshilik ko'rsatish huquqi kiradi.

Biroq bu hujjatning o'sha davr uchun fojiasi shundan iborat ediki, hokimiyatni egallagan burjuaziya amalda darhol e'lon qilingan demokratik tamoyillardan chekingan. Bunday chekinish faqat amalda emas, balki qonunlarda ham o'z aksini topgan. Deklaratsiya qabul qilingandan so'ng oradan to'rt yil o'tgach, burjuaziyaning Ta'sis yig'ilishi yig'ilishlar va assotsiatsiyalar erkinligi, fuqarolarning o'z mehnat huquqlarini birgalikda himoya qilishga doir harakatlarini ta'qiqlovchi qonun qabul qildi.

1789-yilda qabul qilingan Amerikaning «Huquqlar to'g'risidagi qonun»i Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining izdoshi

hisoblanadi. Haqiqatan ham bu tarixiy hujjatda inson huquqlari to'g'risidagi qoidalar o'zining aniq ifodasini topgan. Unda shaxsni himoya qilish, uning turar joyga, mulkka ega bo'lish va boshqa shular singari qonun berib qo'ygan asosiy huquqlari buzilgudek bo'lsa, sud majlisida oshkora tartibda qonuniy yo'l bilan uning huquqlari muhofaza qilinadi. Biroq inson huquqlari to'g'risidagi qonunda ko'rsatilgan shunga o'xshash huquqlar dastlabki paytlarda AQSHning barcha fuqarolariga tegishli bo'lmagan. U 1865-yilda erkinlikka erishgan qullarga ham taalluqli bo'lmagan. Bu huquqlar faqat 1920-yilda erkaklar bilan teng saylanish huquqini olgan ayollarga qisman tegishli edi. Chamasi ikkinchi jahon urushigacha fuqarolarning inson erki va huquqlarini himoya qilishga taalluqli hujjatlar faqatgina bir mamlakat miqyosida qabul qilinganligi uchun ham inson huquqlari muhofazasimasalalari tor doirada hal etilgan.

1815-yilda qullikni taqiqlash to'g'risidagi Deklaratsiya, 1920-yilda qullikka solish va qul savdosining barcha turlarini taqiqlaydigan Konvensiyaning qabul qilinishi inson huquqlari va uni himoya qilish sohasida qo'yilgan dastlabki amaliy qadamlar edi.

1904 va 1910-yillarda ayollarni zinoga jalb etishni taqiqlaydigan Konvensiyalar qabul qilinib, uning ishtirokchilariga xotinlarni buzuqlikka yollashga qarshilik ko'rsatish majburiyati yuklangan edi. 1933-yildagi Konvensiya uning ishtirokchilariga zinoni avj oldirishga qaratilgan harakatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortish majburiyatini yuklagan. 1937-yildagi Xalqaro Konvensiya esa uning ishtirokchilariga terrorizmning oldini olish va inson hayotiga tajovuz qilgan aybdor shaxslarni jazolash majburiyatini yukladi.

Ikkinchi jahon urushi davrida fashist bosqinchilari quloq eshitib ko'z ko'rmagan vahshiyliklarni qilishdi, ularning ko'pgina xalqlarga nisbatan vahshiylarcha munosabatlari barcha taraqqiyparvar insoniyatning g'azabini qo'zg'adi.

Tinchliksevar xalqlarning sa'y-harakatlari bilan BMT o'z oldiga xalqaro tinchlik va xavfsizlikni, ya'ni insoniyatni urush ofatidan asrash va shu bilan jamiyatda inson huquqlarini ta'minlashni maqsad qilib qo'ydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, BMTning faoliyati inson erki va huquqlarini himoya qilishni rivojlantirishga qaratilgan. BMT o'z faoliyati davomida inson huquqlari bilan bog'liq bir qancha xalqaro hujjatlar – deklaratsiya, konvensiya va paktlarni qabul qildi.

BMT Nizomidagi qoidalarda, shuningdek, Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasida hamda 1975-yilning 1-avgustida Xelsinki kida 33 ta davlat boshliqlari tomonidan imzolangan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik to'g'risidagi yig'ilish hujjatlarida inson huquqlari va uni himoya qilish masalalari o'z ifodasini topganligi muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, Xelsinki kida qabul qilingan hujjatda ko'rsatiladiki: «Inson huquqlari sohasida davlatlarning mustaqilligi

BMT Nizomi tamoyillari va Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi qoidalari asosida amalga oshiriladi. Davlatlarning boshliqlari inson huquqlari sohasida xalqaro deklaratsiya va kelishuvlarda imzolangan xalqaro paktlardagi qoidalarni bajaradi».

BMT Nizomi o'z oldiga insonning erki va huquqlari ro'yxatini tuzish vazifasini qo'ymagan. Nizom matnida inson erki va huquqi «ijtimoiy taraqqiyot va yashash sharoitini yaxshilashga», ya'ni insonning siyosiy faoliyatinigina emas, balki uning iqtisodiy va shaxsiy hayoti sohalarini ham qamrab olishi ko'zda tutilgan.

### **3. Bola huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya.**

Hozirgi kunga kelib esa, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya eng universal hujjatlardan biri bo'lib, Somali va AQShdan tashqari 191 davlat uning ishtirokchisidir. O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga 1992-yilda qo'shilgan, 2008-yili esa, uning 2002-yilda qabul qilingan ikkita qo'shimcha protokoliga: Qurolli mojaralarda ishtirok etuvchi bolalar to'g'risidagi Qo'shimcha protokol va Bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va pornografiyasiga taalluqli Qo'shimcha protokolga qo'shildi. 2013-yilgacha mazkur Konvensiya normalarini bajarishi bo'yicha O'zbekiston BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasiga o'zining uchinchi va to'rtinchj Milliy ma'ruzasini va qo'shimcha protokollar bo'yicha esa, birinchi Milliy ma'ruzasini taqdim etgan.

Mazkur Konvensiya ijodkorlari bola huquqlaribo'yicha u3 kontseptsiyalarini - liberal, paternalizm nazariyasi asosida ishlab chiqishgan. Ushbu kontseptsiya goyalari tufayli bolalar jamiyatning tula huquqdi a'zosi deb e'tirof etilgan. Bu kontseptsiya bilan bola ota-onaga yoki ularni o'rnini bosuvchi boshqa shaxslarga tegishililigi to'g'risida yuz yillar davomida mavjud bo'lib kelgan qoidaga chek kuyilgan. X,ozirgi kunga kelib esa, Bola huquqlarito'g'risidagi Konvensiya eng universal hujjatlardan biri bo'lib, Somali va AQShdan tashqari 191 davlat uning ishtirokchisidir. O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga 1992 yilda kushilgan bo'lib, bugungi kungacha ikki marotaba uzining Milliy ma'ruzasini taqdim etgan. Ammo, ushbu Konvensiyaning Qo'shimcha ikki protokoliga daigacha kushilgani yuk. Fikrimizcha, kelgusida bu protokollarga kushilish mamlakatimizning bola huquqlarini x,imoya qilish va ta'minlash soxasidagi siyosatiga moe keladi.

### **5. Bolalarning omon qolishi, himoyasi va rivojlanishi to'g'risidagi Jahon deklaratsiyasi.**

**Bolalarni saqlab qolish, himoya qilish va rivojlantirish to'g'risidagi Butunjahon deklaratsiyasi. Bolalarni omon qolish, himoya qilish va rivojlantirish to'g'risidagi Butunjahon deklaratsiyasi (1990) Bolalarni saqlab qolish, himoya qilish va rivojlantirish to'g'risidagi Butunjahon deklaratsiyasida «dunyo bolalari aybsizdir» g'oyasi o'rtaga tashlangan.**

Bolalarning omon qolishi, himoyasi va rivojlanishini ta'minlash bo'yicha Butunjahon sammiti 1990 yil 30 sentyabrda Nyu-Yorkda Birlashgan Millatlar Tashkilotida bo'lib o'tdi:

1. Biz bolalar uchun Butunjahon sammitida birgalikdagi majburiyatni qabul qilish uchun yig'ilamiz va shoshilinch ravishda har bir bola uchun yaxshi kelajak uchun universal da'vat qilamiz.

2. Dunyo bolalari begunoh, zaif va qaram. Ular, shuningdek, qiziquvchan, baquvvat va umidvor. Ularning vaqti quvonch va tinchlik, o'ynash, o'qish va o'sish davri bo'lishi kerak. Ularning kelajagi hamjihatlik va hamkorlikka asoslangan bo'lishi kerak. Ularning hayoti yanada mazmunli bo'lishi kerak, chunki ularning istiqbollari kengayib, tajriba orttirishadi.

3. Biroq, ko'plab bolalar uchun bolalik haqiqati butunlay boshqacha.

Muammo

4. Har kuni dunyo bo'ylab ko'plab bolalar ularning o'sishi va rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan xavf-xatarlarga duch kelmoqdalar. Ular urush va zo'ravonlik qurbonlari sifatida behisob azob chekishmoqda; irqiy kamsitish, aparteid, tajovuz, chet elliklarni bosib olish va qo'shib olish; uylaridan va oilalaridan ko'chirilgan qochqinlar va ko'chirilgan bolalar sifatida; nogiron bo'lish; yoki beparvolik, suiiste'mol yoki ekspluatatsiya qurbonlari.

5. Har kuni millionlab bolalar qashshoqlik va iqtisodiy inqirozdan aziyat chekmoqda - ochlik va uysizlar, epidemiyalar va savodsizlik, atrof-muhitning tanazzulidan. Ular tashqi qarz muammolarining og'ir oqibatlaridan, shuningdek, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror o'sishning etishmasligi oqibatlaridan aziyat chekmoqda, xususan, eng kam rivojlangan mamlakatlar.

6. Har kuni 40 ming bola to'yib ovqatlanmaslik va kasalliklardan, shu jumladan orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS), toza suv etishmasligi va sanitariya sharoitlari va giyohvandlikning oqibatlaridan vafot etadi.

7. Bular biz siyosiy rahbar sifatida hal qilishimiz kerak.

Imkoniyatlar

8. Mamlakatlarimiz birgalikda bolalar hayotini himoya qilish va azob-uqubatlarni sezilarli darajada engillashtirish, ularning inson salohiyatini har tomonlama rivojlantirishga ko'maklashish va ularni o'z ehtiyojlari, huquqlari va imkoniyatlari to'g'risida xabardor qilish uchun vosita va bilimlarga ega. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya bolalar huquqlari va farovonligini chinakam hurmat qilish uchun yangi imkoniyatni ochib beradi.

9. So'nggi paytlarda xalqaro siyosiy muhitning yaxshilanishi ushbu vazifani engillashtirishi mumkin. Xalqaro hamkorlik va hamjihatlik orqali endi ko'p sohalarda aniq natijalarga erishish mumkinligi aniq - iqtisodiy o'sish va rivojlanishni tiklash, atrof-muhitni muhofaza qilish, o'limga olib keladigan va nogiron kasalliklarning tarqalishini to'xtatish, katta ijtimoiy va iqtisodiy adolatni ta'minlash. Quolsizlanish bo'yicha hozirgi qadamlar, shuningdek, noharbiy maqsadlarga erishish uchun muhim resurslarni bo'shatish mumkinligini anglatadi. Ushbu resurslarni qayta taqsimlashda bolalarning farovonligini ta'minlash eng ustuvor vazifa bo'lishi kerak.

Vazifalar

10. Bolalar salomatligi va ovqatlanishini yaxshilash eng muhim mas'uliyat va hozirda mumkin bo'lgan vazifadir. Har kuni o'n minglab o'g'il va qizlarning hayotini saqlab qolish mumkin, chunki ularning o'limining sabablari butunlay yo'q qilinadi.

Bolalar va bolalar o'limi koeffitsienti dunyoning ko'p qismlarida qabul qilinishi mumkin bo'lmagan darajada yuqori, ammo ular allaqachon ma'lum bo'lgan va osonlik bilan mavjud bo'lgan dorilar yordamida sezilarli darajada kamayishi mumkin.

11. Imkoniyati cheklangan bolalar va o'ta og'ir sharoitdagi boshqa bolalarga ko'proq e'tibor, g'amxo'rlik va yordam ko'rsatilishi kerak.

12. Umuman ayollarning rolini kuchaytirish va ular uchun teng huquqlarni ta'minlash dunyo bolalariga foyda keltiradi. Boshidanoq qizlarga teng munosabatda bo'lish va ularga teng imkoniyatlar berish kerak.

13. Hozirgi vaqtda 100 milliondan ortiq bolalar asosiy maktabdan tashqarida, ularning uchdan ikki qismi qizlardir. Asosiy ta'lim va savodxonlikni ta'minlash dunyo bolalarining rivojlanishi uchun qo'shilishi mumkin bo'lgan muhim hissadir.

14. Har yili yarim million onalar tug'ish bilan bog'liq sabablarga ko'ra vafot etadi. Xavfsiz onalik barcha mumkin bo'lgan vositalar bilan ta'minlanishi kerak. Asosiy e'tibor oilaning kattaligi va tug'ilish oralig'ini ongli ravishda rejalashtirishga qaratilishi kerak. Bolalarning o'sishi va farovonligi uchun asosiy birlik va tabiiy muhit bo'lgan oila har qanday himoya va yordam bilan ta'minlanishi kerak.

15. Barcha bolalarga o'zlarining farovonligini ta'minlaydigan oila yoki tarbiyachi bilan xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhitda o'z potentsiallarini aniqlash va bajarish imkoniyatini berish kerak. Ular erkin jamiyatda tabiiy hayotga tayyor bo'lishlari kerak. Yoshligidanoq ularni o'z mamlakatlarining madaniy hayotida ishtirok etishga undash kerak.

16. Iqtisodiy sharoit bolalar taqdiriga, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda katta ta'sir ko'rsatishda davom etadi. Barcha bolalarning kelajagi uchun barcha mamlakatlarda barqaror iqtisodiy o'sish va rivojlanishni ta'minlash yoki tiklashni davom ettirish va qarzdor rivojlanayotgan davlatlar oldida turgan tashqi qarz muammolarini erta, har tomonlama va uzoq muddatli hal etishga doimiy e'tibor berishni davom ettirish zarur.

17. Ushbu muammolar milliy harakatlar va xalqaro hamkorlik orqali barcha mamlakatlar tomonidan doimiy va kelishilgan harakatlarni talab qiladi.

#### Majburiyatlar

18. Bolalarning farovonligi eng yuqori darajada siyosiy harakatlarni talab qiladi. Biz ushbu choralarni ko'rishga qat'iy qaror qildik.

19. Shu bilan biz tantanali ravishda bolalar huquqlari, yashash, himoya qilish va rivojlanishning ustuvor yo'nalishini o'z zimmamizga olamiz. Shuningdek, u barcha mamlakatlar farovonligini ta'minlaydi.

20. Biz xalqaro hamkorlik doirasida, shuningdek alohida mamlakatlar darajasida birgalikda harakat qilishimizga kelishib oldik. Biz bolalar huquqlarini himoya qilish va ularning hayotini yaxshilashga qaratilgan quyidagi 10 bandli dasturga sodiqligimizni bildiramiz:

1) Biz Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani iloji boricha tezroq erta ratifikatsiya qilish va amalga oshirishga ko'maklashamiz. Dunyo bo'ylab turli mamlakatlardagi turli madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni hisobga olgan holda bolalar huquqlari to'g'risida ma'lumot beruvchi dasturlarni ishga tushirish kerak.

- 2) Biz barcha mamlakatlarda va barcha xalqlarda bolalar salomatligini yaxshilash, tug'ruqdan oldin parvarish qilish va bolalar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha milliy va xalqaro darajada qat'iyatli choralar ko'rishga intilamiz. Biz barcha jamoalarning barcha bolalarini toza suv bilan ta'minlashni, shuningdek, yaxshi sanitariya sharoitlaridan universal foydalanishni qo'llab-quvvatlaymiz.
- 3) Biz bolalik davrida ochlik, to'yib ovqatlanmaslik kabi choralarni ko'rish orqali optimal o'sish va rivojlanishni ta'minlashga intilamiz, shu bilan butun aholisini boqish uchun imkoniyatga ega bo'lgan dunyoda millionlab bolalarni fojiali azoblardan ozod qilamiz.
- 4) Biz ayollarning o'rni va mavqeini mustahkamlashga intilamiz. Biz mas'uliyatli oilani rejalashtirish, bo'sh joy ajratish, emizish va xavfsiz onalikni targ'ib qilamiz.
- 5) Biz bolalarni tarbiyalashda oilaning rolga bo'lgan hurmatni targ'ib qilamiz va otalar, boshqa tarbiyachilar va jamoalarning bolalikning dastlabki bosqichlaridan o'spirinlikgacha bo'lgan davrda bolalar uchun ovqatlanish va davolashni ta'minlash bo'yicha sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaymiz. Biz, shuningdek, oilasidan ajralgan bolalarning alohida ehtiyojlarini tan olamiz.
- 6) Biz savodsizlikni kamaytiradigan va barcha bolalarga kelib chiqishi va jinsidan qat'i nazar ta'lim olish imkoniyatini beradigan, bolalarni mehnatga tayyorlaydigan va umrbod o'qish imkoniyatlarini beradigan dasturlarni amalga oshirishga intilamiz, masalan, kasb-hunar ta'limi orqali va bu bolalarni qo'llab-quvvatlash hissi bilan va qo'llab-quvvatlaydigan madaniy va ijtimoiy sharoitda voyaga etishlariga imkon beradi.
- 7) Biz ayniqsa og'ir sharoitlarda yashayotgan millionlab bolalarning ahvolini engillashtirishga harakat qilamiz - masalan, aparteid yoki chet el ishg'oli qurbonlari, yetim va ko'cha bolalari, mehnat muhojirlari farzandlari va tabiiy va insoniy ofatlar qurbonlari, bolalar - shafqatsiz munosabatda bo'lgan, noqulay ijtimoiy sharoitlarda yashaydigan va ekspluatatsiya qilinadigan bolalar va nogironlar. Qochqin bolalarga yangi hayotda ildiz otishi uchun ularga yordam berish kerak. Biz ishlayotgan bolalarni maxsus himoya bilan ta'minlash va noqonuniy bolalar mehnatini yo'q qilishga intilamiz. Biz bolalar giyohvand moddalarni noqonuniy iste'mol qilish qurboniga aylanmasligi uchun qo'limizdan kelganicha harakat qilamiz.
- 8) Biz bolalarni urush balosidan himoya qilishga qat'iy intilamiz va hamma joyda bolalarning tinch va xavfsiz kelajagini ta'minlash uchun kelajakda qurolli to'qnashuvlarning oldini olish uchun choralar ko'ramiz. Biz bolalar tarbiyasida tinchlik, tushuncha va dialogning ahamiyatini targ'ib qilamiz. Urush paytida ham, zo'ravonlik harakatlarida ham bolalar va ularning oilalarining asosiy ehtiyojlari kafolatlanishi kerak. Bolalar manfaati uchun biz tinchlik va urush va zo'ravonlik davom etadigan maxsus xavfsizlik yo'laklarini yaratishga chaqiramiz.
- 9) Biz barcha bolalar xavfsizroq va sog'lom kelajakda yashashlari uchun atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha birgalikdagi choralarni ko'rishga intilamiz.
- 10) Biz qashshoqlikka qarshi global hujumni boshlashga intilamiz, bu bolalar farovonligiga bevosita foyda keltiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa kam rivojlangan mamlakatlarda bolalarning zaifligi va maxsus ehtiyojlari yuqori ustuvorlikka loyiqdir. Biroq, o'sish va rivojlanish milliy faoliyat va xalqaro hamkorlik orqali barcha davlatlarning yordamiga muhtoj. Bu rivojlanayotgan

mamlakatlarga tegishli qo'shimcha manbalarni uzatishni, shuningdek savdoning adolatli shartlarini, savdoni yanada liberallashtirish va qarzlarni yumshatish choralarini talab qiladi. Bu shuningdek, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda keng iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi, shu bilan birga aholining eng zaif qatlamlari, xususan bolalarning farovonligini ta'minlaydigan tarkibiy tuzatishlarni o'z ichiga oladi.

Keyingi qadamlar

21. Butunjahon bolalar sammiti bizni aniq choralar ko'rishga chorladi. Biz ushbu chorlovni qabul qilishga rozi bo'ldik.

22. Biz izlayotgan sheriklar orasida biz birinchi navbatda bolalarning o'ziga murojaat qilamiz. Biz ularni ushbu harakatlarda ishtirok etishga da'vat etamiz.

23. Shuningdek, biz bolalar farovonligini ta'minlash bo'yicha umumiy sa'y-harakatlarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimidan, shuningdek boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlardan qo'llab-quvvatlashga intilamiz. Biz nodavlat notijorat tashkilotlarini ushbu yo'nalishdagi milliy sa'y-harakatlarga va qo'shma xalqaro harakatlarga ko'proq jalb qilishga chaqiramiz.

24. Biz milliy va xalqaro miqyosda aniqroq harakatlar uchun asos bo'lgan Harakatlar rejasini tasdiqlash va amalga oshirishga qaror qildik. Biz barcha hamkasblarimizni ushbu rejani ma'qullashga chaqiramiz. Biz milliy rejalarimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan ushbu majburiyatlarni amalga oshirish uchun vositalarni taqdim etishga tayyormiz.

7. Bola huquqlari bo'yicha qo'mita.

Bola huquqdali bo'yicha qo'mita bola huquqlari bo'yicha Konvensiyaning 43-moddasiga binoan 1991 yilda tashkil etilgan. Bu Qo'mitaning birinchi sessiyasi 1991 yilda bo'lib o'tgan. Qo'mita o'n nafar ekspertdan iborat. Uning zimmasiga bola huquqlarini ragbatlantirish uchun ko'rashayotgan, Konvensiya qatnashchisi bo'lgan barcha davlatlar o'rtasida muntazam muloqot yo'lga qo'yilishini ta'minlash vazifasi topshirilgan.

Ular mustaqil faoliyat yuritadilar. Qo'mita majlislari har yili Nyu-Yorkda bo'lib o'tadi. Qo'mita faoliyati to'g'risida ma'ruza ikki yilda bir EKOSOS orkdli Bosh Assambleyaga taqdim qilinadi.

Konvensiyaning 44-moddasiga binoan, a'zo-davlatlar qo'mitaga Konvensiyada tan olingan huquqlar mustaxkamlash yuzasidan kurilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida ma'ruzalar taqdim etishlari shart bo'ladi. Birinchi ma'ruza tegishli davlatga Konvensiya kuchga kirganidan so'ng ikki yil ichida taqdim qilinishi shart. Keyingilari esa keyingi har besh yil ichida bir taqdim etiladi. Konvensiyaga muvofik, a'zo-davlat uz hududida ma'ruzalari oshkoraligini ta'minlab berishi lozim. Qo'mita ma'ruzalarni urganib, umumiy harakterdagi taklif va tavsiyalar berishi mumkin. Agar ma'ruza yuzasidan mulohazalar qilinsa, bu haqda Bosh Assambleyaga xabar qilinadi.

BMTning inson huquqlariga oid Konvensiyaviy organlarining asosiy vazifasi tegishli Konvensiya qoidalari bajarilishini nazorat qilishdir. Qo'mitalarning mulohazalari yuridik majburlov kuchiga ega emas. Lekin Qo'mita mulohazalarini inobatga olmaslik tegishli Konvensiyaga xurmatsizlarcha karashni bildiradi. Qo'mitalarda Konvensiyada ko'rsatilgan huquqlar bo'yicha ekspertlar faoliyat



yuritadilar.ekspertlar uz davlati manfaatidan kelib chikib emas, balki mustakil ekspert sifatida ish olib boradilar. Bu esa ularning adolatli mulohaza chiqarishini ta'minlaydi.

Qo'mita 1989 yil qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan davlatlar uzlarining bu boradagi majburiyatlarini kay tarzda bajarayotganliklarini kuzatib boradi. Konvensiya qatnashchisi bo'lgan davlatlar Konvensiya bajarilishiga qaratilgan tadbirlar haqidagi va bola huquqlarini amalga oshirish soxasidagi taraqqiyot to'g'risidagi ma'ruzalarni muntazam ravishda shu Qo'mitaning uziga tavdim etadilar. Bu ma'ruzalarning milliy darajada oshkor etilishi va keng ommalashtirilishi ta'minlanadi.

*Bola huquqlari bo'yicha qo'mita.* Bola huquqlari bo'yicha qo'mita Bola huquqlari bo'yicha konvensiyaning 43-moddasiga binoan 1991-yilda tashkil etilgan. Bu Qo'mitaning birinchi sessiyasi 1991-yilda bo'lib o'tgan. Qo'mita o'n nafar ekspertdan iborat. Uning zimmasiga bola huquqlarini rag'batlantirish uchun ko'rashayotgan, Konvensiya qatnashchisi bo'lgan barcha davlatlar o'rtasida muntazam muloqot yo'lga qo'yilishini ta'minlash vazifasi topshirilgan. Ular mustaqil faoliyat yuritadilar. Qo'mita majlislari har yili Jenevada bo'lib o'tadi. Qo'mita faoliyati to'g'risida ma'ruza ikki yilda bir marta EKOSOS orqali Bosh Assambleyaga taqdim qilinadi.

Qo'mita Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan davlatlar o'zlarining bu boradagi majburiyatlarini qay tarzda bajarayotganliklarini kuzatib boradi. Konvensiyaning 44-moddasiga binoan, a'zo-davlatlar Qo'mitaga Konvensiyada tan olingan huquqlarni mustahkamlash yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida ma'ruzalar taqdim etishlari shart bo'ladi. Davlallar ma'ruzasida Konvensiya bajarilishiga qaratilgan tadbirlar haqidagi va bola huquqlarini amalga oshirish sohasidagi taraqqiyot to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar aksetgan bo'lishi kerak. Birinchi ma'ruza tegishli davlatga Konvensiya kuchga kirganidan so'ng ikki yil ichida taqdim qilinishi shart. Keyingilari esa, keyingi har besh yil ichida bir marta taqdim etiladi. Konvensiyaga muvofiq, a'zo-davlat o'z hududida ma'ruzalari oshkoraligini ta'minlab berishi lozim. Qo'mita ma'ruzalarni o'rganib, umumiy harakterdagi taktif va tavsiyalar berishi mumkin. Agar ma'ruza yuzasidan mulohazalar qilinsa, bu haqda Bosh Assambleyaga xabar qilinadi.

Qo'mitaning mulohazalari yuridik majburlov kuchiga ega emas Lekin, Qo'mita mutohazalarini inobatga olmaslik Konvensiyaga hurmatsizlarcha qarashni bildiradi. Qo'mitada Konvensiyada ko'rsatilgan huquqlar bo'yicha ekspertlar faoliyat yuritadilar. Ekspertlar o'z davlati manfaatidan kelib chiqib emas, balki mustaqil ekspert sifatida ish olib boradilar. Bu esa, ularning adolatli mulohaza chiqarishini ta'minlaydi

### **Muhokama uchun savollar:**

1. 1924 yilda Millatlar Ligasi tomonidan qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi Jeneva deklaratsiyasi mohiyati nimadan iborat?
2. Bolalarning omon qolishi, himoyasi va rivojlanishi to'g'risidagi Jahon deklaratsiyasining ahamiyati.

3. BMT ixtisoslashgan tashkilotlari hujjatlarining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.

### **5-mavzu. Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro Konvensiya.**

#### **Reja:**

1. 1989 yil Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya.
2. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani qabul qilishning shart-sharoitlari, o'ziga xos xususiyatlari va poydevor prinsiplari
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga qo'shilish to'g'risida" 1992 yil 9 dekabrda 757-XP-sonli qarori.
4. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya normalarining umumiy tavsifi

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

*Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga qo'shilish to'g'risida" 1992 yil 9 dekabrda 757-xp-sonli qarori, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi.*

#### **Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani qabul qilishning shart-sharoitlari, o'ziga xos xususiyatlari va poydevor prinsiplari**

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya bola huquqlarini himoya qilish tarixida alohida o'rin egallaydi. Konvensiya tez orada, 20 ta davlat tomonidan ratifikatsiya qilindi va 1990-yilda kuchga kirdi.

Konvensiyani tayyorlash jarayoni oddiy kechmaganligini inobatga olish lozim. Bolaga har qanday odamlarga tegishli huquqlarni taqdim etishga ishonmaydiganlarning jiddiy qarshiliklariga uchradi. Ayniqsa, bolaning o'z fikrini bayon qilish, yig'ilishlarda erkin ishtirok etish, vijdon erkinligi, ijtimoiy ta'minotdan foydalanish huquqlarini e'tirof etishning zarurligiga shubhalanuvchilar bo'ldi. Keskin munozaralar natijasida bola huquqlari odamlarga tegishli huquqlar kompleksi bilan ta'minlanishi to'g'risida g'oyani e'tirof etuvchilar har qalay ustun keldilar.

YUNISEF ma'lumotlarida alohida ta'kidlanganidek, bu huquqlarning barchasi Konvensiya matni bo'yicha uch asosiy maqsadni nazarda tutadi:

- *birinchidan*, bola huquqlari barcha boshqa shartnomalarga binoan umuman insonlarga berilgan huquqlardan iborat ekanini yana bir-marta ta'kidlash;
- *ikkinchidan*, insonning ba'zi asosiy huquqlarini mustahkamlab, bolalarning o'ziga xos manfaatlarini alohida e'tiborga olish;
- *uchinchidan*, bolalar uchun ayniqsa muhim bo'lgan sohalarga oid me'yorlar belgilash.

Ta'kidlash lozimki, bolalarning keng huquqlarini tan olinishini, o'z huquqlaridan foydalanish va ularni himoyalashda mustaqil bo'lishini ba'zilar Konvensiya, xuddi bolalarni o'z oilalaridan "ozod" qilayotgandek tushundilar. Bunday tushuncha Konvensiyaning mazmuniga batamom zid bo'lib, uning harakteri va maqsadini noto'g'ri talqin qilardi. Haqiqatda esa, Konvensiyaning maqsadi

bolalarni o‘z ota-onalaridan va oilalaridan uzoqlashtirish va yakkalab qo‘yish emas, aksincha, bolalarni o‘z oilasida yashashi, ota-onasidan ajratilmasligi, oila tizginlarini susaytirish emas, balki kuchaytirishga qaratilgan edi. Ishtirokchi davlatlarga, turli sabablarga ko‘ra buzilgan oilalarni tiklash vazifasi yuklatilgani ham buning isbotidir.

Konvensiyaning chin mohiyati va ruhi oilani tibbiy orombaxsh muhit ekanligini va bola uni sevgan ota-onasi bag‘rida mustaqil rivojlanishi, shakllanishi zararliligini e‘tirof etishga qaratilgandi.

Konvensiyada uch jiddiy yangilik mavjud. Birinchidan, u bolalar uchun “ishtirok etish huquqi” tushunchasini amaliyotga kiritdi va bolalar o‘z huquqlaridan xabardor bo‘lishining ahamiyatini tan oldi. Ikkinchidan, ilgari xalqaro hujjatlarda hech eslatilmagan ba‘zi masalalarni o‘rtaga tashladi: shafqatsizlik va ekspluatatsiyadan jabr ko‘rgan bolalar o‘z ahvolini tiklashga haqli ekani va hukumatlar bolalarning salomatligiga putur yetkazadigan odatlarga barham berish uchun qadam tashlashga majburligini ta’kidladi.

Uchinchidan, u ilgari yuridik majburiyat tug‘dirmaydigan matnlardagina uchraydigan prinsiplar va me‘yorlarga, xususan farzandlikka olish va voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirish bilan bog‘liq masalalarga e‘tiborni qaratdi.

Konvensiya, shuningdek, ikki muhim konsepsiyani amaliyotga kiritdi:

*Birinchi konsepsiya* - “bola manfaatlarini yaxshiroq ta‘minlash” (3-modda) bolalarga nisbatan barcha munosabatlar uchun majburiy omil deb sanaldi;

*Ikkinchi konsepsiya* - ota-ona yoxud bola uchun mas‘ul bo‘lgan barcha shaxslar o‘z huquqlarini amalga oshirib, bolaga nisbatan boshqaruv va rahbarlik qilish chog‘ida uning rivojlanib borayotgan qobiliyatlariga mos ish tutishlari darkor.

Konvensiyaga ko‘ra, bolaga nisbatan barcha harakatlar “bolaning manfaatlarini imkon boricha ta‘minlash” (3-modda) mezoniga asoslanishi lozim. Bu mezon ota-onalarning o‘z bolalariga munosabatlarida ham inobatga olinmog‘i shart. Ular (ota-ona va ularning o‘rnini bosuvchilar) o‘z huquqlarini bolaning rivojlanayotgan qobiliyatlariga, ya‘ni uning manfaatlariga moslab amalga oshirishlari kerak.

Konvensiyaning asosiy prinsiplari tegishli qonun majmualarida - oila, fuqarolik, mehnat kodekslarida va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda o‘z liodasmi topgan. Bu asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

- Yashash bolaning ajralmas huquqi ekani prinsipi;
- Bola manfaatlarining yanada yaxshiroq ta‘minlanishi prinsipi;
- Bolani kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik prinsipi;
- Bolaning o‘z fikrini erkin ifodalashi va tinch yig‘ilish erkinligiga bo‘lgan huquqi prinsipi.

“Bolaga tegishli barcha huquq va erkinliklarning negizini tashkil etuvchi to‘rtala prinsip, uning teng huquqli shaxs sifatidagi huquqiy maqomini yuksaltirish nuqtai nazardan qadrlanadigan mazkur prinsiplar Konvensiyaning poydevor prinsiplari hisoblanadi va uning normalari bu prinsiplar asosida qurilgan.

## **2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining “Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaga qo‘shilish to‘g‘risida” 1992 yil 9 dekabrda 757-XP-sonli**

**qarori.**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY KENGASHINING QARORI**

**BOLA HUQUQLARI TO‘G‘RISIDAGI KONVENSIYAGA QO‘SHILISH  
HAQIDA**

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavida e‘lon qilingan prinsiplarga muvofiq, jamiyat barcha a‘zolarining qadr-qimmatini, teng va daxlsiz huquqlarini e‘tirof etish inson erkinliklarini ta‘minlashning asosi ekanligini e‘tiborga olib, shuningdek bolalar alohida g‘amxo‘rlik va himoya huquqiga ega ekanligini e‘tirof etib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qaror qiladi:

1989-yil 20-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 44-sessiyasi qabul qilgan Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaga qo‘shilsin.

**3. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya normalarining umumiy tavsifi**

Mazkur hujjat konvensiya shaklida tuzilganidir. Odatda, konvensiya (lot. sonventio-bitim) atamasi umumiy ma‘noda ham, muayyan turdagi xalqaro bitimlarni belgilash uchun ishlatiladi. Umumiy ma‘noda atama odat huquqidan farqli o‘laroq, BMT Xalqaro sudi Statutining 38-moddasida belgilanganidek, asosan shartnoma huquqini belgilash uchun ishlatiladi. Konvensiyaning tuzilishi, odatga ko‘ra, kirish qismi hisoblanmish muqaddima, ikkita qismdan iborat asosiy qism va yakunlovchi qismdan iborat 3 ta tarkibiy qismdan iborat bo‘lib, umumiy 54 moddani tashkil etadi.

Konvensiyaning rasmiy maqsadi, xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan prinsiplari va shartnoma tuzish sabablari ko‘rsatilgan Muqaddima qismida, xalqaro hamjamiyatning jahonda bola huquqlarini har tomonlama himoya qilishga qat‘iy sa‘y-harakati, jamiyatning asosiy tashkiloti hisoblanmish oila va tibbiy muhitga uning barcha a‘zolari, ayniqsa, bolalar o‘sib-ulg‘ayishlari va farovonlikka ega bo‘lishlari uchun jamiyat doirasidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga to‘liq oladigan bo‘lishiga erishish maqsadda zarur himoya va yordam bilan ta‘minlanishi lozim ekanligi, bolaning shaxsi sog‘lom va har tomonlama uyg‘unlashgan holda kamoloti uchun u oila g‘amxo‘rligida, baxt, mehr-muhabbat va ongli tushunish vaziyatida o‘sishi zarurligini e‘tirof etgan holda, jahondagi barcha mamlakatlarda og‘ir sharoitlarda yashayotgan bolalar borligi hamda ular alohida e‘tiborga muhtoj ekanliklarini, bolaning himoya qilinishi va uyg‘un ravishda rivojlanishi uchun har bir xalqning an‘analari va madaniy qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etishini munosib tarzda hisobga olinganligi, har bir mamlakatda, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalarning turmush sharoitlarini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlik qilishning muhimligini e‘tirof etilganligi, shuningdek, Konvensiyani bola huquqlari bo‘yicha boshqa xalqaro huquqiy hujjatlar va ularning normalari uyg‘unligi kabi masalalar o‘z aksini topgan.

Konvensiyaning I-qismida ishtirokchi davlatlarning bolalarning huquq va erkinliklari, ota-onalari va ularni o‘rni bosuvchilarning huquqlari, majburiyatlari, shuningdek, ularni ta‘minlab berish borasidagi davlat va uning tegishli organlarining majburiyatlari va vazifalari belgilab berilgan.

Konvensiyaning 1-moddasida “bola” ta‘rif beriladi, ya‘ni, unga ko‘ra “18 yoshga to‘lmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan qo‘llaniladigan qonun

bo'yicha u ertaroq balog'atga yetmagan bo'lsa, bola hisoblanadi".

Konvensiyaning 2-5 moddalarida ishtirokchi-davlatlarga, ular tomonidan Konvensiyada ko'zda tutilayotgan huquqlarni ta'minlab berish yuzasidan amalga oshirishi lozim bo'lgan chora-tadbirlari, kabi majburiyatlar yuklatilgan.

Jumladan, 2-moddada, ishtirokchi-davlatlarga o'z ta'sir doirasida bo'lgan har bir bola uchun Konvensiya ko'zda tutilgan barcha huquqlarni, hech qanday kamsitishlarsiz, irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, bolaning sog'lig'i va tug'ilishi, uning ota-onasi yoki qonuniy vasiysi yoki biror-bir boshqa holatlardan qat'iy nazar, hurmat qilishi lozim hamda bu huquqlarni ta'minlab berish, shuningdek, "bola, uning ota-onasi, qonuniy vasiysi yoki boshqa oila a'zolarining qarashlari yoki e'tiqodida o'z ifodasini topadigan maqom, faoliyat asosida kamsitish yoki jazolashning barcha shakllaridan bolaning himoyasini ta'minlash uchun hamma zarur choralarni ko'rish majburiyatini yuklaydi.

Kamsitish - yengish qiyin bo'lgan ijtimoiy hodisa hisoblanib, ijtimoiy turmushning barcha darajalarida barham berilishi lozim. Uni yo'qotish uchun awalo, davlat o'zining siyosiy irodasini namoyish etishi zarur. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya, ishtirokchi-davlatlar zimmasiga ular tomonidan nazarda tutilgan "barcha huquqlarni hurmat qilish va ta'minlash" vazifasini yuklab qo'yganligi bejiz emas. Shunga muvofiq, davlat bolalar o'z huquqlaridan haqqoniy foydalanishlari uchun huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy tushdagi choralardan foydalanishi kerak. Bu o'rinda kamsitishning oldini olish borasida ogohlantiravchi choralarni yaratish haqida so'z yuritilmoqda. Insonning rivojlanish erkinligini kamsitish nomaquldir. Hozirda jamiyat, uning har bir institutining bevosita ishtirokisiz uni tubdan yo'qolishini tasavur qilib bo'lmaydi. Fuqarolik jamiyatining rivojlangan darajasiga shubhasiz ko'p narsa bog'liq. Dunyo rivojlanish tajribasining dalolat berishicha, fuqarolik jamiyatining "ulg'ayishi" ijtimoiy muammolarni hal etish jarayonida fuqarolarning ishtiroki bilan amalga oshadi. Jamoatchilik kamsitishni yo'qotishga qanchalik muvaffaqiyatli kirishsa, uning hayotiy zarur muammolarni yechish faoliyatining natijasi ham shunchalik samarali bo'ladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan tayyorlangan "2000-yil bo'yicha insoniyat taraqqiyoti to'g'risidagi ma'ruza"da sanab o'tilgan "Yetti erkinlik" qatoriga "**Kamsitishlardan erkin bo'lish**" ham kmtilgan

3-moddada "Bola manfaatlarini yaxshiroq ta'minlash prinsipi" o'z aksini topgan, ya'ni unga ko'ra, bolalarga nisbatan barcha hatti-harakatlarda, ular ijtimoiy ta'minot masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat yoki xususiy muassasalar, sudlar, ma'muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan sodir etiladimi-yo'qmi, bundan qat'iy nazar, bolaning manfaatlari yaxshiroq ta'minlanishiga birinchi darajali e'tibor berilishi;

Ishtirokchi-davlatlar o'z zimmasiga bolani uning farovonligi uchun zarar hisoblangan himoya va g'amxo'rlik bilan ta'minlash, bunda uning ota-onasi, vasiysi yoki qonun bo'yicha uning uchun javobgar sanalmish boshqa shaxslarning huquq va majburiyatlarini e'tiborda tutishni hisobga olishlari hamda ana shu maqsadda barcha

qonuniy va ma'muriy chora-tadbirlarni ko'rishlari;

Ishtirokchi-davlatlar bolalar haqida g'amxo'rlik ko'rsatish yoki ularni himoya qilish uchun mas'ul hisoblangan organlar, muassasalar va xizmatlar vakolatli organlar tomonidan belgilab qo'yilgan me'yorlarga, xususan, xavfsizlik va sog'liqni saqlash sohasida va ulardagi xodimlarning soni va ishga yaroqliligi, shuningdek, vakolatli nazorat olib borishi nuqtai nazaridan belgilangan me'yorlarga javob berishlarini ta'minlashlari lozimligi belgilab qo'yilgan.

#### **Muhokama uchun savollar:**

1. *Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani qabul qilishning shart-sharoitlarini va o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.*
2. *Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada ko'zda tutilgan huquqlar bo'yicha uch asosiy maqsad va jiddiy yangiliklar nimadan iborat?*
3. *Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning tuzilishini tushuntirib bering.*

### **6-mavzu. Ijtimoiy ishda bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish mexanizmlari.**

#### **Reja:**

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan muassasalari (XMT, JSST, YUNESKO).
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining yordamchi organlari: ularning funksiyalari, vazifalari, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilish va amalga oshirishni ta'minlash sohasidagi faoliyatning asosiy yo'nalishlari.
3. Shartnomadan tashqari nazorat mexanizmlari (BMT nizomi asosida) va an'anaviy nazorat organlari (inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar asosida).

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari, XMT, JSST, YUNESKO, Bola huquqlari bo'yicha xalqaro mexanizmlar, shartnomadan tashqari nazorat mexanizmlari.

### **1. BMTning ixtisoslashgan tashkilotlarida inson huquqlari masalasi**

*Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (UNESCO) va inson huquqlari UNESCO, necha yildirki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 27-moddasida e'lon qilingan madaniy hayotda ishtirok etish huquqini amaliy tarzda turmushga tatbiq etishga qaratilgan faoliyat o'tkazib kelmoqda. Chunonchi, 1966-yilda UNESCOning Bosh konferensiyasi Xalqaro madaniy hamkorlik tamoyillari deklaratsiyasini qabul qilgan va e'lon qilgan. Hukumatlar, **Bola huquqlari bo'yicha xalqaro mexanizmlar** ma'murlar, madaniy faoliyat uchun mutasaddi tashkilotlar, uyushmalar va muassasalar bundan buyon ana shu Deklaratsiyaga amal qilishlari lozim, deb topilgan.*

Hozirgi kunga qadar UNESCO tomonidan 70 ga yaqin xalqaro shartnomalar qabul qilingan bo'lib, ularning aksariyati inson huquqlari bilan bevosita yoki bilvosita bog'liqdir. Shuningdek, UNESCOning Konvensiyalar va tavsiyalar bo'yicha

qo‘mitasiga ham shikoyatlar bilan murojaat qilish mumkin. Murojaatlar alohida shaxslar yoki nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan quyidagi masalalar yuzasidan berilishi mumkin: ta‘lim olish huquqi, jamiyatning madaniy hayotida erkin ishtirok etish, san‘atdan bahramand bo‘lish, ilmiy taraqqiyotda ishtirok etish huquqi, axborot va g‘oyalarni har qanday vosita bilan izlash, olish va tarqatish erkinligi, vijdon va so‘z erkinligi.

*Xalqaro mehnat tashkiloti* Xalqaro mehnat tashkiloti Millatlar ligasi bilan bir paytda Versal shartnomasi asosida 1919-yilda tashkil topgan. Xalqaro mehnat tashkiloti Birinchi jahon urushidan keyin ijtimoiy sohadagi islohotlarni jadallashtirish va ularni xalqaro darajada muvofiqlashtirish maqsadida ta‘sis etilgan. Xalqaro mehnat tashkilotining birinchi yig‘ilishi 1919-yilning oktabr-noyabr oylarida Vashington shahrida bo‘lib o‘tdi. Unda Xalqaro mehnat tashkilotining oltita konvensiyasi va oltita tavsiyasi (ish kunining davom ettirilishi to‘g‘risidagi 1-konvensiya bilan birga) qabul qilingan.

1946-yilda Xalqaro mehnat tashkiloti Birlashgan Millatlar Tashkilotining birinchi ixtisoslashgan tashkiloti sifatida tashkil topdi. 1969-yilda XMTning 50 yilligi munosabati bilan unga xalqaro Nobel mukofoti berildi.

XMT to‘rtta asosiy strategik maqsadga ega va ular quyidagilardan iborat:

*birinchi maqsad*- mehnat sohasi bo‘yicha normalar va asosiy tamoyillar hamda huquqlarni rivojlantirish va amalga oshirish;

*ikkinchi maqsad* - ayollar va erkaklar uchun yanada kengroq va qulay ish sharoitini yaratish;

*uchinchi maqsad*- barcha uchun ijtimoiy himoya samarasini oshirish va ko‘lamini kengaytirish;

*to‘rtinchi maqsad* - uch tomonlama tuzilmani mustahkamlash va ijtimoiy muloqotni qo‘llab-quvvatlash.

*Butunjahon intellektual Mulk Tashkiloti* Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) BIMTning ixtisoslashgan tashkiloti bo‘lib, insonning ijod qilish huquqi va uning ijodi natijalariga qaratilgan mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasi bilan shug‘ullanadi. BIMTning shtab-kvartirasi Shveysariyaning Jeneva shahrida joylashgan. BIMT 1967-yil 14-iyul kuni Stokgolm shahrida imzolangan, “Butunjahon intellektual mulk tashkilotini tashkil etish haqidagi konvensiya” asosida tashkil etilgan. Konvensiya 1970-yildakuchgakirgan.

BIMTning vazifalaridan bin butun dunyoda davlatlar o‘rtasida kelishuv va bitimlar asosida intellektual mulkni himoya qilishni muvofiqlashtirish va turli shartnoma hamda konvensiyalarning ma‘muriy boshqaruvini ta‘minlashdan iborat. BIMTning mablag‘lari va faoliyati asosan rivojlanib kelayotgan, ayniqsa, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari, Yaqin sharq mamlakatlari va boshqa davlatlarning rivojlanishiga qaratilgan. Bu tashkilot 1974-yil dekabr oyida BIMTning ixtisoslashgan tashkiloti degan maqomni olgan.

BIMT dunyoda intellektual mulk himoyasini ta‘minlash va rag‘batlantirish borasida yangi va har tomonlama zarur bo‘lgan xalqaro shart-nomalarning yuzaga kelishida vositachilik qiladi. Shuningdek, bu tashkilot barcha davlatlarda intellektual mulkka oid milliy qonunchilikning yaratilishida har tomonlama amaliy yordam ko‘rsatadi, a‘zo-davlatlarning bir-biri bilan aloqalar o‘rnatishida ko‘maklashadi.

1976-yilda BIMT Konferensiyasi tomonidan Doimiy

dastur ishlab chiqilgan. Bu Dasturning asosiy vazifasi ijod bilan shug'ullanuvchi shaxslarni har tomonlama rag'batlantirish, adabiy va badiiy asarlarni tarqatish, rivojlanayotgan davlatlarda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish hamda shu soha bilan shug'ullanayotgan tashkilotlar ishiga amaliy yordam berishdan iboratdir.

BIMT tashkil topgandan so'ng harakatda bo'lgan, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qator xalqaro konvensiyalar normalarini butun dunyo mamlakatlari milliy qonunchilik normalari orqali ijroga qaratishga muvaffaq bo'ldi. Hozirgi vaqtda deyarli barcha davlatlarda mualliflik huquqini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik asoslari yaratilgan. Shuningdek, BIMT mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga oid qonunlar loyihalarini o'rganib chiqish va tavsiyalar berish bilan shug'ullanib kelmoqda. Qabul qilingan yangi qonunlar, huquqiy adabiyotlarni chop etish va tarqatish yax-shiyo'lgaqo'yitgan.

BMTning 1996-yil 2-20-dekabr kunlari Jeneva shahridagi shtab-kvartirasida chaqirilgan diplomatik konferensiyasida qariyb o'n yil davomida tayyorlangan "BMTning Mualliflik huquqiga oid shartnomasi" va "BMTning Ijrolar va fonogrammalar bo'yicha shartnomasi" qabul qilindi. Bu shartnomalar eng so'nggi texnologiya natijalari hisoblangan elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar, axborotlar bazasi, "Internet" tizimi, kinematografiya asarlari, fonogrammalardan foydalanish, ularga nisbatan bo'lgan huquqlarni amalga oshirish bilan bog'liq bir qator xalqaro huquqiy tizimlarni belgilab berdi. Ijrochitar huquqlarini yanada kengaytirish, fonogramma ishlab chiqaruvchilari manfaatlarini huquqiy shakllarda mustahkamlanganligi amalda bo'lgan soha xalqaro huquqiy normalari ijro-sini yanada kengaytirdi. Ayniqsa, ijrochilaraing shaxsiy nomulkiy va shaxsiy mulkiy huquqlari yanada kengaytirildi.

*Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti* insonning sog'liqqa bo'lgan huquqining targ'ib etilishi va himoya qilinishidagi asosiy ixtisoslashgan tashkilot hisoblanadi. JSST insonning sog'lom rivojlanishiga oid ko'plab xalqaro hujjatlar, shu jumladan, OIV/OITS dasturining butunjahon miqyosida qabul qilinishi va muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga o'ziga xos hissa qo'shib kelmoqda. JSST BMTning ixtisoslashgan tashkiloti hisoblanadi.

*BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha tashkiloti* ixtisoslashgan idoralar orasidagi eng yirik tashkilot hisoblanib, qashshoqlikka qarshi butunjahon miqyosida ko'rashishning muhim element! va oziq-ovqalga bo'lgan huquqning targ'ib etilishi va himoya qilinishidagi eng ta'sirchan ishtirokchi sanaladi. Taraqqiyot yo'lida qashshoqlikka qarshi ko'rashish borasida 2000-yil sentabrda o'tkazilgan Ming yillik Sammiti davomida 150 ga yaqin davlat boshliqlari va hukumat rahbarlari kelishuvga erishgan edilar.

## **2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti organlarining roli va tizimi**

BMT — tinchlikni va xalqaro xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash, davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan universal tashkilotdir. BMT Ustavi San-Fransiskoda o'tkazilgan konferensiyada imzolangan bo'lib, 1945 yildan kuchga kirgan. BMT Ustavi barcha davlatlar rioya etishlari shart bo'lgan yagona



xalqaro hujjatdir. BMT Ustavining ahamiyati nafaqat uning tinchlikni ta'minlovchi tashkilotning faoliyatini tartibga soluvchi hujjatligida, balki barcha davlatlar uchun teng bo'lgan jamoa himoya tizimining yaratilishida asos bo'lib xizmat qilishi va davlatlar tomonidan olib boriladigan harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ekologik, insonparvarlik sohalaridagi faoliyatlarini belgilovchi o'ziga xos kodeks ekanligida hamdir. BMT Ustavi doirasida ko'p tomonlama kelishuv va shartnomalarning ko'p tarmoqli tizimi vujudga kelgan. BMT tuzilishining asosiy sabab va maqsadlari uning Ustavi «Muqaddima»sida quyidagicha ifodalangan.

BMT Ustavida uning 6 ta asosiy organlari ko'rsatilgan. Ular quyidagilardir:

- a) Bosh Assambleya;
- a) Xavfsizlik Kengashi;
- b) Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS);
- c) Vasiylik bo'yicha Kengash;
- d) Kotibiyat;
- e) Xalqaro Sud.

**Bosh Assambleya** — suveren davlatlarning haqiqiy demokratik vakillik organidir. Har bir a'zo davlat hududining hajmi, aholining soni, iqtisodiy va harbiy qudratidan qat'i nazar, bir ovozga ega. Bosh Assambleyaning muhim qarorlari ovoz berish jarayonida ishtirok etayotgan davlatlarning ko'pchiligi tomonidan qabul qilinadi.

U Xavfsizlik kengashining nodoiimiy a'zolarini saylash, EKOSOSning a'zolarini saylash, BMT yangi a'zolarini qabul qilish, BMT Bosh Kotibini tayinlash, tashkilot a'zolarining huquq va vakolatlarini cheklash, tashkilot a'zolidan chikarish, budjet va boshqa texnik-ma'muriy masalalar bo'yicha Bosh Assambleya bajarilishi shart bo'lgan qarorlar qabul qilish kabi muhim ishlarni bajaradi. Xalqaro xavfsizlik va tinchlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan masalalar bo'yicha u tavsiyaviy harakterga ega rezolyutsiya va deklaratsiyalar qabul qiladi.

**Xavfsizlik Kengashi** — BMTning eng muhim organi bo'lib, 15 a'zodan iborat. Ushbu a'zolarining beshtasi (AKSH, Buyuk Britaniya, Rossiya, Fransiya va Xitoy) doimiy, qolgan o'ntasi nodoiimiy bo'lib, ular saylanadilar.

Xavfsizlik Kengashining qoidalariga tegishli masalalar bo'yicha qarorlar a'zolarining istalgan tukkiztasi yoklab ovoz bergan takdirda qabul qilinadi. Qolgan barcha masalalar bo'yicha qarorlar Kengashning barcha doimiy a'zolari ovozlarni kushib hisoblaganda tukkizta a'zo yoklab ovoz bergan takdirda qabul qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, doimiy a'zoldan bittasi yoki bir nechtasi biror-bir qarorga nisbatan qarshi ovoz bersa, bu qaror qabul kllinmaydi. Bunday holat veto qo'yilishi deb ataladi.

**Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS)** xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik masalalariga doir faoliyatni olib boradi. EKOSOS 54 a'zodan iborat bo'lib, ular Bosh Assambleya tomonidan uch muddatga saylanadilar va har yili vakolatlari tugagan 18 a'zoning o'rniga yangilari saylab boriladi.

EKOSOS BMT Ustavidan kelib chiqqan holda davlatlar o'rtasida iqtisodiy ilmiy-texnikaviy hamkorlikni ta'minlash, uni muvofiqlashtirish yo'lida samarali ish olib borishi, xalqaro huquqiy hujjatlarning ishlab chiqilishida ishtirok etishi va davlatlar iqtisodiy xavfsizligini kafolatlovchi institutlar va mexanizmlar ishlab chiqishi lozim.

Vasiylik bo'yicha Kengash — bu uning otaligidagi hududlarda xukmronlik qilish huquqiga ega va majburiyatlarni bajarilishini nazorat qiluvchi BMT organidir. Hozirgi kunda uning besh a'zosi (AQSH, Angliya, Rossiya, Fransiya, Xitoy) bor. Kengash har yili Nyu-Yorkda bir sessiya utkazadi. AKSH boshqaruvida bo'lgan dastlabki ikki hududdan faqat bittasi — Tinch okeani orollari (Mikroneziya) qoldi. BMT Kotibiyati Bosh Kotib va tashkilotga lozim miqdordagi xodimdan iboratdir. Ushbu organ BMTning boshqa organlari tomonidan qabul qilingan qarorlarning hayotga tadbiq etilishini ta'minlaydi va BMT asosiy va yordamchi organlariga konferensiyaviy va boshqa xizmatlar ko'rsatadi.

Kotibiyat:

birinchi, Xavfsizlik Kengashi sanksiyalaridan kelib chiquvchi, tinchlikni ta'minlovchi operatsiyalarni olib borish;

ikkinchi, tinchlik mazmunidagi xalqaro konferensiyalarni tashkil etish va o'tkazish (Dengiz huquqi bo'yicha konferensiya);

uchinchi, jahon miqyosidagi iqtisodiy va ijtimoiy muammolar yuzasidan obzorlar tayyorlash;

To'rtinchi, qurolsizlanish va inson huquqlarining rivojlanishi kabi sohalar bo'yicha tekshiruvlar o'tkazish singari ishlarni bajaradi.

BMT Kotibiyatiniig funksiyalari quyidagilardan iborat:

BMT tizimidagi organlarga xizmat ko'rsatadi;

BMT tizimidagi organlar tomonidan dasturlarning ishlab chiqarilishi va ular tomonidan ishlab chiqilgan siyosatning amalga joriy etilishini ta'minlaydi;

BMT shug'ullanuvchi turli masalalar bo'yicha BMT Bosh Kotibiga axborotlar beradi;

Majlislardagi chiqishlarning og'zaki tarjimasini amalga oshiradi;

sessiya majlislari hisobotlarini tuzadi, chop etadi va tarqatadi;

arxivlarda hujjatlarni saqlaydi va BMT a'zolari bo'lgan barcha davlatlarga Bosh Assambleyaning hujjatlarini tarqatadi;

BMT a'zolari tomonidan tuzilgan shartnomalarni ro'yxatga oladi va o'rganadi;

Bosh Assambleya talabiga ko'ra boshqa ishlarni amalga oshiradi.

Kotibiyat BMTning Nyu-Yorkdagi qarorgoxida joylashgan.

Bosh Kotib Kotibiyatni boshqaradi va bosh mansabdor shaxs hisoblanadi.

Bosh Kotib Bosh Assambleya tomonidan Xavfsizlik Kengashining tavsiyasiga muvofiq, besh yil muddatga tayinlanadi. Bosh Kotib Bosh Assambleyaga tashkilotning faoliyati haqida har yili hisobot beradi va xalqaro tinchlikka tahdid soluvchi masalalar haqida Xavfsizlik Kengashida ma'lumot beradi.

Xalqaro Sud — BMTning asosiy sud organidir. U 15 ta mustaqil sudyadan iborat bo'lib, ular fuqaroliklaridan qatyi nazar, o'z mamlakatlarida oliy sud lavozimlariga tayinlanishlari uchun talab etilgan oliy axloqiy talablarga javob beruvchi va xalqaro huquq sohasida tanilgan yuristlar orasidan saylanadi.

Sudyalar Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi tomonidan qayta saylanish huquqi bilan to'qqiz yilga saylanadilar. Xalqaro Sud 3 yil muddatga rais, raisning o'rinbosari va kotibni saylaydi. Xalqaro Sud tarkibida ikkita ayni mamlakat fuqarolari bo'lishlari mumkin emas.

Xalqaro Sud Statutiga muvofiq a'zo davlatlar o'rtasidagi nizolarni ko'rib chikadi va yechimini beradi a'zo bo'lmagan davlatlar bo'yicha Xavfsizlik Kengashi tomonidan har bir holat bo'yicha alohida aniqlangan shartlar asosida ish ko'radi, huquqiy masalalar bo'yicha konsultatsiyaviy xulosalar beradi (Xalqaro Sud konsultatsiyaviy xulosalarni bevosita so'rash huquqiga Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi va BMTning boshqa organlari ega. Boshqa xalqaro tashkilotlar va organlar bunday xulosani Bosh Assambleyaning ruxsati bilan so'rashlari mumkin).

Xalqaro Sud Gaaga shaxrida joylashgan.

BMT Ustavida muhim siyosiy organ bo'lgan Xavfsizlik Kengashi va Xalqaro Sudning vakolatlari keskin farq qiladi. BMT Ustavining 36-modda 3-bandiga ko'ra Xavfsizlik Kengashi yuridik nizolarni xal etish uchun umumiy qoidaga muvofiq Xalqaro sud nizomidan kelib chiqqan holda nizodagi tomonlar Xalqaro sudga murojaat qilishlari kerakligini e'tirof etadi. Xalqaro Sudning qarori nizodagi davlatlar tomonidan bajarilishi shart. Tomonlardan biri bu qarorni bajarmagan takdirida, nizodagi tomonlarning biri murojaat etganidan so'ng Xavfsizlik Kengashi qaror bajarilishini ta'minlovchi tavsiyalar yoki xatti-harakatlar qo'llashi mumkin. Xalqaro Sud sud faoliyatidan tashqari yuridik konsultatsiyaviy faoliyat ham olib boradi.

Xalqaro Sud davlatlar o'rtasidagi nizolarning tinch yo'llar bilan xal etilishi va jahonda adolat o'rnatilishiga qaratilgan strategiyaning ishlab chiqilishida asosiy organlardan biri bo'lishi ko'zda to'tilgan.

**BMTning ixtisoslashgan muassasalari**  
BMTning ixtisoslashgan muassasalari maxsus sohalardagi hamkorlikni ta'minlovchi hukumatlararo universal tashkilotlardir. Ular quyidagi xususiyatlarga egadirlar:

birinchidan, bunday tashkilotlarni ta'sis etuvchi shartnomalar hukumatlararo harakterga ega;

ikkinchidan, ta'sis hujjatlari doirasidagi keng xalqaro javobgarlikka ega bo'ladilar;

uchinchidan, maxsus: iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, insonparvarlik va boshqa sohalarda hamkorlikni ta'minlaydilar;

to'rtinchidan, BMT bilan yaqin aloqadadirlar.

Hozirgi kunda BMTning 16 ta ixtisoslashgan muassasalari mavjud. Ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- a) birinchi, ijtimoiy xususiyatli tashkilot (MOT, VOZ);
- b) ikkinchi, madaniy va insonparvarlik tashkilotlari (YUNESKO)
- c) uchinchi, iqtisodiy tashkilot (YUNIDO);
- d) To'rtinchi, moliyaviy tashkilotlar (MBRR, MVF, MAP, MFK);
- e) beshinchi, qishloq xo'jaligi sohasidagi tashkilotlar (FAO I-FAD);

- f) oltinchi, aloqa va transport sohasidagi tashkilotlar (IKAO, IMO, VPS, MSE);
- g) yettinchi, metereologiya sohasidagi tashkilot (VMO).

O'zbekiston Respublikasi BMTdan tashqari uning barcha asosiy ixtisoslashgan muassasalari a'zosidir.

**Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti.** 1946 yilda tashkil etilgan bo'lib, qarorgohi Jeneva shahrida. Uning asosiy faoliyat sohalari yuqumli kasalliklarga qarshi ko'rash, karantin va sanitariya qoidalarini ishlab chiqish va ijtimoiy harakterdagi masalalardir. Xalqaro Sog'liqni Saqlash Tashkiloti Sog'liqni Saqlash tizimlari ishlarini tashkil etishda, samaradorligini oshirishda, kadrlar tayyorlash va kasalliklarga qarshi ko'rashda ko'maklashadi.

**BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO)** 1945 yilda tashkil etilgan, qarorgohi Parij shahrida. YUNESKOning asosiy maqsadi davlatlar o'rtasida ta'lim, fan va madaniyat sohalaridagi hamkorlikning va ommaviy axborot vositalarining ishlatilishi yo'li bilan xalqaro tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashdan iborat.

Jahon intellektual mulk tashkiloti 1967 yilda tashkil etilgan, qarorgohi Jeneva shahrida, uning asosiy maqsadi bugun dunyoda intellektual mulkni himoya qilish va bu sohadagi xalqaro kelishuvlarni hayotga tadbiq etishdan iborat.

**BMTning sanoat taraqqiyoti tashkiloti (YUNIDO)** Bosh Assambleyaning organi sifatida 1966 yil Bosh Assambleyaning 17 noyabrdagi rezolyutsiyasi asosida tashkil etilgan. 1985 yilda YUNIDO BMTning ixtisoslashgan muassasasiga aylantirildi. Uning qarorgohi Vena shahrida. YUNIDOning asosiy maqsadi rivojlanayotgan davlatlar sanoatining o'sishiga va ularning tezroq industrializatsiyalashuviga ko'maklashishdan iborat.

Xalqaro taraqqiyot va qayta tiklash banki, Xalqaro valuta Fondi Bretton-Vudsda bo'lib o'tgan konferensiyada BMTning moliyaviy harakterdagi ixtisoslashgan muassasalari sifatida tashkil etilgan. Ularning qarorgohlari Vashington shahrida.

Xalqaro taraqqiyot va qayta tiklash banki, Xalqaro valuta Fondi, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi va Xalqaro moliya korporatsiyasi bir-biriga o'zaro uzviy bog'liq. Faqat Xalqaro valuta Fondi a'zolarigina Xalqaro taraqqiyot va qayta tiklash bankiga a'zo bo'la oladilar va faqat Xalqaro taraqqiyot va qayta tiklash banki a'zolari qolgan ikki bo'linmaga a'zo bo'lishlari mumkin. Ushbu tashkilotlarda ovoz berish tartibi farqli bo'lib, unda har bir a'zo o'z badalining ulushiga qarab ovozlar soniga ega bo'ladi.

Xalqaro valyuta Fondi moliyaviy tashkilotlar tizimida asosiy o'rin tutadi. Uning asosiy maqsadi a'zo davlatlar valuta-moliyaviy siyosatini muvofiqlashtirish, a'zo davlatlar valuta kursini, to'lov balansini qo'llab-quvvatlash, ularga qisqa muddatli va o'rta muddatli qarzlar berish kabilardan iborat.

Xalqaro taraqqiyot va qayta tiklash bankining asosiy maqsadi o'ziga a'zo bo'lgan davlatlar iqtisodiyotini tiklash va rivojlantirishga yordam berish, chet el xususiy sarmoyadorlarini qo'llab-quvvatlash va sanoatni rivojlantirish uchun qarzlar

berishdan iborat.

**BMTning oziq-ovqat tashkiloti va qishloq xo'jaligi (FAO)** 1945 yilda tashkil etilgan. Uning maqsadlari oziq-ovqatlar sifatini yaxshilash, aholi turmush tarzini yaxshilash, qishloq xo'jaligi hosildorligini oshirish, oziq-ovqat maxsulotlari taqsimoti tizimlarini yaxshilash singarilardan iborat.

**Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro Fondi (IFAD)** 1976 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Rim shahrida. Fondning asosiy maqsadi rivojlanayotgan davlatlar qishloq xo'jaligining rivojlanishiga ko'mak berish va buning uchun qo'shimcha mablag'lar berishdan iborat.

**Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (IKAO)** 1944 yilda tashkil etilgan. Uning qarorgoxi Monreal shahrida. IKAO xalqaro aeronavigatsiyaning tamoyillari va usullarini rivojlantirish, xalqaro havo yo'llarida xavfsizlikni ta'minlash, havo transportini rejalashtirish va rivojlantirishni qo'llab-kuvvatlash kabi maqsadlarni ko'zlab tashkil etilgan.

**Xalqaro dengiz tashkiloti (IMO)** 1948 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Londonda. Ushbu tashkilotning madsadi dengizda yuklarni tashish va dengiz savdosi sohalarida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va dengizda xavfsizlikni ta'minlashdan iborat.

**Jahon pochta ittifoqi** 1874 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Bernda. Xalqaro pochta ittifoqining madsadi pochta aloqasini yo'lga qo'yish va uni yaxshilashdan iborat. Xalqaro pochta ittifoqiga a'zo barcha davlatlar yagona pochta hududi tashkil etadilar va bu hududda ushbu hududning yagonaligi, tranzitning erkinligi va yagona tarifni o'rnatish tamoyiliga amal qiladi.

**Xalqaro elektr aloqasi ittifoqi** 1965 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Jenevada. Xalqaro elektr aloqasi ittifoqining maqsadi elektron aloqaning barcha turlaridan samarali foydalanish va uni mukammallashtira borishga yunaltilgan xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, radio tulkinlarini taqsimlash, rivojlanayotgan davlatlarga texnik yordam ko'rsatishdan iborat.

**Jahon metereologiya tashkiloti** 1947 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Jenevada. Xalqaro metereologiya tashkilotining asosiy maqsadi metereologiya bo'yicha xalqaro hamkorlikni tashkil etish, metereologiya xizmatining mukammallashtirib borishini ta'minlash va uning yutuklaridan aviatsiya, qishloq xo'jaligi, kemalar katnovidida va boshqa sohalarda foydalanishdir. Uning tezkor dasturi asosini bugun dunyo ob-havo xizmati tashkil etadi.

**Mintaqaviy xalqaro tashkilotlar**

Universal xalqaro tashkilotlar bilan bir qatorda mintaqaviy (regional) xalqaro tashkilotlar ham mavjud bo'lib, uning a'zolari ma'lum jug'rofiy mintaka davlatlari bo'lishlari mumkin. Bunday tashkilotlar faoliyati xavfsizlik, iqtisod, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalardagi mintaqaviy xalqaro hamkorlikka qaratilgan bo'ladi. BMT Ustavida bunday tashkilotlarga ma'lum talablar qo'yiladi. Jumladan, ularning tashkil etilish maqsadlari va faoliyati BMT Ustavining maqsad va tamoyillariga to'g'ri kelishi va bu tashkilotlar BMTning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatiga ko'maklashishi lozim.

Juda ko'p sonli turli mintaqaviy tashkilotlar ichidan umumiy vakolatlilarni ajratib ko'rsatish mumkin. Quyida ana shulardan ayrimlari to'g'risida tuxtalib ugamiz.

Afrika Birligi Tashkiloti — tarkibiga 50 dan ziyod Afrika davlatlari a'zo bo'lgan eng yirik mintaqaviy xalqaro tashkilotdir. Ushbu tashkilot 1963 yil 25 mayda Addis-Abebadagi Afrika-ning mustaqil davlatlari va hukumat raxbarlari ishtirok etgan va mazkur tashkilotning Hartiyasi va Nizomi imzolangan Konferensiyada tashkil etilgan.

Hartiyaning 2-moddasiga binoan Afrika Birligi Tashkilotining maqsadlari quyidagilardan iborat:

birinchi, Afrika davlatlarining birligi va dustligini mustahkamlash;

ikkinchi, ular o'rtasida siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, transport va aloqa, ta'lim, madaniyat, himoya va xavfsizlik va boshqa sohalardagi hamkorlikni muvofiqlashtirish va kuchaytirish;

uchinchi, ularning suverenitetini, hududiy yaxlitligi va mustaqilligini himoya qilish; To'rtinchi, Afrika kityasida mustamlakachilikning barcha turlarini tugatish va xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlash.

**Shartnomadan tashqari nazorat mexanizmlari (BMT nizomi asosida) va an'anaviy nazorat organlari (inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar asosida).**

BMT Nizomidan kelib chiqib tashkil etilgan organlarning inson huquqlariga oid nazorat funksiyasi

Hozirgi davrda BMT tizimidagi o'nlab turli organlar xalqaro shartnomalarga rioya qilish yuzasidan nazoratni amalga oshiradi. Ular davlatlarning o'z majburiyatlarini bajarishi yuzasidan taqdim qiladigan ma'ruzalarini hamda xususiy shikoyatlarni ko'rib chiqadi.

Inson huquqlarini himoya qilish BMT faoliyatidagi eng muhim muammo bo'lib, uning yechimining samarali yo'llarini izlab topishni hayotning o'zi taqozo qilmoqda. Ushbu dolzarb muammoning yechimi universal va mintaqaviy darajada xalqaro hamkorlikning rivojlanishi, davlatlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish, xalqaro-huquqiy normalarni takomillashtirish va ularning samarali bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq. BMT inson huquqlari va erkinliklari sohasida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

*birinchidan*, inson huquqlari bo'yicha xalqaro-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish;

*ikkinchidan*, davlatlar tomonidan inson huquqlari

borasidagi o'z majburiyatlarini bajarishlari yuzasidan nazorat olib borish;

*uchinchidan*, texnikaviy-gumanitar yordam bo'yicha axborotlar berish.

Inson huquqlari bo'yicha BMT mexanizmlari uning Nizomi asosida (nizomiy) ishlaydigan mexanizmlarga va xalqaro shartnomalar asosida ishlaydigan mexanizmlarga bo'linadi. Birinchisi BMT Nizomi qoidalari asosida tashkil etilgan bo'lsa, ikkinchisi esa, inson huquqlari bo'yicha turli xalqaro shartnomalarga muvofiq tashkil etilgan. Nizom bo'yicha tashkil etilgan organlarga quyidagi organlar kiradi: Bosh Assambleya, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash, Inson huquqlari bo'yicha kengash va ular qoshida tashkil etilgan yordamchi organlar.

*Nizomiy mexanizmlar* - bu, BMT a'zo-davlatlarining hukumatlari vakillaridan iborat bo'lgan siyosiy organlar hisoblanadi. Ular bir vaqtning o'zida bir necha muammoli sohalarni o'ziga jamlovchi va butun jahonda inson huquqlari bo'yicha

holatni o'rganadigan keng qamrovli mandatlarga egadir. BMTning barcha a'zo-davlatlari - ulaming mumkin bo'lgan "mijozlari" hisoblanadi.

### **BMTning inson huquqlari doirasidagi shartnomaviy (nazorat) organlari faoliyatining huquqiy asoslari**

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, inson huquqlari bo'yicha BMT tomonidan ko'plab normativ hujjatlar qabul qilingan. Bizga ma'lumki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi yuridik kuchga ega emas. Lekin, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va konvensiyalar ulami ratifikatsiya qilgan davlatlarga muayyan majburiyat va vazifalarni yuklaydi. Ushbu majburiyatlarni va vazifalarning a'zo-davlatlar tomonidan bajarilishini nazorat qilish uchun hujjatlarning o'zida nazorat organlari tuzish to'g'risida ko'rsatib o'tiladi.

Inson huquqlari bo'yicha shartnomaviy organlarning asosiy funktsiyalaridan bin davlatlarning taqdim etgan ma'ruzalarini o'rganib chiqish-dir. Ular tashkil etilgunga qadar, 1965-yilda EKOSOSning qaroriga ko'ra, BMTning inson huquqlari bo'yicha komissiyasining tavsiyasiga ko'ra (rezolyutsiya 624 V (XXII) BMT a'zolari u yoki bu huquqlarni amalga oshirganliklari to'g'risidagi har yilgi ma'ruzalarini BMT Bosh kotibiga taqdim etar edilar.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy, shuningdek, fuqarolik va siyosiy huquqlar, axborot erkinligi to'g'risidagi ma'ruzalar taqdimoti tizimi Inson huquqlari bo'yicha paktlar kuchga kiiigandan so'ng qator xalqaro shartnomalarda ko'rib chiqilgan yangi jarayon tartiblari bilan almashindi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, xalqaro konvensiyalar asosida tashkil etilgan nazorat organlarining birinchisi - Inson huquqlari bo'yicha qo'mitadir. Inson huquqlari sohasidagi xalqaro kelishuvlarni sharhlash borasidagi cheklanishlardan kelib chiqqan holda, bu qo'mitalar, awaliga, ularga berilgan axborot bo'yicha a'zo-davlatlarning ma'ruzalarini muhokama qildilar. Biroq, nazorat organlarining ishi shuni yaqqol ko'rsatib qo'ydi, amalda inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarning ishtirokchilari haqiqiy ahvolni bo'rttirib ko'rsatishgan va aksariyat hollarda ob'yektiv bo'lmagan axborotlarni taqdim etganlar. Shuning uchun ham, turli qo'mitalarning a'zolari asta-sekinlik bilan nafaqat davlatlardan kelayotgan axborotlar, balki, ulardan toshqari boshqa ma'lumotlarni ham o'rganish kerak, degan xulosaga kelishdi.

Undan tashqari, o'nlab davlatlar inson huquqlari sohasidagi asosiy shartnomalarni ratifikatsiya qilganlari yo'q va shuning uchun ham ular shartnomaviy organlarga ma'ruzalarni taqdim ettirish bo'yicha hech qanday majburiyatga ega emas. BMT Bosh Assambleyasi o'zining bu to'g'ridagi tashvishi xususida bir necha bor fikr bildirdi va har bir sessiyada davlatlarni Inson huquqlari bo'yicha paktlarni va bu sohada boshqa asosiy hujjatlarni ratifikatsiya qilishga chaqirib, rezolyutsiyalar qabul qilmoqda.

Qo'mitalarning vakolati BMT Nizomi asosida faoliyat yurituvchi organlarga qaraganda tor doirada olib boriladi. Chunki, ular konvensiyalarga a'zo-davlatlar monitoringi bilan shug'ullanadilar va inson huquqlariga oid konvensiyalarning moddalariga aloqador masalalarni ko'rib chiqadilar, xo'los. Umuman, ular siyosiy organlar emas, vaholanki, qo'mita ekspertlari davlat vakillaridan emas, balki alohida

shaxslardan saylanadi.

Konvensiyalarga a'zo-mamlakatlardan ular a'zo bo'lgan muayyan konvensiyadan kelib chiqadigan majburiyatlarini bajarishi yuzasidan qo'mitalarga Milliy hisobotlarni taqdim etish talab qilinadi. A'zo-davlatlar ma'mzalarini boshida birinchi hisobot, keyinchalik esa, davriy hisobotlari sifatida topshirib boradi. Bu hisobotlar konvensiyalardagi huquqlarning bajarilishini amalga oshirish bo'yicha ko'rilgan qonunchilik, sudlov, ma'muriy va boshqa chora-tadbirlarni qamrab oladi. Hisobotlar davriy majlislarda ko'rib chiqiladi va u ochiq bo'ladi. Qoidaga hinoan, bunday majlislarda, hisobdor bo'lgan hukumatning vakili ishtirok etadi va hisobot bo'yicha savollarga javob beradi.

Qo'mitalar siyosiy organ emasdir, chunki qo'mitalarga ekspert sifatida hukumatlarning vakillari emas, balki alohida shaxslar saylanadi va ular o'zlarinirjg shaxsiy sifatleri bo'yicha ish olib boradilar hamda o'z davlatlari oldida hisobdor emaslar. Ular inson huquqlari sohasida tan olingan obro'-e'tiborga ega bo'lgan mustaqil ekspertlar hisoblanadi.

Ayollar huquqlari bo'yicha qo'mita (CEDAW)ning tarkibi boshqa qo'mitalardan farq qUadi, chunki, uning a'zolarining deyarli barchasi ayollar hisoblanadi. Ekspertlar konvensiya a'zolari hisoblangan mamlakatlar tomonidan

tavsiya etiladi va saylanadi, ammo yuqorida aytganimizdek, ular o'z vazifalarini xususiy shaxslar sifatida bajaradilar.

Ekspertlar to'rt yil muddatga saylanadi, tanlov jarayoni adolatli geog-rafik taqsimot hamda turli ijtimoiy va huquqiy tizimlarning vakilligi tamoyili asosida amalga oshiriladi. Qo'mitalarning a'ziligiga ko'pincha siyosiy nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda ishtirokchi-davlatlarning faol ta'sir ko'rsatishi va ovozlami almashish orqali saylaniladi. Shuning uchun ham, Nyu-Yorkda bo'lib o'tadigan saylovlar ko'proq siyosatchilarga bog'liqdir.

Barcha qo'mitalarda Qo'mita majlislari sessiyadan oldingi uchrashuv-lar (ishchi guruhlar) bilan boshlanadi, ular sessiyadan oldin yoki oldingi sessiyaning oxirida o'tkaziladi. Maqsad davlatlar vakillari bilan muhimroq masalalami oldindan belgilab olishdir. Masalalar ro'yxati majlislarda ishlab chiqiladi va manfaatdor a'zo-mamlakatlar o'rtasida tarqatiladi. Nodavlat tashkilotlari va BMT organlari ishchi guruhlar uchun mamlakatlar bo'yicha maxsus axborotlar taqdim etish maqsadida taklif etiladi (ular yig'ilishlarda ishtirok etishi mumkin).

A'zo-mamlakatlar hisobotlari ko'rib chiqilgandan so'ng qo'mitalar o'z ishlarining xulosalarida, "Xulosaviy kuzatish" nomli yakuniy tavsiyalarini qabul qiladilar. Ulanii yopiq majlislarda tuzadilar, ammo keyin nashr etadilar. Qo'mitalarning hisobotlarni qabul qilish jarayoni o'z muammolariga egadir. Qo'mitalar hamisha ish bilan to'lib-toshganligi bois, ularda har doim hali ko'rib chiqilmagan hisobotlar mavjud bo'ladi, ya'ni ular o'z vaqtida ulgura olmaydilar. Boshqa muammo esa, tugallanmagan va talablarga to'liq javob bermaydigan hisobotlardir. Milliy hisobotlarni ko'rib chiqishdan tashqari, aksariyat shartnomaviy qo'mitalar inson huquqlarining buzilishi bo'yicha shikoyatlarni ham ko'rib chiqadilar.

Shartnomaviy qo'mitalar "Xalqaro shartnomalarning qoidalariga oid umumiy tavsiyalar" nomli umumiy sharhlarni tayyorlab, ularga mos keluvchi



konvensiyalarning mustaqil interpretatsiyasini amalga oshirdilar. Sharhlar (tavsiyalar) konvensiya normalarini tushuntiradilar va moddalarni amaliyotda qanday interpretatsiya qilishni belgilab boradilar. Ular huquqni himoya qilishning rivojlantirilishiga katta hissa qo'shdi. Shuningdek, mazkur sharhlar davlatlarga va milliy darajada ishlovchi nodavlat tashkilotlariga ularning hisobotlarini yozishida o'zining samaradorligini ko'rsatmoqda. Fikrimizcha, milliy qonunchilikka qiyoslaganimizda, konstitutsiyaviy sud funksiyalariga o'xshash vazifani bajaradilar.

BMT tarkibida shu yo'nalishda tuzilgan qo'mitalarning har biri o'zi nazorat etadigan konvensiya yoki pakt nomi bilan yuritiladi (birinchi pakt bundan mustasno):

Barcha qo'mitalar o'z faoliyati bo'yicha Bosh Assambleyaga hisobot beradi. Biroq, bu procedural] farq amaliyotda hech qanday oqibatlariga olib kelmaydi. Qo'mitalarga BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi tomonidan xizmat ko'rsatiladi. CEDAW qo'mitasiga esa, Nyu-Yorkda joylashgan Ayollar rivojlanishi bo'yicha BMT bo'limi (DAW) tomonidan xizmat ko'rsatiladi. Ana shu qo'mitalarning har birini tashkil etishda tegishli pakt yoki konvensiya yuridik asos bo'ldi.

#### **Muhokama uchun savollar:**

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan muassasalari (XMT, JSST, YUNESKO) faoliyat yo'nalishlari nimalardan iborat?
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining yordamchi organlari: ularning funksiyalari, vazifalari, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilish va amalga oshirishni ta'minlash sohasidagi faoliyatning asosiy yo'nalishlari.
3. Shartnomadan tashqari nazorat mexanizmlari (BMT nizomi asosida) va an'anaviy nazorat organlari (inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar asosida) deganda nimani tushunasiz?

#### **7-mavzu. Bolalar Ombudsmani milliy va xalqaro tajriba.**

##### **Reja:**

2. Ombudsman instituti.
3. Bolalar Ombudsmanining vazifalari va funksiyalari.
4. Ombudsman institutining samaradorligi.
5. Xalqaro amaliyot va uni O'zbekistonda qo'llashning o'ziga xos xususiyati

##### **Tayanch so'z va iboralar:**

*Ombudsman instituti, Bolalar Ombudsmanining vazifalari va funksiyalari, Ombudsman institutining xalqaro modellari.*

**Ombudsman** (shvedcha Ombudsman — biron kishi manfaatlarining vakili) — turli xil ma'muriy organlar, ba'zi mamlakatlarda esa — shuningdek, xususiy shaxslar va birlashmalarning inson huquqlariga rioya etishini nazorat qilish uchun maxsus saylab (tayinlab) qo'yiladigan mansabdor shaxs. Ombudsman nazoratni amalga oshiradi va proko'raturadan farqli ravishda nafaqat qonuniylik, balki shu bilan birga samaradorlik, maqsadga muvofiqlik, adolatparvarlik nuqtai nazaridan

ham tekshirish olib boradi. Bu xildagi mansabdor shaxslar har xil nom bilan ataladi: Skandinaviya mamlakatlarida — Ombudsman; Ispaniya va Kolumbiyada — xalq himoyachisi; Fransiyada — vositachi, Ruminiyada — xalq advokati va shu kabi. Ombudsman turli yullar bilan saylanishi yoki tayinlanishi mumkin. Ispaniyada u parlament tomonidan 5 yilga saylanadi, Namibiyada prezident tomonidan, Fransiyada — Vazirlar kengashining dekreti bilan tayinlanadi. Aksariyat ko‘pchilik mamlakatlarda har bir fuqaro ombudsmanga bevosita murojaat qilishga haqlidir. Ombudsman kamchilik yoki suiiste‘mollarni aniqlab, tegishli organ yoki mansabdor shaxsga ko‘rsatadi va ularni bartaraf etishni taklif etadi. Agar ular Ombudsmanning taklifidan bosh tortsa, Ombudsman sud organlari yoki parlamentga murojaat qilishi mumkin. Ombudsman fuqarolarning shikoyatlari bo‘yicha, shuningdek, o‘z tashabbusi bilan ish olib boradi. Fransiyada fuqarolar vositachiga bevosita emas, balki o‘z senator yoki deputatlari orqali murojaat qiladilar. Dunyoda 1-marta Ombudsman lavozimi 1709 yil Shvetsiya qirolligi huzurida joriy qilingan. Hozirgi vaqtda u jahonning 110 dan ortiq mamlakatida mavjud. Ombudsman institutini tashkil etilishiga qarab 2 turga bo‘lish mumkin: parlament tomonidan tayinlanadigan (saylanadigan) klassik tipdagi Ombudsman va ijroiya hokimiyati organlari tomonidan tayinlanadigan Ombudsman. Klassik tipdagi Ombudsman har qanday tashkilot, korxonalar, muassasa va mansabdor shaxslarning faoliyatini tekshirish huquqiga ega. Klassik Ombudsman qatoriga Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Portugaliya, Ispaniya va shu kabi ko‘pgina mamlakatlar Ombudsmanlari kiradi. O‘zbekiston Ombudsmani ham klassik Ombudsman hisoblanadi. Ijroiya hokimiyati organlari tomonidan tayinlanadigan Ombudsman huquqlari biroz chegaralangan. Ular alohida sohalar bo‘yicha tekshirish huquqiga ega. Masalan, kasalxonalar, jazoni o‘tash muassasalari, bolalar, nogironlar huquqini himoya qilish, harbiy xizmatchilar, jinoyatlardan jabrlanganlar, soliq muassasalari bo‘yicha shug‘ullanadigan alohida sohalar Ombudsmanlari.

Ombudsmanning alohida obro‘-e‘tibori va zamonaviyligi uning demokratik xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Ombudsmanlar davlat organlari tizimidan mustaqilligi, parlamentning belgilangan muddati davomida o‘zgarmasligi, qonunchilik tashabbusi huquqiga egaligi, o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilishga muhtoj bo‘lgan barcha fuqarolarga ochiqligi, shikoyat va murojaatlarni taxlil etishda rasmiyatchilikka yo‘l qo‘ymasligi, aholiga bepul xizmat ko‘rsatishi bilan ajralib turadi.

## **2. Bolalar Ombudsmanining vazifalari va funksiyalari.**

Bolalar Ombudsmani ishining vazifalari va yo‘nalishlari aniqlandi. U bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini ta‘minlaydi, bolaning huquqlarini himoya qilish uchun sudlarda ishtirok etishi, qamoqda saqlash joylariga va jazoni ijro etish muassasalariga borishi va nogiron bolalarni, shuningdek yetim bolalarni ijtimoiy moslashishga yordam beradi.

O‘zbekiston Prezidentining Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 2020 yil 29-maydagi qarori bilan oliy Majlisning bola huquqlari bo‘yicha vakili vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari belgilab berildi. Ombudsman o‘rinbosari — bolalar Ombudsman instituti 2019 yil aprel oyida (“Bola huquqlari kafolatlarini yanada

kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ) joriy etilgan. Fevral oyida Aliya Yunusov ushbu lavozimga tasdiqlandi.

Qarorga muvofiq, bolalar Ombudsmani bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani va bola huquqlari masalalari bo'yicha boshqa hujjatlarni ijro etish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi. Bundan tashqari, uning vazifasiga bolalar va ularning qonuniy vakillari o'rtasida bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini to'g'risida tushuntirish berish kiradi.

Vakil jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan bolalar va ularning qonuniy vakillarining bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi to'g'risidagi murojaatlarini ko'rib chiqadi.

Bolalar Ombudsmani qonun hujjatlariga bolaning huquq va erkinliklarining xalqaro standartlarini joriy etish, shuningdek, davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatida bolaning huquqlariga rioya etilishi monitoringini olib boradi. Bundan tashqari, u muntazam ravishda bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish va uni himoya qilish holati haqida jamoatchilikni xabardor qiladi.

Bolalar Ombudsmanining yana bir vazifasi nogiron bolalarni, shuningdek yetim bolalarni va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni bolalar ta'lim muassasalarini tugatgandan so'ng ijtimoiy moslashishga yordam berishdir. Bundan tashqari, uy-joyga muhtoj yetim bolalarni va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiya muassasalarini bitirgan, munosib uy-joy bilan ta'minlashga yordam beradi.

Hujjatda bola huquqlari bo'yicha vakil o'z vakolatlarini davlat organlari va ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshirishi belgilab qo'yilgan.

Bolalar Ombudsman daxlsizlik huquqidan foydalanadi va Oliy Majlis palatalarining rozilgisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, qo'lga olinishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida undiriladigan ma'muriy jazo choralari ko'rilishi mumkin emas.

Bolalar huquqlari bo'yicha vakilga nisbatan jinoyat ishi faqat bosh prokuror tomonidan qo'zg'atilishi mumkin. Bolalar Ombudsmanining shaxsiy buyumlari, bagaj, transport, turar-joy va xizmat ko'rsatish binolarini majburiy haydash, ushlab turish, shuningdek tekshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Vakil har yili Oliy Majlisga davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan bola huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi holati to'g'risida hisobot taqdim etadi.

### **Bola huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar Ombudsmani)**

Bola huquqlari bo'yicha Qo'mita belgilaganidek, Konvensiyaning 4-moddasiga binoan, "Konvensiyada nazarda tutilgan huquqlarni amalga oshirish uchun barcha kerakli Qonuniy, ma'muriy va boshqa choralarni ko'rish" davlatlarning majburiyatiga kiradi, bu esa bola huquqlarining amalga oshirilishini ta'minlash va monitoring qilish maqsadida inson huquqlari bo'yicha mustaqil milliy institutni yaratishni o'z ichiga oladi. Bu institut Bola huquqlari bo'yicha vakil instituti shaklida tuziladi.

Bu turdagi organlarning vazifalari va vakolatlari Bola huquqlari bo'yicha Qo'mitaning "Bola

huquqlarini himoya qilish va ta'minlashda mustaqil milliy institutning roli" deb nomlangan 2002 yil Umumiy sharhlarida berilgan. Bu organ barcha mavjud bo'lgan va taklif etilayotgan Qonun-hujjatlarni ko'rib chiqishga, davlat organlari tomonidan ular bajarilishini ko'rib chiqish, bola huquqlari buzilganda tergov olib borish va bolalar bilan ularga tegishli ta'sir ko'rsatadigan masalalar bo'yicha bamaslaxat ish olib borish vakolatiga ega bo'lishi kerak.

Bu organ Hukumatdan mustaqil bo'lishi kerak, lekin davlat tomonidan moliyalashtirilsa ham uning mustaqilligiga ta'sir ko'rsatadigan barcha moliyaviy nazorat shakllaridan ozod bo'lishi lozim.

Qonunda bola huquqlarini, erkinliklarini va Qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda davlat va boshqa organlar bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha tashkilotlar faoliyatini monitoring qilish maqsadida bola huquqlari bo'yicha vakil institutini tashkil etish ehtimoli ko'zda tutilgan.

### **Ombudsman institutining samaradorligi.**

Ombudsman fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, normativ-huquqiy hujjatlarning inson huquqlariga oid normalarini yanada takomillashtirish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolik jamiyati institutlari, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish yuzasidan belgilangan chora-tadbirlarning bajaralishi to'g'risida deputatlarga batafsil ma'lumot berdi.

2019 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tashabbusi bilan xalqimiz farovonligi yo'lida keng ko'lamlı islohotlar olib borildi. Bu islohotlar natijasida milliy davlatchiligimiz poydevori mustahkamlanib, har bir fuqaro va oila farovonligi, qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklari hamda manfaatları ta'minlandi.

Mamlakatimiz uchun 2019 yil inson huquqlarini ro'yobga chiqarish, xalqimizning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega yirik voqealarga boy kechdi.

“2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi” va uni “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi doirasida qabul qilingan 70 dan ortiq qonun, 350 dan ziyod Prezident farmoni va qarorlari Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlashda, parlament va jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirishga, sud-huquq tizimini takomillashtirishga, qulay investitsiya muhitini yaratishga, ta'sirchan ijtimoiy siyosat olib borishga xizmat qilmoqda.

2019 yilda ham inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etdi.

Xususan, mamlakatda uzoq vaqtdan beri yashab kelayotgan, lekin O'zbekiston fuqarosi degan huquqiy maqomga ega bo'la olmayotgan 5 ming 868 nafar shaxs O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilindi.

Muvaffaqiyatli amalga oshirilgan “Mehr” va “Mehr-2” insonparvarlik tadbirlari doirasida Yaqin Sharqdagi qurolli mojarolar maydonidan, Afg'onistondan 261 nafar fuqaro, asosan ayollar va bolalar yurtimizga qaytarib olib kelindi. Ularga zarur tibbiy va moddiy yordam ko'rsatildi.

So'nggi yillarda, davlatimiz insonparvarlik siyosatining hamda xalqimizga

xos ezgulik va mehr-oqibat, kechirimli bo'lish kabi olijanob fazilatlarining amaliy tasdig'i sifatida "Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir nechta Farmonlari qabul qilinib, 4 mingdan ziyod shaxs jazoni o'tash joylaridan ozod qilindi.

Inson huquqlarini himoya qiluvchi Xalqaro tashkilotlarning doimiy e'tiroziga sabab bo'lib kelgan Jasliq qo'rg'onida joylashgan 19-son ixtisoslashtirilgan jazoni ijro etish koloniyasini tugatish haqidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilinishi insonparvar siyosatning yana bir amaliy namunasi bo'ldi.

Shuningdek, o'tgan yilda inson huquq va erkinliklari hamda ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilishda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirildi. Xususan, 2019 yilda O'zbekiston Respublikasining "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Ombudsman huzurida milliy preventiv mexanizm instituti joriy etildi. Unga muvofiq Vakil qamoqda saqlash joylariga muntazam kirib turish orqali qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llashning oldini olish bo'yicha choralar ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va Oliy Majlis Senati Kengashining Qo'shma qarori bilan Inson huquqlari bo'yicha vakilning qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llashning oldini olish bo'yicha faoliyatiga ko'maklashuvchi ekspert guruhi to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi.

Mazkur vakolat doirasida 2019 yilda Inson huquqlari bo'yicha Vakil (ombudsman) tomonidan birinchi marotaba "Qiynoqlarga solishga va muomalada bo'lish va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlariga qarshi Konvensiyada"gi majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan Ombudsmanning Muqobil ma'ruzasi BMTning qiynoqlarga solishga qarshi qo'mitasiga taqdim etildi.

Ombudsman tomonidan faoliyatning bosh yo'nalishi sifatida qamoqda saqlanayotgan shaxslar huquqlarini himoya qilish bo'yicha ham izchil ishlar olib borildi. Tasdiqlangan "Qiynoqqa solishning va muomalada bo'lish hamda jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlarining oldini olishga doir nazorat-tahlil tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish jadvali" doirasida milliy preventiv mexanizm mandati bilan qamrab olinadigan 30 yaqin muassasaga yil davomida parlament palatalari bilan birgalikda monitoring tashriflari amalga oshirildi. Mazkur tashriflarda deputatlar korpusi, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy institutlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va BMT Bolalar jamg'armasi vakillari qatnashdi.

Mamlakatimizda onalik va bolalikni qo'llab-quvvatlash, bolalarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi talablariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (22.04.2019 y. №4296-PQ) Qarori qabul qilindi. Mazkur Qarorga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinbosari - Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimi joriy etildi va Kotibiyat tuzilmasida bola huquqlarini ta'minlash faoliyatiga ko'maklashuvchi boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 2 nafardan iborat sektor tuzildi.

2019 yilda Ombudsman nomiga O'zbekiston Respublikasi, xorijiy davlatlar fuqarolari va ombudsmanlari, jamoat tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslardan jami 12 822 ta (2018 yilda - 10 832 ta) murojaat kelib tushdi. Murojaatlarning 38,8 foizi inson va fuqaroning shaxsiy huquq va erkinliklariga, 31,6 foizi ijtimoiy, 25,3 foizi iqtisodiy, 3,5 foizi siyosiy va 0,8 foizi ekologik huquqlarga tegishlidir.

Ombudsmanning xalqaro aloqalari hisobot yilida ancha kengaydi. Xususan, 18 ta xalqaro tadbir tashkil etildi, 57 ta tadbirda, shu jumladan 31 ta tadbirda ma'ruza bilan ishtirok etildi. Shundan 17 ta ma'ruza xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan tadbirlarda yangradi, xorijiy davlatlarning 21 nafar ombudsmani bilan, shuningdek xalqaro va xorijiy institutlarning 31 ta delegatsiyasi bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

Ayniqsa, inson huquqlari sohasidagi xalqaro institutlar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida Ombudsman 2019 yilda Milliy huquqni himoya qilish muassasalari Global A'lyansining Jenevadagi navbatdagi majlisida kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi.

#### **Muhokama uchun savollar:**

1. Ombudsman instituti shakllanish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. Bolalar Ombudsmanining vazifalarini sanab bering.
3. Ombudsman institutining samaradorligi haqida gapiring.
4. Xalqaro amaliyot va uni O'zbekistonda qo'llashning o'ziga xos xususiyati nimalardan iborat?

#### **8-mavzu. O'zbekistonda bola huquqlarini himoya qilishning institutsional tizimi.**

##### **Reja:**

1. O'zbekiston sharoitida bola huquqlarini himoya qilishda davlat, nodavlat va xalqaro tashkilotlar roli.
2. O'zini o'zi boshqarish organlarida ota-onalar universiteti faoliyati.
3. Aholining bola huquqlari borasidagi xabardorlik daradasini o'rganish va oshirish metodlari.

##### **Tayanch so'z va iboralar:**

*Xalqaro tashkilotlar, nodavlat tashkilotlar, daxlsizlik huquqi, O'zini o'zi boshqarish organlarida ota-onalar universiteti, Oliy Majlis.*

#### **O'zbekiston sharoitida bola huquqlarini himoya qilishda davlat, nodavlat va xalqaro tashkilotlar roli.**

O'zbekiston Respublikasining bola huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalari va tamoyillariga,

respublikaning tashqi siyosati va bola huquqlari sohasidagi milliy qonunchiligiga, BMT va YeXHTning tamoyillari va maqsadlariga, shuningdek, O‘zbekistonning xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlariga asoslanadi.

O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosatini amalga oshirishda quyidagi ustuvorliklardan kelib chiqadi:

**Birinchidan**, o‘zining milliy-davlat manfaatlari ustun bo‘lgani holda o‘zaro manfaatlarni to‘liq hisobga olish;

**Ikkinchidan**, O‘zbekiston insonlar va davlatlar orasidagi o‘zaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini tan olgan holda xalqaro aloqalarda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, nizolarni tinch yo‘l bilan bartaraf etishni yoqlab chiqmoqda;

**Uchinchidan**, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati o‘zaro tinchlik, o‘zaro foyda, ichki ishlarga aralashmaslik tamoyillariga, mustaqillikni va suverenitetni chegaralovchi hamda davlatlararo munosabatlarni mafko‘ralashtirishga qaratilgan harakatlarga yo‘l qo‘yilmaydigan tamoyillarga asosan quriladi;

**To‘rtinchidan**, O‘zbekiston tashqi siyosatda ochiqlik tamoyilini turli xil mafko‘raviy qarashlardan xoli ravishda amalga oshirib, barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng tashqi aloqalarni o‘rnatmoqda;

**Beshinchidan**, O‘zbekiston xalqaro normalarning milliy qonunchilikdan ustunligini tan oladi, xalqaro-nuquqiy standartlarni hurmat qiladi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub‘yektidir”, deb ko‘rsatib qo‘yilishi, shuningdek, ushbu moddaning ikkinchi qismida “Respublikalar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishini mumkm , degan qoida mustahkamlab qo‘yilgan.

Shuningdek, 2012-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, “O‘zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlari, uning farovonligi va xavfsizligiga, mamlakatni modernizatsiya qilish ustuvor yo‘nalishlariga, amaldagi milliy qonunchilik hamda qabul qilingana xalqaro majburiyatlarga amal qilgan holda ittifoqlar tuzish, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish, shuningdek ulardan chiqish huquqini o‘zida saqlab qoladi”.

Mazkur qoidalar O‘zbekistonni xalqaro huquqning boshqa sub‘yektlari bilan ko‘p tomonlama va ikki tomonlam hamkorlik aloqalarini olib borishga, xususan, nufuzli xalqaro tashkilotlarga to‘la huquqli a‘zo bo‘lib kirishi hamda uning xalqaro xamjamiyat tomonidan har tomonlama tan olinishi va xalqaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarga, shu jumladan, bola huquqlari sohasida ham hamkorlik aloqalari olib borishi uchun huquqiy zamin yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro hamkorligi boshqa sohalar kabi, bola huquqlari sohasida ham quyidagi yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

*birinchidan*, mamlakatning xalqaro huquqning boshqa sub‘yektlari bilan bola huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomaviy huquqiy munosabatlarga kirishi orqali;

*ikkinchidan*, mamlakatning xalqaro tashkilotlar va xalqaro huquqning boshqa

sub'yektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligi orqali.

**Aholining bola huquqlari borasidagi xabardorlik daradasini o'rganish va oshirish metodlari.**

**UNICEFning Bolalarni himoya qilish bo'limi U-Reportyorlardan mehnat migratsiyasining jamiyatga ta'siri haqida o'z fikrlarini bildirishini so'radilar. Ma'lumotlar Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladigan O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi uchun qo'shimcha tahliliy material sifatida ishlatiladi. Olingan ma'lumotlar migratsiya sharoitida bolalarni himoya qilish sohasida Hukumat uchun siyosat va dasturlarni ishlab chiqishda qo'llaniladi.**

Mavjud mehnat migratsiyasi ta'sirining ko'lami faqatgina davlatlar va ularning o'zaro munosabatlari chegaralaridan tashqarisiga chiqib, to'g'ridan-to'g'ri mehnat migrantlarining oilalari va yaqinlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Bolalar kontekstida ushbu masalaning jamoatchilik bilan aloqalarga eng katta ta'sirini e'tirof etgan holda, Yevropa Ittifoqi UNICEF ko'magida O'zbekiston hukumatiga bolalarni himoya qilish bo'yicha tegishli siyosat va dasturlarni ishlab chiqishda yordam berish bo'yicha loyihani moliyalashtirmoqda.

U-Report ushbu mavzu bo'yicha so'rov o'tkazdi. So'rovda 2500 ga yaqin kishi qatnashdi. Eng faol ishtirokchilar Toshkent va Farg'ona viloyatlari (respondentlarning ulushi 22% atrofida), Xorazm, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida kuzatildi.

So'rov kontekstida, migrant (muhojir) – bu bir joydan ikkinchi joyga (uning tug'ilgan joyi bo'lmagan) ko'chib o'tgan shaxsdir: ish topish yoki yashash sharoitini o'zgartirish maqsadida..

#### **SO'ROVNING ASOSIY XULOSALARI:**

1) Respondentlarning 70 %dan ortig'i, mehnat migratsiyasiga ketganidan so'ng o'zlariga yoki oila a'zolariga jamiyat tomonidan munosabat o'zgarganligi haqida ma'lumotga ega emas yoki o'zgarmagan deb hisoblaydilar. Qolgan taxminan 20 %i bu munosabat ijobiy tarzda va faqat 10%i - salbiy tarzda o'zgargan deb hisoblashadi.

2) Respondentlarning 59%i O'zbekistondagi mehnat muhojirlari bor oila farzandlariga mensimaslik faktlarini uchratmaganliklarini e'tirof etdilar. So'ralganlarning 17%i bunday faktlarga duch kelganlari haqida aytib o'tishdi.

3) Respondentlarning 48%i mehnat migratsiyasi qolayotgan bolalarning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatdi deb hisoblaydilar, respondentlarning 35%i ta'sirning mohiyati haqida ma'lumotga ega emas, 16%i esa migratsiyaning migrantlar bolalariga nisbatan ijobiy ta'sirini qayd etdi.

4) Odatda, mamlakatda qoladigan mehnat migrantlarining oila a'zolariga ularning qarindoshlari (53%) yoki hech kim yordam bermas ekan (37%).

5) Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, migrantlar va ularning yaqinlari/qarindoshlari o'rtasida yaqin aloqalar mavjud: so'rov qilinganlarning 42%i ular har kuni aloqada bo'lishlarini, 30%i haftada bir marta, 13%i oyida bir marta, va respondentlarning atigi 15%i yiliga bir muloqotda bo'lishini yoki umuman muloqotda bo'lmasliklarini e'tirof etdidar.

6) So'ralganlarning 26%i mehnat migratsiyasiga borish istagi yo'qligi haqida aniq



javob berdi. 50%i kelajakda mehnat muhojirlari rovida o'zlarini tasavvur qilishlari mumkinligini - ya'ni ular chet elda ishlash istagi haqidagi savolga ijobiy javob berdilar, qolganlari esa bu haqda bilmaydilar yoki o'ylamaganlar.

7) Mehnat migratsiyasi jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi degan fikrda bo'lgan respondentlarning 50%i, migratsiya yashash uchun uy-joyga pul ishlab topish imkoniyatini berishini aytdilar.

**Biz respondentlardan ularda xorijga mehnat migratsiyasiga ketgan tanishlari yoki qarindoshlari bormi, deb so'radik.** So'ralganlarning 72%i ijobiy javob berdi, 7%i o'zlari mehnat muhojirlari ekanligini aytib o'tishdi.

Shuningdek, mehnat muhojirlari oilasi a'zolari bo'lgan respondentlardan - **ular kimlar bilan qolishdi deb so'ralganda, quyidagi natijalar olindi:**

1. Ota yoki onasi bilan - 38%
2. Ota-ona ikkalasi bilan - 20%
3. Boshqa oila a'zolari bilan - 17%
4. Bir o'zim - 8%
5. Bobom/buvim bilan - 6%

Shuningdek, quyidagi javoblar ham bo'ldi: akam/ opam, qaynonam/ qaynotam, xolam, amakim, boshqa qarindosh-urug'lar, xotinim/erim bilan.

**Respondentlarning 70%dan ortig'i, mehnat migratsiyasiga ketganidan so'ng o'zlariga yoki oila a'zolariga jamiyat tomonidan munosabat o'zgarganligi haqida ma'lumotga ega emas yoki o'zgarmagan deb hisoblaydilar.** Qolgan taxminan 20 %i bu munosabat ijobiy tarzda va faqat 10%i - salbiy tarzda o'zgargan deb hisoblashadi.

Shu bilan birga, agar ayollarning 16%i jamiyatda ularga nisbatan munosabat ijobiy tarafga o'zgardi deb hisoblasa, erkaklar orasida bu ko'rsatkich 21 %ga teng. Ayol respondentlar orasida ularga nisbatan munosabat yomonlashdi deb hisoblaganlar 12%ni tashkil etsa, erkaklar orasida bu 9 %ni tashkil qildi.

**Respondentlarning 59%i O'zbekistondagi mehnat muhojirlari bor oila farzandlariga mensimaslik faktlarini uchratmaganliklarini e'tirof etdilar.** So'ralganlarning 17%i bunday faktlarga duch kelganlari haqida aytib o'tishdi.

Bunday faktlarga duch kelgan 17%iga (taxminan 300 nafar respondentga) **migrant farzandlariga mensimaslik holatlari nimadan iborat deb so'ralganda,** quyidagi natijalar olindi:

1. Taxqirlashadi - 29%
2. Haqoratlashadi - 25%
3. Imtiyozlarini olib qo'yishadi -17%

4. Tahdid qilishadi - 8%
5. Yelkalaridan silkitishadi - 7%
6. Ularga baqirishadi - 5%
7. Biron narsa qilishga majburlashadi - 4%
8. Doimo urishadi - 3%

Ushbu javob variantlarini bolalarga mehnat migratsiyasi ko'rsatgan ta'siriga ko'ra salbiy (urushqoq, mayus, o'qishni yomon o'zlashtirayapti va hokazo) va ijobiy (mehribonroq, o'qishda yaxshiroq o'qiyapti va hokazo) ta'sir deb tasniflasak: **respondentlarning 48%i mehnat migratsiyasi bolalarning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayapti deb hisoblaydilar**, respondentlarning 35%i ta'sirning mohiyati haqida ma'lumotga ega emas, 16%i esa migratsiyaning bolalar xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatishini e'tirof etdilar.

So'rov tahlillariga ko'ra, odatda, mehnat muhojirlarining oilalariga qarindoshlari (53%) yordam beradi yoki hech kim yordam bermaydi (37%).

Respondentlarning ta'kidlashicha, mehnat muhojirlarining oilalariga asosan zarurat bo'lganda (43%) yoki doimiy ravishda (24%) yordam berilar ekan.

Mehnat muhojirlarining oila a'zolariga yoki o'zlari muhojir bo'lgan respondentlarga o'z vatanlarida qolgan yoki ketgan qarindoshlari/tanishlari bilan qanchalik tez-tez muloqot qilishlarini so'radik. Natijalar shuni ko'rsatadiki, muhojirlar va ularning yaqinlari/qarindoshlari tez-tez aloqada bo'lib turishar ekan: ularning 42%i har kuni, 30%i har hafta, 13%i oyiga bir marta aloqaga chiqib suhbat qilib turishadi. Respondentlarning faqat 15%i umuman muloqot qilmasliklari yoki yiliga bir marta muloqot qilishlari haqida yatib berishdi.

So'ralganlarning 26%i mehnat migratsiyasiga borish istagi yo'qligi haqida aniq javob berdi. 50%i kelajakda mehnat muhojirlari rovida o'zlarini tasavvur qilishlari mumkinligini - ya'ni ular chet elda ishlash istagi haqidagi savolga ijobiy javob berdilar, qolganlari esa bu haqda bilmaydilar yoki o'ylamaganlar.

Sizningcha, mehnat migratsiyasi O'zbekistondagi oilalarga qanday ta'sir qiladi? – shunday savol bilan biz respondentlarimizga murojaat qildik. Quyida javoblarning natijalari keltirilgan:

1. Salbiy - 33%
2. ijobiy - 21%
3. Bilmayman - 19%
4. Neytral - 13%
5. Boshqa - 13%

Shu bilan birga, “Boshqa” variantini tanlagan respondentlarning ko’pchiligi vaziyatga bog’liq bo’lishini va mehnat migratsiyasini ham salbiy, ham ijobiy deb bilish mumkinligini ta’kidladilar. Shu bilan birga, ijobiy ko’rsatkichlar sifatida - mamlakatga va oilalariga moliyaviy mablag’ yuborish va salbiy ko’rsatkich sifatida yosh avlodning ma’naviyatiga va tarbiyasiga salbiy ta’sir ko’rsatishi qayd etildi.

## **MEHNAT MIGRATSIYASINI OILALARGA TA’SIRI HAQIDA U-REPORTERLARINING FIKRI:**

*«Moliyaviy tomondan yaxshi lekin oilasi qolib ketyabdi. Oila buzilyabdi farzandlari qarovsiz».*

*“Har bir holatda individual. Men oila bilan birga mehnat migratsiyasi borish tarafdoriman”.*

*«Millatimiz an'anasidan uzoqlashib ketyapti. Hurmat qilishni unitib bormoqda”.*

*“O‘z ehtiyojlariga zarur bo‘lgan buyumlarni 10 yilda emas, balkim, 1-2 yilda sotib olyapti. O‘zidan oshinib mahallalardagi zovurlarga ko‘priklar qurdirishda, suv chiqarishda, asfalt yotkizishda homiylik qilishyapti. Men ham borib kamida 2 ta ish o‘rin yaratmoqchiman va qolaversa yuqorida aytganimdek Hudo hohlasa ko‘prik qurmoqchiman...”.*

*“Mehnat migratsiyasi bugungi kunda oilalarga iqtisodiy jihatdan naf keltirmoqda. Ba’zi bir kamchilik va oiladagi bolalar hayotida qandaydir o‘zgarishlarning ro‘y berishi migrant shaxs (ota yoki ona) ular bilan bo‘lganida ham yuz berishi mumkin”.*

*“Oilasini boqish maqsadida ishlab pul topish uchun ketishyapti bu ijobiy. Ishi bo‘la turib ko‘proq pul topish maqsadida ketayotganlar salbiy xolat”.*

*"Har kimga har xil ta'sir qiladi, kimdir mamnun, kimdir sarson. Qaysidir migrantni oilasi xursand, yana kimdir afsusda. Xullas qanday yo'l va maqsadda ketganiga bog'liq".*

*“Qisman ijobiy – moddiy tarafdin, lekin yoshlarga salbiy”.*

*"Ijobiy tomoni O‘zbekistonga valyuta kirib keladi va boshqalar. Salbiy tomoni oiladagi farzandlar nazoratsiz qolishi oqibatida tarbiyasiz bo‘lib jinoyatlar sodir etmoqda va boshqa salbiy oqibatlarga olib kelmoqda...”.*

*“Moddiy jixatdan ijobiy, lekin ma'naviy jixatdan salbiy bunga izohni xojati yo'q hayotda ko'rib turibmiz”.*

“Farzandlar mehirsiz bo‘lib ulg‘ayadi, ular ota-onalar kerakli vaqtida yonida bulmaydi”. “Oxir-oqibat, hech bo‘lmasa, oilaviy byudjetda pul bor. Bu ishsizlikdan yaxshiroqdir. Ammo, yarimta oilalar, agar oila a‘zolaridan biri bir mamlakatda, ikkinchisi esa boshqa mamlakatda bo‘lsa - bu, albatta, achinarli hol atdir ”.

«Oiladagilarning fikr-u xayoli pul topishda bo‘lib qoladi. Farzand tarbiyasi bir chetda qolib ketadi. Natijada kelajakda bu farzandlardan qanday natija kutish mumkin?»

**O‘zbekistondagi oilalarga mehnat migratsiyasi qanday ta‘sir qilishiga "ijobiy" va "salbiy" javoblarni tanlagan respondentlarga - biz aniqlashtiruvchi savollar berdik - bu nimada ifodalanadi?**

Mehnat migratsiyasi jamiyatga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi degan fikrga ega respondentlarning **50 %i bu uy joy uchun pul ishlab topishga imkon yaratadi, deb hisoblashadi.**

**Mehnat migratsiyasining oilalarga nisbatan ijobiy ta‘siri bo‘yicha “Boshqa”variantini tanlagan respondentlarning 32%i ikkita asosiy omilni qayd etdi:**

- moliyaviy barqarorlikka erishishga yordam beradi
- muxojirning dunyoqarashini kengaytiradi, hayot tajribasini va bilim beradi.

**MIGRATSIYANING OILAGA IJOBIY TA‘SIR KO‘RSATADI DEB FIKRLOVCHI U-REPORTYORLAR FIKRI:**

“Hamma narsa uchun pul jamg‘arishingiz mumkin, hamda butun dunyoni ko‘rishingiz, ko‘p narsalarni amalda ko‘rmagan miyangizga ozuqa berishingiz mumkin. Bu o‘z nuqtai nazariningizni shakllantiradi, o‘z o‘zimizni topishga yordam beradi, ya‘ni o‘zimiz kimligimizni anglashga yordam beradi.” Bizda aytishgandek, "Musofir bo‘lmaguningcha, musulmon bo‘lmaysan“ – bu juda to‘g‘ri matal”.

“Barcha kerakli narsaga pul jamg‘arib, farzandlaringizga yaxshi ta‘lim bera olasiz.”

«Orzu havaslarini amalga oshirishga yordam beradi».

«Yurt kóradi. Odamlar bilan malumot almashadi».

**Oilaga migratsiyaning salbiy omilini ko‘rsatuvchi “Boshqa” varianltlariga**

**(bu respondentlarning 6%i), asosan, bolalar kerakli g'amxo'rlik va e'tibordan mahrum bo'layotgani qayd etildi.**

***MIGRATSIYANING OILAGA SALBIY TA'SIR KO'RSATADI DEB FIKRLOVCHI U-REPORTYORLAR FIKRI:***

*«Bolalar ota-ona mehriga zor bo'lib yashaydi, natijada raxmsiz va pulga o'ch bo'lib qoladi hayot tarzi ishdan chiqadi, ba'zi oilalarda hiyonatgacha borilyapdi».*

*"Biz juda istiqbolli odamlarni yo'qotamiz, ularning ba'zilari oliy ma'lumotga ega emas, ammo ular juda aqlli va keng dunyo qaashga ega."*

*«Migratsiya yurgan kishini sog'ligiga tasir otkazadi. Bu esa kelajak avlodga tasirini otkazadi».*

*«Seni ota-onang chet elda ishlaydi deb kamsitadi ustozlar».*

*«Бу холат узимни опамни углидан мисол: у хам коллежни зурга тугатиб, Россияга ишга кетди».*

*«Har tomonlama tasiri boladi: bolalar tarbiyasida ham, oilada ham, hattoki jamiyatga ham salbiy tasiri».*

So'rov yakunida, respondentlardan **migrant ota-onalarning farzandlariga zarur e'tibor, g'amxo'rlik, ta'lim va boshqa ijtimoiy ko'makni olishlari uchun davlat nimalarni amalga oshirishi kerakligi to'g'risida** bitta taklif kiritishlarini so'radik.

**Barcha javoblar orasida eng ko'p uchraydigan 9 ta taklif va fikrlarni ajratish mumkin:**

- 1) Mamlakatda ish o'rinlari sonini ko'paytirish, ish haqi darajasini oshirish, mahalliy sharoitda ish sharoitlarini yaxshilash, bo'sh ish o'rinlari va ishga qabul qilish jarayoni to'g'risidagi ochiq axborot tizimini yaratish.
- 2) Bolalarni tarbiyalashga e'tibor berish, bepul ta'lim kurslarini / mashg'ulot guruhlarini tashkil etish, o'qishlarida ko'maklashish, kitoblar bilan ta'minlash. Sport va ijodiy klublarga bo'sh vaqtlarini to'liq to'ldirish uchun ularni jalb qilish.
- 3) Bolalarga nisbatan doimiy e'tibor, g'amxo'rlik, shuningdek vakolatli organlar (mahalla, patronaj, o'qituvchilar, psixologlar yoki boshqa davlat organlari) tomonidan nazoratni kuchaytirish.
- 4) Bolalarning dam olish vaqtini keraklicha ta'minlash, ayniqsa mamlakatning eng chekka hududlariga e'tibor berish: bayramlar, ommaviy sayillar, mashhur va obro'li shaxslar bilan uchrashuvlar va h.k.
- 5) Moddiy yordam, moliyaviy ko'mak, ijtimoiy paketlarni taqdim etish, imtiyozlar,

migrant oilalarning farzandlari uchun imtiyozli kreditlar.

6) Muhojirlar va ularning farzandlari huquqlarini himoya qilish. Muhojirlarning huquqlarini tushuntirish uchun veb-seminarlar tashkil etish, shuningdek, bolalarni qo'rqitishdan va kattalar / o'qituvchilar tomonidan yomon munosabatda bo'lishidan himoya qilish.

7) Muhojirlarga yordam berish, chet ellik muhojirlarning farzandlariga yetarlicha tarbiya berish, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash uchun xorijda maxsus markazlarni yaratish. Ularning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunish va qolgan oila a'zolariga vaqtida yordam berish uchun elektron ma'lumotlar bazasini yaratish.

8) Mamlakatni rivojlantirish yo'lida asosiy to'siq hisoblangan korrupsiyani bartaraf etish, ish o'rinlarini yaratish va tegishli lavozimlar va bo'sh ish o'rinlariga tanlab olishning ochiq tizimini yaratish.

9) Oilani birlashtirishga ko'maklashish va muhojirlar va ularning oila a'zolari o'rtasida, shu jumladan, virtual aloqa qilishini qo'llab-quvvatlash. Shu maqsadda, chet eldagi mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolari o'rtasidagi muloqot, asosan, Internet aloqasi orqali bo'layotganini inobatga olib, mamlakatning chekka hududlarida Internet aloqasini ta'minlash uchun infratuzilmani takomillashtirish. Maktablarda chet eldagi ota-onalar farzandlari bilan Internet orqali muloqot qilishlari mumkin bo'lgan maxsus soat yoki kunlarni o'tkazish.

**Barcha takliflarni umumlashtirgan holda, mehnat migratsiyasidan kelib chiqadigan o'zaro munosabatlarni tartibga solish tizimini o'zgartirish bo'yicha tizimli takliflarni ajratish mumkin:**

- ta'lim tizimidagi islohotlar - ta'lim sifatini oshirish, mehnat muhojirlarining qolgan bolalari ustidan nazorat va e'tibor qilish tizimini yaratish;

- ijtimoiy masalalar bilan shug'ullanadigan va mehnat muhojirlari bilan ishlashni tashkil etish uchun mas'ul bo'lgan muayyan vakolatli muassasa / tashkilotni yaratish yoki aniqlash;

- muhojirlar yoki ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish, ularni zarur ish sharoitlari bilan ta'minlash vakolatiga ega bo'lgan mehnat muhojirlarini chet elga jo'natish bilan shug'ullanadigan maxsus markazlarning faoliyatini qayta tashkil etish va takomillashtirish;

- mehnat migratsiyasi ko'lami va holati bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lish uchun elektron bazani yaratish, va hu uning yordamida qo'llab-quvvatlashga muhtoj bolalarni aniqlash.

**MEHNAT MIGRANTLARINING MAMALAKATDA QOLAYOTGAN OILA A'ZOLARINING SHAROITLARINI YAXSHILASH TO'G'RISIDAGI U-REPORTERLARINING FIKRI:**

*«Ularning hammasi ham e'tiborga muhtoj deyish xato, lekin davlat tomonidan migrantlarning farzandlariga ta'lim olish joyi orqali ko'proq nazorat va e'tiborni bersa maqsadga muvofiq bo'ladi».*

*«Bolalarini har xil yoshlar ijtimoiy harakatlari, birlashmalarida faol bolishiga undash, oqishga koproq jalb qiluvchi yozgi va qishgi lagerlar tashkil qilishi mumkin».*

*«Hech narsa kerak emas faqat migratlarning huquqi poymol qilinmasa bas».*

*«Bo'sh ish o'rinlarini xalqga osonroq va qulayroq ravishda ko'rsatish kerak».*

*«Проводить еженедельный/ежемесячный патронаж семей(домов), где содержатся дети тех, кто уехал работать за границей».*

*«Ularni qòshimcha tarzda ilm olishiga, tarbiyasiga kòmaklashish. Internet sifatini yaxshilash va narxini pasaytirish kerak. Sababi migrant oilasi bilan koproq ijtimoiy tarmoqlar orqali suxbatlashadi».*

*«Ularni ruhiyatiga ta'sir qilmasdan to'g'rilik bilan nazorat qilish va tarbiyalash».*

«Birinchi navbatda hammani o'zimizda qoniqarli ish bilan taminlash kerak. To'g'ri hozir buning iloji yo'q. Menimcha, ularga chet elda oilaviy ishlashi uchun sharoit yaratish kerak. Misol uchun ko'pchilik vatandoshlar yashaydigan joylarda o'zimizning ta'lim dasturi bo'yicha bilim beruvchi muassasalar ochish kerakdir (masalan, Moskva oblasti Kaluga shaxrida 100 minglab yurtdoshlarimiz yashashar, bola-chaqasi esa maktabda o'qiyotgani uchungina buyoqda qolishadi. Lekin o'qishlari joyida emas. Sababi ularni hech kim nazorat qilishmaydida). Albatta buning uchun ular topgan daromadlaridan soliq to'lashini yo'lga qo'yish kerak. Shunda bolalar ota-onasi qaramog'ida bo'ladi va ta'lim tarbiyasi ham joyida bo'ladi».

«Mehnat migrantlar farzandlarini qoldirib ketgan vasiylar bilan psixolog uchrashuvlari tashkil etish juda zarur».

«Hech qanday g'amxo'rlik qilishni keragi yo'q chunki migrantlarning farzandlari O'zbekistonda yashab ishlayotganlar farzandlaridan ko'ra baxtliroq va hech narsaga muxtojligi yo'q».

*«Ularga O'zbekona qadriyatlarni unutishga yo'l qo'ymaslik kerak».*

*«Bolalarni to'liq nazoratga olishi lozim. Bolalarning umuman bo'sh vaqti qolmasligi kerak. Masalan, maktabda darslar hozirda 12-13 gacha davom etadi. Bola o'qiyotganidan rohatlanishi kerak. O'quvchilar bilan doimiy psixolog shug'ullanishi, ularga ruhan yordam berishi kerak. Muammo oilaviy bo'lsa, kerak bo'lsa uni hal qilishga yordam berishi kerak. Psixolog huquqshunos bilan birga masalalarni hal qilishi lozim. Bolalarning bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishi uchun sportga, ilm olamiga katta e'tibor berish, bolalarni bunga qiziqtirish lozim.*

*Har qanday o'quvchida qobiliyat bo'lishini hisobga olib ularga munosabat bildirish kerak. O'quvchilarni texnika sohasiga, umuman, ilm-fanga qiziqtirish maqsadida laboratoriyalar shakllantirish kerak».*

*“Bolalar bog‘chasida, maktabda va boshqa joylarda ularni tahqirlamasliklarini nazorat qilish zarur. Masalan, sening otang Rossiyada, shuning uchun u Vatan xoini degan gaplarga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Odatda bunday gaplarni kattalar bolalarga aytganini eshitish mumkin. Ota-onalardan birining chet elda ekanligini bilib olgan o‘qituvchilar, bola otasini u yerdan biron bir narsa olib kelishni so‘rashi mumkin va buning o‘rniga yaxshi baho qo‘yishni va‘da qilishi mumkin”.*

*“Hukumat bunday bolalar kelajagi uchun sarmoya kiritish uchun ijtimoiy dastur ishlab chiqishi zarur”.*

*«Таныс билисти жок кылыу керек бир жерге жумыс соран барсан бос орын жок адам ап койдык деп кайтарып жибереди ал танысын болып хай деп жиберсе жумыс тайар шет елде жургенлерлин бари таныс жоктан жумыс таба алмаганлыктан шет елде жумыс ислеп жур менин пикирим».*

*«Davlatimiz kerakli yordamlar beryapti lekin biz insonlar bir-birlarimizga g‘amxo‘rlik qilmayapmiz».*

*«Mehnat migrantlari yaqinlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlovchi tuzilma tuzish va ushbu tuzilma orqali migrantlar oilalariga kerakli ijtimoiy, ma'naviy va boshqa ko'maklarni berish lozim».*

*“Maktablarda bunday bolalarga ko‘proq e‘tibor qaratish va ularning boshqalardan ajralishini oldini olish kerak”.*

*“Migrant ishchilarning farzandlari alohida e‘tibor talab qiladi, deb o‘ylamayman. Mamlakatimizda chet elga ishlash uchun safarga ketish odatiy holdir. Agar bolalarni ta‘lim va ish bilan ta‘minlash tizimini takomillashtirishga erishsak (to‘garaklar va boshqalar), bu faqat bolalarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu shuningdek, mehnat muhojirlarining bolalariga ham tegishli. ”*

*«Har haftasiga/oyiga ularga ko'nglini ko'tarish uchun tadbirlar tashkil qilish tarbiyasi bilan shug'ullanish kerak, ularning soni juda ko'p bo'lgani uchun ijtimoiy yordam berish qiyin, shuning uchun MFY bilan hamkotlikda "Ezgulik kuni"ni tashkil qilib mahalladagi aholi bilan ijtimoiy yordam bersak bo'ladi».*

*«Shu bolalarning ko'zida ozgina bo'lsa ham quvonch bo'lishi uchun o'sha hududdagi hokim, mahalla raislari, maktab direktorlari, mahalladagi faol kishilar, sponsor uchun istalgan bitta firma(ko'ngilli), san'at odamlari boshchiligida hech bolmasa ikki haftada bir marta bo'lsa ham ko'ngilochar tadbirlar o'tkazish tarafdoriman.Bolalar ko'rsin, bilsin, o'rgansin esidan chiqmasin shunaqa*



*bayramlar. Bunday tadbirlarni har bir uchastkada o'tkazilayotganligiga qattiq e'tibor berish kerak .Tuman markazlaridagina tashkil qilinib qoladi xolos».*

*«Menimcha, ularning farzandlarini bir kun kelib xuddi ota-onasidek bolib chetga ketishlarini oldini olish maqsadida, fan togaraklariga izchillik bilan jalb etish, qiziqtirish, hayot tarzini boriga konib yashash degan tuchunchalardan ozod etishimiz oz taqdirini vatan taqdiri bilan chambarchas holda his qilishlariga orgatishimiz shart va zarur. U-Report ortida xizmat qilayotgan vatandoshlarimizga esa kattakon rahmat!!!»*

*«Elchixonalar huzurida milliy an'analarni urf --odatlarni o'rgatadigan ayni vaqt yurtimizda yoshlarga. yaratilayotgan imkoniyatlar haqida ma'lumot beruvchi markaz tashkil qilish kerak».*

*«Хар бир таълим муассасасига бир нафар ижтимоий ёрдам ходими штати ташкил этиши».*

*«Davlat va xususiy kanallari, ijtimoiy tarmoqlarda xorijiy davlatlarda migratsiya hizmatlari, huquqiy hizmatlar, davlar elchixonalari faoliyati, ular bilan qanday bog'lanish, qaysi davlatga borayotganda nimaga e'tibor qaratish haqida ko'rsatuvlar namoyish etish lozim. Shuningdek, adliya vazirligi axborot kanali kabi kanal ochish va o'zbek tilida yuqoridagi mavzulardan doimiy ahborot berib borish lozim».*

*«Chetda ishlashga chiqib ketayotgan fuqaro farzandlari tarbiyasiga ma'sul(javobgar) shaxsni (qarindoshi) ko'rsatgandan so'ng, Davlat tomonidan ruxsat berilishini joriy etish. Kerak bo'lsa qonuniylashtirish kerak...».*

*«Chet el qonun va qoidalari bilan tanishishga har 3 oydan seminar yoki online shakldagi vebinarlar o'tkazishi hamda ularga online tarzda elektron pochталariga taklif va tavsiyalar berishganlarida migrantlarga katta yordam bo'lar edi».*

*«Migrant sifatida ketganlarning oilasidagi voyaga yetmaganlarni ro'yxatini shakllantirish kerak. Bu ro'yxat asosida mahalla fuqarolar yig'ini qoshida alohida komissiya tuzish kerakki, komissiya shu oilalarning doimiy kuzatib turishi, zarur hollarda oilalardagi salbiy va ijobiy jarayonlarni qayd etib borishi kerak».*

*«Davlat tomonidan ularning qo'llab-quvvatlanishi uchun maxsus dastur ishlab chiqish lozim. Hozirda menda ayni shunga munosib bo'lgan bir dastur mavjud. Agarda men bilan bog'lansangiz men berishim mumkin».*

*«Mening taklifim shundan iboratki, Davlat mehnat migrantlarining farzandlari bilan mahalla, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, yoki bola huqulari bo'yicha har bir tuman, viloyat, shahar xodimlari suhbat o'tkazib, ularning orzulari, nimalarga*

*qiziqishlari, otasi yoki onasi nima uchun chet elga ishlashga ketganligi va ketganidan keyin oilaviy sharoitlari qanday, o'z orzulari ro'yobga chiqishi uchun qanday yordam kerakligi haqida mustaqil fikrlarini bilish lozim. Misol sifatida mening dadam ham yaqinda chet elga ishlashga Rossiyaga ketdilar. Nimaga ketdilar albatta biz farzandlarini kelajagini, orzularini o'ylab, o'z kasblariga oid Respublikamizda yaxshi ish bo'lmaganligi tufayli ketdilar. Biz oilada 5 ta farzandmiz bizlarni boqish kerak, o'qishlarga kildirib, uylantirishlari kerak. Dadam ko'p farzandli ota bo'lgani uchun sharoit imkoniyatlar unchalik yaxshi emas. Lekin ota-onamizning bizga bergan to'g'ri tarbiyalari orqali biz bundan nolimaymiz va ota-onalarimizga, Yurtimizga munosib farzandlar bo'lib yetishish maqsadida biz harakatdan, o'qib izlanishdan, ijod va mehnat qilishdan aslo charchamaymiz. Sizlarga ham katta rahmat o'zinning mustaqil fikrimni va taklifimni aytishga imkoniyat yaratib berganingiz uchun!!»*

### **Muhokama uchun savollar:**

1. O'zbekiston sharoitida bola huquqlarini himoya qilishda davlat, nodavlat va xalqaro tashkilotlar roli nimalardan iborat?
2. O'zini o'zi boshqarish organlarida ota-onalar universiteti faoliyati haqida ma'lumot bering.
3. Aholining bola huquqlari borasidagi xabardorlik daradasini o'rganish va oshirish metodlari haqida nimalarni bilasiz?

### **9-mavzu. Bola huquqlarini himoya qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli.**

#### **Reja:**

1. "Ta`minot" va "ta`minot mexanizmi" atamalarini aniqlashga turli xil yondashuvlar.
2. Bola huquqlarini ta`minlash.
3. Bola huquqlari bo'yicha qo'mita.
4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari.
5. Inson huquqlari markazi.
6. Inson huquqlari bo'yicha komissiya.
7. Xalqaro nohukumat tashkilotlar.
8. Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi va Qizil Yarim oy federatsiyasi.
9. Bolalar huquqlari bo'yicha komissiyalar.

### **Tayanch so'z va iboralar:**

*"Ta`minot" va "ta`minot mexanizmi", Bola huquqlarini ta`minlash, Bola huquqlari bo'yicha qo'mita, Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi va Qizil Yarim oy federatsiyasi, Bolalar huquqlari bo'yicha komissiyalar.*

Vena deklaratsiyasiga asosan, BMTning Bosh Assambleyasi 1993-yilda Insonning barcha huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish bo'yicha Oliy komissar lavozimini ta'sis etish to'g'risida rezolyutsiya qabul qildi. Ana shu

rezolyutsiyaga muvofiq, Oliy komissar BMT Bosh kotibi tomonidan tayinlanadi va uning o'rinbosari hisoblanadi. Oliy komissar bevosita Bosh kotibga bo'ysunadi, o'z faoliyati haqida Bosh Assambleya oldida hisobot berib boradi.

BMTning organlari xususida xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda BMT doirasida, inson huquqlari bo'yicha murakkab institutsional tizim shakllangan. *Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar*. Inson huquqlari bo'yicha 1993-yilgi umumjahon konferensiyasi Bosh Assambleyaga BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari lavozimini ta'sis etish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishni birinchi navbatdagi vazifa sifatida tavsiya etdi. Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar lavozimining ta'sis etilishi inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rag'batlantirish va himoya qilishning mavjud mexanizmlarini ancha mustahkamlabgina qolmasdan, balki BMT Nizomida qayd etilgan muhim maqsadlarining biriga - BMTning inson huquqlari hurmat qilinishini rag'batlantirishda va ularni rivojlantirishda xalqaro hamkorlik qilishga erishishga qaratilgan faoliyatini maqbullashtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

1993 yili Inson huquqlari bo'yicha II Butunjahon konferensiyasida uzoq vaqt davom etgan munozaralardan keyin Vena hujjatining II bo'limida Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar mansabi ta'sis etildi. Qayd etish lozimki, ushbu lavozimning ta'sis etilishi ko'pchilik davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi. Aytib o'tish lozimki, hali 1947-yilda - Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini ishlab chiqish paytida fransuz Rene Kassen birinchi marotaba inson huquqlarini hukumat oldida himoya qilish uchun mas'uliyatli bo'lgan Bosh Attorney<sup>1</sup> lavozimini tashkil etishni taklif qilgan edi, ammo ushbu taklif qo'llab-quvvatlanmadi.

1993-yil 20-dekabrda Bosh Assambleya "Barcha inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish bo'yicha Oliy komissar" to'g'risidagi 48/141-sonli rezolyutsiyani qabul qildi, unga ko'ra, Oliy komissar BMT Bosh kotibi tomonidan to'rt yil muddatga tayinlanadi va u Bosh Assambleya tomonidan geografik asosda davriy o'rin almashishni hisobga olib, uzaytiriladi va tasdiqlanadi. Rezolyutsiyaning 2-bandiga asosan, Oliy komissar lavozimiga nomzod yuqori axloqiy obro'ga va inson huquqlari sohasida bilimlarga ega bo'lgan shaxs bo'iishi kerak bo'lib, uning o'rni BMT Bosh kotibining o'rinbosariga tenglashtiriladi.

Bosh Assambleya 1994-yilda qabul qilgan rezolyutsiyaga muvofiq bunday lavozim ta'sis etildi va dastlabki Oliy komissarlik lavozimi Ekvadorlik Xose Ayyala Lassoga nasib etdi. Bosh Assambleya bayonot berib aytdiki, Oliy komissar BMTning mansabdor shaxsi bo'lib, BMTning inson huquqlari sohasidagi faoliyati uchun asosiy mas'uliyat yukini Bosh kotibning rahbarligi va rahnamoligi ostida tortadi. Oliy komissar o'z vazifasini bajarar ekan, Bosh Assambleya, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash hamda Inson huquqlari bo'yicha komissiya (hozirda Kengash)ning umumiy vakolatlari, vazifalari doirasida va qarorlari asosida ish olib boradi. Oliy komissar keng vakolatlarga ega bo'lib, bu vakolatlar unga amalda inson huquqlari sohasidagi har qanday muammoni ko'rib chiqish va inson huquqlarini buzish hollarining oldini olishga qaratilgan dunyo miqyosidagi faoliyatda faol ishtirok etish imkonini beradi. Ayni vaqtda, unga insonning barcha huquqlarini to'la-to'kis amalga oshirish yo'lidagi hozirgi mavjud to'siqlarni bartaraf etish va shu yo'nalishdagi yangidan-yangi vazifalarni hal etish ishida, qolaversa, butun jahonda inson

huquqlarini buzish hollari davom etishiga yo'l qo'ymaslik ishida yetakchi rol o'ynash imkoniyati berilgan. 1997-yilning oxirlarida BMT Bosh Assambleyasi Irlandiyalik Meri Robinsonni ikkinchi Oliy komissar sifatida tasdiqlagan bo'lsa, 2008-yili tasdiqlangan Janubiy Afrika Respublikasilik Navanetxem Pillay beshinchi Oliy komissar hisoblanadi.

2012-yilgacha Oliy komissar sifatida quyidagilar faoliyat yuritishgan:

**Inson huquqlari bo'yicha kengash (2006-yilgacha - Inson huquqlari bo'yicha komissiya).** Mazkur organ yuqorida ta'kidlaganimizdek, Inson huquqlari bo'yicha komissiya shaklida Iqtisodiy va ijtimoiy kengash tomonidan 1946-yilda ta'sis etilgan bo'lib, 53 ta a'zo davlat vakillaridan tashkil topgan. Komissiya o'z sessiyasini har yili 6 hafta mobaynida o'tkazgan. Komissiya o'rganish va tadqiq etish ishlarini olib borgan, inson huquqlari bo'yicha tavsiyalarni hamda xalqaro hujjatlarning loyihalarini tayyorlagan, shuningdek, BMT Bosh Assambleyasi hamda Iqtisodiy va ijtimoiy kengashning maxsus topshiriqlarini bajargan.

Inson huquqlari Kengash, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash hamda BMT Bosh Assambleyasi o'zlarining har yilgi sessiyalarida inson huquqlarini qo'pol tarzda va muntazam ravishda buzish hollari bilan bog'liq voqea va amaliyotni muhokama etib boradilar. Agar muayyan bir mamlakatdagi yoki muayyan bir amaliyotdagi ahvol tashvish uyg'otayotgan bo'lsa, bu organlar mustaqil va xolis ekspertlar guruhi (ishchi guruhi) yoki alohida shaxs (maxsus ma'ruzachi) tomonidan bu borada tekshiruv o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Ana shu maxsus organlarga Inson huquqlari bo'yicha kengash va BMT Bosh Assambleyasiga ma'ruzalar taqdim etish va tavsiyalar ishlab chiqishdan tashqari, alohida shaxslar, guruhlar yoki jamoalarning huquqlari buzilgan taqdirda, choralar ko'rish vakolati ham berilgan. Masalani darhol, sira kechiktirmay o'rganib chiqish va tekshirish talab etiladigan alohida BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi isloh qilinib, 2006-yildan boshlab BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashiga aylantirilgan. Mazkur Kengash to'g'risida quyida batafsilroq to'xtalib o'tamiz va Kengash faoliyatini to'laroq his qilish uchun Komissiya olib borgan faoliyatni ham tahlil qilib o'tish kerak bo'ladi.

Ba'zi hollarda maxsus ma'ruzachi yoki ishchi guruhi xavf tahdid solayotgan ayrim shaxs, guruh yoki jamoani muhofaza etish maqsadida tegishli hukumatlar bilan hatto bevosita uchrashishi va muloqotga kirishishi mumkin.

Janubiy Afrikada inson huquqlari bo'yicha maxsus ishchi guruh (1967-yilda tuzilgan) ana shunday dastlabki organ bo'ladi. Mazkur guruh, shuningdek, bosib olingan hududlarning aholisiga nisbatan Isroil harakat-larining inson huquqlariga toalluqli jihatini tekshirish bo'yicha maxsus qo'mita (1968-yilda tashkil etilgan) hozirga qadar faoliyat ko'rsatib turibdi.

Inson huquqlari bo'yicha komissiya ayrim mamlakatlarda ta'sis etgan inson huquqlari bo'yicha maxsus organlar faoliyatini, o'sha mamlakatlarda inson huquqlari sohasida ahvol yaxshilangach, tugatgan.

1980-yildan keyin Inson huquqlari bo'yicha komissiya inson huquqlarini qo'pol tarzda buzish bilan bog'liq amaliyotni butun jahon miqyosida o'rganish hamda shu munosabat bilan tegishli choralar ko'rish maqsadida bir nechta maxsus organlar ta'sis etgan. Bu organlarga, ta'bir joiz bo'lsa, yo'nalish mavzusiga qarab vakolat berilgan edi. Hozirgi vaqtda shunday guruhlardan ikkitasi ishlab turibdi. Bulaming

birinchisi - g'ayri ixtiyoriy ravishda yoki zo'rlik ishlatish natijasida shaxslarning g'oyib bo'lib qolishi to'g'risidagi masala bilan va ikkinchisi esa - shaxslarni o'zboshimchalik bilan ushlab turish to'g'risidagi masala bilan shug'ullanuvchi ishchi guruh.

Yo'nalish mavzusiga qarab ko'plab maxsus ma'ruzachilar tayinlangan bo'lib, quyidagi masalalar doirasi ularning o'rganish sohasi deb belgilangan edi:

1) suddan tashqari va o'zboshimchalik bilan hamda lozim darajada sud muhokamasi o'tkazmay turib qatl etishlar to'g'risidagi masalalar bo'yicha;

2) qiynoqlarga solish hamda muomalada bo'lish va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlari bo'yicha;

3) bolalarni sotish, bolalar bilan bog'liq fohishabozlik va bolalar pomografiyasi bo'yicha;

4) mamlakat ichkarisida ko'chib yurgan shaxslar to'g'risidagi masala bo'yicha;

5) diniy murosasizlik bo'yicha;

6) irqchilik, irqiy kamsitish va ksenofobiya bo'yicha;

7) fikrlash va so'z erkinligi bo'yicha;

8) xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini amalga oshirishga qarshilik ko'rsatish vositasi sifatida yollangan kishilardan foydalanish bo'yicha.

Inson huquqlari bo'yicha kengash va BMT Bosh Assambleyasiga yuqorida zikr etib o'tilgan maxsus organlar tomonidan taqdim etiladigan ma'ruzalar ochiq sessiyalarda muhokama qilinadi hamda bu ma'ruzalar shu masalalar yuzasidan Inson huquqlari komissiyasi qaror qabul qilishida asosiy omil bo'ladi.

Inson huquqlari bo'yicha komissiya o'z ishini yanada samaraliroq amalga oshirish uchun 1947-yilda *Kamsitishlarning oldini olish va kam sonli millatlarni himoya etish bo'yicha kichik komissiya* ta'sis etgan. Bundan ko'zlangan maqsad o'rganish va tadqiq etish ishlarini Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini inobatga olgan holda olib borish hamda Inson huquqlari bo'yicha komissiya uchun inson huquqlari va asosiy erkinliklariga nisbatan har qanday shakldagi kamsitishlarning oldini olish, shuningdek, kam sonli millatlarni irqiy, milliy, diniy va til jihatidan himoya etishga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo'lgan.

Inson huquqlari bo'yicha komissiya BMT tizimida inson huquqlari bilan shug'ullanuvchi bosh siyosiy organ hisoblanar edi. Uning vakolatiga inson huquqlariga kiruvchi barcha masalalarni ko'rib chiqish kirgan. Komissiya tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan standartlarni ishlab chiqish, turli masalalar bo'yicha rezolyutsiyalar qabul qilish, xalqaro shartnomalarni ishlab chiqish va kodifikatsiya qilish bilan shug'ullangan.

Komissiya har yili Jeneva shahrida mart-aprel oylarida bir mart 6 haftalik sessiyaga yig'ilib turgan. Komissiyaning har bir sessiyasida turli rezolyutsiyalar muhokama qilingan. Ushbu rezolyutsiyalar keyinchalik Bosh Assambleyaga berilishi mumkin bo'lgan. Assambleyada qabul qilinadigan rezolyutsiyalarga solishtirganda, Komissiyaning rezolyutsiyalari ko'proq va chuqurroq ta'sir ko'rsatgan. Biroq Bosh Assambleya rezolyutsiyalari nisbatan yuridik kuchli hisoblanadi, chunki ularni ko'p sonli a'zo-davlatlar qabul qiladi va u BMTning bosh vakolatli organi hisoblangan.

Inson huquqlari bo'yicha komissiya inson huquqlari sohasini o'rganish va tadqiq etish ishlarini o'tkazib, bu sohadagi ishlarni yanada yaxshilash va inson huquqlari va

erkinliklarini yanada samaraliroq ta'minlash va himoya qilishga qaratilgan tavsiyalar bergan, axborotlar tarqatgan bo'lsa, 2006-yildan uning o'rniga tashkil etilgan Inson huquqlari bo'yicha kengashga yanada kengroq vakolatlar berildi. Qayd etish kerakki, Inson huquqlari bo'yicha komissiya Iqtisodiy va ijtimoiy kengash doirasida tashkil etilib, uning topshiriqlarini bajarib kelgan bo'lsa, Inson huquqlari kengashi esa, Bosh Assambleyaning yordamchi organiga aylantirildi. Bu organning vakolati va faoliyati to'g'risida quyida batafsil to'xtalib o'tamiz.

### **Xalqaro nohukumat tashkilotlar.**

Xalqaro nohukumat tashkilot (XNHT) - bu muayyan maqsadlarga va ularga erishishning o'rnatilgan shakllariga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxslarning assotsiatsiyasi yoki federatsiyasidir.

BMT Bosh Assambleyasining 1968-yil 23-maydagi 1296 (XIV) Rezolyutsiyasiga muvofiq, xalqaro nohukumat tashkiloti (XNHT) - bu hukumatlararo bitimlar asosida ta'sis etilmagan har qanday xalqaro tashkilotdir. BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (EKOSOS)ning 1996-yil 25-iyuldagi 1996/31 rezolyutsiyasiga asosan XNHT - bu xalqaro hukumatlararo shartnoma asosida tashkil topmagan va tijorat maqsadlarida foyda olishni ko'zlamagan har qanday nohukumat tashkilotidir.

*Xalqaro nohukumat tashkilotlari - hukumatlararo bitimlar asosida emas, balki bitta davlatning milliy qonunchiligiga muvofiq ro'yhatdan o'tkazilgan ta'sis hujjatlariga asosan tashkil etiladigan, o'z faoliyatida foyda olishni va tijorat maqsadlarini ko'zlamaydigan va ikkitadan kam bo'lmagan davlatlar hududida faoliyat olib boradigan va o'z faoliyatida BMT Ustavi ruhi va prinsiplariga hamda xalqaro huquq normalariga muvofiq keluvchi yagona ichki maqsad yo'lida birlashishni maqsad qilib olgan dunyoning turli mamlakatlarining jamoatchiligi vakillarini birlashtirgan tashkiliy shakldir.*

*Demak, xalqaro nohukumat (yoki O'zbekiston qonunchiligi bo'yicha nodavlat notijorat) tashkilotlarning huquqiy maqomi, milliy darajadagi nohukumat tashkilotlari kabi milliy qonunchilikka asoslanadi.*

Jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomi va faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasida asosiy qonunlardan biri, 1999-yil 14 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunining 14-moddasiga ko'ra, **xalqaro notijorat tashkiloti - o'z** ustaviga va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida hamda bitta yoki undan ko'proq chet el davlati hududida faoliyat olib borishi mumkin bo'lgan xalqaro tashkilot xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti deb hisoblanadi.

### **Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi va Qizil Yarim oy federatsiyasi.**

Xalqaro Qizil Xoch va Qizil yarim Oy harakati - umumjahon, insonparvarlik harakati. 1863 yilda asos solingan. Mazkur harakat 3 tuzilma - Xalqaro Qizil Xoch qo'mitasi (HQXQ); Xalqaro Qizil Xoch va Qizil yarim Oy jamiyatlari federatsiyasi (XQX va QYaOJF): Qizil Xoch va Qizil yarim Oy Milliy jamiyatlari (MJ)dan iborat. Xalqaro Qizil Xoch va Qizil yarim Oy harakati uchala tuzilmasining faoliyat vakolatlari Xalqaro Qizil Xoch va Qizil yarim Oy harakatining Ustavi (1986) va Sevilya bitimi (1999) asosida belgilangan.

Xalqaro Qizil Xoch qo‘mitasi insonparvarlik tashkilotidir. Asosan, qurolli to‘qnashuvlarda jabrlanganlar, quruqlik va dengizdagi yarador va bemor harbiy xizmatchilar, harbiy mahbuslar, aholiga yordam berish, shuningdek, harbiy nizolar va boshqa favqulodda vaziyatlar oqibatida ajralib qolgan hamda bedarak yo‘qolgan shaxslarni qidirish vazifasini bajarib, betaraf vositachi sifatida insonparvarlik yordami ko‘rsatadi. Tinchlik sohasidagi faoliyat uchun Nobel mukofoti bilan taqdirlangan (1917, 1944, 1963 yillar). Qarorgohi Jeneva shahrida. Xalqaro Qizil Xoch va Qizil yarim Oy jamiyatlari federatsiyasi 1919 yil tuzilgan insonparvarlik tashkiloti. Dunyoning 181 mamlakati Milliy jamiyatlarini birlashtiradi (2004).

Asosan, tabiiy ofatlarga tayyorlanish va ularga munosabat bildirishda Milliy jamiyatlarga yordam berish, tabiiy ofatlar, texnikaviy va sanoatdagi avariyaalar, falokatlarda alohida xalqaro insonparvarlik yordami ko‘rsatishga oid amallarni tashkil etish va muvofiqlashtirish, aholi salomatligi profilaktikasi, eng muhtoj kishilarga qarash va ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatishni ta‘minlash, aholiga 1-yordam ko‘rsatishga o‘qitish, ko‘ngillilikni rivojlantirish vazifasi bilan shug‘ullanadi.

XQX va QYaOJF faoliyatini Kotibiyat ta‘minlab turadi. U Jeneva shahrida joylashgan. Qizil Xoch va Qizil yarim Oy Milliy jamiyatlari — hukumatlari Jeneva konvensiyalariga imzo chekkan mamlakatlardagi Milliy jamiyatlar. Qoidaga ko‘ra, har bir mamlakatda faqat bitta Qizil Xoch yoki Qizil yarim Oy Milliy jamiyati tuzilishi mumkin.

O‘zbekiston Qizil yarim Oy jamiyati 1925 yilda tashkil etilgan bo‘lib, 1992 yilda mustaqil Milliy jamiyat maqomiga erishdi. 1995 yilda Xalqaro Qizil Xoch qo‘mitasi tomonidan e‘tirof etilib, Xalqaro Qizil Xoch va Qizil yarim Oy jamiyatlari federatsiyasiga a‘zo bo‘ldi.

### **Muhokama uchun savollar:**

1. "Ta‘minot" va "ta‘minot mexanizmi" atamalarini aniqlashga turli xil yondashuvlar to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
2. Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mita faoliyat yo‘nalishlarini sanab bering.
3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari lavozim majburiyatlari nimalardan iborat?
4. Xalqaro Qizil Xoch Qo‘mitasi va Qizil Yarim oy federatsiyasi shakllanish tarixi haqida ma‘lumot bering.

### **10-mavzu. Yuvenal sud jarayonlarida ijtimoiy ish.**

#### **Reja:**

1. Balog‘atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov tushunchasi.
2. Balog‘atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yarayonining o‘ziga xos xususiyati.
3. Ijtimoiy ish va balogatga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlovning o‘zaro ta‘siri sohalari va ularning xususiyatlari: jinoyatlarning oldini olish, reabilitatsiya, ijtimoiy patronaj.

4. Qayta tiklanadigan adolat (bosqichlar).
5. Qayta tiklanadigan texnologiyalar (mediatsiya, oilaviy konferensiya va boshqalar)

### **Tayanch soʻz va iboralar:**

*Balogʻatga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov, mediatsiya, oilaviy konferensiya, Ijtimoiy ish va balogatga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlovning oʻzaro taʼsiri sohalari va ularning xususiyatlari: jinoyatlarning oldini olish, rehabilitatsiya, ijtimoiy patronaj.*

#### **1. Balogʻatga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov tushunchasi.**

Voyaga yetmagan shaxslar tarafidan sodir boʻlgan jinoyat, va ma'muriy ishlarni koʻruvchi sud “yuvenal sud” (bolalar sudi) deb ataladi. Yuvenal sudlarning asosiy vazifalariga bolalarni himoya va rehabilitatsiya qilish kiradi.

Yuvenal sudda quyidagi guruhga mansub ishlar koʻriladi:

bolalar nazoratsizligi bilan bogʻliq, ishlar;  
ma'lum guruhga mansub huquqbuzarliklar;  
bolalar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar.

Angliyada voyaga yetmaganlar ishlari boʻyicha tashkil etilgan sudlarda, odam oʻldirishdan tashqari, ogʻir jinoyatlarning barchasi, shuningdek daydilik, maktab qonun-qoidalarini buzish, uydan qochib ketish, qimor oʻynash va shu kabi mayda huquqbuzarliklar koʻrib chiqiladi.

Fransiya jinoyat huquqida huquqbuzarliklarning quyidagi tasnifi qabul qilingan: oddiy huquqbuzarlik, qilmish, jinoyat, shunga mos ravishda, voyaga yetmaganlar uchun ham uch xil sud joriy etilgan. Bundan tashqari personal sudlovga taalluqlilik belgisi, chunonchi: voyaga yetmagan shaxs 16 yoshga toʻlgan yoki toʻlmagani ham inobatga olinadi. Voyaga yetmaganlarning ishlari boʻyicha “prisyajniylar”(xakamlar) sudida fakt 16 yoshga toʻlgan shaxslarning ishlari koʻrilishi mumkin.

Bolalar sudining voyaga yetmaganlar ishlarini koʻrish borasidagi mutlaq, huquqi haqida gapirganda, avvalambor, bu huquq; kontinental sudda toʻlik, amalga oshirilishini ta'kidlab oʻtish joiz, unda voyaga yetmaganlarning ishlarini umumiy yurisdiksiya sudiga topshirishga yoʻl qoʻyilmaydi. Voyaga yetmaganlarning barcha turdagi huquqbuzarliklari, Fransiya misolida gapirganda, fakt voyaga yetmaganlarning ishlari boʻyicha sudlarda koʻriladi. Anglo-sakson tizimi sudida esa boshqacha vaziyatga duch kelish mumkin. AQSh va Angliyada qonunchilik va sud amaliyoti 14 yoshga toʻlgan voyaga yetmagan shaxsga, agar jinoyatning ogʻirlilik va murakkablik darajasi voyaga yetmaganlar uchun sudlanuvchi oʻsmirning huquqlari himoya qilinmasligi mumkin, deb taxmin qilish imkonini bersa, ishni umumiy yurisdiksiya “prisyajniylar” (xakamlar) sudiga topshirish toʻgʻrisidagi masalani oʻzi yoki oʻz vakili orqali koʻtarish huquqini beradi.

Ma'lumki, huquq tizimi - bu tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlar majmui bilan ob'ektiv belgilangan, normativ materialni birlashtirish va muayyan ketma-ketlikda joylashtirishda ifodalanadigan huquqning ichki tuzilishi, ya'ni huquq tizimini tashkil etuvchi yuridik normalarning muayyan guruhlarga



birlashishini ko'rsatadi. Anglo-sakson va kontinental huquq tizimlarida voyaga yetmaganlar sudlari vakolatlaridagi farqlar yana shunda namoyon bo'ladiki, anglo-sakson sudlarida voyaga yetmaganlar jinoyatlarining voyaga yetgan ishtirokchilarining ishlari umumiy sudlar tomonidan ko'riladi, kontinental huquq tizimi sudlarida esa voyaga yetmaganlarning ishlarini umumiy sudlarda ko'rishga belgilangan ta'qiq amalda voyaga yetmaganlar uchun sudning personal sudlovga taalluqliligi doirasi kengayishiga sabab bo'ladi. Voyaga yetgan ishtirokchilarning ishlari ham ayni shunday sudlarda ko'riladi.

Ko'pgina mamlakatlarda kichik yoshdagi voyaga yetmagan shaxslarga tarbiya va nazorat majburlov choralarini qo'llash mumkin bo'lgan yoshga ishora va jinoiy javobgarlik yoshining quyi chegarasi yo'qligi ham voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha sudning personal sudlovga taalluqliligi doirasini kengaytiradi, ya'ni sudda qonunda ko'rsatilgan yoshni pasaytirish va voyaga yetmagan shaxsga jazo qo'llash imkoniyati paydo bo'ladi.

Masalan, Fransiya jinoyat-protsessual va jinoyat qonunchiligiga muvofiq jinoiy javobgarlikka 16 yoshga to'lgan shaxslar tortiladi, 13 yoshdan 16 yoshgacha sud himoyasi choralarini qo'llaniladi. Istisno hollarda sudya jinoiy javobgarlik darajasini pasaytirishi mumkin.

Voyaga yetmaganlar sudi ba'zan oila sudi vazifasini ham ado etishi mumkin. Ular nafaqat voyaga yetmaganlar huquqbuzarligiga oid ishlarni, balki bolalarga g'amxo'rlik qilmay kelayotgan ota-onalarga nisbatan ham choralar ko'radi, sharoiti bola tarbiyasi uchun to'g'ri kelmaydigan oilalardagi bolalar tarbiyasi masalasini nazorat qilib borishadi hamda oilaviy nizolarni hal qilishga harakat qilishadi.

Voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha sud tartibi (protsedurasini), agar uning anglo-sakson va kontinental ko'rinishlariga xos bo'lgan ba'zi bir xususiyatlarini e'tibordan soqit etadigan bo'lsak, quyidagi uch bosqichni o'z ichiga oladi:

sudya xuzuriga chaqirish,

sudyaning voyaga yetmagan shaxs bilan suhbatlashishi,

ishning keyingi bosqichi bo'yicha qaror qabul qilish yoki ishni tugatish,

o'smirni sud protsedurasidan yoki sudga oid bo'lmagan protseduradan ozod silish;

ishni sudda ko'rishni sudya yakka tartibda yoki sudyalar xay'ati amalga oshiradi, hukm chiqarish;

xukmni ijro etish, ya'ni bunda sudning vazifasi sud nazoratini amalga oshirishdan iborat bo'ladi (sudning raxbarlik roli, uning faolligi ushbu bosqichda ham saqlanib qoladi).

Jinoyat protsessining sanab o'tilgan umumiy bosqichlari AQSH, Angliya yoki Fransiya sudi amaliyotida yana turli xil boshqa ko'rinishlarga ega. Masalan, AQSHning voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha tuzilgan sudlarida yuqorida tilga olingan bosqichlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

sudning boshlang'ich harakatlari, voyaga yetmaganlarning ishlariga doir materiallarni tekshirish, ularni saralash yoki sud vakolatlarini doirasiga kiritish, ushlab yoki dastlabki qamok, (xibsga olish) to'g'risidagi masalani hal qilish, "hodisa"ni tegishli ko'rsatmalar beriladigan majlisga qadar o'rganish; ishni

tinglash to'g'risida bayonot berish, tegishli hujjatlarni ro'yxatga olish; ish bo'yicha qaror chiqarishga oid tinglov; sud chiqaradigan farmoishlarga oid tinglov.

AQSHning voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha sudida protsessning har bir bosqichida o'smirni protsesga olib borish rasmiy bo'lishi kerakmi yoki uni sud jarayonidan chiqargan ma'qulmi, degan masala ham hal qilinadi.

Bolalar sudining amerikacha ko'rinishi bilan taqqoslaganda, Angliya Bolalar sudida katta o'zgarishlar yuz bergani yo'q. Angliyada voyaga yetmaganlar sudi o'z faoliyatida huquqbuzar o'smirni jazolashga emas, balki himoya qilishga moyil tamoyillarga qat'iy amal qiladi. Voyaga yetmaganlar jinoyatlarining cheklangan qismini umumiy prisyajniylar sudida ko'rish imkoniyati tegishli yuridik kafolat bilan ta'minlangan: o'z ishini mazkur sudda ko'rishni so'rash huquqi faqat ayblanuvchining o'ziga berilgan (ma'lumki, AQSH Oliy sudining Golt ishi bo'yicha qarorida mazkur huquq, voyaga yetmaganlar uchun sudga ham berilgan edi).

Voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha sud va sud protsessi Angliya va Uelsda 1933 yilgi "Bolalar va yoshlar to'g'risida"gi qonunda belgilangan qoidalar bilan tartibga solinadi. Qonun qabul qilinganiga ancha vaqt bo'lganiga qaramay, uning voyaga yetmaganlar uchun sudga tegishli bo'lgan umumiy qoidalari o'zgargani yo'q. Angliya qonunchiligiga ko'ra bolalar to'g'risidagi qonunlarning barchasi (ular 1908 yildan e'tiboran qabul qilina boshlagan) amaldagi qonunlar hisoblanadi. Chunonchi 1933 yilgi qonunga muvofiq 10 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar to'g'risidagi ishlarning barchasi (1968 yil qonunidagi jinoiy javobgarlik yoshini oshirish to'g'risidagi tuzatishni hisobga olgan holda) voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha sudlarda (magistrat sudlarida) umumiy ish yuritish tartibida ko'riladi, odam o'ldirish kabi og'ir ishlar bundan mustasno.

Angliyada voyaga yetmaganlar sudining vakolatiga kattalarning bolalar va o'smirlarga tajovuzlari to'g'risidagi ishlarni ko'rish ham kiradi. Kattalar va voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishda ishtirokchiligi to'g'risidagi ishlar bundan mustasno. Mazkur ishlar voyaga yetmaganlar sudida emas, balki boshqa sudda (Qirollik sudiga qadar) tinglanishi mumkin.

Angliya qonunchiligiga ko'ra voyaga yetmagan shaxs kattalar bilan birga sodir etgan jinoyatiga doir ish umumiy sudda ko'rilganda, mazkur sud voyaga yetmagan shaxsning ishini quyidagi, holatlarda bolalar sudiga ko'rib chiqish uchun qaytarishi mumkin:

umumiy sudda ish ko'rilishi natijasida voyaga yetgan shaxs aybdor, voyaga yetmagan shaxs esa aybsiz deb topilgan bo'lsa;

umumiy sudda ishni tekshirish amalga oshirilgan va voyaga yetgan sudlanuvchining taqdiridan (uning ayblanishi yoki oklanishidan) qat'i nazar, o'zini aybsiz deb topish to'g'risidagi iltimos bilan sudga murojaat qilgan voyaga yetmagan shaxsga nisbatan umumiy ish yuritish talab etilayotgan bo'lsa. Ammo voyaga yetgan sudlanuvchi va voyaga yetmagan shaxs o'zlarini aybsiz deb topish to'g'risida iltimos qilgan bo'lsalar, ish kattalar sudida ko'riladi.

Nihoyat, 14 yashar voyaga yetmagan shaxs og'ir jinoyat sodir etgani bilan bog'liq vaziyat yuzaga kelishi ham mumkin. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, sodir

etilgan jinoyatda hatto voyaga yetgan ishtirokchi mavjud bo'lmasa ham voyaga yetmaganlar Qirollik umumiy sudi qarshisida javobgar bo'lishi mumkin.

Odatda voyaga yetmaganlar sudlarida ishlarni yopiq, sud majlisida ko'rish nazarda tutiladi. Sud protsess voyaga yetmaganning shaxsini aniqlashdan boshlanadi. Sud majlisining boshida buni klerk amalga oshiradi (1970 yilgi Magistrat sudi qoidalari). Ayni shu jarayon sudga jalb qilingan o'smirlarga tushunarli bo'lgan sodda tilda olib boriladi.

Angliya "bolalar" sudida sud protsessi to'g'risida gap ketganda, uni shartli ravishda ikki boskichga ajratish mumkin:

birinchisi, aybdor deb topish to'g'risida qaror chiqarish;

ikkinchisi, aybdor deb topilgandan sung qaror (xukm) chiqarish.

Angliya voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha sudi faoliyatida klerk - "sud protsessining ustasi", ayniqsa, faol rol o'ynaydi. Aynan klerk sud majlisini yuritishga rasmiy yoki norasmiy tus beradi va uni protsess ishtirokchilariga taklif qiladi, sud foydalanayotgan axborot oqimini nazorat qilib boradi (masalan, sudga tayyorlangan va magistratlar o'rtasida tarqatiladigan ma'ruzalar). Odatda Angliya voyaga yetmaganlar sudining faoliyatida probatsiya xizmati ham ulkan rol o'ynaydi. Ushbu hol AQSh bolalar sudiga ham xos. Ammo, probatsiya xizmatining faoliyati sudyaning voyaga yetmagan shaxslar bilan dastlabki aloqalaridayoq, boshlanadigan uyushma Shtatlar voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha jinoyat protsessidan farqli o'laroq, hozirgi zamon Angliya voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha jinoyat protsessida uni ijtimoiy xizmat mahalliy organlari chetga surmoqda.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha odil sudlovning kontinental modeli haqida gapirganda bu yerda ham sud protsessini tashkil etishning an'anaviyligi va barqarorligini qayd etish mumkin, lekin u bu yerda tarixiy vorisiylik (Chikago sudining) omili bilan emas, balki huquq, normalariga asoslangan kontinental huquq, tizimining yuvenal adliyaga ta'siri bilan bog'liq.

### **Muhokama uchun savollar:**

1. Balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov tushunchasi to'g'risida ma'lumot bering.
2. Balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yarayonining o'ziga xos xususiyati nimalardan iborat?
3. Ijtimoiy ish va balogatga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlovning o'zaro ta'sirli sohalari va ularning xususiyatlari: jinoyatlarning oldini olish, reabilitatsiya, ijtimoiy patronaj.
4. Qayta tiklanadigan texnologiyalar (mediatsiya, oilaviy konferensiya va boshqalar) deganda nimani tushunasiz?

### **11-mavzu. Migratsiya ta'siridagi bolalar huquqlarini himoya qilish**

#### **Reja:**

1. Migratsiya tushunchasi.
2. Zamonaviy migratsiya jarayoni va ularning sabablari.
3. Migratsiya jarayonlarida bolaning mavqei.

4. Migratsiya jarayonlarida bolalar huquqlarini himoya qilish muammolari.
5. Ijtimoiy-madaniy moslashuv.
6. Barcha mehnat muhojirlari va ularning oila aʼzolari huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisidagi Xalqaro Konvensiyasi.

### **Tayanch soʻz va iboralar:**

*Aholi migratsiyasi, vaqtincha, mavsumiy va mayatniksimon (mokisimon) migratsiya, Ijtimoiy-madaniy moslashuv.*

**Aholi migratsiyasi** – aholining yashash joyini oʻzgartirishi bilan bogʻliq koʻchishi. Aholi migratsiyasi aholining muhim muammolaridan biri boʻlib, unta kishilarning oddiy mexanik koʻchish harakati deb emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayotning koʻp tomonlarini qamragan murakkab ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi. Aholi migratsiyasi. aholini joylashishi, yerni xoʻjalik jihatdan oʻzlashtirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, irq, tillar va xalqlarning paydo boʻlishi va aralashib ketish jarayonlari bilan bogʻliq. I.CH.NI joylashtirishdagi oʻzgarishlar bevosita mehnat resurslarini hududiy qayta taqsimlash ehtiyojini keltirib chiqaradi, bunga esa migratsiya yordamida erishiladi.

Yoʻnalishiga koʻra tashqi aholi migratsiyasi va ichki aholi migratsiyasi farqlanadi. Tashqi aholi migratsiyasi mamlakatdan chiqib ketish (muhojirlik), ichki Aholi migratsiyasi esa mamlakat doirasida, viloyat va tumanlararo yashash joyining oʻzgarishi. Migratsion jarayonlarda ishtirok etuvchilar – migrant (muhojir)lar, migratsiya oqimi shakllanuvchi hudud – migrantlar chiquvchi, ular borgan hudud – migrantlar oʻrnashuvchi region deyiladi. Muayyan mamlakatdan boshqa biron-bir mamlakatga aholining koʻchib ketish jarayoni emigratsiya, unda ishtirok etganlar esa emigrantlar deyiladi. Va, aksincha biron bir boshqa mamlakatdan maʼlum mamlakatga aholining koʻchib kelishi immigratsiya, unda ishtirok etganlar immigrantlar (kelgindilar) deyiladi.

Aholi migratsiyasi doimiy (turar joyni uzil-kesil oʻzgartirish), vaqtincha (shartnoma asosida maʼlum muddatga ishga, oʻqishga va boshqa sabablar bilan mamlakatdagi bir maʼmuriy-hududiy birlikdan boshqasiga borish, yoxud xorijga ketish), mavsumiy (iqtisodiyot tarmoklari – qishloq xoʻjalik, undiruvchi sanoat sohasi yumushlari, davolanish, dam olish va boshqa sabablarga koʻra koʻchish), mayatniksimon (mokisimon) (ertalab ishga, oʻqishga ketib, kechqurun uyiga qaytib kelish) migratsiya turlari boʻladi. Maʼlum vaqt davomida hududga koʻchib kelgan va koʻchib ketgan kishilar soni oʻrtasidagi farq migratsiya saldosini deyiladi. Baʼzan migratsiyaga turizm, kurortga borish, ziyorat, shuningdek mokisimon qatnovchilarni ham kiritadilar, lekin turar joyni oʻzgartirmagani uchun ularni Aholi migratsiyasiga kiritish mumkin emas.

Qishloq aholisi hisobiga shaharlarda yashovchi aholining toʻxtovsiz oʻsib borish tendensiyasi ham mavjud. Qishloqlarda yashash sharoitining shaharlarga nisbatan maʼlum darajada noqulayligi, uning ayniqsa yoshlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatlardan toʻla qondira olmasligi bu tendensiyaga sabab boʻladi.

Oʻzbekistonda aholi migratsiyasi jarayoni yangi zavod va fabrikalarning qurilishi, 50–60-

yillarda Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Bekobod, Angren, Olmaliq, Yangiyer va boshqa sanoat shaharlarining barpo etilishi hamda ularni ishchi kadrlar bilan ta'minlash maqsadida sho'rolar davrida SSSRning markaziy sanoat rayonlaridan aholini ommaviy ko'chirib keltirish hisobiga bo'ldi. Natijada bu sha-harlarda tub joy aholisi ozchilikni tashkil etib, ko'pchiligi Respublika tashqarisidan yo'llanma bilan kelgan kishilar bo'ldi. 1966-yilgi Toshkent zilzilasidan so'ng Toshkent shahri aholisi ham ikki baravardan ziyod ortdi. Urush yillarida o'z yurtlaridan qochoq bo'lganlar va badarg'a qilinganlar ham O'zbekistonda qo'nim topdilar. Aholi migratsiyasi jarayoniga tarixiy va milliy an'analar ham ta'sir ko'rsatadi. O'rta Osiyo xalqlarida, jumladan o'zbeklarda tug'ilib o'sgan joyga mehri balandligidan migratsiyaga moyillik ancha sust.

Mamlakatimizda mehnat migratsiyasining oila va bolalarga ta'sirini o'rganish orqali bolalar huquqlarini himoya qilish, migratsiyaning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan manzilli ishlar olib borilmoqda. Noqonuniy migratsiyaga qarshi ko'rashishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan qator loyihalar migrant oilalarning farzandlarini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

**2.** O'zbekistonda mehnat migratsiyasining o'sishi – zaif oilalarni qo'llab-quvvatlovchi tuzilmalar uchun yangi vazifalarni yuzaga keltirdi. Migratsiya bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi ijtimoiy xizmat sohasidagi xodimlar uchun migratsiya ta'siriga uchragan bolalar va oilalar bilan ijtimoiy ish amaliyoti bo'yicha treninglar o'tkazdi.

Ushbu tadbirlar O'zbekistonning to'rtta viloyatida - Buxoro, Farg'ona, Surxondaryo va Xorazmda muhojir ota-onalar tomonidan qoldirilgan bolalarni aniqlash va himoya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihaning bir qismidir. Loyiha O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va UNICEF tomonidan amalga oshirilib, Evropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan.

“Ota-onalarning bolalarning kundalik hayotida uzoq vaqt davomida bo'lmasligi ularning farovonligi va sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin”, - dedi Farg'ona viloyati voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiya mas'ul kotibi Qobiljon Hasanov. "Treningning maqsadi bolalarni parvarish qilish bo'yicha mutaxassislarni migratsiya ta'siriga uchragan bolalarni yanada yaxshi himoya qilishlari uchun ijtimoiy ish ko'nikmalariga o'rgatish edi."

To'rtta tanlangan viloyatda o'tkazilgan treninglar davomida ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasining 94 vakili, shu jumladan viloyat va tuman vasiylik va homiilik idoralari, voyaga etmaganlar va mahalla mutaxassislari ijtimoiy ish ko'nikmalari va axloqiy me'yorlar bilan tanishtirildi. Ular oiladagi vaziyatni baholash usullarini, shuningdek insonning atrof-muhit bilan ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarini ko'rsatadigan ekologik harita diagrammasini O'zbekistonda mehnat migratsiyasining o'sishi – zaif oilalarni qo'llab-quvvatlovchi tuzilmalar uchun yangi vazifalarni yuzaga keltirdi.

**Barcha mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Xalqaro Konvensiyasi.**

*Mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha qo'mita*, Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolarining

huquqlarini himoya qilish bo'yicha qo'mita Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha konvensiyaning 72-moddasiga binoan tashkil etilgan. Qo'mita o'zining doimiy sessiyasini Jenevada o'tkazadi. Uning rasmiy hujjatlari CMW/C/- belgisi bilan belgilanadi.

Qo'mita Jeneva shahrida joylashgan va odatda, bir yilda 2 ta sessiya o'tkazadi.

*Zo'rlik ostida g'oyib bo'lganlar bo'yicha qo'mita.* Barcha shaxslarni zo'rlik ostida g'oyib bo'lishdan himoya qilish to'g'risida xalqaro konvensiya qoidalarini nazorat qilish maqsadida, inson huquqlari sohasida vakolatli sifatida e'tirof etilgan va yuqori axloqiy sifatlarga ega bo'lgan o'n nafar ekspertdan iborat Zo'rlik ostida g'oyib bo'lganlar bo'yicha qo'mita ta'sis etiladi. Ular to'liq xolislik tamoyili asosida davlat vakillari sifatida emas, balki shaxsiy sifatlari bo'yicha faoliyat yuritadi.

Konvensiyaning har bir a'zo-davlati BMT Bosh kotibi orqali, mazkur Konvensiya bu davlat uchun kuchga kirgandan so'ng, uning qoidalarini bajarishi to'g'risida ma'ruzalar taqdim etadi.

Yo'qolgan shaxsning qarindoshlari, ularning qonuniy vakillari, advokatlar yoki boshqa har qanday vakolatli shaxs, shuningdek, qonuniy manfaatdor bo'lgan har qanday shaxs yo'qolgan shaxsning qidimvi hamda uning joyini aniqlash to'g'risida tezlik bilan Qo'mitaga murojaat qilishi mumkin.

#### **Muhokama uchun savollar:**

1. Zamonaviy migratsiya jarayoni va ularning sabablari haqida ma'lumot bering.
2. Migratsiya jarayonlarida bolaning mavqei qanday?
3. Migratsiya jarayonlarida bolalar huquqlarini himoya qilish muammolari nimalardan iborat?
4. Ijtimoiy-madaniy moslashuv markazlari faoliyat yo'nalishlari haqida gapirib bering.

#### **12-mavzu. Harbiy ziddiyatli hududlardan qaytib kelgan oilalar va bolalar huquqlarini himoya qilish.**

##### **Reja:**

1. Qurolli mojarolar tushunchasi va turlari.
2. Qurolli mojarolar qurboni bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilish va ta'minlash.
3. Qurolli mojarolar davrida bolalarni himoya qilish.
4. Bolalarning Qurolli mojarolarda ishtirok etish muammolari.
5. Mojarodan keying davrda bolalarni rehabilitatsiya qilishning asoslari.

##### **Tayanch so'z va iboralar:**

*Qurolli mojarolar, rehabilitatsiya, Xalqaro qurolli mojarolar qurbonlarini himoya qilishga taalluqli qo'shimcha protokol, nizo qurbonlariga taaluqli prinsiplar.*

1. Qurolli mojarolar tushunchasi va turlari.  
1949 yilgi Jeneva Konvensiyalariga 1977 yil 8 iyunda qabul qilingan Xalqaro qurolli mojarolar qurbonlarini himoya qilishga taalluqli Qo'shimcha protokol (I

Qo`shimcha protokol) I Qo`shimcha protokol 1977 yil 8 iyunda Jenevadagi diplomatik konferentsiyada qabul qilingan. I protokol qurolli nizolarning jabrdiydalarini «quruqlikdagi» va «dengizdagi» yaradorlar hamda bemorlar deb farqlashga barham berdi. Protokolda yaradorlar hamda bemorlar degan tushunchalar bir xillashtirilib belgilandiki, bunda «yaradorlar» va «bemorlar» degan so`zlar jarohat, xastalik yoki boshqa jismoniy yohud ruhiy kasalliklar yohud nogironlik oqibatida tibbiy yordamga yoki parvarishga muhtoj va har qanday dushmanlik harakatlaridan o`zini tiygan harbiy xizmatchilar va fuqarolarni anglatadi (8-modda). Protokolda yaradorlar va bemorlar doirasi:

- tug`adigan va yangi tuqqan ayollar;
- go`daklar;
- homiladorlar;
- bedarmonlar hisobiga kengaytirildi.

Tibbiyot hodimlarini «harbiy xizmatchi» va «fuqaro» degan mazmundagi so`zlar bilan farqlashga chek qo`yildi. Pirovard natijada tibbiy yordam ko`rsatish jarayoni birmuncha yengillashdi. endi barcha yarador va bemorlar, harbiy xizmatchi yoki oddiy fuqaro bo`lishidan qat`iy nazar, gospital yoki fuqarolarga mo`ljallangan har qanday tibbiy muassasada davolanish huquqiga ega bo`ldilar.

Gumanitar huquq tarixida birinchi marta I Qo`shimcha protokolda tibbiy vazifani bajaruvchi shaxslarning majburiyatlari tartibga solindi. Bu vazifalarni tartibga solishda Protokol tibbiyot ahloqi asoslaridan kelib chiqadi. Chunonchi:

- tibbiy vazifalarini tibbiyot ahloqiga muvofiq bajarganlik uchun birorta ham shahs javobgarlikka tortilishi mumkin emas;
- tibbiy vazifalarini bajarayotgan hech bir shaxs tibbiyot ahloqi talablari va mezonlariga zid ishlarni bajarishga yoki Konvensiya va protokol qoidalarini buzishga majbur etilishi mumkin emas;
- tibbiyot vazifalarini bajarayotgan birorta ham shaxs raqib tomondan bo`ladimi, o`z tomonidanmi, bundan qat`iy nazar yaradorlar va bemorlarga daxldor biror bir ma`lumot berishga, bunday ma`lumot nafaqat bemorlarga balki ularning oilalariga ham ziyon keltirishi mumkin bo`lsa, majbur etilishi mumkin emas (16-modda).

Qizil xoch timsoliga doir qoida ham kiritilgan qo`shimchalar jumlasiga kiradi. Gap shundaki, mazkur timsoldan xalqaro gumanitar huquq paydo bo`lganidan beri tibbiyot hodimlari va muassasalarining, shuningdek, sanitariya transportining belgisi sifatida foydalanilar edi. Biroq, urush jabrdiydalari doirasining kengaya borishi oqibatida (bu jabrdiydalarni borgan sari ko`proq fuqaro shaxslar tashkil eta boshladi) fuqaroviy tibbiyot hodimlari va diniy vakillarni farqlash uchun ham bu timsoldan foydalanish zaruriyati paydo bo`ldi. Bunday ehtiyoj har ikkala protokolning tegishli moddalarida o`zining echimini topdi (I Qo`shimcha protokolning 18-moddasi, I ilovaning 4-moddasi va II Qo`shimcha protokolning 12-moddasi).

Yaradorlar, bemorlar va kema halokatidan jabr ko`rganlarning beistisno barchasi bilan insoniy muomala qilinishining qat`iyligini tasdiqlab, Protokolda ayrim shahslarni himoya qilishga alohida e`tibor qaratilgan. Protokolda dushman tomonining hukmronligi ostida qolgan shaxslarning o`zi rozilik bergan bo`lsa ham:

- ularni jismoniy mayib qilish;
- ular ustida tibbiy yoki ilmiy tajribalar o`tkazish;
- boshqalarga ko`chirib o`tkazish uchun ularning to`qimalari yoki tana a`zolarini kesib olish taqiqlanishi belgilab qo`yildi.

Protokolda u yoki bu sababga ko`ra safdan chiqib qolgan shaxslarga hujum qilmaslikdek juda muhim qoida belgilandi. Unga muvofiq bunday shaxslar jumlasiga «dushman tomonning hukmronligi ostida bo`lganlar» va «asir tushish istagini aniq ravshan bayon etayotganlar», «hushsizligi, yaradorligi yohud bemorligi tufayli safdan chiqqan va shuning oqibatida himoyalalanishga qodir bo`lmaganlar» kiradi (41-modda).

Bunday shaxslar dushmanga qarshi ko`rashish va uning hujumidan o`zini himoya qilishga qodir emasligiga Protokolda ularni safdan chiqqan deb hisoblash huquqini beruvchi asos sifatida qaraladi.

### **NIZO QURBONLARIGA TAALUQLI PRINSIPLAR.**

Urushuvchi tomonlar qurolli nizolar qurbonlariga nisbatan amal qilishlari lozim bo`lgan prinsiplar haqida gap bormoqda:

- **tibbiyot xodimlarini himoya qilish prinsipi;**
- **tibbiyot xodimlarining har qanday dushmanlik harakatlaridan tiyilishi prinsipi;**
- **shaxslarni bemorlar va yaradorlarga parvarish ko`rsatishlari sababli ta`qib qilishga yo`l qo`ymaslik prinsipi;**
- **harbiy asrlarning huquqiy muomala qobiliyatlarini cheklashga yo`l qo`ymaslik prinsipi;**
- **davlatning milliy darajada ham, davlat darajasida ham o`z hukmi ostidagi shaxslarni himoya qilishni ta`minlashga majburligi prinsipi.**

### **QUROLLI NIZO HUQUQIGA TAALLUQLI PRINSIPLAR.**

Urush harakatlarini olib borishda nizolashuvchi tomonlar quyidagi prinsiplarga asoslanishlari lozim:

- **tinch aholiga, fuqarolarga, fuqaro ob`ektlariga hujum qilishga yo`l qo`ymaslik prinsipi;**
- **mudofaa qilinmaydigan joylarga hujum qilishga yo`l qo`ymaslik prinsipi;**
- **tinch aholiga xavfli bo`lgan kuchlarning ozodlikka chiqib ketish xavfini keltirib chiqaruvchi insho`tlarga hujum qilishga yo`l qo`ymaslik prinsipi;**
- **tinch aholiga ayab munosabatda bo`lish prinsipi;**
- **tabiiy muhitga o`nglamas zarar yetkazishga yo`l qo`ymaslik prinsipi;**
- **dushmanga qurolli nizo maqsadiga mos kelmaydigan darajada zarar yetkazmaslik prinsipi;**
  - **taqiqlangan qurol turlari va urush olib borish usullaridan foydalanishga yo`l qo`ymaslik prinsipi.**



## **2. Qurolli mojarolar qurboni bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilish va ta'minlash.**

Urush olib borish usullari va vositalarini tanlashda erkinlikka yo'l qo'ymaslikdan iborat umumiy tamoyildan kelib chiqib, protokolda «ortiqcha zarar yetkazishi yoki azob-uqubatga solishi» (35-modda) mumkin bo'lgan qurol-yarog`, o'q-dori, moddalar va uslublardan foydalanish taqiqlanadi. «Atrof muhitga keng ko'lamda zarar etkazishi» mumkin bo'lgan urush olib borishning usullari yoki vositalaridan foydalanish taqiqlab qo'yilganligi ham e'tiborga loyiqdir (55-modda). Protokolda dushmani munofiqlik yo'li bilan o'ldirish, yarador qilish yoki asirga olish taqiqlangan, ammo harbiy hiylalar man etilmagan. Dushmanning ishonchini qozonish va uni qurolli mojarolar paytida qo'llaniladigan xalqaro huquq me'yorlariga muvofiq tegishli himoyada bo'lish huquqiga ega ekanlikka yoki homiylik ko'rsatish shartligiga ishonishga undab, bunday ishonchni suiste'mol qilish maqsadiga qaratilgan hatti-harakatlar munofiqlik sanaladi (37-modda). Masalan, o'zini yarador qilib ko'rsatish, hujum qilish maqsadida oq bayroqdan foydalanish, qizil xoch yoki qizil yarim oy timsoli tushirilgan transportdan harbiy maqsadlarda foydalanish kabilar munofiqlikka misol bo'ladi.

I Protokol orqali kiritilgan qo'shimchalar orasida 42 - moddani alohida ta'kidlash lozim. Unda halokatga uchragan uchish apparatidan parashyutda o'zini tashlayotgan shahslar to'g'risidagi masala tartibga solingan. Bunday shahslar erga tushguncha bo'lgan davrda ularga hujum qilinishi mumkin emas. Ta'kidlash lozimki, bunday himoya huquqi birinchi marta qayd etilgan. Ammo erga tushayotgan desantchilarni o'qqa tutish taqiqlanmagan.

Protokoldagi «hech kim tirik qoldirilmasin» mazmunida buyruq berilishini taqiqlashga doir qoida (40-modda) diqqatga sazovor. Agarda, o'rta asrlar davrida keng tarqalgan va odamlarni qirib yuborishdan iborat bo'lgan tamoyil tinch aholi uchun qanchalik mudhish oqibatlarini keltirganligi esga olinsa, mazkur taqiqlov odamlar hayotini saqlab qolish uchun nihoyatda bebaho ahamiyatga ega ekanligi tushunarli bo'ladi. Gumanitar huquq kombatantlar va kombatant bo'lmagan shahslar o'rtasiga aniq chegara qo'yib, jang olib borish, hujum qilish va o'ldirish huquqi faqatgina kombatantlarga tegishli ekanligini e'tirof qiladi.

Hozirgi davrda tinch aholi qarshilik ko'rsatish harakatiga, partizanlar urushiga jalb etilish orqali qurolli to'qnashuvlar girdobiga keng miqyosda tortilayotgan ekan, gumanitar huquq normalari kombatant(ishtirokchi)lar bilan kombatant bo'lmaganlarni aniq farqlashni taqazo etadi. Bunday farqni aniqlab qo'yish, birinchidan, tinch aholini himoya qilish nuqtai nazaridan muhimdir. Ikkinchidan, kombatantlar o'zlarining maqomini saqlab qolishlari zarur, zero, ko'pincha shunday harakatlar yuz beradiki, qurolli nizolar vaqtida kombatantni fuqaro shaxsdan ajratishning iloji bo'lmay qoladi. Mana shuning uchun ham I protokolning 44-moddasida kombatant zimmasiga:

- har bir qurolli to'qnashuv vaqtida, shuningdek,
- jangdan oldin jangovar safga o'tish chog'ida dushmanning ko'z o'ngida qurolini oshkora olib yurish vazifasini yuklaydi.

Bu ikki shart hozirgi zamon qurolli nizolarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga

olib belgilangan. Boshqacha aytganda, harbiy xizmatchilarni harbiy kiyimdan voz kechishga majbur etadigan holat tez-tez uchrab turishi nazarda tutilgan. Biroq, yuqorida bayon etilgan ikki holatda ular o'z qurollarini oshkora olib yurishlari shart. Aks holda kombatantlar o'z maqomlaridan mahrum bo'lishlari mumkin. Maqomdan mahrum bo'lgan kombatantlar qonunda berilgan barcha huquqlarini yo'qotadi. Bunday maqomni yo'qotgan kishi qo'lga qurol olish, uni dushmanga qarshi ishlatish, dushmanga hujum qilish va u bilan jang olib borish huquqidan mahrum bo'ladi. Asirga olingan taqdirda esa, u harbiy asir maqomini olish huquqini yo'qotadi, demakki, harbiy asir ega bo'lgan huquqlardan, majburiyatlardan mahrum bo'ladi.

Protokolning III bo'limida «asosiy kafolatlarga» bag'ishlangan 75-modda bor. Gumanitar huquq sohasidagi taniqli mutaxassis J. Piktning e'tirof etishicha, u «yuridik kafolatlarning haqiqiy jamlamasini aks ettiradi, kafolatlarning to'liq ro'yhatini o'zida qamrab olganligi uchun bu moddaga istalgan paytda murojaat qilish mumkin».

Mazkur moddaning ko'pgina qoidalari inson huquqlari sohasidagi xalqaro hujjatlarning, hususan, 1948 yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va 1966 yildagi Xalqaro paktlarning («Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga fakul'tativ protokol») qoidalariga hamohangdir. Moddada nizolashayotgan tomon hukmronligi ostiga tushib qolgan shahslar bilan ularning irqi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, dini, tili, jinsidan qat'i nazar, insoniy muomalada bo'lish zarurligi ko'rsatilgan. Har bir tomon insonning shaxsi, qadr-qimmatini, e'tiqodi va diniy urf - odatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi kerak. Shu bilan birga:

- o'ldirish;
- xoh jismoniy, xoh ruhiy bo'lsin qiynoqning hamma turlari;
- tan jazolari;
- mayib qilish;
- inson qadr-qimmatini tahqirlash;
- garovga olish;
- ommaviy jazolash;
- yuqorida ko'rsatilgan harakatlardan istalgan birini sodir etish haqida tahdid qilish man etiladi.

Modda ayblanayotgan yoki jinoiy jazoga tortilayotgan shaxslar bilan muomalada rioya etilishi kerak bo'lgan protsessual tuzdagi qoidalarining keng ro'yhatini ham o'z ichiga oladi. Uning barcha qoidalari sud qarorlarini chiqarishda holis yondashishni, aybsizlik prezumtsiyasidan (ya'ni aybi sudda isbot etilguncha aybdor deb hisoblanmaslikdan) kelib chiqishni, tergov qilinayotgan va ayblanayotgan shaxslar himoyasini ta'minlashni, sud-tergov jarayonida belgilangan tartib-qoidalarga rioya etishga oid vazifalarni belgilab beradi.

Xotin-qizlar va bolalarni himoya qilish chora-tadbirlarini belgilashga Protokolda alohida e'tibor qaratilgan (76 - 78-moddalar).

I Protokolda Konvensiyalar va Protokolning o'zida qayd qilingan ko'rsatmalarga rioya etilishi masalasiga katta ahamiyat berilib, bu hujjatlardagi

qoidalar buzilishining oldini olish bilan bog`liq masalalar batafsil belgilab berilgan. Oliy Ahdlashuvchi Tomonlar va nizolashayotgan tomonlar zimmasiga «Konvensiya yoki Protokol qoidalari jiddiy buzilishiga barham berish va ularning har qanday buzilishining oldini olish uchun zarur chora-tadbirlar ko`rish» vazifasi yuklatiladi (86-modda).

Oliy Ahdlashuvchi Tomonlar va nizolashayotgan tomonlar 87 - moddaga muvofiq harbiy komandirlardan «Konvensiyalar va ushbu Protokol qoidalari buzilishiga yo`l qo`ymasliklarini, zaruratga qarab, qoidabuzarliklarning oldini olish va bu haqda vakolatli ma`murlarni xabardor etishlarini» hamda ulardan «o`zlariga bo`ysunuvchi qurolli kuchlar tarkibiga kiruvchi shaxslar Konvensiyalar va ushbu Protokol tomonidan ularga yuklatilayotgan majburiyatlardan xabardor bo`lishlarini ta`minlash uchun tegishli chora-tadbirlarini ko`rishlarini» talab qilishlari kerak. Protokolda belgilangan taqiqlovlarni buzish harbiy jinoyatlar sifatida qaraladigan jiddiy qoidabuzarliklar zimmasiga kirib, jinoiy-huquqiy javobgarlikka sabab bo`ladi.

1949 yilgi Jeneva Konvensiyalariga 1977 yil 8 iyunda qabul qilingan xalqaro bo`lmagan qurolli mojarolar qurbonlarini himoya qilishga taalluqli Qo`shimcha protokol ( II Qo`shimcha protokol )

Yuqorida ta`kidlanganidek, 1977 yilda bo`lib o`tgan Diplomatik konferentsiyada xalqaro tusga ega bo`lmagan qurolli nizolarning jabrdiydalariga doir II Qo`shimcha protokol ham qabul qilindi.

E`tirof etish lozimki, gumanitar huquq normalarining aksariyat qismi xalqaro tusga ega bo`lgan qurolli nizolarga daxldordir. Buning ajablanarli joyi yo`q, negaki, ikkinchi jahon urushiga qadar qurolli nizolar, odatda, xalqaro tusga ega bo`lgan. Biroq, ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro tusga ega bo`lmagan qurolli nizolarning soni haddan ziyod oshib ketdi. Vaholanki, gumanitar huquqda Jeneva Konvensiyalarining to`rtalasi uchun umumiy bo`lgan 3-moddagina xalqaro tusga ega bo`lmagan qurolli nizolarga taalluqli qoidani o`zida ifoda etgan edi, xolos.

Biroq, ushbu modda o`z mohiyatiga ko`ra katta ahamiyatga ega bo`lishidan qat`iy nazar, bunday turdagi qurolli nizolarning barcha jihatlarini o`zida qamrab ololmasdi. Zero, unda nizolashayotgan tomonlar qo`llashlari shart bo`lgan qoidalarining eng kami nazarda tutilgan. Ayni vaqtda ichki qurolli nizolarning murakkab jihatlarini tashqi nizolarga qaraganda kam emas, balki ko`pdir. Negaki, xalqaro tusga ega bo`lmagan qurolli nizolarda juda ko`p qon to`kiladi va ular nihoyatda murosasiz o`tadi.

Xalqaro tusga ega bo`lmagan qurolli nizolarning o`sish sur`ati ularni huquqiy tartibga solishning qamrovini kengaytirishni talab qildi. Bu muammo II Qo`shimcha protokol qabul qilinishi orqali echildi. Mazkur Protokol aynan ichki nizolarga bag`ishlangan. Biroq, Protokolning o`zida ta`qidlanganidek, u tartib buzilishining barcha hollariga emas, balki qurolli nizolar jumlasiga kiradiganlariga nisbatan tadbiriq etiladi. Bundan «tartibsizliklar, ayrim va tasodifiy zo`ravonlik harakatlari va shunga o`xshash boshqa harakatlar» istisnodir (1-modda, 2-band).

II Qo`shimcha protokol harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etmayotgan yoki ularda qatnashishni to`xtatgan shaxslarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo`lishning asosiy kafolatlariga doir qoidalarni tasdiqlabgina qolmay, balki yanada

rivojlantirdi. Yuqorida eslatib o`tilgan 3-moddaning to`rtta bandida inson hayotiga, qadr-qimmatiga tajovuz qilish, uni tutqun qilish, qiynash, unga shikast yetkazish, adolatsiz qaror chiqarish taqiqlanishi nazarda tutilgan edi.

Bunday taqiqlovlarning soni II Protokolda yanada ko`paydi. Unda ko`pchilikni yoppasiga jazolash, nomusiga tegish, fohishabozlikka majburlash yoki har qanday shaklda nomusga tajovuz qilish, o`g`rilik, qul qilish va har qanday shakldagi qul savdosi taqiqlanadi.

Bolalarga g`amxo`rlik qilish va yordam ko`rsatilishini ta`minlash masalasi alohida tartibga solib qo`yilgan. Xususan, o`n besh yoshga to`lmagan bolalarni qurolli kuchlar yoki guruhlar safiga yollashga va ularga harbiy harakatlarda qatnashishga ruhsat etilmaydi (4 (s)-modda). Agar ular 3-moddaning c-bandiga xilof ravishda harbiy harakatlarda bevosita qatnashgan va asir tushganlari taqdirda, mazkur moddadagi o`n besh yoshga to`lmagan bolalar uchun ko`zda tutilgan maxsus himoya ularga nisbatan qo`llanilishda davom etadi (4 (d)-modda). Zaruratga qarab, ularni harbiy harakatlar olib borilayotgan joydan mamlakat ichkarisidagi nisbatan ancha xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish lozim (4 (e)-modda).

Yaradorlar va bemorlarni himoya qilish hamda ularga tibbiy yordam ko`rsatish insonparvarlik tamoyillariga muvofiq amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Tibbiy va diniy yordam ko`rsatuvchi xodimlarga, sanitariya-transport vositalariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo`lish, ularni himoya qilish lozimligi, ular hujum ob`ekti bo`lmasliklari kerakligi ko`rsatilgan. Fuqaro aholi va fuqaroviy ob`ektlar himoya ostida ekanligi e`lon qilingan. «Asosiy maqsadi tinch aholini terror qilishga qaratilgan zo`ravonlik harakatlarini sodir etish yoki shunday zo`ravonlik bilan tahdid qilish» qat`iyan man etiladi (13-modda).

Protokol tinch aholi o`rtasida ocharchilikdan harbiy harakatlar olib borish vositasi sifatida foydalanishni taqiqlaydi. Protokol xavfli kuchlarni o`zida tutib turgan qurilmalar va insho`tlarni, madaniy qadriyatlarni, diniy urf-odatlarini ado etish joylarini himoyaga oladi.

Fuqaro shaxslarni majburiy ravishda ko`chirish ham taqiq ostidadir. Ularni ko`chirish to`g`risida farmoyish berishga faqat ana shu kishilarning xavfsizligini ta`minlash mulohazasi bilan yoki «harbiy turdagi zaruriy sabablarga ko`ra» yo`l qo`yiladi. Biroq, bunda ko`chirilayotgan kishilar uy-joy, oziq-ovqat bilan ta`minlanishi, ularning hayoti va sog`ligi uchun xavfsiz shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Ularning birontasini ham nizo munosabati bilan o`z hududini tashlab chiqishga majbur etish mumkin emas (17-modda).

II Qo`shimcha protokolda belgilanganki, Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy kabi jamiyatlar «qurolli nizo jabrdiydalariga nisbatan o`zlarining an`anaviy vazifalarini bajarish maqsadida xizmatlarini taklif etishlari mumkin» (18-modda). Fuqarolarning o`z tashabbuslariga ko`ra yaradorlar, bemorlar va kema halokatida jabrlangan shaxslarni olishi va parvarishlashi man qilinmaydi. Jiddiy huquqbuzarliklar uchun sud tartibida ta`qib qilish va jazolash masalasi Protokolda ancha batafsil tartibga solingan.

Ayblash eng avvalo aybsizlik prezumptsiyasiga asoslanishi kerak. Aybni aniqlash ayblanayotgan shaxsni sud muhokamasi va advokat himoyasi huquqidan mahrum etmaydi. Holis sudning asosli hukmigina aybdorga nisbatan jazo belgilash

uchun asos bo`lishi mumkin.

Sudga o`n sakkiz yoshga to`lmagan shaxslarni o`limga hukm qilish huquqi berilmagan. Homilador ayollar va yosh bolali ayollarga nisbatan chiqarilgan bunday hukm ijro etilmaydi (6(4)-modda).

Mazkur Protokolning ko`pgina qoidalari Jeneva Konvensiyalarining hammasi va I Qo`shimcha protokol qoidalariga o`xshashdir. Unda inson huquqlari sohasidagi xalqaro hujjatlarning ko`pgina g`oyalari o`z ifodasini topgan. Bu qonuniy holdir, zero, turli qurolli nizolardan, tabiiyki, odamlar jabr ko`radi, ularning azob-uqubati va musibati qurolli nizolar xalqaro tusga egami yoki yo`qmi, bundan qat`iy nazar, o`zgarib qolmaydi. Demak barcha qurolli nizolarning jabrdiydalari teng darajada gumanitar yordam va himoyaga muhtojdir.

1949 yil 12 avgustdagi Jeneva Konvensiyalariga 1977 yil 8 iyunda qabul qilingan I va II Qo`shimcha protokollarni O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993 yil 3 sentyabrdagi 946-HII sonli qaror bilan ratifikatsiya qilgan va ularda aks ettirilgan huquqiy holatlarning bajarilishini o`z zimmasiga olgan.

### **3.Qurolli mojarolar davrida bolalarni himoya qilish.**

Bugungi tahlikali zamonda jahondagi “askar bolalar” soni 250 ming nafardan oshib ketgani aytiladi. Dunyoda globallashuv jarayonlari shiddat bilan kechmoqda. Jahonning ko`plab mamlakatlarida yoshlar turli illat va tahdidlar, ijtimoiy saytlarda targ`ib etilayotgan buzg`unchi g`oyalar ta`siriga tushib qolmoqda. Bugungi tahlikali zamonda jahondagi “askar bolalar” soni 250 ming nafardan oshib ketgani aytiladi. Ularning o`rtacha yoshi 10–12da bo`lib, jangovar qurollardan foydalanishni atigi 40 daqiqada o`rganib olishgan. BMT ma`lumotlariga ko`ra, “askar bolalar”ning 40 foizini qizlar tashkil qiladi. Jahondagi qochqinlarning 80 foizi xotin-qizlar va bolalar ekanligi ham tashvishli holdir.

Tahlilchilarning fikricha, terrorizm bir qator salbiy oqibatlarini keltirib chiqarmoqda. Yaqin Sharq mamlakatlarida bolalar ko`p hollarda kattalarning vazifasini o`z zimmasiga olmoqda. Ko`p holatlarda bolalar “qonli teatr”ning tomoshabini emas, balki ishtirokchisiga aylanib qolmoqda. O`zini “Islom Davlati” deya atayotgan terror tashkiloti Iroq hududlarida bolalar mashq lagerlarini barpo etgani haqida xabarlar paydo bo`ldi. Bu yerda bolalarni nafaqat quroldan foydalanishga, balki ochiqdan ochiq odam o`ldirishga o`rgatishdi. Ana shunday voqealarga guvoh bo`lib, lagerdan qochishga muvaffaq bo`lgan 14 yoshli bolaning so`zlariga qaraganda, bolalar, asosan, bir kecha kunduzda 10 soat mobaynida bir-birlari bilan urishib, jismoniy mashq o`tkazar ekan. Bundan bir necha yil muqaddam “Islom Davlati” e`lon qilgan tashviqot videoroligida bolalarning mashq qilayotgani namoyish etildi. Unda eng yosh terrorchi 5 yoshda ekani oydinlashadi.

Tarixiy manbalarda qayd qilinishicha, bolalar qadimgi asrlardayoq harbiy harakatlarda ishtirok etgan. O`rta asrlarga kelib, 14 yoshga to`lgan bolalar ritsarlarga yordamchi bo`lib, ularning qurollarini tozalab, tungi qorovullikda turgan. 18–19-asrlarda 8 yoshga to`lgan bolalar harbiy kemalarda to`plarni o`qlash bilan shug`ullangan. 19-asrga qadar 10 yoshga to`lgan bolalar turli mamlakatlarning armiyalarida barabanchi sifatida xizmat qilgan. Ikkinchi jahon urushi oxirlarida fashistlar 14 yoshga to`lgan bolalarni “ko`ngilli” sifatida jangovar harakatlarda ishtirok etishiga ruxsat berdi. Qizil armiya saflarida ham fashistlarga qarshi urushda

asosan yetim bolalardan iborat “polk o‘g‘illari” bo‘lgani haqida kitoblarda o‘qiganmiz. Katta sovet ensiklopediyasida 1941-1945 yilgi urushda ishtirok etgan 35 mingdan ortiq o‘quvchi jangovar orden-medallar bilan taqdirlangani aytiladi. Bundan tashqari, partizan otryadlarida ham bolalar bo‘lgani hech kimga sir emas. Ikkinchi jahon urushidan keyin bolalarga nisbatan talablar o‘zgardi. 1949-yil 12-avgustda qabul qilingan Xalqaro qurolli mojarolar qurbonlarini himoya qilish haqidagi Jeneva Konvensiyasining Birinchi protokoliga Qo‘shimchada, 1977-yil iyunida qabul qilingan Qo‘shimcha protokolda 15 yoshdan kichik bo‘lgan bolalarning qurolli mojaralarda ishtirok etishi qat’iyan taqiqlanadi. 1995-yilda BMT Bosh kotibi turli mamlakatlar hukumatlari va nohukumat tashkilotlari bilan birgalikda “18 yoshdan kichik bolalarni harbiy xizmatga chaqirish va ularni har qanday qurolli mojarolarga jalb qilinishi taqiqlanishi borasida chaqiriq bilan chiqdi. Ammo bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarda bolalar hamon jangovar harakatlarda ishtirok etmoqda. Ayniqsa, Afrikadagi mamlakatlarda davom etayotgan qurolli to‘qnashuvlarga bolalarning jalb qilinyotgani ayanchli va achinarlidir.

“Askar-bolalar” Afrikadagi “dahshatli kasallik” ekani tan olinadi. Masalan, Syerra-Leoneda davom etgan fuqarolar urushi davomida 8 mingga yaqin kishi “askar-bolalar” tomonidan o‘ldirilganini nima bilan oqlash mumkin? 2008-yilda Kongo Demokratik Respublikasidagi barcha harbiy guruhlar shaxsiy tarkibining teng yarmi, ya’ni 30 mingga yaqinini balog‘atga yetmaganlar tashkil qilgan. Ugandada esa “Qarshilik ko‘rsatish armiyasi”ning 70 foizi bolalar va o‘smirlardan iborat bo‘lgan. Mamlakatdagi qotillik va zo‘ravonliklar kattalar qo‘lidan qurol va saboq olgan bolalar tomonidan sodir etilgan. Ulardan ayrimlarining yoshi 8 da ekani aytiladi. Bu mamlakatda bolalar qishloqlarga hujum vaqtida jangarilar tomonidan o‘g‘irlanar va kallakesarlar guruhida turib jang qilishga majbur etilardi. Bo‘ysunmaganlar esa shavqatsizlarcha o‘ldirilardi.

Somali Inson huquqlari bo‘yicha Markazi vakillarning so‘zlariga qaraganda, hukumat kuchlarining 20 foizini, “Jamoat Ash-Shabab” guruhi jangarilarning 80 foizini bolalar tashkil qilgan. Somalida bolalar o‘z tengdoshlari bilan urushmoqda. Radikal jangarilar bu mamlakatda o‘z saflariga bolalar va qizlarni jalb qilmoqda. “Al-Shabab”ning ma’nosi ham “yoshlar” demakdir.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, bolalarning qo‘lga qurol olishi bo‘yicha Somali birinchi o‘rinda turadi. Chunki bu mamlakatda bolalar nima bilan shug‘ullanishni bilishmaydi. 1991-yilda Somali hukumati mamlakatni tark etganidan so‘ng yosh avlod vakillari ko‘chada qoldi. Bolalarning ko‘pchiligi hech qachon maktab eshigidan hatlab o‘tmadi. Somalida askar bolalar ko‘p vaqti harbiy xizmatda bo‘lgani uchun emas, balki maktab mutlaqo yo‘qligi uchun ham o‘qishdan bebahriligicha qolmoqda. Dam olish maskanlari nima ekanligini umuman bilishmaydi. To‘yib ovqat yemaydigan bolalar soni ham oshmoqda.

Dushman tomon shubhalanmasligi uchun bolalar ko‘p hollarda razvedka ishlarida va pistirma qo‘yishda foydalanilgan. Janglar oldidan qo‘rqmasliklari uchun ayrim hollarda bolalarga giyohvand moddalar va spirtli ichimliklar beriladi. Tahlilchilarning fikricha, bolalar uylariga qaytmasligi uchun ularga qarindoshlari va qo‘shnilaridan birini o‘ldirish topshiriladi. Bu ishga qo‘l urgan bola hech qachon uyga qaytmasligi aniq. Jangarilar yosh qizlardan xotin va jangchi sifatida ham

foydalanishadi. Myanmada 1997 yilda tashkil etilgan qurolli guruhga 9 yoshli aka-uka egizaklar Jonni va Lyuter Xtular rahbarlik qilgan edi.

BMT jinoyat sodir etgan bolalarga xuddi kattalar singari jazo qo'llash maqsadga muvofiq emasligini aytib keladi. Xalqaro tashkilotlar hukumatlarga murojaat qilib "askar bolalar"ni janggarilarning sherigi deb emas, balki qurolli to'qnashuvlar qurbonlari sifatida ko'rilishini tavsiya qilmoqda. Biroq qurolli to'qnashuvlar tugagan mamlakatlarda "askar-bolalar"ning tinch hayotga ijtimoiy moslashuvi qiyin kechmoqda. Jangarilar qurolsizlantirilganidan so'ng "askar bolalar"ning oilasini qidirib topishdek murakkab vazifa turadi. Bolalar o'zlarini aybdor sanaganlari bois jamiyatga moslashuvida muammolar bilan to'qnash keladi. Amerika psixologlarining fikricha, urush vaqtida bolalar tezda ulg'ayar ekan. BMTning Bolalar jang'armasi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi o'n yilliklarda jahonning turli "qaynoq nuqta"larida 2 millionga yaqin bola halok bo'lib, 6 million bola jiddiy jarohat olgani tufayli nogiron bo'lib qolgan. Halok bo'lganlarning salkam yarim millioni askar-bolalardir. Manbalarda Markaziy va G'arbiy Afrika mamlakatlarida har o'nta bolaning bittasi u yoki bu qurolli guruhning a'zosi ekani aytiladi.

YUNESKO Shri Lankadagi ayirmachilarning "Tamil Ilama ozodlik yo'lbarlari" tashkiloti rahbariyatiga murojat qilib, janggovor harakatlarda bolalardan foydalanish amaliyotini to'xtatishga chaqirdi. Ammo 2002-yilda o't ochishni to'xtatish borasida erishilgan bitimdan so'ng Tamil jangarilari o'z saflariga 5 ming 400 ga yaqin bolani jalb qildi. Ko'rinib turibdiki, "Ozodlik yo'lbarlari"lari saflarida 10 mingga yaqin jangari bo'lsa, ularning teng yarmini bolalar tashkil qilmoqda.

Tahlilchilarning fikricha, avtomat qurollarni ishlatish osonlashgani bois undan bolalarning foydalanishida deyarli qiyinchiliklar uchramayapti. "Askar-bolalar" insoniy qadr-qimmat degan tushunchaning nimaligini bilmagan holda qo'lga qurol olayotgani achinarli, albatta. Jangarilarning yosh bolalardan foydalanishi nisbatan arzonga tushadi. Xalqaro Mehnat tashkiloti mutaxassislarining fikricha, Markaziy Afrikadagi "askar-bolalar"ning 94 foizi hech qachon qo'lida pul ushlamagan. Bolalar qurol va avtomatlardan boshqa hech narsa talab qilmaydi.

Afrikaning ayrim mamlakatlarida ota-onalar jangarilarning bosqinidan qo'rqib bolalarini o'z ixtiyorlari bilan ularga berib yubormoqda. Chad, Sudan kabi mamlakatlarda ham bolalar yoshligini harob qilib qo'lida qurol bilan kimlarningdir manfaati uchun ko'rashmoqda, qurbon bo'lmoqda. Chadda bolalar hukumat kuchlari saflarida ham, hukumatparast qurolli guruhlarda ham, qishloqlardagi o'zini mudofaa qilish otryadlarida ham xizmat qiladi. Afg'onistonda kambag'al ota-onalar farzandlarini qurolli guruhlar safiga jo'natishga majbur bo'lmoqda. Eng achinarlisi, bolalarda o'limga nisbatan qo'rquv hissi yo'q. Ular o'zlarini kimdir o'ldirishi mumkinligini bilmagan holda jangga kiradi. Ular dasturxon atrofida oila a'zolari – ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari bilan suhbatlashish o'rniga qo'lida qurol bilan odamlarni o'ldirmoqda. Bolalarning qurolli mojarolarda ishtirok etayotgani xalqaro huquq normalarining qo'pol suratda buzilayotganidan dalolatdir. Harbiy mojarolar davom etayotgan mamlakatlarda bolalar urushni oddiy ko'rinish sifatida qabul qilishga o'rganib qolgani fojea emasmi? Qurolli mojarolardagi bolalarning

ayanchli taqdiri uchun kim javob beradi?

Shukurki, O'zbekistonimizda tinchlik, xotirjamlik. O'q ovozlari eshitilmaydi. Musaffo osmonimizda quyosh porlab turibdi. Oziq-ovqat, toza ichimlik suvi bilan bog'liq muammolar yo'q. Bolalar shod-u xurramlikda bog'cha, maktabga borishadi. Xohlagan o'yinchoqlarini o'ynab, kitob o'qishlari, film tomosha qilishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Mamlakatimizda barcha millat va elat vakillarining ta'lim olishi, o'z qiziqishi va layoqati bo'yicha kasb-hunar egallashi, mehnat qilishi, ijodiy-intellektual qobiliyatini namoyon etishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Mamlakatimizda farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishi yo'lida ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklar navqiron avlodni Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalari sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda yuksak samaralar bermoqda.

### **Mojarodan keyingi davrda bolalarni reabilitatsiya qilishining asoslari.**

**1990-yillarda bolalarni saqlab qolish, himoya qilish va rivojlantirish bo'yicha Butunjahon deklaratsiyasini amalga oshirish bo'yicha harakatlar rejasi**

#### **\* Dunyoda bolalarning mavqei. 1991 yil**

Ushbu tadbirlar rejasi 30 dan oshiq banddan iborat bo'lib, milliy hukumatlar, Xalqaro tashkilotlar, ikki tomonlama yordam agentliklari, nodavlat tashkilotlar (NNT) va jamiyatning barcha boshqa tarmoqlariga o'zlarining harakat dasturlarini ishlab chiqishda Jahon sammiti deklaratsiyasini amalga oshirishda ko'rsatma berish uchun mo'ljallangan.

#### **Ayniqsa qiyin sharoitdagi bolalar**

Dunyo bo'ylab millionlab bolalar juda og'ir sharoitlarda yashaydilar - yetimlar va qarovsiz bolalar, qochqinlar yoki ko'chirilganlar, urush qurbonlari, tabiiy ofatlar va texnogen falokatlar, shu jumladan radiatsiya va xavfli kimyoviy moddalar ta'sirida bo'lgan ofatlar, mehnat muhojirlari va vakillarining farzandlari. boshqa nochor guruhlar, mehnatga majbur qilingan bolalar yoki fohishabozlik bilan shug'ullanadigan yoshlar, jinsiy zo'ravonlik va ekspluatatsiyaning boshqa shakllari qurbonlari, nogironlar va balog'atga etmagan bolalar, aparteid va chet el ishg'oli qurbonlari. Bunday bolalar o'zlarining oilalari vamaqsadi bo'lishi kerak.

100 milliondan ortiq bolalar, ko'pincha iqtisodiy va ekspluatatsiya qilishdan, ularning ta'lim olishiga to'sqinlik qiladigan va ularning sog'lig'i va to'liq rivojlanishiga tahdid soladigan mehnatdan himoya qiluvchi Xalqaro konvensiyalarga zid ravishda, ko'pincha qiyin va xavfli ishlarda ishlaydi. Shuni inobatga olgan holda, barcha davlatlar ushbu bolalar mehnati amaliyotiga barham berish uchun sa'y-harakatlarni amalga oshirishi va qonuniy ravishda ishlayotgan bolalarga ularga sog'lom tarbiya va rivojlanish uchun tegishli imkoniyatlar yaratadigan shart-sharoitlar qanday kafolatlanishi mumkinligini ko'rib chiqishi kerak.

Giyohvandlik juda ko'p sonli yoshlar va hayotning prenatal davrida sog'lig'i tiklanib bo'lmaydigan darajada ko'payib borayotgan bolalar uchun global tahdidga aylandi. Ushbu fojining oldini olish uchun giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni noqonuniy ishlab chiqarish, etkazib berish, talab qilish, sotish va tarqatish bilan ko'rashish bo'yicha hukumatlar va hukumatlararo idoralarning



kelishilgan harakatlari zarur. Noqonuniy dori-darmonlarga bo'lgan talab va taklifni kamaytirish uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan jamoat tadbirlari va ta'limning ahamiyati bir xil. Tamaki va spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish, shuningdek, harakatlarni talab qiladigan muammolar, ayniqsa yoshlarning oldini olish va tarbiyalash.

#### **Muhokama uchun savollar:**

1. Qurolli mojarolar tushunchasi va turlari haqida ma'lumot bering.
2. Qurolli mojarolar qurboni bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilish va ta'minlash qay tartibda amalga oshiriladi?
3. Bolalarning Qurolli mojarolarda ishtirok etish muammolari qaysilar?
5. Mojarodan keyingi davrda bolalarni rehabilitatsiya qilishning asoslari haqida ma'lumot bering.

### **13-mavzu. Milliy va xalqaro qonunchilikda bola huquqlarining buzilishi uchun javobgarlik.**

#### **Reja:**

1. Inson huquqlari buzilganligi uchun davlatlar va shaxslarning xalqaro javobgarligining huquqiy asoslari.
2. Xalqaro-huquqiy javobgarlik va individual jinoiy javobgarlik institutlarini ajratish.
3. Odamlarning inson huquqlari sohasidagi xalqaro jinoyatlar uchun javobgarligi.
4. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro jinoyatlar.

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

*Xalqaro-huquqiy javobgarlik va individual jinoiy javobgarlik institutlari, Xalqaro jinoyat, Inson huquqlari bo'yicha xalqaro jinoyatlar, Xalqaro harbiy Tribunal (Nyurnberg tribunali)ning Nizomi.*

1. **Xalqaro jinoyatlar uchun javobgarlik asoslari** Xalqaro huquqda barcha xalqaro huquqbuzarliklarni ularning xavflilik darajasi, miqyosi va oqibatidan kelib chiqqan holda, uchta katta guruhga ajratish mumkin. Birinchidan: xalqaro jinoyatlar; Ikkinchidan: xalqaro harakterdagi jinoyatlar; Uchinchidan: boshqa xalqaro huquqbuzarliklar (xalqaro deliktlar). Xalqaro jinoyat deb, insoniyat uchun xavfli bo'lgan, shaxsni himoyalash, xalqaro hamjamiyatning muhim hayotiy manfaatlari, tinchlikni saqlash uchun asosiy ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro huquq norma va prinsiplarining buzilishiga aytiladi. Xalqaro jinoyatlar BMTning Xalqaro huquq komissiyasi tomonidan xalqaro hamjamiyatning hayotiy muhim manfaatlarini tapminlash uchun asosiy ahamiyat kasb etadigan majburiyatlarini buzish xalqaro-huquqiy qilmish sifatida baholandi. Bunday huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun davlat bilan bir qatorda individlar ham javobgarlikka tortiladi. Birinchi marta xalqaro jinoyatlarning ro'yxati 1945-yilgi Xalqaro harbiy Tribunal (Nyurnberg tribunali)ning Nizomida va 1946-yilgi Uzoq Sharq bo'yicha tribunal (Tokio tribunali)ning Nizomida keltirilgan edi. Nyurnberg tribunali Nizomining 6-moddasida xalqaro jinoyatlar uch guruhga bo'linadi: Xalqaro jinoyatlarning turlariga quyidagilar kiradi: I. Tinchlikka qarshi jinoyatlart bu agressiv urushni rejalashtirish, unga tayyorgarlik ko'rish, bunday urushga yo'l ochish yoki uni

amalga oshirish hamda xalqaro shartnomalar yoxud ahdlashuvlarni buzgan holda urush olib borish, hattoki harakatlarning biror turini amalga oshirishga yo'naltirilgan reja yoki fitnada ishtirok etish. Agressiya (lotincha aggressior, inglizcha aggression so'zlaridan olingan) umum eptirof etilgan prinsiplar va xalqaro huquq normalariga binoan tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyat hisoblanadi. 1974-yil 14-dekabrda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida qabul qilingan qarorda agressiya atamasi qdavlat tomonidan qurolli kuchlarni boshqa davlatning suverenitetiga, hududiy daxlsizligiga yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi BMT Ustaviga xilof tarzda qo'llash deb ta'riflanadi. BMT Bosh Assambleyasi 1974-yil 14-dekabrda qabul qilingan Agressiya tushunchasi to'g'risidagi Rezolyutsiyaning 3-moddasida sanab ko'rsatish (ro'yxat usuli) bilan ta'riflanadigan agressiya tushunchasi mavjud. Zikr etilgan harakatlar, urush e'lon qilingan-qilinmaganidan qatpi nazar, 2-moddani inobatga olib, uning qoidalariga mutanosib ravishda agressiya harakati deb baholanadi.

1. Davlat qurolli kuchlarining boshqa davlat hududiga bostirib kirishi yoki qancha muddatga cho'zilganligidan qat'i nazar, har qanday bosib olish, mazkur bosqinchilik oqibati sifatida yoki boshqa davlatga uning biror-bir hududiga qarshi kuch ishlatish bilan sodir etilgan har qanday harakat.
2. Davlat qurolli kuchlarining boshqa davlat hududini bomba bilan portlatishi yoki davlatning har qanday qurolni boshqa davlatlarga qarshi ishlatilishi.
3. Davlat portlari yoki qirg'oqlarining boshqa davlat qurolli kuchlari tomonidan to'sib qo'yilishi.
4. Davlat qurolli kuchlarining boshqa davlatga tegishli quruqlikdagi, suvdagi, havodagi kuchlariga yoki havo flotiga bostirib kirishi.
5. Boshqa davlat hududidagi bir davlatning qurolli kuchlarini mazkur davlat bilan tuzilgan bitim shartlarini buzib qo'llash yoki har qanday shakldagi mazkur qurolli kuchlarning bitimi harakati to'xtatilishidan so'ng ham ushbu davlat hududida saqlashining davom etishi.
6. Davlatning boshqa davlat ixtiyoriga topshirib qo'yilgan hududida mazkur davlat tomonidan boshqa uchinchi davlatga agressiya sodir etishga yo'l qo'ygan harakatlari.
7. Davlat yoki uning nomidan qurolli kuchlarni, guruhlarini va nomuntazam kuchlar yoki yollanganlarni yuborish (mazkur kuchlar boshqa davlatga qarshi qurol ishlatgan holatlarda, basharti bu holat jiddiy tus olib, yuqorida qayd etilgan harakatlar teng kelsa yoki unda anchagina ishtiroki bo'lsa).

1. Biroq, ob'yektiv jihatdan urushni rejalashtirish yoki unga tayyorgarlik ko'rish yoxud Agressiya to'g'risidagi qarorning 3-moddasida sanab o'tilgan biror harakatni sodir etish uchun fitnada qatnashishning o'zi tamomlangan jinoyat tarkibini vujudga keltiradi.

2 O'zbekiston Respublikasi JKning 151-moddasida agressiya jinoyati uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, unga ko'ra, agressiya, yapni bosqinchilik urushini rejalashtirish yoki unga tayyorgarlik ko'rish, shuningdek, shu harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan fitnada qatnashish o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

II. Harbiy jinoyatlar. Harbiy jinoyatlarga quyidagilar kiradi: a) istilo etilgan hududlar aholisini o'ldirish, qiynoqqa solish yoki majburiy mehnat uchun haydab ketish; b) harbiy asirlarni o'ldirish yoki qiynoqqa solish; d) garovdagilarni o'ldirish; e) jamoat mulki va xususiy mulkni talon-taroj etish; f) harbiy zarurat talab etmagan hollarda shaharlar va qishloqlarni maqsadsiz ravishda yakson qilish, xonavayron etish va boshqa shu kabi xatti-harakatlarni sodir etish. Sobiq Yugoslaviya uchun tribunal Nizomida ushbu ro'yxat quyidagilar hisobiga yanada to'ldirildi va

aniqlashtirildi: a) biologik sinovlar; b) harbiy yoki fuqaro shaxsni dushman tomonning qurolli kuchlarida xizmat qilishga majburlash; d) fuqarolarni garovga olish; e) harbiy asir yoki fuqaroni odil sudlov huquqidan mahrum etish.

**Insoniyatga qarshi jinoyatlar.** Ular sirasiga: o'ldirish, qirgoin qilish, asoratga solish va aholiga nisbatan qo'llaniladigan shu kabi boshqa shafqatsizliklar, yapni siyosiy, irqiy yoxud diniy sabablar bo'yicha ta'qib etish hollari kiradi. Bu ro'yxat Ruanda va sobiq Yugoslaviya uchun tribunallarning Nizomlariga asosan qiynoq, nomusga tegish, shuningdek terrorizmning kiritilishi hisobiga yanada kengaydi. Insoniyatga qarshi jinoyatlar va harbiy jinoyatlarga uzoqlik muddatini qo'llamaslik to'g'risida 1986-yilgi Konvensiyada insoniyatga qarshi jinoyatlar birinchi marta xalqaro jinoyatlarning alohida guruhi sifatida ajratilgan edi. Aparteid jinoyatlarining oldini olish va u uchun jazolash to'g'risidagi 1973-yilgi Konvensiyada aparteidga o'xshash irqiy segregatsiya va irqiy kamsitish ham jinoyat deb baholanadi. 1976-yili BMTning Xalqaro huquq Komissiyasi Davlatlarning javobgarligi to'g'risidagi Moddalar loyihasini mapqulladi, unga ko'ra, enotsid2 , qulchilik va kolonial hukmronlik ham insoniyatga qarshi jinoyatlar qatoriga kiritildi. Yuqoridagilarga asosan, aytish mumkinki, xalqaro huquqning rivojlanishi bilan ko'rib chiqilgan jinoyatlarning soni ham Rosib boradi. Bunga 1991-yili Xalqaro huquq Komissiyasi tomonidan qabul qilingan Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar Kodeksi loyihasi misol bo'ladi. Bu Kodeks loyihasida xalqaro jinoyatlar va xalqaro harakterdagi jinoyatlar bir-biridan farqlanmaydi. Shuning uchun unda umum e'tirof etilgan qoidalarga asosan, xalqaro jinoyatlar deb quyidagilar ko'rsatib o'tiladi: agressiya, agressiya tahdidi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashish, kolonial hukmronlik va chet el hukmronligining boshqa shakllari, genotsid, aparteid, inson huquqlarini doimiy va ommaviy ravishda buzish, alohida jiddiy harbiy jinoyatlar, atrof-muhitga qasddan va jiddiy zarar yetkazish. Davlat ichki jinoyat huquqidan farqli o'laroq xalqaro jinoyat huquqida jinoyatlar sub'yektlari sifatida nafaqat jismoniy shaxslar, balki davlatlar ham, bapzi holatlarda yuridik shaxslar ham javobgar bo'lishi mumkin. Bunda davlat uchun faqat xalqaro jinoyat sodir etilgandagina javobgarlik yuklatilishi mumkin. Hozirgi paytda davlatlar maspuliylati to'g'risida universal Konvensiya tayyorlanmoqda. 1994-yil xalqaro huquq Komissiyasining 46-sessiyasida qabul qilingan tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar Kodeksi loyihasining 5-moddasida: qTinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat uchun biror bir shaxsning sud tomonidan tapqib qilinishi, xalqaro huquq bo'yicha davlatni shu davlatga qo'yilayotgan chora ko'rganlik yoki chora ko'rmaganlik javobgarlikdan ozod etmaydir, deb tapkidlangan. Shunga e'tibor berish kerakki, ushbu moddada davlatning xalqaro jinoiy javobgarligi xususida emas, balki davlatlarning xalqaro huquq bo'yicha mas'uliyati haqida so'z yuritilmoqda. Shu sababli davlatni xalqaro jinoyat sub'yekti deb atash huquqiy jihatdan to'g'ri bo'lishi ehtimoldan yiroq. Aslida davlat xalqaro jinoyatlar uchun maspullik sub'yekti hisoblanadi. Bu yana shuning uchun ham to'g'riki, xalqaro jinoyatlar uchun davlatlar siyosiy va moddiy javobgarlikka tortiladi, jinoiy qonun sanksiyalari ularga qo'llanilmaydi. Hozirgi zamon xalqaro huquqi Xalqaro jinoyat huquqida, xuddi milliy huquqda bo'lgani kabi, jinoyatlarning asosiy sub'yektlari jinoyat sodir etgan aqli raso, belgilangan yoshga

yetgan jismoniy shaxslar hisoblanadi. Shu o'rinda o'z ixtiyori bilan mustaqil ravishda jinoyat sodir etgan, misol uchun harbiy harakatlar hududida aholi ustidan zoravonlikka yo'l qo'ygan yoki urush olib borishning taqiqlangan vositasini qo'llagan sub'yektni davlat jinoyatlari bilan bog'liq sub'yektlardan farqlash lozim. Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar Kodeksi loyihasining 11-13-moddalarida uch o'ta muhim holat qayd etiladi. 1. Tinchlikka va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar sodir etganlikda ayblanayotgan biror shaxs o'z hukumati yoki boshligoining buyrugoini bajarib, ish tugaganligi holatida, agar o'sha davr sharoitida shu buyruqni bajarmaslik mumkin bo'lsa, shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan jinoyatni xodim sodir etilganligi uning boshlig'ini jinoiy javobgarlikdan ozod etmaydi. Agar ular voqeadan xabardor bo'lishi yoki ularga o'sha holatda shu xodim shunday jinoyatni sodir etgani yoki etish niyatida ekanligi haqida xulosa chiqarish imkonini beruvchi maplumotga ega bo'lishsa va shu jinoyatning oldini olish yoki to'xtatish maqsadlarida qo'llashlari mumkin bo'lgan barcha chora-tadbirlarni qo'llamagan bo'lishsa, javobgardirlar. Shunday jinoyatni sodir etgan shaxsning rasmiy mavqei uni jinoiy javobgarlikdan ozod etmaydi. Bu qoidalar avval ham milliy va xalqaro sudlar tomonidan qo'llanilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 40-moddasiga ko'ra, shaxsning buyruq yoki boshqa farmoyishni, shuningdek mansab vazifalarini qonunan bajarishi tufayli zarar yetkazilgan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi. Jinoiyliigi oldindan ayon bo'lgan buyruq yoki boshqa farmoyishlarni bajarib, jinoyat sodir etgan shaxs, umumiy asoslarda javobgarlikka tortiladi. G'ayriqonuniy ravishda berilgan buyruq yoki farmoyishni yoxud mansab vazifasini bajarmagan yoki buzgan shaxs javobgarlikka tortilmaydi. Shaxsning amalda sodir etgan qilmishida boshqa bir jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lsagina, u javobgarlikka tortiladi deyiladi. Xalqaro jinoyatlar hamda xalqaro harakterga ega bo'lgan jinoyatlar sub'yektlarining bir-biridan farqi shundaki, xalqaro jinoyatlarda jinoyat sub'yektit davlat mexanizmidan jinoiy maqsadda foydalanuvchi davlatlar, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek oddiy ijrochilar hisoblansa, xalqaro harakterga ega bo'lgan jinoyatlarda jinoyat sub'yektit jismoniy shaxslar hisoblanadi. Xalqaro jinoyatlarning ob'yekti xalqaro tinchlik va insoniyat xavfsizligi, butun insoniyat manfaatlari hisoblanadi. Xalqaro harakterdagi jinoyatlarning ob'yekti ikki yoki bir necha davlatlarning manfaatlaridir. Ob'yektiv tomonidan xalqaro jinoyat huquqida ko'zga tutilgan jinoyatlar xalqaro tinchlik, insoniyat xavfsizligi yoki xalqaro huquq-tartibot uchun alohida xavfliligi bilan farqlanuvchi va keng ko'lamlari bilan ajralib turuvchi xatti-harakatlar yoki harakatsizlikni bildiradi. Xalqaro jinoyat sodir etish joyi hamma vaqt ham zararli oqibat yuz bergan joy bilan mos kelavermaydi. Masalan, AQSh dollarlari Italiyada qalbakilashtirilib, chiqarilgan va GFR, Fransiya, Litva, RFRga tarqalgan, iqtisodiy zarar esa, AQShga yetkazilgandi. Xalqaro jinoyatlarning aksariyati zararli oqibatlar kelib chiqishidan qat'i nazar, tugallangan xatti-harakat hisoblanadi. Misol uchun tinchlikka qarshi fitna, qalbaki pul yasash va qullik. Boshqa tomondan qator xalqaro jinoyatlar oqibatlari o'zining rang-barangligi, katta ko'lamlari va insonlarga o'lchab bo'lmaydigan moddiy hamda ma'naviy zararlari bilan ajralib turadi. Sub'yektiv tomonidan xalqaro jinoyatlar to'g'ri qasddan sodir etilishi bilan tavsiflanadi.

Xalqaro jinoyat sodir etilgan hollarda javobgarlikning universal huquqiy munosabatlari yuzaga keladi va unga ko'ra, huquqbuzar nafaqat jabrlanuvchi oldida, balki xalqaro hamjamiyat oldida ham yalpi javobgar bo'ladi. Bu o'rinda universal majburiyatlar buzilganda xalqaro huquqning har bir sub'yekti huquqbuzardan o'z jinoiy harakatlarini to'xtatishni va ularning oqibatlarini bartaraf etishni talab qilish huquqiga egadir. Xalqaro jinoyatlarda jazoning muqarrarligini tapminlash uchun xalqaro jinoyat huquqi normalari qidiruv, qamoq va jinoyatchilarni berish t ekstraditsiya qoidalarini tartibga solib turadi. 1946-yildanoq BMT Bosh Assambleyasi o'zining maxsus rezolyutsiyasida davlatlarga Harbiy jinoyatchilarni qayerda jinoyat sodir etgan bo'lsa, o'sha davlatga ularni jo'natib, o'sha davlat qonunlari asosida javobgarlikka tortish uchun barcha choralarni ko'rish kerakligi haqida tavsiyalar bergan edi. Keyinchalik BMTning Inson huquqlari bo'yicha Komissiyasi o'zining 29-sessiyasida insoniyatga qarshi jinoyatlar va harbiy jinoyarlarda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash, qamash va ularni ushlab, jazoga tortish bo'yicha xalqaro hamkorlik prinsiplari loyihasini ko'rib chiqdi va mapqulladi. Bosh Assambleya o'z rezolyutsiyasida ana shunday 9 ta prinsipni e'lon qildi. Xalqaro huquqda jazo masalasi belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, xalqaro huquq bo'yicha jinoyat sodir etgan shaxs nafaqat javobgarlikka, balki jazoga ham tortiladi. Nyurnberg tribunali Rozining qarorida shuni tan oldiki, individlar ham xalqaro huquqbuzarliklar uchun jazoga tortiladilar. Aytib o'tilganlardan ko'rinib turibdiki, xalqaro jinoyat huquqi ham, milliy jinoyat huquqi singari uchta funktsiyani bajaradi, ya'ni u shaxslar uchun majburiy bo'lgan xulq-atvor qoidalarini, bunday qoidalarni buzganlik uchun shaxsiy javobgarlikni va bu qoidalarni buzganlik uchun aybdorlar jazosini belgilaydi. Xalqaro jinoyat huquqida jazo jinoyatning og'irligi va xususiyatiga teng bo'lmog'i lozim degan prinsip tasdiqlangan. Ammo unda jazoning turlari va chegaralari aniq belgilanmagan. Bu hol xalqaro jinoyatlarning ko'pligi bilan emas, balki bu munosabatda davlatlar huquqiy tizimlarining turli xilligi bilan izohlanadi, chunki bu huquqiy tizimlar orqali ularning sudlari xalqaro jinoyatlar uchun jazo belgilaydilar. Xalqaro va milliy huquqning o'zaro tapsiri, ikki huquqiy tizimning xalqaro va davlatlarning ichki huquqlari o'zaro harakatining to'liq (umumiy) jarayoni doirasida amalga oshiriladi. Xalqaro jinoyat huquqi va davlatlarning ichki (milliy) jinoyat huquqi birgalikda jinoyatchilikka qarshi ko'rash sohasidagi xalqaro hamkorlik huquqining yagona huquqiy asosini tashkil qiladi. Quyida xalqaro jinoyatlardan genotsid, aparteid, ekotsid va biotsid kabi jinoyatlarga qanday javobgarlik belgilanishini ko'rib chiqamiz. BMT tomonidan 1948-yil 9-dekabrda qabul qilingan Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to'Jorisidargi Konvensiyaning 1-moddasida: Ahdlashuvchi Tomonlar Genotsid u tinchlik yoki urush davrida sodir etilishidan qatpi nazar, xalqaro huquq mepyorlarini buzuvchi jinoyat ekanligini tasdiqlaydilar va uning oldini olish choralarni ko'rishva uni sodir etganlik uchun jazolash majburiyatini oladilar deb tapkidlangan. Genotsid Xalqaro jinoyat sudi Rim statutining 6-moddasida qaysidir milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni to'liq yoki qisman qirib tashlashni mo'ljallab sodir etiladigan harakatlar sifatida tariflangan. Ushbu Konvensiyaning 2-moddasida: Genotsiar so'zi ostida qaysidir milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni shundayligicha to'la yoki qisman yo'qotishni mo'ljallab sodir etiladigan quyidagi harakatlar tushuniladi: a)

shunday guruh a'zolarini o'ldirish, b) shunday guruh apzolariga jiddiy jismoniy yoki aqliy shikast yetkazish; c) qaysidir guruhni ataylab to'la yoki qisman yo'q qilishga mo'ljallangan hayotiy shart-sharoitlar yaratish; d) shunday guruh muhitida bola tugoilishining oldini olishga mo'ljallangan chora-tadbirlar; e) bolalarni insonlarning bir guruhidan boshqasiga zo'rlab... Bunday jinoyatning sub'yektlari davlat vakillari, tashkilotlar, tashkilot apzolari va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Ijrochilardan tashqari, aparteid aktlarini amalga oshirishda hamkorlik qilgan yoki qo'llab-quvvatlagan va bevosita yordam bergan shaxslar hamda tashkilotchilar ham jazoga tortiladi. 1973-yilgi BMT Bosh Assambleyasining Aparteid jinoyatini oldini olish va u uchun jazolash to'g'risidagi xalqaro Konvensiyasiga binoan, bunday jinoyatlarga nisbatan ham universal yurisdiksiya o'rnatilgan. Aybdorlar Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan biror-bir davlatning sudiga jalb etilishi mumkin. Zarur holda jinoyatchini biror-bir davlatga berishi mumkin, chunki aparteid siyosiy jinoyat hisoblanmaydi. Shuning uchun jinoyatchilarni biror-bir davlatga ushlab berish (ekstraditsiya) o'sha davlatning milliy qonunchiligi yoki xalqaro shartnomalar asosida alohida amalga oshiriladi. Konvensiyada davlatlar rozilik bergan taqdirda xalqaro jinoyat tribunalini tashkil etish imkoniyati nazarda tutilgan. III. Ekotsid Ekotsid (yunoncha qoicosrt uy hamda lotincha qcaedort Roldiraman so'zlaridan kelib chiqqan) davlatning genotsidning bir turi. Ekotsid o'simlik yoki hayvonot dunyosi ob'yektlarini ommaviy qirg'in qilish, atmosfera havosi yoki suvni zaharlash, shuningdek ekologik falokatga sabab bo'luvchi boshqa jinoyat harakatlar. Ekotsid insoniyat yashash makoni sifatidagi atrof-tabiiy muhitga, muayyan o'simlik yoxud hayvonot dunyosi yoki boshqa tabiiy ob'yektlarning mavjud bo'lishiga tahdid soladi. Uning tarkibiy qismi sifatida harbiy ekotsid, ya'ni urushda dushmandan harbiy ustunlikka erishish va goalabani tapminlash uchun tabiiy muhit, shart-sharoitlaridan majburiy foydalanish hisoblanadi. Insoniyat xavfsizligi va tinchlikka qarshi jinoyatlar Kodeksi loyihasida ekotsid qasddan, oldindan o'ylab va atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazuvchi jinoyat, deb ta'riflanadi. Atrof-muhitni himoya qilish insoniyat uchun katta ahamiyatga ega ekanligini hisobga olib, Kodeksda ekotsidni sodir etganlik uchun xalqaro jinoyat javobgarlikka tortilishi belgilangan. IV. Biotsid hayotdan mahrum etish, insoniyatga qarshi qaratilgan xalqaro jinoyat. Biotsid ekotsiddan farqli ravishda, insoniyatga va boshqa tirik jonzotlarga qarshi qaratilgan harbiy nizoda dushman ustidan goalaba qozonish maqsadida qasddan ommaviy qirgoin qurollarini ishlatishda namoyon bo'ladi. Biotsidning manbai agressiv urushlardir. Biotsidni amalga oshirish vosita va qurollari quyidagilar: - xalqaro huquq bilan hozircha taqiqlanmagan harbiy texnika va qurol, moddiy boyliklarni saqlab, faqat insonni yo'q qilishga qaratilgan neytron qurol; - 1972-yilgi Konvensiyaga asosan taqiqlangan va o'rnatilgan tartibda yo'q qilingan bakteriologik (biologik) va toksinli qurollar; - 1925-yilgi Protokol bilan taqiqlangan, kishilarni yo'q qilishga mo'ljallangan, bosuvchi, zaharli va shu kabi boshqa gazlar; - kimyoviy gazlar, ya'ni qurolli mojaroda dushmanning tirik kuchini yo'q qilishga qaratilgan o'q-dori va kimyoviy qurilmalar.

2. JINOIY JAVOBGARLIK VA UNING ASOSLARI. Jinoyat qonuni normal - sabatlarga zarar yetkazgan yoki zarar yetkazish xavfi bo'lgan tajovuzlar qilinganida vujudga kelib, jinoyat javobgarlik jinoyat sodir kodeksining 16-

moddasida jinoyat uchun javobgarlik va uning asoslari -jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir. Jinoiy javobgarlikning asosi mavjudligi hisoblanadi. Jinoiy javobgarlik bir qancha huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi: -jinoyatni sodir etish, avvalo, shaxsnijinoiyjavobgarlikka tortishni taqozo etib, shaxsga jinoyat qonuni normalarini tatbiq etish orqali -jinoiy javobgarlik jinoyat qonuni normalarini qo'llash oqibatidir; - jinoiy javobgarlik jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan - jinoiy javobgarlik faqat jinoyat sodir etgan shaxs bilan davlat o'rtasida vujudga keladigan jinoyat huquqiy munosabatdir.

**XALQARO HUQUQDA JAVOBGARLIK.** Xalqaro huquqda xalqaro javobgarlik deganda huquq me'yorlaridan kelib chiqadigan sub'yektiv majburiyatlarini buzgan, ya'ni xalqaro huquqqa xilof xatti-harakat sodir etgan sub'yekt uchun noqulay salbiy yuridik oqibatlar tushuniladi. Xalqaro-huquqiy javobgarlik — xalqaro-huquqiy me'yorlarda oqibatlardir. - ^f^^mSSS^ uchun ham, xalqaro huquq uchun ham birdek tegishlidir. Xalqaro huquqda engavvalo, davlatlarningxalqarojavobgarligi -yildan BMTning Xalqaro huquq Komissiyasi tegishli me'yorlarni kodifikatsiya qilish bilan Davlatning har qanday xalqaro huquqqa xilof qilmishi ushbu davlatning xalqaro javobgarligini keltirib chiqaradi. Davlat tomonidan xalqaro majburiyatlarning buzilishi, davlatning Faqat xalqaro huquq sub'yektlarigina xalqaro-huquqiyjavobgarlik huquqbuzarlik uchun bunday javobgarlikka tortilmaydilar, chunki bunda fuqarolik-huquqiy javobgarlik vujudga keladi. Amaliyotda xalqaro huquq sub'yektlarining xatti-harakatlari davlat shaxslarning harakatlarida ifodalanadi. Ularning xatti-harakatlari **XALQARO-HUQUQIY JAVOBGARLIK TURLARI VA SHAKLLARI** Xalqaro huquqqa xilof qilmish ikki toifaga, ya'ni: xalqaro huquqbuzarlik va davlatlarning xalqaro jinoyatlariga Davlatlar hamjamiyati tomonidan muayyan xalqaro huquqqa xilof qilmishlarni xalqaro javobgarlikka: moddiy va siyosiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Xalqaro-huquqiy javobgarlikning ikkita: siyosiy va moddiy turi mavjud. Siyosiy xalqaro-huquqiy javobgarlik satifikatsiya shaklida qaytaril sodir etishdagi aniq aybdorlarni jazolashdir. Repressaliya deb yuritiladigan, huquqbuzarlikka javoban zarar - harakatlari (masalan, noqonuniy ravishda baliq ovlagani uchun baliq 223 Repressaliyadan retorsiyani farqlash kerak. Retorsiya — huquqbuzarlili his - tarzdgagi bayonotga javoban elchilarni chaqirib olish) javob choralaridir. Restitutsiya va reparatsiya davlatlarning moddiy javobgarlik shakli hisoblanadi. Restitutsiya — huquqbuzar davlat tomonidan noqonuniy qiymatli moddiy boyliklar bilan qoplashdir. Reparatsiya — talofat qolingan foydani ham) pul yoki natura shaklida qoplashdir. Moddiy xalqaro-huquqiy javobgarlik restitutsiya (huquqar

**XALQARO-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING KELIB CHIQISH ASOSLARI** Siyosiy javobgarlik boshqa sub'yektlarning manfaatlarini himoya qiluvchi xalqaro huquq me'yorlarini buzish (masalan, diplomatik vakolatxonalarining daxlsizligini buzish) holatidan kelib chiqadi. Moddiy javobgarlik xalqaro huquq me'yorlarini buzish (masalan, diplomatik vakolatxonalarining daxslizligini buzish) holatini kelib chiqadi. Moddiy javobgarlik xalqaro huquq me'yorlarini buzish holatlari majmuining mavjudligidan,

huquqbuzarlik oqibatida mulkiy zarar lanishning mavjudligidan kelib chiqadi.

Xalqaro jinoyat odil sudlovi (xalqaro jinoyat adliyasi) tizimi: shakllanish tarixi Davlatlar hamdo'stligi manfaatlariga ziyon yetkazgan xatti-harakatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortish masalasi dastlab 1985-yilda antifransuz koalitsiyasi tomonidan ko'p sonli Napoleon urushlari davrida yuz minglab odamlarning o'limi va boshqa jinoyatlar ayblov bzyicha Napoleon Bonapartni sudga topshirish masalasini muhokama etishda ko'tarilgan. Biroq muhokamalardan so'ng hech qanday harakatlar amalga oshirilmadi. Xalqaro jinoyat sudini tashkil etish bo'yicha berilgan taklifni doktrina nuqtai nazaridan batafsil isbotlab, Fransiya-Prussiya urushi 1870-1871 yillar tugaganidan keyin ilk bor 1872-yilda Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi Prezidenti (XQXQ) Gyustav Muane tashabbus qo'rsatdi<sup>25</sup>. U sof ma'naviy sanksiyalar yyetarli emas deb hisoblardi, chunki ikkala tomon ham bir-birini harbiy huquq me'yorlarini buzganlikda ayblar edi. Jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro sudni tashkil etilishi va uning vakolat doirasiga 1964-yil 22-avgustdagi Urushayotgan armiyalardagi bemorlar va jarohatlanganlar sharoitini yaxshilash bo'yicha Jeneva Konvensiyasida ko'rsatilgan huquqbuzarliklar kirishi, neytral sud instansiyalari yordamida huquqbuzarliklarni sodir etishda aybdor shaxslarni xolisona tekshirish, sudlash va jazolash imkonini berishi lozim edi. Muane Konvensiya loyihasining umumiy xususiyatlari quyidagicha: - bunday sudni betaraf davlatlar vakillaridan tuzish tartibi; - sudyalar zimmasiga uning faoliyati va sudlov tartibini belgilashni yuklash; - sud jarayoni boshlanishida da'vo arizaning (manfaatdor 60 tomonlarning da'volariga ko'ra) xususiyati va dalillarni taqdim etish bo'yicha davlatlar majburiyati; - bunday sudda sudlovning maqsadi – aybdor shaxslarni aniqlash va ularni jazolash; - qo'llaniladigan moddiy huquq manbalari – konvensiyaga ilova sifatida ishlab chiqiladigan “xalqaro jinoyat qonuni”; - sudlovning oshkoraligi va sud qarorlarini e'lon qilish; - moddiy zararni qoplash bo'yicha umumiy qoida; - sud faoliyatini moliyalashtirish tartibi va uning moliyaviy hisobot berishi; - uning arxivlarini saqlash bo'yicha umumiy qoidalari. Monarxiya davlatlar davrida suveren mamlakatdagi amaldor shaxsning harakatlari xalqaro darajada jinoiy-huquqiy tartibda ta'qib ostiga olinishini tasavvur qilish qiyin edi. O'sha davrdagi atoqli xalqaro huquq nazariyotchilar (Liber, Vestlek, Golsendorf, Morena, RolenJekmen) eng muhim xalqaro-huquqiy me'yoriy hujjatlarni yuridik himoyalash uchun maxsus xalqaro organ kerakligi haqidagi fikrni ilgari surib, ammo buning uchun xalqaro jinoyat sudini tashkil etish zarurati yo'q deb o'ylardilar. Xalqaro sud, jumladan, maxsus xalqaro jinoyat sudi haqidagi g'oyani har tomonlama isbotlashga bag'ishlangan birinchi asosli ilmiy asar 1881-yilda himoya qilingan rossiyalik huquqshunos L. A. Kamarovskiyning “Xalqaro sud haqida” doktorlik dissertatsiyasi bo'lib, u o'sha yili alohida kitob sifatida chop etildi va 1877-yilda Parijda fransuz tilida nashr etildi. L. A. Kamarovskiy “xalqaro adliya masalasi – davr masalasi” degan xulosaga keldi. Urush qonuniyatlari (me'yorlari) va an'alarini XIXoxiri va XX boshida xalqaro-huquqiy darajada 1899-1907-yillardagi Gaaga Konvensiyalari va Deklaratsiyasida kodifikatsiya qilish “harbiy jinoyatlar” degan xalqaro-huquqiy tushunchaning shakllanishiga olib keldi. Biroq xalqaro-huquqiy hujjatlarda harbiy jinoyatlar aniq tarkibining batafsil tavsifi yo'q edi. Mazkur jinoyatlarni aniqlash va ularni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish



milliy parlamentlar va davlat ichki adliya organlari ixtiyorida edi. 1919-yilning yanvar oyida Buyuk Britaniya, AQSH, Italiya, Fransiya va Yaponiya hukumat rahbarlari va tashqi ishlar vazirlarining uchrashuv chog'ida urush tashabbuskorlarining javobgarligi masalarini ko'rib chiqish uchun maxsus Komissiya tasdiqlandi. Komissiyaning aniqlashicha, to'rtta davlat – Germaniya, Avstriya, Turkiya va Bolgariya tajovuzkorlik siyosati yurgizib urush e'lon qilgan, Komissiya urushning o'zini Yevropada tinchlikka qarshi fitna deb tavsifladi. Mazkur Komissiyaning yakuniy hisobotida tajovuzkor mamlakatlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar ikki toifaga bo'lingan: 1) urushga tayyorgarlik va shart-sharoit yaratish; 2) urush qonuniyatlari va udumlarini qasddan buzish. Bunda mazkur jinoyatlarning quyidagi ro'yxati keltirilgan, aynan: garovga olinganlarni o'ldirish, nomusga tegish, bosqinchilik, davlat va xususiy mol-mulkni yo'q qilish, zaharlovchi gazlardan foydalanish, tinch alohini va asirlarni qirib tashlash va boshq. Harbiy jinoyatchilar turli davlatlarning fuqarolari ekanligi va tegishli hokimiyatlar tomonidan berilgan jinoiy bo'yruqlar ko'pgina mamlakatlar harbiylariga tegishli bo'lgani sababli, Komissiyaning fikricha, sud hukmlarini chiqarishni maxsus xalqaro tribunal zimmasiga yuklash kerak edi. Germaniya va 27 ta ittifoqchi mamlakatlar o'rtasidagi 1919-yil 28- iyundagi Versal tinchlik shartnomasi tomonlarning quyidagi vazifalar bo'yicha majburiyatlarni o'z ichiga olgan (227, 228- moddalar)bo'kmark81: - Imperator Vilgelm II Gogensollernni “xalqaro axloq qoidalari va muqaddas hokimiyat shartnomalariga qarshi o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etishda” ayblash bo'yicha ishlarni oshkora ko'rib chiqish uchun maxsus xalqaro tribunalni tashkil etish; - Niderlandiya hukumatiga sobiq imperatorni sud uchun tutib berish talabi bilan murojaat etish; - gumon qilinayotgan harbiy jinoyatchilarni jinoiy ta'qib qilish va tutib berish; - “zarur hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish”. Bundan tashqari mazkur shartnomaning 229-moddasidaga muvofiq, agar bir nechta davlatga qarshi jinoyat sodir etilsa, ayblanuvchilarni ushbu davlatlar harbiy sudyalaridan tarkib topgan “qo'shma komissiya” sud qiladi. Versal tinchlik shartnomasi talablari to'liq bajarilmagan bo'lsa-da, u xalqaro jinoyat huquqi bo'yicha davlat rahbarlarini jinoiy ta'qib qilish bo'yicha me'yorlarni o'z ichiga olgan birinchi xalqaro huquqiy hujjat bo'lib uni maxsus xalqaro sudga berish nazarda tutilgan edi. Ushbu hujjat xalqaro shartnomalar me'yorlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etishda aybdor shaxslarni jinoiy ta'qib qilishni ham nazarda to'tgan. Yuqorida sanab o'tilgan Konvensiyalarning birinchisi terrorchilik harakati uchun jinoiy javobgarlikning moddiy xalqaro huquqiy asosini tashkil etib, bunda “qasddan qotillik sodir etish, og'ir tan jarohati yetkazish, davlat rahbarlari va ularning rafiqalari hamda boshqa davlat va jamoat arboblarni o'g'irlab ketish, agar suiqasd ularning jamiyat ishlari bilan bog'liq bo'lsa, shuningdek, odamlar hayotini xavf ostiga qo'yadigan yoki davlat va jamoyat hayotiga ziyon etkazadigan boshqa qasddan amalga oshirilgan xatti-harakatlarni” belgilab berdi. Terrorizm tarkibi xalqaro jinoyat sifatida rasman 1937-yil 30- noyabrdagi terrorizmni oldini olish va jazolash bo'yicha Konvensiyada yuridik jihatdan shakllantirilgan bo'lsa-da, Xalqaro jinoyat sudini tashkil etish to'g'risidagi Konvensiya ishni ko'rib chiqishda sud tomonidan jinoyat hududida sodir etilgan mamlakatning jinoyat qonunchiligi yoki ayblanuvchini sudga topshirgan davlatning jinoyat qonunchiligi qo'llanilishi

kerakligini nazarda tutdi. Bunda yumshoqroq jazo choralarini nazarda tutadigan qonunchilik tanlanardi. Aslida, mazkur Konvensiya cheklangan vakolatli Xalqaro jinoyat sudining tashkil etilishi va faoliyati uchun xalqaro huquqiy asosini shakllantirdi, lekin unda sud faoliyatining protsessual tartibini belgilochi me'yorlar yo'q edi, ya'ni ushbu sud tomonidan odil sudlovni amalga oshirish uchun xalqaro huquqiy asosni yaratib berdi. Ushbu Konvensiyalar qonuniy kuchga kirmagan, biroq ularni tayyorlash jarayonida qo'llanilgan yuridik novatsiyalar, ehtimol, Yevropa mamlakatlarining asosiy harbiy jinoyatchilarini adolatli, tez sudlash va jazolash uchun tashkil etilgan Xalqaro harbiy tribunal, Uzoq Sharq davlatlarining asosiy harbiy jinoyatchilarini adolatli, tez sudlash va jazolash uchun tashkil etilgan Uzoq Sharq bo'yicha Xalqaro harbiy tribunal va keyinchalik tashkil etilgan boshqa xalqaro jinoyat sudlari FAKTLAR 1937-yil 30-noyabrda Millatlar Ligasi tomonidan "Terrorizmni oldini olish va jazolash to'g'risida" va "Xalqaro jinoyat sudi tashkil qilish to'g'risida" konvensiyalar qabul qilindi. 63 (tribunallari) faoliyatining huquqiy asoslarini yaratishda hisobga olingan. Terrorizm uchun jinoiy javobgarlikka tortishning xalqaro huquqiy asoslaridan tashqari ikkita jahon urushi oralig'idagi davrda xalqaro hamjamiyat tomonidan bir qator boshqa jinoyatlarni ham xalqaro jinoyatlar deb e'tirof etish bo'yicha muayyan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Birinchi marta tajovuzkorlik xalqaro darajada "noqonuniy" deb 1928-yil 27-avgustdagi urushdan milliy siyosat quroli sifatida voz kechish to'g'risidagi Umumiy shartnoma (Brian-Kellog Pakti) bilan e'lon qilindi. Paktning 1-moddasida shartnomani tuzuvchi tomonlar "xalqaro mojarolarni hal etishda urushga murojaat etishni rad etganligini va o'zaro munosabatlarda undan voz kechganligini" ta'kidlagan. Brian-Kellog Pakti ratifikatsiya qilinishidan so'ng sovet delegatsiyasi tomonidan qurolsizlantirish bo'yicha anjumanda 1932- yilning dekabr oyida qurolsizlantirish bo'yicha anjuman maxsus komissiyasi bilan 1933-yil 24-mayda tajovuzkorlikni belgilash bo'yicha Konvensiya loyihasi taklif qilinib, qabul qilindi va 1933-yil 3-5-iyulda uni SSSR, Estoniya, Latviya, Polsha, Ruminiya, Turkiya, Fors (Eron), Afg'oniston, Chexoslovakiya, Yugoslaviya, Litva imzoladi. Keyinchalik Finlandiya konvensiyani imzoladi. Jami xalqaro jinoyatlarning 8 ta toifasi belgilandi: 1) qaroqchilik; 2) metall pullarni va davlat qimmatbaho qog'ozlarni qalbakilashtirish; 3) qul savdosi; 4) ayollar va bolalar savdosi; 5) jamoatga xavf tug'diradigan har qanday vositalarni qasddan ishlatish; 6) giyohvand vositalar savdosi; 7) behayolikni targ'ib etuvchi adabiyotlar savdosi; 8) davlatlar tomonidan imzolangan xalqaro konvensiyalarda nazarda 1927-yil rasmiy hujjatlarda delictijus gentium bir turi sifatida "xalqaro jinoyat" termini kiritildi. Varshavada bo'lib o'tgan xalqaro konferensiya doirasida xalqaro jinoiy qonunchiligining unifikatsiyasida, xalqaro konvensiyalarda nazarda tutilgan boshqa jinoyatlar. Xalqaro jinoyatlarni sodir etilishi uchun jinoiy ta'qib qilish va buning uchun maxsus sud organini tashkil etish masalasi Ikkinchi jahon urushiga tayorgarlik ko'rish va uni olib borish davomida tajovuzkor davlatlar tomonidan sodir etilgan mudhish jinoyatlar tufayli dolzarb bo'lib qoldi. Harbiy harakatlar tugamasdan urushni boshlash uchun jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishning moddiy-huquqiy asoslari hamda ularni xalqaro sudga topshirish masalasi huquqshunoslar tomonidan muhokama qilina boshladi. Masalan, jahon urushining

fojiali tajribasini hisobga olgan holda G. Lauterpaxt xalqaro jinoyat – bu “o‘zining og‘irligi, shafqatsizligi va unda ifodalangan inson hayotini pisand qilmaslik xususiyati bilan barcha sivilizatsiyali davlatlar qonunchiligida nazarda tutilgan jinoyatlar toifasiga mansub bo‘lishi kerak bo‘lgan xalqaro huquq me‘yorlarini buzadigan huquqbuzarliklar” deb ta’rif berishga harakat qilgan. 1945-yilda tashkil qilingan urush davridagi xalqaro jinoyatlarni tergov qilish bo‘yicha London komissiyasi haqiqatda harbiy jinoyatlarning to‘rtta toifasini ajratdi: 1) tajovuzkor urush yoki boshqa har qanday tajovuzkor harakatlarga tayyorgarlik va ularni olib borish; 2) urush qonuniyatlari va udumlarini buzish; 3) mamlakatning o‘zida yoki uning tashqarisida irq, halq yoki siyosiy partiyani yo‘q qilishga qaratilgan barcha jinoyatlar; 4) harbiy harakatlar to‘xtatilgandan keyin tinchlikni tiklashga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida sodir etilgan jinoyatlar (terrorizm va boshq.).

2. Xalqaro harbiy tribunallar faoliyatini huquqiy tartibga solish Natijada, eng avvalo, harbiy jinoyatlar xalqaro jinoyatlarning Mustaqil toifasi sifatida ajralib chiqdi. Uzoq vaqt faqat ma’naviyat tamoyili bo‘lib kelgan tinchlik va insoniyatga qarshi jinoyatlar Birinchi jahon urushidan keyin asta-sekinlik bilan xalqaro huquq tamoyiliga aylandi, lekin xalqaro jinoyatlarning alohida tarkibi sifatida faqat 1945- yilda Xalqaro harbiy tribunal Ustavida tamomila shakllandi. Xalqaro harbiy tribunal (kelgusida tribunal) 1945-yil 8- avgustdagi SSSR, AQSH, Buyuk Britaniya hukumatlari va Fransiya Respublikasi Muvaqqat hukumati tomonidan Yevropa mamlakatlarining asosiy harbiy jinoyatchilarini sudlash va jazolash bo‘yicha shartnoma (London shartnomasi) asosida tashkil etilgan. Keyinchalik bir qator boshqa davlatlar ham ushbu shartnomaga qo‘shilgan: Avstraliya, Belgiya, Venesuela, Daniya, Gaiti, Gonduras, Gretsiya, Hindiston, Luksemburg, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Norvegiya, Panama, Paragvay, Polsha, Urugvay, Chexoslovakiya, Efiopiya va Yugoslaviya. 1945-yil 8-avgustdagi Tribunal Ustavida quyidagilar belgilangan: 1. Yurisdiksiya doirasida faoliyatning moddiy-huquqiy asoslarini: a) tinchlikka qarshi jinoyatlar, aynan: tajovuzkor urushni yoki xalqaro bitimlar, shartnomalar yoki kelishuvlarni buzadigan urushni rejalashtirish, tayyorlash, boshlash yoki olib borish yoki yuqorida ta’kidlab o‘tilgan harakatlarning har qaysisini amalga oshirishga yo‘naltirilgan umumiy reja yoki fitnada ishtirok etish; b) harbiy jinoyatlar, aynan: urush qonuniyatlari yoki an’analari buzish. Bosib olingan hududda yashovchi fuqarolarni o‘ldirish, qiynoqqa solish yoki qullik yoki boshqa maqsadlarda olib ketish; harbiy asirlar yoki dengizdagi shaxslarni o‘ldirish yoki qiynoqqa solish; garovga olinganlarni o‘ldirish; jamoat yoki xususiy mol-mulkni o‘g‘irlash; shaharlar yoki qishloqlarni behudaga buzib tashlash, harbiy jihatdan asossiz xonavayron qilish va boshqa jinoyatlar ushbu qonunbuzarliklarga tegishlidir; c) insoniyatga qarshi jinoyatlar, aynan: urushdan oldin yoki urush paytida fuqarolarni o‘ldirish, qirib tashlash, asirga olish, surgun qilish va ularga nisbatan boshqa shafqatsizliklarni sodir etish vasiyosiy, irqiy va diniy vajlar bilan Tribunal Yurisdiksiyaga kiruvchi har qanday jinoyatni sodir etish maqsadida yoki sababi bilan ta’qib qilish, ushbu harakatlar amalga oshirilgan mamlakatning ichki huquq-tartibotini buzishi yoki buzmasligidan qat’iy nazar (6-modda). Tribunalga tegishli huquqlar berilgan, jumladan, Yevropa mamlakatlari manfaatlarini ko‘zlagan holda ushbu jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni sudlash va jazolash. Mazkur jinoyatlar uchun

Tribunalaybdorni o'lim jazosiga hukm qilishga yoki adolatli deb e'tirof etilgan boshqa jazo chorasini tayinlashga haqli bo'lgan (27-modda). 2. Tribunal faoliyatining tashkiliy-huquqiy (sudlov) asoslari, sudlar va Tribunal Raisini tayinlash va almashtirish tartibi, uning faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq boshqa umumiy masalalar, jumladan, harajatlarini moliyalashtirish tartibi. 3. Tribunal faoliyatining protsessual-huquqiy (sudlov) asoslari, jumladan, sud jarayoni ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari, sudlanuvchilar uchun protsessual kafolatlar, dalillar va isbotlash bo'yicha umumiy qoidalar, sud jarayoni tartibi, hukm bo'yicha umumiy qoidalar. Protsessual xususiyatga ega ayrim umumiy qoidalar tafsilotlari Tribunal Ish tartibida ko'rsatilgan. Tashkiliy nuqtai nazardan Tribunal tarkibiga: - 4 Tribunal a'zolari, har bir ta'sischi davlatdan bittadan va Tribunal a'zolari yo'qligida ularni vazifasini bajaruvchi o'rinbosarlar; - asosiy qoralovchilar, har bir ta'sischi davlatdan bittadan; - Tribunal Bosh Kotibi tomonidan boshqariladigan Tribunal Kotibiyati kiradi. Tribunal a'zolari o'zlaridan Tribunal Raisini uni butun faoliyati muddati uchun saylaydilar. Asosiy harbiy jinoyatchilarning ishlarini va ayblovini tergov qilish bo'yicha Qo'mita Asosiy ayblovchilarning harakatlarini muvofiqlashtirish uchun tashkil etildi. SSSR, Angliya, AQSH va Fransiyadan asosiy ayblovchilar va ularning o'rinbosarlari ushbu Qo'mita tarkibiga kirgan. Qo'mitaning vazifasi sud jarayoniga tayyorgarlik bo'yicha tadbirlarni muvofiqlashtirish, asosiy ayblovchilar o'rtasida sud jarayoning alohida bosqichlarini o'tkazish bo'yicha majburiyatlarni taqsimlash (kirish va oxirgi so'z bilan chiqish tartibi, ayblov dalillarini taqdim qilish, guvohlar va ayblanuvchilarni so'roq qilish tartibi va boshq.), sud jarayonida yuzaga keladigan turli masalalarni muvofiqlashtirish. Tribunal sud majlislari 1945-yil 9-oktabrdan 1946-yil 1-oktabrgacha Berlin shahrida o'tkazilgan, bunda faqat majlisning tashkiliy va boshqaruv masalalari ko'rib chiqilgan va NYurnbergda asosiy harbiy jinoyatchilarga nisbatan ochilgan jinoyat ishi mohiyatan ko'rib chiqilgan va bu tarixda Nyurenberg sud jarayoni degan nom bilan mahur. Tribunal sudiga 24 asosiy harbiy jinoyatchi berilgan. Tribunal ularning 12 tasini osishga, 3 tasini – umrbod qamoq jazosiga, 4 tasini – 10 yildan 20 yilgan qamoq jazosiga hukm qilgan, 3 tasi esa oqlagan<sup>41</sup>. Uzoq Sharq uchun Xalqaro harbiy tribunalini (keyinchalik – Uzoq SHarq Tribunali) tashkil etish to'g'risidagi qaror SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya davlat rahbarlarining Potsdam anjumanida 1945-yilda qabul qilinib, Yaponiyani kapitulyasiya qilish shartlarini belgilovchi 1945-yil 26-iyuldagi Bayonot bilan tasdiqlangan. Ustavga muvofiq, Uzoq Sharq Tribunali yurisdiksiyaga quyidagilar kirgan: a) tinchlikka qarshi jinoyatlar, aynan: tajovuzkor urushni yoki xalqaro bitimlar, shartnomalar yoki kelishuvlarni buzadigan urushni rejalashtirish, tayyorlash, boshlash yoki olib borish yoki Yuqorida ta'kidlab o'tilgan harakatlarning har qaysisini amalga oshirishga yo'naltirilgan umumiy reja yoki fitnada ishtirok etish; b) konvensiyalarda nazarda tutilgan harbiy jinoyatlar, aynan: urush qonuniyatlari yoki an'alariga qarshi jinoyatlar; c) insoniyatga qarshi jinoyatlar, aynan: urushdan oldin yoki urush paytida fuqarolarni o'ldirish, qirib tashlash, asirga olish, surgun qilish (deportation) hamda ularga nisbatan boshqa g'ayriinsoniy harakatlarni sodir etish vasiyosiy va irqiy vajlar bilan Tribunal sudlanuvchisi tomonidan har qanday jinoyatni sodir etish maqsadida yoki har

qanday jinoyat sababi bilan ta'qib qilish, ushbu harakatlar amalga oshirilgan mamlakatning ichki huquq-tartibotini buzishi yoki buzmasligidan qat'iy nazar. Ustavga ko'ra yuqorida ko'rsatib o'tilgan jinoyatlardan birini sodir Uzoq Sharq harbiy sudi (tribunal) alohida tartibda qabul qilingan hujjat bilan tashkil qilingan – 1946-yil 19-yanvarda Yaponiyadagi okko'patsion qo'shin bosh qo'mondoni D.Makartur tomonidan “Uzoq Sharq uchun xalqaro harbiy tribunalni tashkil etish to'g'risida” maxsus proklamatsiya Nizomi ilova qilingan holda tasdiqlandi. 68 etishni nazarda tutadigan qo'shma reja yoki fitnani ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashgan rahbarlar, tashkilotchilar, ig'vogarlar va jinoiy sheriklar bunday rejalarni ijro etish davomida har qanday shaxs tomonidan amalga oshirilgan barcha xatti-harakatlar uchun majburdirlar. Uzoq Sharq uchun Xalqaro harbiy tribunalining sud majlislari 1946- yil 3-maydan 1948-yil 12-noyabrgacha Tokioda o'tkazilib, tarixda Tokio sud jarayoni nomi bilan mashhur. Sudga 28 kishi berilgan, jumladan, 4 sobiq bosh vazir, 13 sobiq vazir, 9 oliy harbiy qo'mondonlik vakili, 2 elchi. Hukm 25 ta sudlanuvchiga nisbatan chiqarilgan, ulardan 7 kishi o'lim jazosiga, qolganlari — ozodlikdan mahrum etishga, ulardan 16 tasi umrbod qamoq jazosiga mahkum qilingan. Xalqaro harbiy tribunallar tomonidan Nyurnberg va Tokioda o'tkazilgan sud jarayonlari, ustav hujjatlari va hukmlar bugun umume'tirof etilgan xalqaro jinoyat huquqining asosiy tamoyillar tizimining shakllanishiga tamal toshi bo'ldi. Nyurnberg va Tokio tribunallari ustavlari va hukmlari harbiy jinoyatchilar ustidan sudlovni amalga oshirish uchun ularning darajasi va xizmat mavqeidan qat'iy nazar fundamental xalqaro-huquqiy asos yaratdi. Bu keyinchalik ushbu jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni sudlash uchun muhim asos bo'lib qoldi. So'nggi holat o'ta muhim ahamiyat kasb etdi, chunki u tinchlik va insoniyatga qarshi jinoyatlar hamda harbiy jinoyatlarni sodir etishda aybdor shaxslarni urushdan keyingi dastlabki yillarda jinoiy ta'qib qilish uchun safarbar etilgan boshqa sud organlarini shakllantirishda asos vazifasini o'tadi. Amalga oshirilgan ilg'or xususiyatga ega huquqiy tartibga solish jarayoni bilan birga, Xalqaro harbiy tribunallar faoliyati uning ishtirokchi davlatlarning turli huquqiy tizimi bilan bog'liq kamchiligini **XALQARO HARBIY TRIBUNALINING YURISDIKSIYASI PREDMETI:** - Dunyoga qarshi jinoyat - Harbiy jinoyatlar - Insoniyatga qarshi jinoyatlar **SHAXSIY:** - Bir davlat manfaati va XHT predmetiga kiruvchi jinoyatlarni sodir etgan shaxslar 69 aniqladi. Bu esa ayblov faoliyatida muayyan qiyinchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ma'lumki, sudlanuvchilarning aksariyati va asosiy guvohlarning ko'pchiligi ingliz-amerikalik qo'shinlar tomonidan asirga olingan va AQSH vakili bo'lgan ayblovchining ixtiyorida edi. Nyurnberg sud jarayonida amerikalik vakillar sudlanuvchilar va guvohlarni so'roq qilishda ustunlik qilishga da'vogar bo'lgan. AQSH vakillarining ta'kidlashicha, ularning ixtiyorida bo'lgan sudlanuvchilar va guvohlarni faqat amerikalik tergovchilar so'roq qilishi kerak, boshqa delegatsiyalar esa ularni qiziqtirgan savollarni sudlanuvchilarga amerikalik tergovchilar orqali berishlari mumkin va tegishli javoblarni yozma ravishda olishlari mumkin. Angliya va Fransiyadan kelgan asosiy ayblovchilar boshqa delegatsiyalar huquqini kamsituvchi ushbu holatga rozilik berdilar, natijada ingliz va fransuz tergovchilar sud jarayoni boshlangunga qadar sudlanuvchilarni so'roq qila olmadilar. Yuqorida ko'rsatilgan holatlarning

barchasi Xalqaro harbiy tribunal Ustavi va Reglamenti yetarli darajada faqat sud jarayonining sud majlislarida ishlarni ko'rib chiqish va hal etishga, ya'ni sudlovni (jinoiy sudlovni) amalga oshirishga tegishli asosiy, hal qiluvchi qismining protsessual jihatlari bo'yicha me'yoriy ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan. Sud jarayonigacha bo'lgan davr esa deyarli tartibga solinmagan. NAZORAT SAVOLLARI: 1. Xalqaro jinoyat odil sudlovi qanday tashkil topgan? 2. Birinchi jahon urushidan so'ng xalqaro jinoyat odil sudlovi bo'ticha xalqaro audni nima uchun tashkil qilish imkoni bo'lmadi 3. Xalqaro harbiy tribunal va Uzoq Sharq uchun xalqaro harbiy tribunal joriy etilishiga qanday sabablarni kiritish mumkin? 4. Nyureberg tribunalida olingan qanday prinsiplar xalqaro huquqda o'zining normativ ifodasini topgan? KAZUS Ayrim olimlar xalqaro terrorizmning sub'ekti alohida shaxslar, ayrim hollarda yuridik shaxslar hambo'lishinida'kidlashgan. Biroq, I.P.Blishenkoning fikricha xalqaro terrorizmning sub'ekti nafaqat jismoniy va yuridik shaxs, balki davlat ham bo'lishi mumkin. Savollar: Mazkur holatga huquqiy baho bering. Xalqaro jinoyatlar va xalqaro harakterdagi jinoyatlar bir xil mazmunga egami yoki farqli 70 jihatlari mavjudmi? Bu to'g'risida olimlaro'rtasida qanday ilmiy qarashlar mavjud? Davlat xalqaro terrorizm sub'ekti bo'lganda, jinoyatishi Xalqaro jinoyat sudida ko'riladimi yoki tribunaldami? Javobingizni amaliy misollar bilan asoslang.

#### **Muhokama uchun savollar:**

1. Inson huquqlari buzilganligi uchun davlatlar va shaxslarning xalqaro javobgarligining huquqiy asoslari haqida ma'lumot bering.
2. Xalqaro-huquqiy javobgarlik va individual jinoiy javobgarlik institutlarini ajratish qoidalari nimalardan iborat?
3. Odamlarning inson huquqlari sohasidagi xalqaro jinoyatlar uchun javobgarligi bo'yicha misollar keltiring.
4. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro jinoyatlar haqida ma'lumot bering.

#### **14-mavzu. Bola huquqlari va xalqaro gumanitar huquq.**

##### **Reja:**

1. Ixtiyoriy protokollar.
2. BMT rezolyutsiyasi (Pekin qoidalari).
3. Bola huquqlari va farovonligi to'g'risidagi Afina Xartiyasi.

##### **Tayanch so'z va iboralar:**

*Ixtiyoriy protokollar, Jeneva Konvensiyalariga qo'shimcha bayonnomalar, "quruqlikdagi" va "dengizdagi" yaradorlar hamda bemorlar, BMT rezolyutsiyasi (Pekin qoidalari).*

**Ixtiyoriy protokollar. Jeneva Konvensiyalariga qo'shimcha bayonnomalar.**

**Huquq hayotiy talablarni naqadar to'liq aks ettirsa, shu qadar**

**takomildir.** 1949 yil Jeneva konvensiyalarini imzolagandan ancha vaqt o'tdi. Hayot bir qator murakkab muammolarni yuzaga keltirdiki, ular u yoki bu tarzda qurolli nizolarning, ayniqsa xalqaro tusda bo'lmagan nizolarning jabrdiydalarini himoya qilish bilan bog'liq bo'ldi. Konvensiyaviy qoidalarni yanada takomillashtirish va kuchaytirish, ularga tegishli qo'shimchalar va tuzatishlar kiritish zarurati kelib chiqdi. Konvensiyalarga bunday o'zgartirish va qo'shimchalar 1977 yilda bo'lib o'tgan Diplomatik konferensiyada qabul qilingan ikkita Qo'shimcha bayonnoma orqali kiritildi. Ulardan biri **I Bayonnoma- xalqaro qurolli nizolarning jabrdiydalarini himoya qilishga daxldor.** Boshqasi- **II Bayonnoma- xalqaro tusga bo'lmagan qurolli nizolarning jabrdiydalarini himoya qilishni** nazarda tutadi.

### **E'TIBOR QILING!**

Qo'shimcha bayonnomalarga ko'plab to'ldirishlar kiritildi, ammo ularning birortasi ham Jeneva Konvensiyalarining na asosiy prinsiplarini, na ularni tartibga solishning umumiy mazmunini o'zgartirmadi. Konvensiyalar o'z mohiyati va asosiy mazmuniga ko'ra o'zgarishsiz qolib, hozirda ham gumanitar huquqning fundamental asosini tashkil etadi.

Bayonnomalarning "Qo'shimchalar" deb nomlanishning o'ziyoq konvensiyaviy qoidalarni boshqasi bilan o'zgartirish emas, balki zamon ruhiga, uning o'zgarib ketgan ehtiyojlari va talablariga muayan tuzatishlar va yangiliklar kiritish orqali mazkur qoidalarni to'dirish, chuqurlashtirish va kengaytirish maqsadinigina ko'zlashidan dalolat beradi.

### **I Qo'shimcha bayonnoma.**

I Qo'shimcha bayonnoma qurolli nizolarning jabrdiydalarini "quruqlikdagi" va "dengizdagi" yaradorlar hamda bemorlar deb qat'iy farqlashga barham berdi. Bayonnomada "yaradorlar" va "bemorlar" degan tushunchalar birxillashtirilib belgilandiki:

**"yaradorlar" va "bemorlar" degan so'zlar jarohat, xastalik va boshqa jismoniy yoxud psixik kasallik yoyinki nogironlik oqibatida tibbiy yordamga yoki parvarishga muhtoj va har qanday dushmanlik harakatlaridan o'zini tiygan harbiy xizmatchilar va fuqarolarni anglatadi"**

### **8-modda.**

Bayonnoma yaradorlar va bemorlar doirasini:

- go'daklar;
- homiladorlar;
- bedarmonlar hisobiga kengaytirdi.

Tibbiyot xodimlarini "harbiy xizmatchi" va "fuqaro" degan so'zlar bilan farqlashga ham chek qo'yildi. Endi barcha yaradorlar va bemorlar, harbiy xizmatchi yoki oddiy fuqaro bo'lishidan qat'iy nazar, gospital yoki fuqarolarga

mo'ljallangan shifoxona bo'lishiga qaramay har qanday tibbiy muassasada davolanish huquqiga ega bo'ldilar.

Gumanitar huquq tarixida birinchi marta I Qo'shimcha bayonnomada tibbiy vazifalarni bajaruvchi shaxslarning majburiyatlari tartibga solindi. Chunonchi :

- tibbiyot vazifalarini tibbiyot axloqiga muvofiq bajarganlik uchun birorta ham shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin emas;
- tibbiyot vazifalari bajarayotgan hech bir shaxs tibbiyot axloqi qoidalari va mezonlariga zid ishlarni bajarishga yoki Konvensiyalar va Bayonnoma qoidalarni buzishga majbur etilishi mumkin emas;
- tibbiyot vazifalarini bajarayotgan birorta ham shaxs qarshi tomon bo'ladimi, o'z tomoni bo'ladimi, bundan qat'iy nazar, kimgadir yaradorlar va bemorlarga daxldor biror bir ma'lumot berishga majbur etilishi mumkin emas.

Yaradorlar va bemorlar, kema halokatidan jabr ko'rganlarning beistisnio barchasi bilan insoniy muomala qilinishining qat'iyligini tasdiqlab, Bayonnomada ayrim shaxslarni himoya qilishga alohida e'tibor qaratildi. Bayonnomada dushman tomonning hukmi ostida qolgan shaxslarning o'zi rozilik bergan bo'lsa ham:

- ularni jismoniy mayib qilish;
- ular ustida tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazish;
- boshqalarga ko'chirib o'tkazish uchun ularning to'qimalari yoki organlarini kesib olish taqiqlanadi.

Bayonnomada u yoki bu sababga ko'ra safdan chiqib qolgan shaxslarga nisbatan juda muhim qoida belgilandi. Unga muvofiq bunday shaxslar jumlasiga "**dushman tomonning hukmi ostida bo'lganlar**" va "**asir tushish istagini aniq-ravshan bayon etayotganlar**" kiradi. (41-modda).

Bunday shaxslarning dushmanga qarshi kurashish va uning hujumidan o'zini himoya qilishga qodir emasligi Bayonnomada ularni safdan chiqqan deb hisoblash huquqini beruvchi asos sifatida qaraladi. Tinch aholini esa, qurolli nizo holatida bo'lgan tomonlarning hech qaysi biri o'ldirishga haqli emas.

I Bayonnoma orqali kiritilgan qo'shimchalar orasida 42-moddani alohida ta'kidlash lozim. *Unda halokatga uchrayotgan uchish apparatidan parashutda o'zini tashlayotgan shaxslar to'g'risida masala tartibga solingan. Bunday shaxslar erga tushushining butun davrida ularga hujum qilinishi mumkin emas.*

Gumanitar huquq combatant va combatant bo'lmagan shaxslar o'rtasida aniq chegara qo'yib jang olib boorish, hujum qilish va o'ldirish huquqi faqatgina kombatantlarga tegishli ekanligini e'tirof qiladi. I Bayonnomaning 44-moddasida combatant zimmasiga:

- har bir qurolli to'qnashuv vaqtida;
- jangler bo'layotgan vaqtda dushmanning ko'z o'ngida qurolni oshkora olib yurish vazifasini yuklaydi.



Kombatant maqomini maqomini yo'qotgan kishi qo'lga qurol olish, uni dushmanga qarshi ishlatish, dushmanga qarshi hujum qilish va u bilan jang olib boorish huquqidan mahrum bo'ladi.

## **II Qo'shimcha bayonnoma.**

Ushbu bayonnoma ichki nizolarga bag'ishlandi. Bayonnomaning o'zida ta'kidlanganidek, u tartibot buzilishining barcha hollariga emas, balki qurolli nizolar jumlasiga kiradiganlariga nisbatan tadbiiq etiladi. Bundan: **“tartibsizliklar, ayrim va ahyonda- ahyonda yuz beradigan harakatlar va shunga o'xshash boshqa harakatlar istisnodir”**.

II Qo'shimcha bayonnoma harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etayotmagan yoki ularda qatnashishni to'xtatgan shaxslarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'lishning asosiy kafolatlariga doir qoidalarni tasdiqlabgina qolmay, balki yanada rivojlantiradi.

Bolalarga g'amxo'rlik qilish va yordam ko'rsatilishini ta'minlash masalasi alohida tartibga solib qo'yilgan. Xususan, 15 yoshga to'lmagan bolalarni qurolli kuchlarga jalb etish, ularning harbiy harakatlarda ishtirok etishi man qilindi. Asirga tushgan bolalar har qanday hollarda ham alohida himoya qilinishi kerak.

Yaradorlar va bemorlarni himoya qilish hamda ularga tibbiy yordam ko'rsatish insonparvarlik prinsiplariga muvofiq amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Fuqaro aholi va fuqaroviy ob'ektlar himoya ostida ekanligi e'lon qilingan. **“asosiy maqsadi tinch aholini vahimaga solishdan iborat bo'lgan zo'ravonlik yoki zo'ravonlik bilan tahdid qilish hatti- harakatlari”** qat'iy man qilingan (13- modda).

Bayonnomada tinch aholi o'rtasida ocharchilikdan harbiy harakatlar olib boorish vositasi sifatida foydalanish taqiqlanadi. Bayonnoma xavf solishi mumkin bo'lgan qurilmalar va inshootlarni, madaniy qadriyatlarni, diniy urf-odatlarini ado etish joylarini himoya ostiga oladi.

II Qo'shimcha Bayonnomada belgilanganki, Qizil xoch va Qizil Yarimoy kabi jamiyatlar “qurolli nizo jabrdiydalariga nisbatan o'zlarining an'anaviy vazifalarini bajarish maqsadida an'anaviy xizmatlarini taklif etishlari mumkin” (18-modda).

Sudga 18 yoshga to'lmagan bolalarga nisbatan o'lim jazosi berish hukmi chiqarish huquqi berilmagan. Homilador ayollar va yosh bolasi bor ayollarga nisbatan o'lim jazosini ijro etish mumkin emas.

Mazkur Bayonnomaning ko'pgina qoidalari Jeneva konvensiyalarining har to'rtalasi va I Qo'shimcha Bayonnomaning qoidalariga o'xshashdir.

*“Urush davrida tinch aholini himoya qilish to'g'risida”gi 1949-yil 12-avgustda tuzilgan Jeneva konvensiyasi O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1993-yil 3-sentabrda (946-XII-son) imzolangan. O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaning qurolli nizo yuz bergan joylarda ushlab qolingani tinch aholi bilan insonparvarlik munosabatida bo'lish to'g'risidagi talabiga amal qilish majburiyatini o'z zimmasiga oldi. Konvensiya qoidalarga ko'ra, tinch aholi, ya'ni harbiy*

bo'lmagan shaxslarning hayotiga va jismoniy daxlsizligiga, qadr-qimmatiga tajovuz qilish, ulami haqoratlash, kamsitish, dastlabki sud qarorisiz ularga nisbatan jazo qo'llash taqiqlanadi.

1949-yil 12-avgustdagi Jeneva konvensiyalariga doir 1977-yil 8-iyunda qabul qilingan *Qo'shimcha Bayonnoma (I Bayonnoma)* xalqaro qurolli mojarolaming jabrdiydalarini himoya qilishga daxldor bo'lib, unga O'zbekiston Respublikasi 1993-yil 3-sentabrda (946-XII-son) qo'shilgan. *I Qo'shimcha Bayonnoma*ga rioya etish majburiyatini zimmasiga olar ekan, O'zbekiston Respublikasi yaradorlar va bemorlarga nisbatan, ular qaysi tomonga mansubligidan qat'i nazar, hurmat bilan munosabatda bo'linishini hamda ular himoya qilinishini e'tirof etadi. Tibbiyot xizmati xodimlari har qanday paytda ham hurmatga sazovor va himoya ostidadir-lar, ular hujum qilish obyekt bo'lishi mumkin emas. Dushman tomonning hukmi ostida bo'lgan yoki qurolsizlantirilib, nazorat ostiga olingan, hibsga olingan shaxslar sog'lig'ining jismoniy yoki psixologik holatiga va daxlsizligiga asossiz xatti-harakatlar yoki nuqsonlar tufayli ziyon yetkazilishi mumkin emaslig. ham O'zbekiston tomonidan tan olingan. 1949-yil 12-avgustdagi Jeneva konvensiyalariga doir 1977-yil 8-iyunda qabul qilingan *II Qo'shimcha Bayonnoma* xalqaro bo'lmagan qurolli mojarolaming jabrdiydalarini himoya qilishga daxldor bo'lib, unga O'zbekiston Respublikasi 1993-yil 3-sentabrdagi 946-XII-son qarori bilan qo'shilgan. O'zbekiston o'z zimmasiga olgan majburiyatda harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etmagan yoki ishtirok etishni to'xtatgan shaxslar, ularning erkinligi cheklanganmi yoki yo'qmi, bundan qat'i nazar, o'z shaxsi, qadr-qimmat, e'tiqodi va o'zining diniy urf-odatlarini hurmat qilinishini talab qilish huquqiga ega ekanligi nazarda tutilgan. Barcha vaziyatlarda ham ular bilan insonparvarlik munosabatida bo'lib, biror-bir nomaqbul farqlashga yo'l qo'yilmaydi. Hech kimni tirik qoldirmaslik to'g'nsida buyuq berish man etiladi.

1980-yil 10-oktabrda BMT tomonidan "*Oddiy qurollarning xaddan ortiq jarohat yetkazadigan va (nishon) tanlamaydigan xarakterda dehisoblanuvchi muayyan turlarini taqiqlash yoki qo'llashni cheklash to'grisida*"gi konvensiya qabul qilindi. Ushbu Konvensiyaga to'rtta Bayonnoma ilova qilingan bo'lib, ular quyidagilardan iborat: Ilg'ab bo'l-maydigan oskolkalar to'g'risidagi I bayonnoma (I Bayonnoma), Minalar, tuzoq-minalar va boshqa qurirmalami taqiqlash yoki qo'llashni cheklash to'g'risidagi bayonnoma (II Bayonnoma), Yondiruvchi qurollardan foy-dalanishni taqiqlash yoki cheklash to'g'nsida bayonnoma (III Bayonnoma), Ko'r qiluvchi lazer quroli to'g'risida bayonnoma (IV Bayonnoma). Ushbu hujjatlarga O'zbekiston 1997-yil 30-avgustda qo'shilgan (Oliy Majlis qarori, 500-I-son). Ushbu hujjatlar O'zbekiston tomonidan 1997-yil 29-sentabrda ratifikatsiya qilingan.

Gumanitar huquqning yuqorida sanab o'tilgan manbalarida belgilab qo'yilgan normalarni milliy qonun hujjatlariga implementatsiya qilish bu huquqning jiddiy vazifalaridan biridir. Bu borada O'zbekiston Respublikasida bir qator ishlar amalga oshirilgan bo'lib, jinoyat qonunchiligi normalari ana shunday tadbirlar jumlasiga kiradi. Xususan, milliy qonunchilikda tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar uchun yuridik ji-noiy javobgarlik nazarda tutilgan: urushni targ'ib qilish (O'zRning Ж 150-moddasi), agressiya (O'zRning Ж 151-moddasi), urushning qonun va udumlarini buzish (O'zRning Ж 152-moddasi), genotsid (O'zRning Ж 153-moddasi), yollanish (O'zRning Ж 154-moddasi) va terrorizm (O'zRning Ж 155-moddasi) jinoyat deb tavsiflangan hamda ularga nisbatan jinoiy javobgarlik sanksiyalari belgilab qo'yilgan.

### **Muhokama uchun savollar.**

1. Jeneva Konvensiyalariga qo'shimcha bayonnomalarni qachon qabul qilindi?
2. I Qo'shimcha Bayonnoma mazmuni haqida nimalarni bilasiz?
3. II Qo'shimcha bayonnoma qanaqa tuzdagi qurolli nizolarga taalluqli?

4. BMT rezolyutsiyasi (Pekin qoidalari) haqida ma'lumot bering.

### **GLOSSARIY**

**Adaptatsiya** (lotincha adaptare)- moslashish, jumladan organizmni o'zgarayotgan sharoitlarga moslashishi.

**Adekvat** (lotincha adaeqvatus)- tenglashgan, bir xil, o'xshash.

**Bill** (inglizcha bill)- bir qator mamlakatlarda Angliya, AQSh, Kanada va boshqalarda qabul qilinadigan qonun.

**Bola** - 18 yoshga to'lmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha u ertaroq balog'atga yetmagan bo'lsa, bola hisoblanadi.

**Bolaning qonuniy vakili** - bolaning ota-onasi, farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylar hisoblanuvchi shaxs.

**Bola huquqlari** - jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetmagan, maxsus ravishda muhofaza va g'amxo'rlikka, binobarin, tug'ilguncha va tug'ilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj bolalarga taqdim etilayotgan alohida huquqlar, imtiyozlar va kafolatlarni qamrab oluvchi xalqaro va milliy huquqiy asos va mexanizmlarni o'z ichiga qamrab olgan inson huquqlari sohasi.

**Bola huquqlari bo'yicha xalqaro institutsional tizim** - o'z faoliyati doirasida bola huquqlari bo'yicha davlatlararo hamkorlik olib borishga ko'maklashuvchi hamda uni muvofiqlashtirib boruvchi, bevosita bola huquqlari bo'yicha xalqaro norma ijodkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar va organlarning tizimi.

**Vasiylik va homiylik** - ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, ularga ta'minot, tarbiya hamda ta'lim berish, shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli.

**Voyaga yetmagan shaxs** - o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs (odatda yoshi o'n to'rtidan o'n sakkizgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan ishlatiladi).

**Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi** — voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi;

**Gender-** jinsiy biologik farqni hamda jamiyat va davlat hayotida ularning rolini huquqiy va imkoniyatlar tengligi nuqtai nazaridan inobatga olish.

**Dilemma** (yunoncha di(s) ikki +lemma faraz)- ikki (ko'pincha noxush) imkoniyatlardan birini tanlash zararati.

**Yetim bola** - otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki ular sud qaroriga binoan vafot etgan deb e'lon qilingan bola.

**Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bola** - nogironlikni belgilash uchun yetarli bo'lmagan jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo'lgan bola hisoblanadi.

**Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar** - yuzaga kelgan holatlar sababli og'ir

turmush sharoitida qolgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya qilishga hamda qo'llab-quvatlashga muhtoj bolalar.

**Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmagan** — voyaga yetmaganning nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan yoxud uni ta'minlash, tarbiyalash va unga ta'lim berish talablariga javob bermaydigan sharoitda bo'lgan yoxud huquqbuzarlik yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etayotgan voyaga yetmagan shaxs.

**Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila** — ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan oila.

**Impulsiv-** qo'zg'atuvchining birinchi ta'siri bilanoq harakat qilishga moyillik.

**Intensiv** (lotincha intensio)- odatdagidan tez kuchli, ko'proq maxsulli.

**Interniv** (lotincha interims)- ichki, ichkariga oluvchi; 1) urushayotgan davlatning hududiga kirgan askarlarni ushlab va qurilsizlantirish; 2) urushayotgan davlatning qarshi davlat fuqarolarini urush tugaguncha ushlab va ozodlikdan mahrum qilish.

**Kanon-** (yunoncha kanon) qoida, majburiy talab.

**Kichik yoshdagi bola yoki yosh bola** - odatda o'n to'rt yoshga to'lmagan shaxs tushuniladi.

**Kodifikatsiya** (lotincha codificatio) - mamlakat qonunlarini huquqning ayrim sohalari bo'yicha jamlab yagona tizimga keltirish.

**Kombatantlar** (fransuzcha combatant)- xalqaro huquqqa binoan, urushuvchi davlatlarning qurolli kuchlari tarkibiga kiruvchi, dushmanga qarshi jang harakatlari olib borayotgan shaxslar.

**Kommentariy** (lotincha sharh) -biror matn yoki kitobni tushuntirib berish yoxud talqin qilish; unga tushuntiruvchi eslatma.

**Konvensiya** (lotincha conventio)- shartnoma, kelishuv bitim; biror maxsus masala, masalan, bola huquqlari to'g'risida xalqaro shartnoma.

**Kontekst** (lotincha kontekstus)- matndagi ayrim so'z yoki so'zlar birikmasining mazmuniga aniqlik kirituvchi qismi.

**Konsepsiya** (lotincha conceptio)- yondashuv 1) biror voqelikka oid qarashlar tizimi: ularga nazar tashlash, tushuntirish; 2) umumiy talqin (rassom, shoir, olim va b.)

**Konfidensial** (lotincha confidentio)- ishonib, sir saqlanishi sharti bilan, maxfiy.

**Konflikt** (lotincha conflictus)- bir- biriga zid manfaatlar, qarashlar, intilishlarning to'qnashuvi; murosasizlik, kelishmovchilik, nizo, chigallanish xavfi.

**Kriteriy** (yunoncha kriterion)- biror narsaga baho berish, aniqlash yoki tasniflash uchun asos bo'luvchi belgi, alomat.

**Kulminatsiya** (lotincha culmen)-cho'qqi, biror harakat, voqelikning rivojlanishida eng keskin payt.

## TEST.

- 1) Bola rivojlanishining Postnatal (tug'ilgandan keyingi ) davrida katta maktab yoshi necha yoshni tashkil etadi?
  - a) o'n ikki yoshdan, o'n yetti- o'n sakkiz yoshgacha.
  - b) o'n besh yoshdan , o'n sakkiz yoshgacha.
  - c) yeti yoshdan, o'n besh yoshgacha.
  - d) o'n yoshdan, o'n olti yoshgacha.
- 2) Balog'atga yetishning eng kichik yoshi qaysi hududda o'rnatilgan va necha yoshni tashkil etadi?
  - a) Ferrer orollarida o'rnatilgan 14yosh
  - b) O'zbekistonda o'rnatilgan 16 yosh
  - c) Janubiy Afrikaning ayrim hududlarida o'rnatilgan 12 yosh
  - d) O'zbekistonda o'rnatilgan 18 yosh.
- 3) O'zbekiston Respublikasida 2008- yil qanday nom bilan atalgan?
  - a) "Yoshlar yili".
  - b) "Barkamol avlod yili".
  - c) " Sog'lom oila yili".
  - d) " Qariyalarni qadrlash yili".
- 7) "Bola huquqlari " to'g'risida konvensiya qachon qabul qilingan?
  - a) 2008-yil
  - b) 2010- yil
  - c) 2015-yil
  - d) 2007-yil
- 8) O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va Homiylik" to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?
  - a) 2014-yil
  - b) 2018-yil
  - c) 2011-yil
  - d) 2009-yil
- 9) Qaysi holatda Prokuror bola huquqlarini himoya qilishda ishtirok etadi?
  - a) ota- onalik huquqidan mahrum etish bo'yicha ishlarda
  - b) Farzandlikka olish bo'yicha ishlarda
  - c) Bola jinoyatda qo'l ursa
  - d) Baecha javoblar to'g'ri
- 10) Necha yoshga to'lgan bolaning ismi yoki familiyasini o'zgartirishga faqat uning roziligi bilan amalga oshiriladi?
  - a) 10
  - b) 15
  - c) 9
  - d) 18
- 12) Necha yoshgacha bo'lgan bolalarning xususiy mulkka nisbatan huquqi mutlaq emas?
  - a) 14 yoshdan 18 yoshgacha
  - b) 10 yoshdan 15 yoshgacha

- c) 13yoshdan 16 yoshgacha  
d) 15 yoshdan 20 yoshgacha
- 15) Oila kodeksini nechanchi moddasiga binoan voyaga yetmagan bolalar o'z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda ta'minot olish huquqiga ega deb belgilab qo'yilgan?  
a) 90-modda  
b) 98-modda  
c) 65-modda  
d) 89-modda
- 17) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining nechanchi moddasiga binoan voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidir " deb belgilab qo'yilgan?  
a) 45-moddasi  
b) 48- moddasi  
c) 58-moddasi  
d) 55-moddasi
- 18) Oila kodeksi 67-moddasining 2-qismiga binoan, bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kim tomonidan amalga oshiriladi?  
a) ota-onasi (ularning o'rnini boquvchi shaxslar)  
b) yaqin qarindoshlari  
c) vasiylik va homiylik organi  
d) mahalla organlari
- 19) Ta'lim muassasalarida ta'lim berish tilidan foydalanish tartibi qaysi qonun bilan tartibga solinadi?  
a) "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun  
b) " Talim to'g'risidagi" Qonuni  
c) " Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"  
d) " Bola huquqlari to'g'risida"gi Qonun
- 20) Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada bolaning fikrini erkin ifodalash huquqi, axborot olish huquqi nechanchi moddada belgilab qo'yilgan?  
a) 13-modda  
b) 18-modda  
c) 10-modda  
d) 11-modda
- 21) **Siyosat** so'zining ma'nosi  
a) (arab. سياسة (siyasa) - *ot tarbiyalash, ot boqish*)  
b) ( gregcha (siyo)- stol, kursi)  
c) ( lotincha- maydon)  
d) ( inglizcha- harakat)
- 22) Siyosat o'z ta'sir etish ob'jektiga ko'ra nechaga bo'linadi?  
a) 2ga  
b) 4ga  
c) 3ga  
d) 5ga
- 23) Qanday huquq har bir bolaning uzviy huquqi hisoblanadi?

- a) Yashash huquqi
  - b) Ta'lim olish huquqi
  - c) Dam olish huquqi
  - d) ijtimoiy himoyadan foydalanish huquqi
- 25) Bolaning chet elga safarlari kimning roziligi asosida amalga oshiriladi?
- a) ota va onaning yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslarning roziligi bilan
  - b) qarimdoshlari roziligi bilan
  - c) mahalla organlari roziligi bilan
  - d) davlat organlari roziligi bilan
- 26) Necha yoshdan bola ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy ravishda rozilik berish yoki uni rad etish huquqiga ega?
- a) O'n to'rt yoshdan katta yoshdagi
  - b) o'n sakkiz yoshdan
  - c) o'n to'qqiz yoshdan
  - d) o'n yoshdan
- 27) Konstitutsiyaning nechanchi moddasi shaxsiy daxlsizlikni shaxsiy hayotga aralashishga yo'l qo'ymaslik bilan bog'laydi?
- a) 27-moddasi
  - b) 12-moddasi
  - c) 25-moddasi
  - d) 13-moddasi
- 28) "Bola huquqlari to'g'risidagi" Konvensiyaning nechanchi moddasida bolaning vijdon va din erkinligini himoya qilinadi?
- a) 14 – moddasi
  - b) 15-moddasi
  - c) 25-moddasi
  - d) 16- moddasi
- 30) O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni **nechanchi moddasida bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosati yoritilgan?**
- a) 4-moddasi
  - b) 8-moddasi
  - c) 13-moddasi
  - d) 41-moddasi

2-mavzu 2-qism

- 31) Nogiron aholi uchun davlatning minimal kafolatlari butun mamlakat bo'ylab minimal iste'mol standartlarining saqlanishini ta'minlash bo'yicha yagona siyosatni amalga oshirishni nazarda tutadi. Bunday siyosat nechta asosiy shakldan foydalaniladi?
- a) 3ta
  - b) 2ta
  - c) 8ta
  - d) 5ta

32) Qonunning nechanchi moddasida bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish uchun moliyalashtirishni ta'minlash zaruriyati aniq ko'rsatilgan?

- a)5-moddasida
- b)25-moddasida
- c)45-moddasida
- d)37-moddasida

37) Ta'lim va tarbiya sohasida keng ko'lamli tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. 2025-yilga borib, 3 — 7 yoshdagi bolalarning necha foizini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni nazarda tutuvchi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi hayotga joriy etilmoqda?

- a) 74,5 foizini
- b) 80,5 foizini
- c) 81 foizini
- d) 75 foizini

38)O'zbekiston hududida, mamlakatdagi o'rtacha umr ko'rish darajasi 2020-yilda necha yoshga yetdi?

- a) 74,6 yoshga
- b) 67,2 yosh
- c) 66yoshga
- d) 75yohga

39) “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi qonun qachon qabul qilingan?

- a) 2019-yilda
- b) 2020-yilda
- c) 2018-yilda
- d) 2015-yilda

40)Nechanchi yilda “Yangi O'zbekiston — yangi saylovlar” shiori ostida bo'lib o'tgan saylovlarda ilk bor 5 ta siyosiy partiya ishtirok etdi.

- a) 2019-yil 22-dekabrda
- b) 2020-yil 22-dekabrda
- c) 2018-yil 22-dekabrda
- d) 2015-yil 22-dekabrda

5- mavzu 1- qisn

41. Bola huquqlari Jeneva deklaratsiyasi qachon qabul qilingan?

- A) 1924 yil
- B) 1948yil
- C) 1954 yil
- D) 1925 yil

42. 1959 yil 20 noyabrda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan...

- A)Bola huquqlari deklaratsiyasi
- B) Jeneva deklaratsiyasi
- C) Bola huquqlari konvensiyasi



D) a va c javoblar to'g'ri

43. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga qo'shilish to'g'risida" 1992 yil 9 dekabrda ... sonli qarori.

- A) 757- XP
- B) 758- XP
- C) 756- XP
- D) 755- XP

44. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya nechanchi yilda qabul qilingan

- A) 1989 yil
- B) 1988 yil
- C) 1948 yil
- D) 1900 yil

45. Ushbu Konvensiyaning maqsadlari uchun 18 yoshga to'lmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha u ertaroq balog'atga yetmagan bo'lsa, bola hisoblanadi. Ushbu jumlar nechanchi moddada o'z aksini topgan

- a. 1 -modda
- b. 2- modda
- c. 3- modda
- d. 4- modda

52. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya nechta moddadan tashkil topgan

- A) 54 ta
- B) 55 ta
- C) 53 ta
- D) 52 ta

53. Kamsitish-

- A) yengish qiyin bo'lgan ijtimoiy hodisa hisoblanib, ijtimoiy turmushning barcha darajalarida barham berilishi lozim.
- B) Mol-mulkini o'g'irlash
- C) Bolaga tajovuz qilish
- D) Bolaga qasddan tan-jarohati yetkazish

54. Qisqa muddatda ro'yxatga olishning amaliy ahamiyati...

- A) bola ro'yxatga olinganidan keyin darhol qonun himoyasi ostida bo'ladi
- B) bolaga ism berish maqsadida
- C) Bolaga familiya berish maqsadida

D)B va c javoblar to'g'ri

55Cogito ergo sum” - “Fikrlayapman, demak yashayapman”degan ibora kimga tegishli

- A) Dekart
- B) Johnson
- C) Jan Jak Russo
- D) Tomas

56. Konvensiyaning 22- moddasi nimaga bag'ishlangan

- A)Qochoq bolalarning huquqlariga
- B)Yetim bolalar huquqlariga
- C) Bolalarni asrab olishga
- D) Nogiron bolalar huquqlariga

57. Bolaning eng muhim huquqlaridan biri

- A)Ilm olish huquqi
- B) saylash huquqi
- C)iqtisodiy huquqlari
- D) to'g'ri javob berilmagan

62. Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti....

- A) UNESCO
- B) UNICEF
- C) XMT
- D) JSST

64 . Bosh Assambleyasi.... Madaniyatlarni yaqinlashtirish yili deb e'lon qildi

- A)2010 -yilni
- B) 2011- yilni
- C) 2012- yilni
- D)2005- yilni

66.Xalqaro mehnat tashkiloti qaysi Shartnoma asosida 1919- yilda tashkil topgan

- A) Versal shartnomasi
- B) Ikki tomonlama shartnoma
- C) Kelishuv shartnomasi
- D) To'g'ri javob berilmagan

67. 1976- yilda BMT konferensiyasi tomonidan doimiy dastur ishlab chiqilgan. Bu dasturning asosiy vazifasi...

- A) ijod bilan shug'ullanuvchi shaxslarni har tomonlama rag'batlantirish, adabiy va badiiy asarlarni tarqatish, rivojlanayotgan davlatlarda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish hamda shu soha bilan shug'ullanayotgan tashkilotlar ishiga amaliy yordam berishdan iboratdir.
- B) Sport bilan shug'ullanish vazifalaridan iboratdir
- C) San'at bilan shug'ullanish vazifalaridan iboratdir
- D) B va c javoblar to'g'ri

68. BMT Ustavi San-Fransiskoda o'tkazilgan konferensiyada imzolangan bo'lib, ... yildan kuchga kirgan.

- A)1945
- B)1946
- C)1948
- D)1947

72.... BMT faoliyatidagi eng muhim muammo bo'lib, uning yechimining samarali yo'llarini izlab topishni hayotning o'zi taqozo qilmoqda.

- A) Inson huquqlarini himoya qilish
- B) Ayollar huquqini himoya qilish
- C) Bola huquqlarini himoya qilish
- D) Chet el fuqarolarining huquqlarini himoya qilish

73. BMT inson huquqlari va erkinliklari sohasida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- A)b,c,d javoblar to'g'ri
- B) inson huquqlari bo'yicha xalqaro-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- C) davlatlar tomonidan inson huquqlari borasidagi o'z majburiyatlarini bajarishlari yuzasidan nazorat olib borish;
- E) texnikaviy-gumanitar yordam bo'yicha axborotlar berish.

74. *Nizomiy mexanizmlar* -

A) BMT a'zo-davlatlarining hukumatlari vakillaridan iborat bo'lgan siyosiy organlar hisoblanadi.

- B) davlat rahbarlaridan iborat
- C) Tashqi ishlar vazirlaridan iborat
- D) to'g'ri javob berilmagan

75. Konvensiyaviy organlar muayyan xalqaro shartnoma asosida tuziladi va mazkur shartnoma qoidalarining bajarilishini nazorat qilib boradi. Aynan tashkil qilish asoslaridan kelib chiqib, ular "...

- A) shartnomaviy organlar",

“implementatsiyaviy organlar”, “konvensiyaviy organlar”

B)Jamoaviy organlar

C)Xalqaro organlar

D) huquqiy organlar

76. Xalqaro konvensiyalar asosida tashkil etilgan nazorat organlarining birinchisi –

A) Inson huquqlari bo'yicha qo'mita

B) Bola huquqlari bo'yicha qo'mita

C) A va b javoblar to'g'ri

D) To'g'ri javoblar berilmagan

77. .... davlatlar inson huquqlari sohasidagi asosiy shartnomalarni ratifikatsiya qilganlari yo'q va shuning uchun ham ular shartnomaviy organlarga ma'ruzalarni taqdim etish bo'yicha hech qanday majburiyatga ega emas

A)o'nlab

B)yuzlab

C)minglab

D)to'g'ri javob berilmagan

78. Qo'mitalarning vakolati BMT Nizomi asosida faoliyat yurituvchi organlarga qaraganda tor doirada olib boriladi. Chunki..

A) ular konvensiyalarga a'zo-davlatlar monitoringi bilan shug'ullanadilar va inson huquqlariga oid konvensiyalarning moddalariga aloqador masalalarni ko'rib chiqadilar, xolos.

B) E'tiborni kam qaratadilar

C) Ular konvensiyalarga a'zo davlatlar monitoringi bilan shug'ullanmaydilar

D) Kadrlar taqchiligi sababli

79. A'zo-mamlakatlar hisobotlari ko'rib chiqilgandan so'ng qo'mitalar o'z ishlarining xulosalarida, ... nomli yakuniy tavsiyalarini qabul qiladilar.

A) Xulosaviy kuzatish

B) Yakuniy kuzatish

C) Xotima

D) Xulosa

80. Barcha qo'mitalar o'z faoliyati bo'yicha ... hisobot heradi.

A) Bosh assambleyaga

B) Ma'lum bir boshqarmaga

C) Oliy komissarga

D) BMT ning bosh direktoriga

81. qo‘mitasiga esa, Nyu-Yorkda joylashgan Ayollar rivojlanishi bo‘yicha BMT bo‘limi (DAW) tomonidan xizmat ko‘rsatiladi.

- a. CEDAW
- b. DAW
- c. Maxsus qo'mita
- d. Barcha javoblar to'g'ri

9-mavzu

85. Davlatda bola huquqlari Nazorat organi sifatida qaysi vakillik organi shug‘ullanadi?

- a) proko‘ratura
- b) Vazirlar Mahkamasi
- c) Ichki ishlar vazirligi
- d) sog‘liqni saqlash

94. 1947-yilda - Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini ishlab chiqish paytida fransuz kim birinchi marotaba inson huquqlarini hukumat oldida himoya qilish uchun mas‘uliyatli bo‘lgan Bosh Attorney lavozimini tashkil etishni taklif qilgan edi, ammo ushbu taklif qo‘llab-quvvatlanmadi?

- a) Rene Kassen
- b) Jozef Kassen
- c) Xosse Ayyala
- d) Rene Lasso

95. Qachon Bosh Assambleya “Barcha inson huquqlarini rag‘batlantirish va himoya qilish bo‘yicha Oliy komissar” to‘g‘risidagi 48/141-sonli rezolyutsiyani qabul qilindi?

- a) 1993-yil 20-dekabrda
- b) 1994-yil 15-yanvar
- c) 1996-yil 19-aprel
- d) 1992-yil 7-oktabr

96. Bosh Assambleya 1994-yilda qabul qilgan rezolyutsiyaga muvofiq bunday lavozim ta‘sis etildi va dastlabki Oliy komissarlik lavozimi kimga nasib etdi?

- a) Xose Ayyala Lasso
- b) Jozef Kassen
- c) Rene Kassen
- d) Rene Lasso

97. 1997-yilning oxirlarida BMT Bosh Assambleyasiga kim ikkinchi Oliy komissar sifatida tasdiqlagan?

- a) Meri Robinson
- b) Jozef Kassen
- c) Rene Kassen
- d) Rene Lasso

98. 2008-yili tasdiqlangan kim beshinchi Oliy komissar hisoblanadi?

- a) Navanetxem Pillay
- b) Jozef Kassen
- c) Rene Kassen
- d) Meri Robinson

99. Inson huquqlari bo'yicha kengash qachon ta'ris etilgan?

- a) 1945
- b) 1946
- c) 1947
- d) 1950

100. Inson huquqlari bo'yicha kengashga nechta davlat a'zo?

- a) 53 ta
- b) 55 ta
- c) 60 ta
- d) 65 ta

101. Qachon Kamsitishlarning oldini olish va kam sonli millatlarni himoya etish bo'yicha kichik komissiya ta'ris etilgan?

- a) 1947
- b) 1950
- c) 1989
- d) 1999

102. Voyaga yetmagan shaxslar tarafidan sodir bo'lgan jinoyat, va ma'muriy ishlarni ko'ruvchi sud nima deb ataladi?

- a) yuvenal sud
- b) ma'muriy sud
- c) jinoyat sud
- d) inkassatsiya sudi

103. Qaysi sudning asosiy vazifalariga bolalarni himoya va rehabilitatsiya qilish kiradi?

- a) yuvenal sud
- b) ma'muriy sud
- c) jinoyat sud
- d) inkassatsiya sudi

104. Qaysi davlatda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha tashkil etilgan sudlarda, odam o'ldirishdan tashqari, og'ir jinoyatlarning barchasi, shuningdek daydilik, maktab qonun-qoidalarini buzish, uydan qochib ketish, qimor o'ynash va shu kabi mayda huquqbuzarliklar ko'rib chiqiladi?

- a) Angliyada
- b) Fransiyada
- c) O'zbekistonda
- d) Qozog'istonda

105. Voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha sud va sud protsessi Angliya va Uelsda nechanchi yilgi "Bolalar va yoshlar to'g'risida"gi qonunda belgilangan qoidalar bilan tartibga solinadi?

- a) 1933
- b) 1935

c)1936

d)1932

106. Angliyaning nechanchi yilgi "Politsiya va jinoyat dalillari to'g'risida"gi qonuniga muvofiq konstabl quyidagi asoslar mavjud bo'lganda, voyaga yetmagan shaxsni qamoqqa olishi mumkin?

a)1984

b)1965

c)1976

d)1997

114. «Ar-Riyod rahbariy prinsiplari» nomli hujjat qachon qabul qilingan?

a) 1990-yil 1-dekabrda

b)1994-yil 15-yanvar

c)1996-yil 19-aprel

d)1992-yil 7-oktabr

115. Xalqaro Mehnat Tashkiloti "Bolalar mehnatining eng yomon shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiyasi qachon qabul qilingan?

a)1999

b)1995

c)1996

d)1998

116. Xalqaro Mehnat Tashkiloti "Bolalar mehnatining eng yomon shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiyasini O'zbekiston qachon ratifikatsiya qilgan?

a)2008

b)2009

c)2006

d)2005

**123. Ota-onalik huquq va majburiyatlari necha turga bo'linadi?**

**a.2 b.3 c.4 d.to'g'ri javob yo'q**

**124.** «Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida»gi Qonun qachon qabul qilindi?

a.2008-yil 7-yanvar b.2009-yil 7-yanvar c.2007-yil 7-aprel d. TjY

125. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi nechinchi bo'lim va boblarni o'z ichiga oladi?

a.5-bo'lim, 11-13-boblar b.6-bo'lim 15-bo'lim c. TjY d.4-bo'lim, 9-bob

133. Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni necha bobdan iborat?

a.6bob b.5bob c.4bob d.8bob

134. Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni necha moddadan iborat?

a.27modda b.28 modda c.30 modda d. tjy

135. Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni qachon qabul qilingan?

a.2017-yil 15-avgust b.2019 -yil 15-noyabr c.2018-yil 7-avgust d. Tjy

136. Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni Senat tomonidan qachon maqullandi?

a.2017-yil 24-avgust b.2017-yil 15-avgust c.Tjy d.2017yil7avgust  
137"Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunining nechanchi moddasidan:.Bolalarning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotni tasniflash hamda axborot mahsulotining yoshga oid tasnifi keltirilgan.

a.24-modda b.25-modda c.tjy d.23-modda

138.Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuning maqsadi bu:

a. bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoyaqilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

b.Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

c.Tjy

d.Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

140. "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunining nechanchi moddasida: **Axborot mahsulotining ekspertizasi aytilgan.**

a.20-modda b.22-modda c.19-modda d.21modda .

141.axborot mahsulotini ekspertizadan o'tkazish va ekspert xulosasini berish yoki axborot mahsulotining yoshga oid tasnifini amalga oshirish uchun maxsus vakolatli davlat organida akkreditatsiyadan o'tgan shaxs bu ?

a.Ekspert b.**bolalar** c.bolaning sog'lig'i d.Tjy

142".Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunining nechanchi moddasida:**Axborot mahsulotini ekspertizadan o'tkazish aytib o'tilgan?**

**a.21-modda b. 20-modda c. 23-modda d.24-modda**

**143.....Millatlar Ligasi tomonidan qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi Jeneva deklaratsiyasi.**

**a1924-yil b.1922-yil c.1920-yil d.1921**

**144.Kim** tomonidan ishlab chiqilgan Bola huquqlari deklaratsiyasi 1924 yil 26 noyabrda Jenevadagi Millatlar Ligasi Beshinchi Assambleyasi tomonidan qabul qilingan.

a.Eglantin Jebb b. Yanush Korchak c.Gustav Adora b.Tjy

**145.Bola huquqlari to'g'risidagi Jeneva deklaratsiyasi asl nusxasi hozirda qayerda saqlanmoqda ?**

**a.Jeneva b.Parij c .Tjy d.Tokio**

**146. Fuqarolik va siyosiy huquqlar, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar haqida Paktlar qabul qilgan yilni ko'rsating?**

a.1996 b.1946. c. 1995. d. 1994

**147.Qullikni taqiqlash to'g'risidagi Deklaratsiya qachon qabul qilingan ?**

a.1815-yil b.1820 c.1822 d.1823

**148.Qullikka solish va qul savdosining barcha turlarini taqiqlaydigan Konvensiya qachon qabul qilingan?**



- a.1920-yil b.1919-yil c.1918- yil d.1921
- 149.Nechanchi yillarda ayollarni zinoga jalb etishni taqiqlaydigan Konvensiyalar qachon qabul qilindi?
- a.1904-1919 b.1903-1915 c.1909-1910 d.1908-1919
- 150.Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya eng universal hujjatlardan biri bo'lib, unga quydagilaridan qaysi biri kiradi?
- a.Somali va AQSh b.B.Britaniya c.Tjy d. Germaniya
- 151.Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga nechta davlat a'zo?
- a.191 b.195 c.19 d. 200dan ortiq
- 152.BMTning Inson Huquqlari Bo'yicha Qo'mitasi qachon tashkil etiladi.?
- a.1946 -yil b.1948-yil c.1949-yil d.1950-yil
- 153."Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt" O'zbekiston Respublikasi uchun qachondan kuchga kirgan?
- a .1995-yil 28-dekabr b.1995 avgust c.Tjy d.1995yil iyun
- 154.Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktga birinchi Fakultativ Protokol qachon BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan. ?
- a.1966-yil 16-dekabr b.1966-yil avgust c.1995-yil avgust d.Tjy
- 155.Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga birinchi Fakultativ Protokol necha moddadan iborat?
- a.14 b.15 c.17 d.18.
- 156.Qachon BMT Bosh Assambleyasi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktga ikkinchi Fakultativ protokolni qabul qildi. ?
- a.1989-yil 15-dekabr b.1989-yil avgust c.Tjy d. 1995-yil avgust
- 157.Bolalarning omon qolishi, himoyasi va rivojlanishini ta'minlash bo'yicha Butunjahon sammiti qachon Nyu-Yorkda Birlashgan Millatlar Tashkilotida bo'lib o'tdi?
- a.1990-yil 30-sentyabr b.1991-yil 30-sentyabr c.Tjy d.1995-yil dekabr
- 158.Bola huquqlari bo'yicha qo'mita Bola huquqlari bo'yicha konvensiyaning 43-moddasiga binoan qachon tashkil etilgan. ?
- a.1991-yil b.1998-yil c.1994-yil d.tjy
- 159.Bola huquqlari bo'yicha Konvensiyaning nechanchi moddasiga binoan, a'zo-davlatlar Qo'mitaga Konvensiyada tan olingan huquqlarni mustahkamlash yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida ma'ruzalar taqdim etishlari shart bo'ladi.?
- a.44-modda b.43-modda c.41-modda d.40-modda
160. Bola huquqlari bo'yicha qo'mita Bola huquqlari bo'yicha konvensiyaning nechanchi moddasiga binoan 1991-yilda tashkil etilgan. ?
- a.43 b.44 c.40 d.41
- 162.Bolalarning omon qolishi, himoyasi va rivojlanishini ta'minlash bo'yicha Butunjahon sammiti 1990 yil 30 sentyabrda qayerda bo'lib o'tti?
- a.Nyu-York b.Parij c. Jeneva d.Moskva
- 163.Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga ikkinchi

Fakultativ protokolning nechanchi moddasida "Ushbu protokolga a'zo-davlat yurisdiksiyasi ostidagi hech bir kishi o'lim jazosiga tortilmasligi kerak" deb qayd etib o'tilgan. ?

a1-modda b.2-modda c. 3-modda d.4-modda .

166."Ombudsman" so'zi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?

A."shvedcha"biror kishi manfaatlarining vakili.

B."inglizcha" ma'lum bir jismoniy shaxs manfaatlari vakili.

C."lotincha" shaxslar va birlashmalar huquqlarini himoya qiluvchi.

D.To'g'ri javob berilmagan.

167Ispaniyada ombudsman qaysi organ tomonidan necha yilga saylanadi?

A.Parlament tomonidan 5 yilga saylanadi.

B.Vazirlar Mahkamasi tomonidan 3 yilga saylanadi.

C.Vazirlar kengashi dekreti bilan 3 yilga saylanadi.

D.Prezident tomonidan 5 yilga tayinlanadi.

168.Ombudsman qanday faoliyatni amalga oshiradi?

A.Barcha javoblar to'g'ri.

B.Xususiy shaxslar va birlashmalarning inson huquqlariga rioya etishni nazorat qiladi.

C.Qonuniylik, samaradorlik, maqsadga muvofiqlik nuqtai nazaridan tekshirish olib boradi.

D.Nazoratni amalga oshiradi.

169.Dunyoda birinchi marta Ombudsman lavozimi 1709 yilda qayerda joriy qilingan?

A.Shvetsiyada

B.Fransiyada

C.Portugaliyada

D.Norvegiyada.

170.Ombudsman instituti tashkil etilishiga qarab necha turga bo'linadi va qaysilar?

A.2 turga.Parlament tomonidan saylanadigan klassik tipdagi va ijroiya hokimiyati organlari

tomonidan tayinlanadigan ombudsman.

B.3 turga.Senat tomonidan tayinlanadigan va sud hokimiyati organlari tomonidan tayinlanadigan hokimiyat.

C.2 turga.Senat tomonidan saylanadigan va sud hokimiyati organlari tomonidan tayinlanadigan hokimiyat.

D.3turga.Klassik tipdagi va ijroiya hokimiyati tomonidan saylanadigan hokimiyat.

171.O'zbekistondagi ombudsman tashkil etilishiga qarab qaysi turga kiradi?

A.Klassik

B.Ijroiya

C.Hokimiyat organlari tomonidan tayinlanadigan

D.To'g'ri javob berilmagan.

172.O'zbekiston Respublikasida Ombudsman faoliyatining huquqiy asoslari "Oliy Majlisning

inson huquqlari vakili to'g'risida" gi qonun qachon qabul qilingan?

A.1997-yil 24-aprel

B.1996-yil 24-sentabr

C.1997-yil 24-noyabr

D.1998-yil 24-iyul

173.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman)

lavozimi Birinchi prezidentimiz I.Karimov tashabbusi bilan nechanchi yilda tashkil etilgan?

A.1995-yil

B.1994-yil

C.1996-yil

D.1997-yil.

174.Ombudsman Fransiyada qaysi organ tomonidan tayinlanadi yoki saylanadi?

A.Vazirlar Kengashi.

B.Oliy Majlis.

C.Parlament.

D.Senat.

175.Ombudsman lavozimi hozirgi vaqtda nechta mamlakatda mavjud?

A.110 dan ortiq mamlakatda.

B.100 dan ortiq mamlakatda

C.80 ga yaqin mamlakatda

D.90 ga yaqin mamlakatlarda

176.Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi

doirasida nechta qonun qabul qilingan?

A.70 dan ortiq

B.60ga yaqin

C.40 ga yaqin

D.50ga yaqin

177. 2019-yilda mamlakatda uzoq vaqtdan beri yashab kelayotgan, lekin O'zbekiston fuqarosi degan huquqiy maqomga ega bo'la olmayotgan qancha fuqaro O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilingan?

A.5ming 868 nafar

B.6ming 750 nafar

C.4ming.350nafar

D.5ming 600nafar

178."Mehr" va "Mehr 2" insonparvarlik tadbirlari doirasida Yaqin Sharqdagi qurolli mojarolar maydonidan qancha nafar fuqaro qaytarib olib kelindi?

A.261 nafar

B.250 nafar

C.265 nafar

D.270 nafar

181. 2019-yilda Ombudsman huzurida qaysi institut joriy etildi.

A.Milliy preventiv mexanizmi

B.Milliy xavfsizlik mexanizmi

C. Ekspert guruhi

D. to'g'ri javob berilmagan.

182. Inson huquqlari sohasidagi xalqaro institut bilan hamkorlik yanada rivojlantirish

maqsadida Ombudsman 2019-yilda milliy huquqni himoya qilish muassasalari Global

Alyansining qayerda o'tkazilgan navbatdagi majlisida kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi?

A. Jenevada

B. Florensiyada

C. Italiyada

D. AQShda

183. O'zbekiston Respublikasida Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimi joriy etilgan bo'lib uning kotibiyat tuzilmasida bola huquqlarini ta'minlash faoliyati ko'maklashuvchi boshqaruv xodimlarining necha nafardan iborat sektori tuzilgan?

A. 2ta.

B. sektori tuzilmagan

C. 3ta

D. 4ta.

184. Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz to'g'risidagi nizom nechanchi yilda qabul qilingan?

A. 1996-yil 13-noyabr

B. 1997-yil 28-aprel

C. 1994-yil 12-avgust

D. 1995-yil 13-oktabr

185. 2019-yilda Ombudsman nomiga O'zbekiston Respublikasi, xorijiy davlat fuqarolari va ombudsmanlari va jamoat tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslardan murojaatlar kelib tushgan bo'lib shundan necha foizi inson va fuqaroning shaxsiy huquq va erkinliklariga doir?

A. 38,8%

B. 35%

C. 34,3%

D. 39%

186. "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'yektidir" deb

konstitutsiyamizning nechanchi moddasida keltirilgan?

A. 17-moddasi

B. 16-moddasi

C. 15-moddasi.

D. 18-modda

187. "O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi to'g'risidagi" qonun qachon qabul qilingan?

A. 2012-yil.

B. 2017-yil

C. 2014-yil

D.2006-yil

198. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1976-sonli qarori bilan “Bolajon”

respublika bolalar raqamli telekanalini nechanchi yilda tashkil etildi?

A.2013-yilda

B.2016-yilda

C.2014-yilda

D.2012-yilda

## MA'LUMOT-AXBOROT MATERIALLAR

### «Aqliy hujum» ning asosiy qoidalari:

- olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;
- istalgan g'oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlanti-rishga harakat qilinadi;
- muammo yechimidan uzoq g'oyalar ham qo'llab-quvvatlanadi; - barcha g'oyalar yoki ularning asosiy mag'zi (farazlari) qayd etish yo'li bilan yozib olinadi;
- «hujum»ni o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutilishi kerak.

### «Insert» texnikasining qoidalari:

1. Tekstni o'qib chiqing.
  2. Olingan ma'lumotni tizimlashtiring.
  3. Har bir qatorga qalam yordamida belgilar qo'ying.
- V - ma'lumotlar mavzuga oid bilimlarimga to'g'ri keladi.  
+ - yangi ma'lumotdir.  
- - olgan bilimlarimga to'g'ri kelmaydi.  
? - meni o'ylantirib qo'ydi, bu masala yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar kerak.

### «INSERT» jadvali

Javob variantlari    v       +       -       ?

V - bilaman.

- + - yangi ma'lumot.
- - bilganlarimga zid.
- ? - meni o'ylantirmoqda

### «Klaster» texnikasi

Klaster - fikrlarni tarmoqlanishi- bu pedagogik strategiya bo'lib, u talabalarning mavzuni chuqur o'rganishga yordam beradi. Talabalarda mavzuga talluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi. Bu usul biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval talabalarni fikrlash faoliyatini jonlantirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirishga undaydi. Klaster texnologiyasi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tayanch so'z beriladi;
2. Barcha talabalar shu so'z bo'yicha xayoliga kelgan hamma so'zlarni yozadilar.
3. Yozilgan so'zlardan bog'lanadiganlarini belgilaydi.
4. Tayanch so'zning mazmunini yoritadi.
5. Dars davomida o'rganilishi lozim bo'lgan muammolar talabalarga ma'lum qilinadi va ular dars davomida tushuntirib beriladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### 1.Rahbariy adabiyotlar:

- 1.1. Mirziyoyev SH. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 596 b.
- 1.2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. — Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – 488 b.
- 1.3. Mirziyoyev SH. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 512 b.
- 1.4. Mirziyoyev SH. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
- 1.5. Mirziyoev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.

### Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Pespublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 80 b.
2. Bolalarni himoya qilish. Parlament a’zolari uchun qo‘llanma. T.: YUNISEF, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006
3. Bola huquqlari. / Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik // Prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. -T.: TDYuI nashriyoti, 2008. - 240 bet.
4. Bolalarni himoya qilish. Parlament a’zolari uchun qo‘llanma. T.: YUNISEF, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006.
5. Bola huquqlari monitoringi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma /Mas’ul muharrir A.X.Saidov. -T.: Inson huquqlari bo‘yiyaa O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011.
6. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga sharhlar» / Mas’ul muharrir A.X.Saidov - Toshkent: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008 - 135 b.
7. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi /Mualliflar jamoasi: A.Saidov, F.Bakayeva, K.Arslanova va boshq. Mas’ul muharrir A.X.Saidov. -T.: “O‘zbekiston”, 2010.
8. Muminov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. -T.; JIDU, 2010.
9. Muminov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. 2 nashr. -T.; Adolat, 2013.
10. Muminov A., Tillabayev M. Bola huquqlari. Elektron darslik. -T.: JIDU, 2011.

### 2.Qo'shimcha adabiyotlar:

- 2.1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 1994 y., 22-sentabr. (Oliy Majlis Axborotnomasi, 1995 y., № 1, 1-m.).
- 2.2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. 1994 y., 22-sentabr. (Oliy Majlis Axborotnomasi, 1995 y., № 2, 4-m.).
- 2.3. O‘zbekiston Respublikasi kodekslari. T.: “Adolat”. 2014. – 1056 b.
- 2.4. Dunyo ombudsmanlari. To‘plam /Mas’ul muharrir S.Rashidova. - T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007

2.5. Bolalar g'ayriijtimoiy harakatlarining oldini olish borasidagi dolzarb vazifalar va ustuvor yo'nalishlar: (ilmiy-amaliy konferensiya materiallari) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya, BMT Bolalar fondining (UNICEF) O'zbekistondagi vakolatxonasi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining oliy o'quv kurslari; mas'ul muharrir T.A.Umarov. -T.: YURIST-MEDIA markazi, 2010. 378 b

2.6. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2008 yil 7 yanvar.

2.7. "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida" gi Xalqaro Pakt // Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar to'plami. Mas'ul muharrir Saidov A. - Toshkent: Adolat, 2004 yil.

### **3. Elektron kutubxona:**

3.1 [www.oress.uz](http://www.oress.uz)

3.2. [www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz)

3.3. [www.socialwork](http://www.socialwork)

3.4 <http://www.press-service.uz>.

3.5 <http://www.columbia.edu/cu/ssw/field/index.html>

3.6 <https://lex.uz/acts/-1297315>

3.7 <https://tergov.uz/uz/childs/konventsija-o-pravah-rebenka>

3.8 <https://lex.uz/docs/-20596>.

3.9 <https://lex.uz/docs/-3333797>

3.10 <https://www.ohchr.org/sites/default/files>

### **4. Xorijiy adabiyotlar**

4.1. Певцова Е.А. Права детей и молодежи в российском и зарубежном законодательстве: сравнительно-правовой подход. М.: Международный юридический институт, 2015. — 284 с.

4.2. Путеводитель по Европейской Конвенции о защите прав человека / Д. Гомиен. -Осло: Изд-во Совета Европы, 2000;

4.3. Пронин, А. А. Социально-правовая защита детства в России : монография / А. А. Пронин. - Москва, Берлин: Директ-Медиа, 2014. — 314 с. - Доступ с сайта Университетская библиотека онлайн. — Режим доступа: <http://biblioclub.ru/index.php.page=book&id=241954>.

4.4. Рабец, А. М. Ювенальное право Российской Федерации : учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры / А. М. Рабец. - 3-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2017. — 349 с. <http://www.biblionline.ru/book/11C93414-C3A7-4158-ACC1-CC25588192B7>.

4.5. Филатова, Е. В. Организация защиты прав детей [Электронный ресурс] : учеб.пособие для вузов / Е. В. Филатова, К. М. Грабчук. — Кемерово : Кемеровский государственный университет, 2011. — 150 с. - Доступ с сайта Университетская библиотека онлайн. - Режим доступа: <http://biblioclub.ru/index.DhD.Daee=book&id=232345>.